



H.YU.XOLIKULOVA

**MUSTAQILLIK YILLARIDA
O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-
IQTISODIY, SIYOSIY, MA'NAVIY-
MADANIY TARAQQIYOTI**

TOSHKENT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

X.YU.XOLIKULOVA

**MUSTAQILLIK YILLARIDA
O'ZBEKISTONNING
IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYOSIY,
MA'NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTI
(O'quv qo'llanma)**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan barcha bakalavriat yo'nalishlari talablari uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2021

338
X-42

UO'K: 338:004
KBK: 74.58.
X56

A56 **X.YU.Xolikulova. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. O'quv qo'llanma. (Mas'ul muharrir – t.f.d.prof. R.H.Murtazayeva) – [Matn] / T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. 252 bet.**

ISBN: 978-9943-7685-9-8

O'quv qo'llanmada mustaqillik yillarida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda erishilgan yutuqlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mustaqillik davri tarixiga oid yangicha metodologik, konseptual fikr va g'oyalari dasturilamal qilib olingan bo'lib, talabalarning O'zbekiston tarixining mustaqillik davri tarixini o'zlashtirishlariga va o'quv rejasida unga ajratilgan soatlarni to'laqonli bajarilishiga amaliy yordam beradi. Qo'llanmadan ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, talaba va o'quvchilar foydalanishlari mumkin.

UO'K: 338:004
KBK: 74.58.

Taqrizchilar:

A.A.Ermatov – *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «O'zbekiston tarixi» kafedrasida dotsenti, t.f.d.;*
F.A.Axmedshina – *JDFI «Tarix o'qitish Metodikasi kafedrasida professori, tarix fanlari doktori.*

ISBN: 978-9943-7685-9-8

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

BDVU
RESURSLAR KATLOGI
№ 3 70 800

KIRISH

“Oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur. Milliy o‘zligimizni anglash uchun Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini jonlantirish, gumanitar soha olimlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim”

Sh.M.Mirziyoyev

Mustaqillik yillari mohiyatan yurtimiz tarixida sharaflı va o‘ta mas‘uliyatli davrni tashkil etadi. Ayniqsa, so‘nggi ikki-uch yil davomida har birimizning hayotimizda, mamlakat taqdirida muhim va katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘zligimizni anglab, yurtimizni va shaxsiy hayotimizda sodir bo‘layotgan yangilanish jarayonlarini haqqoniy tahlil etmoqdamiz.

Tabiiyki, bunday ulkan o‘zgarishlar jarayoni barcha fanlar qatori tarix fani oldiga ham bir qator vazifalarni qo‘yadi. Bugungi kunda tarixchi mutaxassislar mustaqillikni mustahkamlashning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma‘naviy omillarini o‘rganish va uni tahlil qilish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirmoqlari lozim.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori kengash ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni yangi pog‘onaga ko‘tarish hamda bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biridir.

Qarorda Jamoatchilik kengashi oldiga O‘zbekistonning eng yangi tarixini tizimli, haqqoniy va xolis tarzda o‘rganishni tashkil

etish, yangi avlod ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish hamda mamlakatimizning dunyodagi o'rnini va rolini ko'rsatishga qaratilgan qator vazifalar qo'yilgan. Mazkur hujjatda ko'rsatilgan vazifalarni bir-birini to'ldiruvchi ikki yo'l orqali ro'yobga chiqarish lozim. Birinchi yo'l – yangi avlod ilmiy va o'quv adabiyotlarini yaratish. Ikkinchi yo'l – mavjud bilimlarni yoshlarga targ'ib etish va o'qitish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Milliy o'zligimizni anglash uchun Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini jonlantirish, gumanitar soha olimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim" deb ta'kidlagan edi. Davlatimiz rahbarining ushbu so'zlarida o'tmishga berilgan baho, albatta, xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan holi bo'lishi, xalqimizning boy tarixi, erishgan yutuqlarini bo'rttirish yoki kamsitishga hech kimning haqqi yo'qligi haqida yosh avlod qalbiga singdirish vazifasi belgilab berildi.

Mustaqillik davri tarixini o'rganish insonda milliy g'oyaning shakllanishida, siyosiy tafakkurning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu davrda O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini va uning bosqichlarini o'rganib chiqish undan to'g'ri saboq chiqarishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda sodir bo'lgan voqealar rivoji va mustaqillik davri yaxlit tarixini o'rganish ehtiyojidan kelib chiqqan holda ushbu qo'llanma yaratildi va unda quyidagilarga ahamiyat qaratildi:

1. "O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlashning siyosiy huquqiy asoslari" deb nomlangan ikkinchi mavzuda O'zbekistonda mustaqillik yillaridagi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tizimidagi islohotlar 1991-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davr bilan qamrab olingan bo'lib, unda

O‘zbekistonda Parlament taraqqiyotining Yangi bosqichlari, yangi tashkil qilingan vazirliklar strukturasi va sud-huquq tizimini isloh qilishga doir jarayonlar Harakatlar Strategiyasi doirasida ham qamrab olingan.

Qo‘llanmaning ikkinchi bo‘limida O‘zbekistondagi iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar va agrar sohadagi islohotlar yoritilgan.

Uchinchi bo‘limda, asosan, madaniy-ma’naviy sohadagi islohotlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, unda yurtimizda ta’lim sohasidagi so‘nggi islohotlar aks etgan. Xususan, Yoshlar ittifoqining va Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil topishi, oliy ta’lim sohasidagi islohotlar tizimli ravishda yoritilgan. Xususan, ushbu bo‘limda musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlarini rivojlantirish, yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish borasidagi islohotlar beshta tashabbus doirasida qamrab olingan.

To‘rtinchi bo‘limda O‘zbekistonning tashqi siyosatining 1991-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan davri tizimli ravishda ochib berilgan.

Beshinchi bo‘limda esa O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yuqori sur’atlar bilan rivojlantirish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportbop qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish borasidagi islohotlar yoritilgan.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi, yangi jamiyatga o‘tish davrida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi, O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash omillari, ma’naviy ruhiy-poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi hamda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish kabi masalalar “O‘zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi tarixi” mavzusiga oid o‘quv qo‘llanmada o‘z ifodasini topgan.

Ushbu o'quv qo'llanmada 2018-yilgacha mavzuga oid himoya qilingan ilmiy ishlar natijalaridan ham foydalanilgan. Bu o'z navbatida o'qituvchilarga so'nggi yillardagi ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishish imkonini beradi. Ushbu o'quv qo'llanma mustaqillik davri tarixiy jarayonlarini obyektiv yoritish va ularni zamonaviy tarixiy nuqtai nazar bilan baholash an'alarining ketma-ketligini baholash asosida talabalar tomonidan fanni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi.

1-BO'LIM: O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT QURISH VA FUQAROLIK JAMIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH.

1-BOB: O'ZBEKISTONNING DAVLAT MUSTAQILLIGINING E'LON QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI.

1.1. XX asrning so'nggi yillarida dunyoda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sari dastlabki qadamlar.

1.2. I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi. Siyosiy islohotlar.

1.1. XX asrning so'nggi yillarida dunyoda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sari dastlabki qadamlar.

XX asrning so'nggi yillariga kelib SSSR tarkibidagi respublikalar suverenitetini va inson huquqlarini poymol qilgan ma'muriy buyruqbozlik tizimi o'z davrini o'tab bo'lganligi yanada yaqqolroq namoyon bo'la boshladi. Bu hol o'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurashini tezlashtirib yubordi va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik demokratik davlat qurish asoslari shakllana boshladi.

I.A.Karimov xalq xohish-irodasini bajarib, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish ishiga boshchilik qildi. 1989-yil 28-oktyabrda Respublika Oliy Kengashida O'zbekistonning davlat tili haqida qonuni qabul qilindi. Respublikadagi barcha rasmiy hujjatlar

o'zbek tilida yuritiladigan bo'ldi. Ushbu qonunning qabul qilinishi mamlakatimizning mustaqillik sari tashlagan birinchi qadami bo'ldi¹.

90-yillarning boshlariga kelib O'zbekistonda xalqning mustaqillikka erishishidan iborat azaliy orzusini amalga oshirish bosh masala bo'lib qoldi. Mamlakatda shunday vaziyat vujudga keldiki, bir tomondan, biri-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli qarashlar shakllandi. Ikkinchi tomondan, o'sha davrdagi markaziy davlat rahbariyati mamlakat ichkarisidagi vaziyatni to'g'ri baholay olmadi, milliy respublikalarda mustaqillikka erishish tobora kuchayib borayotganining oldini ololmay qoldi.

1990-yil boshida O'zbekistonda boshqaruvning Prezidentlik shakli masalasi ko'tarildi. Respublikada boshqaruvning shunday shaklining joriy etilishi, avvalo, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalaridagi muammolarni hal qilish jarayonini tezlashtirishga ko'maklashish vositasi sifatida joriy qilindi. Eng muhimi, Prezident muassasining joriy etilishi respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o'tishni bildirar edi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'sha kezlari keng miqyosda tartib va intizomni, eng avvalo, boshqaruvning barcha darajalarida va jabhalarda ijro mexanizmini qayta qurishni tezlashtirish vazifalarini vaqtida hal etish, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi barcha muassasalarni nazorat qilish masalalari ham katta ahamiyat kasb etmoqda edi.

Shu obyektiv holatni hisobga olib, 1990-yil 24-martda O'zbekiston Oliy Sovetining birinchi sessiyasi O'zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi. Sessiya yakdillik bilan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekistonning Prezidenti etib saylash to'g'risida qaror qabul qildi. O'zbekistonda Prezident lavozimining ta'sis

¹ Ш. Йулдошев. Мустақил Ўзбекистоннинг биринчи Президенти. Халқ сузи. 1992 йил 5 январь, якшанба, 4-сон

etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo‘yilgan dadil qadamlaridan ikkinchisi edi².

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishida qo‘yilgan navbatdagi muhim qadam 1990-yil 20-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qo‘yildi. Sessiyada O‘zbekistonning “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qabul qilindi va uning kirish qismida quyidagicha yozib qo‘yildi:

“O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o‘zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an‘analari, har bir millatning taqdirini o‘zi belgilash huquqini ta‘minlashdan iborat oliy maqsad haqi, O‘zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas‘uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qiladi,”³. Sessiya qabul qilgan bu “Mustaqillik Deklaratsiyasi” xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi.

Shu kundan boshlab respublikada O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi. O‘zbekiston rahbariyati va xalqi mustaqillik sari dadil qadam qo‘yaverdi.

1991-yil 17-martda umumxalq referendumini o‘tkazildi. Referendumda O‘zbekiston xalqining mutlaq ko‘pchiligi O‘zbekistonni mustaqil respublika sifatida ko‘rish xohishi borligi namoyon qildi.

1991-yilga kelib O‘zbekistonda respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlari tayyorlash va qabul

² Холиқов Д. Мустақилликнинг дастлабки оидимлари. Халқ сузи. 24 апрель, 1992 йил. №220.

³ А. Раҳмонов. Олий Мажлис Қонунчилик палатаси Мудофаа ва хавфсизлик масалалари кумитаси раиси уринбосари. Мустақиллик декларацияси-истиклолимиз асоси. <http://uza.uz/oz/society/musta-illik-deklaratsiyasi-istilolimiz-asosi-19-06-2018>

qilish borasida dadil ishlar qilina boshlandi. Xususan, 1991-yil 15-fevralida O‘zbekiston Oliy Kengashi “O‘zbekistonning davlat ramzlari to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qildi⁴.

O‘zbekistonning suvereniteti uchun kurash, avvalo, respublikada qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilinishida, bundan tashqari, har bir qonun avvalgidek ittifoq qonuniga moslashtirib emas, balki respublika manfaatini ifoda etishi bilan ajralib tura boshladi.

80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib sobiq SSSR ning ijtimoiy-siyosiy holatida inqirozli holat tobora kuchaydi. Bu holat, ayniqsa, ko‘pchilik respublikalarning ittifoq tarkibidan chiqish, o‘z-o‘zini belgilash huquqini berish, markazning siyosiy-iqtisodiy, harbiy va tashqi siyosiy sohalaridagi rolini qayta ko‘rish kabi talablarning haqli ravishda qo‘yilishida aksini topdi. Lekin, markaziy rahbariyat xalqlar va ittifoqchi respublikalar siyosiy rahbariyatining chinakam mustaqillikka intilishi bilan hisoblashmadi. Bu munosabatni Markazning Boltiqbo‘yi respublikalarning ittifoq tarkibidan chiqib ketishi, O‘zbekistonda, keyinchalik esa boshqa respublikalarda ham prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi va bu respublikalar tomonidan suverenitet to‘g‘risidagi Deklaratsiyalarning qabul qilinishiga tish-tirnog‘i bilan qarshilik ko‘rsatganligida ham ko‘rish mumkin.

Lekin, baribir vujudga kelgan inqiroziy holatni to‘xtatib bo‘lmas edi. Shu sababdan ham, davlat yemirilishidan jiddiy xavotirga tushgan sobiq ittifoq rahbariyati 1990-yilning kuzida markaz va respublikalar o‘rtasidagi munosabatlarni yangi holatga o‘tkazish maqsadida muzokara jarayonini boshlashga majbur bo‘ldi⁵.

⁴ Муртазаева Р.Х. ва бошқалар. *Ўзбекистон тарихи. Дарслик.* – Т.: Янги аср авлоди, 2005

⁵ И.А. Каримов. *Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида.* – Тошкент: «Ўзбекистон», 2011

1990-yil oxirlariga kelib Boltiqbo‘yi mamlakatlari mustaqillik to‘g‘risidagi talablarni SSSR Oliy Kengashi majlisi va xalq deputatlari qurultoyiga ko‘ndalang qilib qo‘yganlaridan so‘ng Prezident M. Gorbachev bir guruhi deputatlar va rahbarlar bilan vaziyatni o‘rganish, aniqrog‘i, tazyiq qilish, ta‘sirini o‘tkazish maqsadida Boltiqbo‘yiga bordi. Guruhi tarkibida O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov ham bor edi. U yerda I.Karimov haqiqat bilan yuzma-yuz keldi va shunda juda katta qat‘iyat va favqulodda jur‘at bilan munosabatini bildirdi. Komissiya ishini yakunlamasdan oq Gorbachevni ham, uning manfaatlarini qo‘llab-quvvatlovchi guruhni ham tashlab, tezda orqaga qaytdi. Bu bilan u Boltiqbo‘yi xalqlarining talablari qonuniy ekanligi, mustaqillik SSSR tarkibidan chiqish-tarixiy haqiqat, inson haq-huquqlarining tantanasi ekanligini oshkora namoyon qildi. Haqiqatdan ham, ittifoq tarkibida turib hech qanday milliy ravnaq, ma‘naviy taraqqiyot to‘g‘risida gap bo‘lishi ham mumkin emas edi.

1991-yil avgust oyiga kelib butun mamlakatda voqealar shu darajada chuvalashib ketdiki, uning yechimini topish o‘ta mushkul bo‘lib qoldi. Shu vaziyatdan foydalanib 19-21-avgust kunlari Moskvada davlat to‘ntarishi qilishga urinib ko‘rildi. Favqulodda holat davlat qo‘mitasi tuzilib, SSSR Prezidenti M. Gorbachev zo‘ravonlik bilan vazifasidan chetlashtirildi⁶.

Ma‘lumki, mustaqillikka erishish ostonasida odamlarning ta‘minoti, daromadi, yashashi uchun zarur bo‘lgan kundalik mahsulotlarning eng kam miqdori, ortiqcha ishchi kuchining bandligi kabi masalalardagi ahvol og‘ir bo‘lgan. Buning asosiy sababi – bu yillarda har bir viloyat bo‘yicha aniq dasturlar, ichki rezervlar hisobidan ishni to‘g‘ri tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish, qancha miqdorda, kimga va qachon qo‘shimcha xom ashyo ajratish evaziga ahvolni yaxshilash

⁶ «Узбекистон Республикаси: мустикал давлатнинг бунёд булиши. Қ.А.Аҳмедовнинг умумий тахрири остида/. – Т.: «Узбекистон», 1992 – 50-бет.

imkoniyatlari to'g'risida amaliy tadbirlar bo'lmagan. Bu davrda yildan-yilga tobora keskinlashib kelayotgan asosiy ijtimoiy muammo – bu aholi o'rtasida ishsizlar sonining jadal ravishda o'sib borishi edi. Mamlakatimiz rahbari o'sha davrda vujudga kelgan ahvoldan chiqish yo'li sifatida quyidagilarni belgilab berdi:

a) ishlarning ahvoriga xolis baho berish, respublikadagi vaziyatni sog'lomlashtirishning konkret va aniq-puxta dasturini ishlab chiqish;

b) hayotning barcha sohalarida qat'iy tartib va intizom o'rnatish, rahbar kadrlarni joy-joyiga to'g'ri qo'yish, ularga nisbatan talabchanlikni oshirish.

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, harbiy xizmatchilar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida mustaqillikkacha bo'lgan davr bilan bog'liq bo'lgan tarixiy jarayonlarni falsafiy-mantiqiy tushunish, istiqloq tarixini anglash, tarixiy-siyosiy voqelik va hodisalarga tahliliy yondashish, ularning bosqichma-bosqich kurashlar evaziga qo'lga kiritilganini idrok etish masalalarga chuqur yondashish zarur edi⁷.

Ana shunday og'ir, sarosimali tahdid va taxminlar paytida O'zbekiston rahbariyati korxonalar va xo'jaliklarning rahbarlari, xalq noiblari, barcha sofdil kishilar, xalqni matonat va osoyishtalikka da'vat qildilar. Ayniqsa, Birinchi Prezident Islom Karimovning bo'layotgan voqealarga munosabati barchani qanoatlantirdi, uning xalqqa suyanligi u bilan dardlashganligi, xalq bilan hukumat o'rtasida sog'lom munosabatning vujudga kelishiga olib keldi.

Hindiston safaridan qaytgan O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov, 19-avgust kuni kechqurun Toshket shahrining faollari bilan bo'lgan uchrashuvda O'zbekiston nuqtai nazarini ma'lum qildi va Markazdan bildirilgan qonunga xilof bo'lgan har qanday ko'rsatmalarni respublika rahbariyati tomonidan bajarilishni man

⁷ Абдуллаев Рустамжон, иктисод фанлари доктори, академик. Ислон Каримов – узбек давлатининг асосчиси https://uz.fundamental-economic.uz/?page_id=466

etdi. 20-avgustda O‘zbekiston SSSR Oliy Kengashi Rayosati va O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining respublika rahbarlari ishtirokida qo‘shma majlisi bo‘ldi. Unda fitna munosabati bilan vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinib, O‘zbekistonning mustaqillikka erishish yo‘li o‘zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Unda O‘zbekiston Mustaqillik Deklaratsiya qoidalarini amalga oshirish yo‘lida boraveradi, deb ko‘rsatildi. O‘sha kuni O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqib, O‘zbekistonning mustaqilligiga erishish yo‘li qat‘iy ekanligini yana bir bor alohida uqtirdi.

Shunday og‘ir sharoitda, tarixiy vaziyatni to‘g‘ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O‘zbekiston Mustaqilligi haqida qonun qabul qilishni talab qildi. Respublika Oliy Kengashi 1991-yil 26-avgust kuni O‘zbekiston davlat mustaqilligi to‘g‘risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31-avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

1991-yilning 31-avgustida O‘zbekiston zamonaviy tarixining yangi davri boshlandi. Shu kuni Oliy Kengashning navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida” Qaror qabul qildi⁸, tegishli bayonot bilan chiqdi va “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunni tasdiqladi. Mamlakat taqdiri hal bo‘lgan bu hujjatlarda xalqning asriy orzulari mujassamlandi: u o‘z taqdirini o‘zi hal qiladigan bo‘ldi;

O‘z yeridagi barcha tabiiy boyliklarning, ota-bobolari mehnati bilan yaratilgan butun ishlab chiqarish va ilmiy-texnik kuch qudratning to‘la huquqli egasiga aylandi;

Buyuk tarixi va madaniyatining munosib vorisi, buyuk ajdodlarning urf-odatları va insonparvar an‘analarning davomchisi, porloq kelajagining mustaqil ijodkori bo‘ldi;

⁸ Қонуннинг матни буйича қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991 й., 11-сон, 246-модда.

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida”gi qarorda 1-sentyabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e‘lon qilinsin”,⁹ – deb qat‘iy belgilab qo‘yildi.

2. I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi. Siyosiy islohotlar

O‘zbekiston mustaqillik tomon yo‘l tutar ekan, 1989-yilning yoz oylari va 1990-yil bahorida O‘zbekiston hayotida uning rahbarligida burilish davri bo‘ldi. Xuddi shu paytlarda o‘zbek xalqining taqdirini hal qiladigan taraqqiyot yo‘llari ishlab chiqildi. Xususan, O‘zbekistonning demokratik yo‘lda rivojlanishi bosh strategik maqsad qilib belgilandi. Ana shu yo‘lning boshida, 1989-yil iyunidan O‘zbekistonning rahbari, 1990-yil martidan O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti sifatida Islom Abdug‘aniyevich Karimov turdi.

1991-yil 29-dekabrda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasining referendumida 9 million 898 ming 707 kishi yoki saylov ro‘yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqil davlat deb e‘lon qilinishini yoqlab 9 million 718 ming 155 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi ovoz berdi. Demak, O‘zbekistonning Davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan yakdillik bilan ma‘qullandi. Xuddi shu yilning 29-dekabrda xalqimiz birinchi marta umumxalq xohish-irodasi bilan mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi.

O‘zbekiston Prezidenti saylovi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonun asosida o‘tkazildi. Bu saylovning muhim tomoni shuki, u birinchi marta

⁹ Уша маъба.

muqobillik asosida o‘tdi. Ya’ni Oliy lavozimga ikki nomzod – O‘zbekiston XDP va O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiya nomzodi I.A.Karimov va “Erk” Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solix) nomzodi qo‘yildi.

Saylovlar yakuniga ko‘ra 8 million 514 ming 136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning (86%) I.A.Karimov nomzodini, 1million 220 ming saylovchi (12,3 %) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risidagi qonunning 35-moddasiga asoslanib Islom Abdug‘aniyevich Karimovni 1991-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi. I.A.Karimov O‘zbekiston Kengashining 1992-yil 4-yanvarda bo‘lgan navbatdan tashqari IX sessiyasida qasamyod qildi. 1995-yil 26-martda umumxalq ovozi (referendumi) bilan I.Karimovning Prezidentlik vakolati 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirildi. O‘tkazilgan referendum mamlakat hayotida katta siyosiy – ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

2000-yil 9-yanvarda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yana bir unitilmas tarixiy voqea bo‘lib o‘tdi. 11-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi 2000-yil 9-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Prezidenti saylovi natijalariga bag‘ishlandi¹⁰.

Majlisda qayd etilganidek, 2000-yil 9-yanvari mustaqil O‘zbekistonimiz tarixida asrlar tutashgan paytda sodir bo‘lgan, davlatimizning XXI asrdagi hayotiga va taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan muhim siyosiy voqea sifatida muhrlanib qoldi. O‘zbekiston fuqarolarining aksariyati Islom Karimov nomzodi uchun ovoz berdi. Bo‘lib o‘tgan saylovning ahamiyati uning muqobillik va demokratik tamoyillar asosida o‘tganligidadir.

¹⁰ Мургазасва Р.Х. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. - Т.: Янги аср авлоди, 2005

Saylovchilarga tanlash imkoniyati berildi va ular xohish-irodasiga binoan, o'zi tanlagan nomzod uchun ovoz berdi. Shak-shubhasiz, bu hol jamiyatimizda siyosiy fikrlar xilma-xilligi va qarashlarining turlicha bo'lishi uchun katta turtki berdi, davlatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotining yanada erkinlashtirishiga zamin hozirladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov Komissiyasining okrug saylov komissiyalaridan kelgan bayonnomalar asosida 9 yanvarda bo'lib o'tgan saylovda ro'yxatga olingan 12 million 746 ming 903 saylovchidan, 12 million 123 ming 199 saylovchi ishtirok etganligini, bu esa ro'yxatga olingan saylovchilarning umumiy miqdorining 95,1 foizini tashkil etishini ma'lum qildi. Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan I.A.Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi yoki saylovchilarning 91,9 foizi ovoz berdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi yoki 4,17 foiz saylochi ovoz berdi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunining 35-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to'g'risida qaror qabul qildi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritishidan ancha oldin respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlarini tayyorlash va qabul qilish ishlari boshlab yuborilgan edi. Xususan, 1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi "O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrda bo'lib o'tgan VIII sessiyasi "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida" qonun qabul qildi. O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i va uning ramzi bizning mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat

qudratli saltanatlar bayrog‘iga xos bo‘lgan eng yaxshi an‘analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni, xalqimiz milliy va madaniy sohalaridagi o‘zligini aks ettiradi. Mamlakatimiz Davlat bayrog‘i yurtimizning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ramzidir¹¹.

1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma‘noga ega.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrda bo‘lib o‘tgan XI sessiyasi tomonidan O‘zbekiston birinchi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat tarixida olamshumul voqea bo‘ldi.

Ushbu sessiyada «O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi Qonun ham qabul qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burxonov tomonidan tayyorlangan madhiya nusxasi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Prezidentining 1994-yil 16-iyunidagi Farmoniga muvofiq, 1994-yilning 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘m muomalaga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari to‘g‘risida Birinchi Prezident I.Karimov: – “Milliy valyuta, bayroq, gerb, madhiya, Konstitutsiya kabi davlat va xalqning ramzi, mustaqillikning muqaddas belgisidir!” – dedi¹².

Har qanday mustaqil davlatlarning huquqiy asosi – bu uning asosiy Qonuni – Konstitutsiyasidir. Har qanday jamiyat kelajakni ko‘zlab yashaydi va uning poydevorini imkon qadar mustahkamroq ko‘rishga harakat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, davlatimiz, jamiyatimiz erishgan buyuk yutuq – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo‘ldi.

¹¹ Жураев Нарзулло. Узбекистон тарих: (Миллий истиқлол даври) 3-китоб /Масъул муҳаррир Н. Абдуазимова. – 1.: “Шарк”, 2011 – 30-31-б.

¹² И.А. Каримов. Узбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Тошкент:«Узбекистон», 2011. 220-221 бетлар.

O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi 1990-yil 20-iyunida Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi munosabati bilan o‘rtaga qo‘yilgan edi. Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida Mustaqillik Deklaratsiyasining muhim tamoyillari asosida davlatning yangi Konstitutsiyasi ishlab chiqilishi lozim degan xulosaga kelindi. Sessiya Birinchi Prezident I.A.Karimov raisligida Konstitutsiyaviy Komissiya tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Konstitutsiyaviy komissiya ma‘qullagan Konstitutsiya loyihasining birinchi varianti 1991-yil noyabrda tayyorlab bo‘lindi. Ushbu variant muqaddima, olti bo‘lim, 158 moddadan iborat edi. Konstitutsiya loyihasining ikkinchi varianti 1992-yil bahoriga kelib ishlab chiqildi Bu variant 149 moddadan iborat edi. Puxta ishlovlardan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi 1992-yil 26-sentyabrda Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e‘lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi va u 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat qilib belgilandi.

Konstitutsiyaning eng muhim mohiyati shundan iboratki, unda “davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat hamda fuqarolar oldida mas’uldirlar” deyilgan¹³, Ya’ni fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan. Sobiq totalitar tuzum sharoitida bunday fikrni hech kim xayoliga ham keltira olmas edi.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi asosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan buyuk voqea bo‘ldi.

Birinchi Prezident I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki kuni-dan boshlab yangi jamiyatga mos siyosiy islohotlar o‘tkazish yo‘llarini oqilona ko‘rsatibgina qolmay, ayni paytda jamiyatning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish tamoyillarini ishlab chiqdi, uni

¹³ ‘‘ Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2015.

izchil amalga oshirish chora-tadbirlarini ko'rdi. Jahon tajribasi, O'zbekistonning milliy xususiyatlari, imkoniyatlari va shart-sharoitlari asosida taraqqiyotning "O'zbek modeli" ishlab chiqildi.

Shunday qilib, XX asr 90-yillarning boshlariga kelib O'zbekiston xalqi tarixida misli ko'rilmagan tarixiy voqea yuz berdi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi. Dunyo xaritasida 1991-yil 1-sentyabrdan boshlab yana bitta mustaqil, to'la huquqli suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

Tayanch tushunchalar:

«Davlat tili to'g'risida»gi Qonun, Prezidentlik lavozimining ta'sis etilishi, Mustaqillik deklaratsiya SSSR ning tanazzulga yuz tutishi, O'zbekiston Respublikasining «davlat mustaqilligi to'g'risida» gi Qonun, Prezident saylovlari, O'zbekiston Konstitutsiyasi, Davlat ramzlari.

Tekshiruv savollari:

1. Mustaqillik uchun tashlangan eng birinchi qadam qaysi edi?
2. "Mustaqillik deklaratsiyasi" qachon qabul qilindi?
3. O'zbekistonda Prezidentlik lavozimi qachon joriy qilindi va kim birinchi Prezident etib tayinlandi?
4. O'zbekistonning davlat ramzlarini sanab bering.
5. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi qachon qabul qilindi?
6. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish qanday tamoyil-larga asoslanadi ?
7. "Demokratiya", "demokratik davlat" deganda nimalarni tushunasiz?
8. O'zbekistonda Konstitutsiyaga asosan davlat hokimiyati nechta qismlarga bo'linadi?.
9. Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining tub islohotlarning ikkinchi bosqichi qachon boshlangan va uning xususiyatlari nimadan iborat?
10. Mamlakatimizda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish-ning tamoyillari va ustuvor yo'nalishlari nimadan iborat?

2-BOB: O‘ZBEKISTONNING DAVLAT MUSTAQILLIGINI MUSTAHKAMLASHNING SIYOSIY – HUQUQIY ASOSLARI.

2.1. Ko‘ppartiyaviylik tizimiga asos solinishi. O‘zbekiston parlamenti. Ikki palatali parlament.

2.2. Vazirlar Mahkamasi, uning ijro etuvchi hokimiyatning muhim bo‘g‘ini sifatidagi o‘rni. Xalq xo‘jaligi tizimi boshqaruvidagi islohotlar.

2.3. Sud hokimiyati islohotlari. Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

2.1. Ko‘ppartiyaviylik tizimiga asos solinishi. O‘zbekiston parlamenti. Ikki palatali parlament.

Sobiq SSSR ning parchalanishi va yangi mustaqil davlatlarning vujudga kelishi Sobiq sovet respublikalari qatori O‘zbekiston Respublikasi oldiga ham yangi huquq tizimini shakllantirish, davlat hokimiyatini qaytadan tuzish, hokimiyatning oliy qonun chiqaruvchi organini tashkil etish va mazkur organ faoliyatining demokratik prinsiplarini shakllantirish muammosini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi butun davlat va jamiyatni yangi asoslarda qayta qurish, parlamentarizm tamoyillarini shakllantirish va rivojlantirishning negiziga aylandi¹⁴.

Parlamentarizm prinsiplari asosida faoliyat ko‘rsatuvchi davlat institutlari bilan bog‘liq masalalar O‘zbekistonda huquqiy davlatchilikning qaror topishiga taalluqli muammolar silsilasida muhim o‘rin tutadi. Chunki XXI asrning boshlariga kelib oddiy bir haqiqat – to‘la vakolatga ega bo‘lgan parlamentsiz mamlakatda

¹⁴ Мухаммеджонов О.З. Узбекистон Республикасида икки палатали парламент фаолиятининг ташкилий-хукукий асосларини шакллантириш. Дисс. юридик фанлари доктори. –Тошкент: 2004.6-бет.

to'laqonli demokratiya bo'lishi mumkin emasligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Binobarin, fuqarolar demokratiya to'g'risidagi tasavvurlarini, avvalo, davlatni idora etishda o'zlari ishtirok etishlarining real imkoniyati bilan, qolaversa, parlament orqali qonun ijodkorligi jarayoniga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatlari bilan bog'laydilar¹⁵.

O'zbekiston qonun chiqaruvchi oliy organining qaror topishi o'ziga xos jihatlariga ega. Bu avvalo tarixiy o'tmishga bog'liq. Milliy o'zlik davlat qurilishining turli shakl va usullarini nazarda tutadi. Shunday qurilishning tanlab olingan muayyan usuli esa milliy-tarixiy o'ziga xoslik bilan umumjahon tamoyillarining sintezidir. Zero, har qanday ijtimoiy voqelikni anglash uchun birinchi navbatda u muayyan tarixiy bosqichning konkret sharoitlarida qay tarzda yuzaga kelganligini, o'z taraqqiyotida qaysi asosiy bosqichlardan o'tganligini, ana shu rivojlanish jarayonida qay darajada o'zgarganligini, istiqbolda uning qay tarzda harakat qilishini anglab olish muhim ekanligi bejiz emas. Ana shu qoidalar har qanday ijtimoiy voqelikni, shu jumladan, parlament singari muhim institut masalasini ko'rib chiqishda alohida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, amaliyotning dalolat berishicha, parlamentarizmning qaror topishi o'ta murakkab, ba'zan esa mashaqqatli jarayondir¹⁶.

Unda tarixiy davrning o'ziga xos jihatleri, har bir alohida mamlakatning ijtimoiy va davlat hayoti, milliy an'analari, xalqning huquqiy madaniyati va siyosiy xohish-irodasi namoyon bo'ladi. Tabiiyki, ijtimoiy amaliyotning rivoji, tarixiy taraqqiyotning kechishi mamlakat qonun chiqaruvchi organi to'g'risidagi nazariy tasavvurlarni ham o'zgartirib boradi.

O'zbekiston 1991-yil 1-sentyabrda davlat mustaqilligiga erishgach, davlat hokimiyatining eng muhim institutlaridan biri

¹⁵ <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-287438-1.html?page=8>

¹⁶ Парламент тарихи. <http://parliament.gov.uz/uz/about/history/index.php>

sifatida milliy parlamentni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e'tirof etilgan uchta asosiy davrga bo'linadi. *Birinchi davr: 1991-1994-yillar, ikkinchisi: 1995-2004 yillar, uchinchi davr: 2005-yildan hozirgi paytgacha.*

Birinchi davr: 1991-1994 yillar

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati Konstitutsiyaning V bo'lim XVIII bobida va 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Oliy Majlisi to'g'risida"gi Qonunda belgilangan.

Bu qonunlarga ko'ra, Oliy Majlis Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Sobiq ittifoqdan qolgan qonunlarni o'zgartirish, mamlakat hayoti uchun zarur o'zgartirishlarni amalga oshirish, demokratik tamoyillar asosida Oliy Majlisni shakllantirish uchun 1994-yil 25-dekabrda saylovlar belgilandi.

1993-yilning 28-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida»gi Qonunga ko'ra respublika parlamentiga saylovlar umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi I chaqiriq Oliy Majlisiga saylov respublikamiz siyosiy hayotida ulkan yutuq bo'lib, bunda 250 deputatdan iborat Oliy Majlis – yangi Parlament demokratik va ko'ppartiyaviylik asosida tuzildi¹⁷.

Ikkinchi davr: 1995-2004 yillar

Oliy Kengash o'rniga O'zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti – Oliy Majlis shakllantirildi. Birinchi chaqiriq (1995-1999-yillar) Oliy Majlis tarkibida O'zbekiston Xalq-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan 69 nafar, «Adolat» sotsial-

¹⁷ Мургазаева Р.Х. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. – Т.: Янги аср авлуди. 2005

demokratik partiyasidan 47, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 14 va «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan ko'rsatilgan 7 nafar deputat bo'lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko'rsatilgan shaxslar tashkil etdi¹⁸.

Ikkinchi chaqiriq (2000-2004-yillar) Oliy Majlisga saylov hokimiyat vakillik organlari bilan bir qatorda beshta siyosiy partiya va saylovchilar tashabbuskor guruhleri ishtirokida bo'lib o'tdi¹⁹. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisda 11 nafar deputatni birlashtirgan «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi, 10 nafar deputatdan iborat «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi, 20 nafar deputatga ega bo'lgan «Vatan taraqqiyoti» partiyasi fraksiyasi, 34 nafar deputat tashkil etgan Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi fraksiyasi, 49 nafar deputatdan iborat Xalq-demokratik partiyasi fraksiyasi, 107 nafar kishidan iborat hokimiyat vakillik organlaridan saylangan deputatlar bloki va 16 nafar saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bloki ro'yxatga olindi. Keyinchalik «Vatan taraqqiyoti» va «Fidokorlar» partiyalari bitta «Fidokorlar» partiyasiga birlashganligi munosabati bilan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida ularning parlamentdagi fraksiyalari a'zolari ham birlashib, 54 nafar deputatni birlashtirgan bitta fraksiyani tashkil etdilar.

Oliy Majlisning mazkur birinchi sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasida deputatlar maqomi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Oliy Majlis raisi rahbarligida “Oliy Majlis qo‘mitalari va komissiyalari to‘g‘risidagi nizom qabul qilindi”²⁰.

* Найимов О.М. парламентларало ҳамкорлик халқаро майдонда Ўзбекистон Республикасининг миллий манфаатларини илгари суриш ва амалга ошириш воситаси сифатида. Сиесий фанлар буйича фалсафа доктори диссертацияси. – Тошкент: 2018.

¹ Мусаева М.Н. Жамиятни демократлаштиришда икки палатали парламентнинг аҳамияти.дисс...сиесий фанлар номзоди. –Тошкент: 2007

■ Шамсутдинов Р., Муминов Х. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: 2013.

Ushbu bosqichda qonun ijodkorligida deputatlar mas'uliyati oshirildi va ular faoliyatining bosh yo'nalishiga aylandi. 1995-yildan 2004-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida Oliy Majlis 240 ta qonun, 778 ta qaror qabul qildi, amaldagi qonun hujjatlariga 1573 ta o'zgartish va qo'shimcha kiritdi, 130 tadan ziyod xalqaro shartnoma va bitimni ratifikatsiya qildi.

Yuqorida qayd etilgan raqamlardan ko'rinib turibdiki, respublika parlamenti bir palatali bo'lsa-da, qonun chiqarish jarayoni ancha jadallik bilan bordi. Mamlakatning qonun chiqaruvchi oliy organi mazkur bosqichda davlat suverenitetini, fuqarolar tinchligi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga, jamiyatda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga ko'maklashadigan qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishga intildi. Natijada parlament mamlakatning demokratik va taraqqiyot yo'lidan mustaqil rivojlanib borishining huquqiy negizini anchagina kengaytirdi va mustahkamladi. Misol uchun, birinchi chaqiriq Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi, «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida»gi, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunlarda, boshqa qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida asos solingan normalar yanada rivojlantirildi.

Uchinchi davr.

Istiqlolning dastlabki yillari mustaqillikni mustahkamlashga sarflangan bo'lsa, bu vazifa asosan ado etilgach davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish sari odim tashlandi. Navbatdagi yangilanish – O'zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirish bilan bog'liq islohotlarning kun tartibiga qo'yilishi tasodif emas, zaruratdir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: "Ikki palatali parlamentga o'tishdan asosiy maqsad – parlamentning hayotimizdagi o'rnini oshirish, qonunchilki hokimiyatini kuchaytirishdir. Negaki,

bunda parlamentimiz faoliyati yangi bosqichga ko'tariladi, uning vakolatlari ancha kengayadi²¹.

O'zbekistonda barpo etilajak parlamentning faoliyati professional asosga quriladi. Ya'ni, qonunlarni tayyorlash va qabul qilish bilan shug'ullanadigan quyi palata malakali yuristlar, iqtisodchilar, siyosatshunoslardan iborat bo'ladi²².

Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005-yil 28-yanvardagi qo'shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o'z ishlariga kirishdilar.

2000-yil 25-may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish g'oyasi ilgari surildi. 2001-yil 6-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi 2002-yil 27-yanvar kuni quyidagi masallar yuzasidan referendum o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi: 1) keyingi chaqiriqda ikki palatali parlamentni saylash to'g'risida; 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlarining konstitutsiyaviy muddatini besh yildan yetti yilga o'zgartirish to'g'risida. Referendum natijasida O'zbekiston xalqi umuxalq e'tiboriga havola etilgan har ikkala masalaning ijobiy hal etilishini ma'qullab ovoz berdi²³.

2002-yil 4-5-aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII sessiyasida «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Bu qonunda respublika parlamentining nomi Oliy Majlis

²¹ Ислом Каримовнинг референдум куни сайлов участкасида берган интервьюсидан. 2002 йил 27 январь. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Мағбуот хизмати жорий архиви, 2002 йил учун ҳужжатлар туплами, 21-22-бетлар

²² Қудратхужаев Ш.Т. Ўзбекистон профессионал парламент тизимининг сиёсий истегиут сифатида шаклланиши ва ривожланиши истиқболлари. Дисс... сиёсий фанлари номзоди. -Тошкент: 2005.

²³ Мухаммеджонов О.З. Ўзбекистон Республикасида икки палатали парламент фаолиятининг тапқилий-ҳуқуқий асосларини шакллантириш. Дисс. юридик фанлари доктори. -Тошкент: 2004.6-бет.

Umuman olganda, mamlakatda ikki palatali professional parlament faoliyatining dastlabki besh yilida parlament nazoratiga doir huquqiy asoslar rivojlantirildi, parlament nazoratining yangi, zamonaviy shakl va usullari qoʻllana boshlandi. Mazkur davr oʻziga xos tarzda huquqiy davlatga mos boʻlgan parlament nazoratiga oid faoliyat yuritishni oʻrganish, bu sohada rivojlangan mamlakatlar va milliy tajribalarni uygʻunlashtirish davri boʻldi. Dastlab parlament nazoratining cheklangan usullari qoʻllanilgan boʻlsa, 2009-yildan boshlab parlament nazoratining bevosita hukumat faoliyatining qonunlar va davlat byudjetining ijrosi boʻyicha toʻlaqonli nazorat qilish salohiyati shakllandi. Toʻrtinchi davrga 2011-2016-yillar kiradi. 2010-yil 12-noyabrdagi Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da Konstitutsiyaning bir nechta moddalariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish taklifi ilgari surildi. Bu parlament nazorati institutining huquqiy va siyosiy ahamiyatini oshirib, 2011-yildan boshlab Bosh vazir, uning oʻrinbosarlari, vazirlar va davlat qoʻmitalari raislarining bevosita axborotlari va hisobotlarini parlament nazorati tariqasida eshitish qoidalari qoʻllanila boshlandi. Qonunchilik palatasi sessiyalarida barcha partiyalar fraksiyalari vakillari parlament soʻrovlari bilan murojaat etishi parlament soʻrovi tariqasidagi nazoratning takomillashuvi va demokratlashuviga olib keldi. Bu davrda Senatning ham parlament nazoratini amalga oshirish sohasidagi faoliyati takomillashdi. Ayniqsa, 2016-yilning 11-aprelidan boshlab kuchga kirgan Oʻzbekiston Respublikasining «Parlament nazorati toʻgʻrisida»gi Qonun parlament nazoratini amalga oshirish uchun barcha zarur boʻlgan huquqiy asoslarni oʻzida mujassamlashtirdi, ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soldi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qoʻmitalarining nazorat-tahlil faoliyatida deputatlar qonunlarning joylardagi ijrosini

o'rganish jarayonida jalb etilgan mutaxassislar tomonidan aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etishda amaliy yordam ko'rsatadi. Ular joylarda mehnat jamoalari va hokimiyat organlari majlislarida kamchilik va muammolarni bartaraf etishga doir takliflari bilan ishtirok etadi. Parlament nazorati tekshiruvlari yakunlari tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokida qo'mitalarning sayyor majlislarida, hokimliklarning xalq deputatlari kengashlarida ko'rib chiqish tajribasi va amaliyotini shakllantirdi²⁶.

Beshinchi davr 2016-yildan hozirgi kunga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi. 2016-yilning ikkinchi yarmi – 2020-yil davomida davlat hokimiyati organlarini demokratlashtirish va modernizatsiyalashning yangi bosqichi boshlandi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan adolat prinsipini davlat boshqaruvi tizimiga joriy etish g'oyasi ilgari surildi. Mazkur bosqichda parlament nazorati institutining ham yangi shakllari amaliyotda qo'llanila boshlandi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev parlament nazoratini demokratik tamoyillar talablari darajasida amalga oshirishdagi muammolarni ko'rsatib berdi: «Oliy Majlisning davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, qabul qilinayotgan qonunlar, muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahamiyatga ega davlat dasturlarining ijrosini so'zsiz ta'minlashga qaratilgan ishlarini ham yetarli, deb bo'lmaydi. Parlament eshituvlari, hukumat a'zolari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining hisobotlarini tizimli ravishda eshitib borish, deputatlarning so'rovlariga atroflicha javob qaytarishni ta'minlash borasida muammolar mavjud»²⁷. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishi sifatida

²⁶ Ушга манба, 16 бет.

²⁷ Мирзиёев Ш.М. Парламентимиз ҳақиқий демократия мактабига айлангани, ислохотларнинг ташаббускори ва асосий ижроچиси булиши керак//<http://www.press-service.uz/uz/lists/view/781>.

belgilab berilgan parlament faoliyatini yanada takomillashtirish bugungi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muhim zaruratga aylandi. Bu borada vazifalar davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirishga, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi²⁸.

Demokratik parlamentning asosiy shartlaridan biri **ko'ppartiyaviylik masalasidir**. Demokratik jamiyatda ko'ppartiyaviylik tizimi bo'lishi kerak. Ko'ppartiyaviylik, avvalo, jamiyatimizda o'z manfaat va qarashlaridan qat'i nazar har qaysi ijtimoiy qatlam va guruhning maqsad va intilishlarini to'liq aks ettirishi kerak.

Bugungi kunda, O'zbekistonda beshta siyosiy partiya mavjud va ular quyidagilar: O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi; "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston ekologik partiyasi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zXDP) – 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tashkil qilingan birinchi siyosiy partiya. Mazkur partiyani ko'p jihatdan sobiq kommunistik partiyaning merosxo'ri sifatida ham e'tirof etadilar. O'zXDP 1991-yil 1-noyabrda rasman ro'yxatga olingan. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda partiyaning a'zolari soni 425 mingga yaqin. Joylarda partiyaning 11 mingdan ortiq boshlang'ich partiya tashkilotlari faoliyat olib boradi. O'zXDP markaziy kengashi raisi – Xotamjon Ketmonov. Partiya ustavida uning asosiy maqsadi – davlat hokimiyatining vakillik organlarida davlat va jamiyat tomonidan manzilli ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyojmand aholi qatlamlari manfaatlarini himoya qilishdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan. Partiyaning matbuot organi – "O'zbekiston ovozi" va "Golos Uzbekistana" gazetalari.

²⁸ Уша манба, 18 бет

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi – 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan. Bugungi kunda 135 ming aʼzosi bor. Respublika hududlarida 3 mingga yaqin boshlangʻich partiya tashkilotlariga ega. Partiya siyosiy kengashining raisi – Narimon Umarov. Matbuot organi – “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Partiya ustavida belgilangan asosiy maqsadi – huquqiy-demokratik davlat, ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda Oʻzbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari taʼminlangan maʼnaviy jiplashgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish, deya belgilangan.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi – 2008-yil 20-iyunda Milliy tiklanish va Fidokorlar partiyalarining birlashuvi asosida shakllangan. Partiyaning aʼzolari soni 190 mingga yaqin. “Milliy tiklanish” partiyasi markaziy kengashi raisi – Alisher Qodirov. Partiya ustaviga muvofiq asosiy maqsadi – Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy oʻzlikni anglashning oʻsishi, milliy gʻurur, vatanga sadoqat va muhabbat tuygʻusini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish ekanligi taʼkidlanadi. Siyosiy partiyaning matbuot organi – “Milliy tiklanish” gazetasi.

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi (OʻzLidep) – 2003-yilning 15-noyabrida tuzilgan. Partiya oʻzining asosiy maqsadi sifatida – tadbirkorlar, ishbiarmonlar va fermerlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini taʼminlash ekani qayd etiladi. OʻzLidepning aʼzolari soni 252 ming nafarni tashkil etadi. Partiya siyosiy kengashi raisi – Aktam Xaitov. Matbuot organi – “XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

2019-yil 24-yanvarda O‘zbekiston Ekologik partiyasi partiya tashkil topdi. O‘zbekiston Ekologik partiyasi kelajak avlodlar sog‘lom tabiiy muhitda yashashi imkoniyatini ta‘minlash yo‘lidagi jamiyatning sa’y-harakatlarini birlashtiradi. Bu iqtisodiyot, ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirish, shuningdek, fuqarolar salomatligini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan tizimli islohotlarni o‘tkazish uchun muhim va ushbu partiya O‘zbekiston Ekologik harakati to‘plagan tajriba asosida tashkil etildi.²⁹

Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, amaldagi boshqa qonun hujjatlari hamda ushbu Ustavga muvofiq ravishda amalga oshiradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 2007-yil 11-aprelda O‘zbekiston Respublikasining «**Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi.**

2015-yil 14-mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyalarining qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda parlamentning quyi palatasida “Demokratik kuchlar bloki”ni tuzish masalasi muhokama etildi hamda tegishli qaror qabul qilindi.

²⁹ Ўзбекистон экологик партиясини ташкил этиш ташаббуси билан чикмокдалар. https://www.norma.uz/bizning_sharhlar/uzbekiston_ekologik_partiyasini_tashkil_etish_tashabbusi_bilan_chiqmoqdalar#

Ma'lumki, mamlakatimizda olib borilayotgan amaliy ishlari-mizning samarasi o'zbek modelining tamoyillaridan biri har bir islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayoni bilan uzviy bog'liq. 2007-yil 11-aprelda "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuv o'tkazish hamda partiya guruhlariga hokim faoliyatini nazorat qilish funksiyasiga ega bo'lish bilan bog'liq normalarning ifodalanishi nafaqat siyosiy partiyalar rolini kuchaytirishga, qolaversa, davlat boshqaruvining demokratik asoslarini takomillashtirish va tadrijiy ravishda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish imkoniyatini yaratdi. Endilikda, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari partiya guruhlariga ushbu huquqlarning berilishi partiya guruhlarining vakillik nazorati funksiyasini yanada kuchaytiradi, ularning tegishli hokimiyat nomzodi yuzasidan o'z fikrlarini bildirishlariga, ular faoliyatini tahliliy baholashga huquqiy zamin yaratadi³⁰.

2018-yilning 4-oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, respublikada Saylovchilarning yagona elektron ro'yxatini shakllantirish hamda barcha darajadagi saylovlar tizimiga Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimini ishlab chiqish va joriy qilish vazifalari belgilab berildi.

2019-yil 8-yanvar kuni mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim voqea sodir bo'ldi. Shu kuni mustaqil O'zbekiston tarixida birinchi marta ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida yangi siyosiy kuch, O'zbekiston Ekologik partiyasi ta'sis etildi.

* M.Қурбонов масъул мухаррирлигида. Фидойинг булгаймиз сени, Ўзбекистон! Уқув қўлланма. – Т.: Маънавият", 2017 – Б. 160

E'tirof etish joizki, O'zbekiston tabiatdan oqilona foydalanish siyosatini izchillik bilan olib bormoqda. Yer va suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Biroq, sohadagi vazifalarning ko'lami mamlakat miqyosida va alohida mintaqalarda ekologik holatni sog'lomlashtirish muammolarini yaxlit holda hal etishda davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning sa'y-harakatlarini birlashtirishni talab etdi.

Shundan kelib chiqib, ekologik muammolarni bartaraf etishga ko'maklashish, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish maqsadida mamlakatimizda ilk bora O'zbekiston Ekologik partiyasi vujudga keldi.

Shubhasiz, Orol ekologik fojiasi oqibatlarining Orolbo'yi aholisi va atrof muhiti uchun salbiy ta'sirini yumshatish, shuningdek, mamlakatning boshqa ekologik noqulay hududlarida tabiiy muhitni sog'lomlashtirishga erishish yangi partiyaning asosiy dasturiy maqsad va vazifalari etib belgilandi³¹.

Mamlakatda Milliy mustaqillikning ilk davrida davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasi o'laroq, fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan siyosiy partiyalarning demokratik qadriyatlar asosida faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Qisqa davr ichida mamlakatda beshta siyosiy partiya tashkil etilib, ko'ppartiyaviylik tizimi siyosiy hayotga kirib keldi. Parlament, Prezidentlik saylovlari va mahalliy vakillik organlariga saylovlar, asosan, ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi an'anaga aylandi.

31 Узбекистонда экологик партия ташкил этилди<https://ekolog.uz/?p=398>

2.2. Vazirlar Mahkamasi, uning ijro etuvchi hokimiyatning muhim bo'g'ini sifatidagi o'rni. Xalq xo'jaligi tizimi boshqaruvidagi islohotlar.

Hokimiyatlar taqsimlanishi tamoyiliga ko'ra, hukumat davlat hokimiyatining maxsus vakolat doirasiga ega bo'lgan ijro etuvchi organlar tizimi shaklida namoyon bo'ladigan mustaqil tarmog'i hisoblanadi. Hukumat qonun normalarini ijro etish yuzasidan tegishli tartibda huquqiy hujjatlar yaratadi. Hukumatning mazkur yo'nalishdagi faoliyati qonun ustuvorligi tamoyilini davlat va jamiyat hayotida amalga oshirish va ta'minlashga qaratilgan.

Vazirlar Mahkamasi – ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 98-moddasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir, uning o'rinbosari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati boshlig'i VM tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi. Vazirlar Mahkamasi tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi Prezident taqdimiga ko'ra Oliy Majlis palatalari tomonidan ko'rib chiqilib tasdiqlanadi. VMsi a'zolari Bosh vazir taqdimiga ko'ra Prezident tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, respublika qonunlari Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi. Demak, Vazirlar Mahkamasi ijroiya hokimiyat bo'lib, u davlat hokimiyati bo'linish prinsipiga ko'ra **Ikkinchi hokimiyat**, ya'ni **hukumatdir**³².

1990-yil 24-martda O'zbekistonda prezidentlik lavozimi ta'sis etilgandan keyin ijro etuvchi hokimiyat maqomi ham o'zgardi. 1990-yil 15-noyabrda O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini

32 Хашимханов А.М. Узбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ҳуқуқ ижодкорлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари. Дисс...юридик фанлари номзоди. – Тошкент: 2008.

tasdiqlash to'g'risida" Farmoniga muvofiq O'zbekiston Prezidenti huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi, Prezident uning Raisi bo'ldi. 1992-yil 4-yanvarda vitse-prezident lavozimi tugatildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Bosh vaziri lavozimi ta'sis etildi. Bosh vazir zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish, uning ishini tashkil etish vazifasi yuklandi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasi ikkinchi yig'ilishida (2000-y. 1-fevral) mamlakatimiz Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi tasdiqlandi.

1991-yil 6-sentyabrida respublika mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida mudofaa ishlari vazirligi tuzildi. Shu maqsadlarni ko'zlab uning tarkibida 1992-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiya brigadasi barpo etish lozim, deb topildi. 1992-yil iyulida u Mudofaa Vazirligiga bo'ysundirildi.

Mustaqil O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari tizimida tubdan o'zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatda 1990-yil dekabrda Davlat reja qo'mitasi Iqtisod komissiyasiga aylantirildi. 1992-yil 5-avgustida esa ushbu qo'mita va statistika davlat qo'mitasi negizida Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasi hamda joylarda uning tegishli idoralari barpo etildi. 1997-yildan ushbu qo'mita Makroiqtisodiyot Vazirligiga aylantirildi.

Xalq xo'jaligini boshqarishning yangi usuli sifatida konsernlar vujudga keltirildi. Bu avvalo, iqtisodiy mustaqillik va bozor iqtisodiga o'tish zaruriyati bilan bog'liq bo'ldi. «O'zdon mahsulot», «Uzbekneftgaz» va boshqa ko'plab konsernlar shular jumlasidandir. 1991-yil 7-sentyabrida O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil qilindi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, sobiq ittifoq manfaatlarini birinchi galda qondiruvchi

idoralar tugatilib, yangi shakldagi qo‘mitalar, konsernlar va vazirliklar tashkil etildi. Bu bilan yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida O‘zbekiston milliy taraqqiyotiga mos, vatan mustaqilligini mustahkamlovchi boshqaruv tizimi vujudga keltirildi.

Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 14-fevraldagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan Reglamentida yanada rivojlantirilgan va mazmunan boyitilgan. Unga ko‘ra Vazirlar Mahkamasining ishi choraklik rejalarga muvofiq olib boriladi. Vazirlar Mahkamasining majlislari yilning har choragida kamida 1 marta o‘tkaziladi. Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatida Bosh vazir (2003-yil 11-dekabrda Shavkat Miromonovich Mirziyoyev) va uning o‘rinbosarlaridan iborat tarkibdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosati faoliyat ko‘rsatadi.

2003-yil 11-dekabrda 2016-yilgacha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimini – Mirziyoyev Shavkat Miromonovich egallab kelgan.

Mustaqillik yillarida hukumat sostavi 3 marta yangidan tasdiqlandi. 1993-yil 6-maydagi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risidagi va uning 29-avgustdagi (1993) yangi tahrirdagi qonunlarga ko‘ra **birinchi marta** Vazirlar Mahkamasining yangi sostavi 1995-yil 23-fevralda **ikkinchi marta** esa 2000-yil 11-fevralda yangidan tasdiqlandi. 2005-yil 4-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi tasdiqlandi.

So‘nggi yillarda Vazirliklar tarkibi yanada isloh qilinib takomillashtirilmoqda. Ularning aksariyatining tarkibiga o‘zgarish kiritilib, yangi vazirliklar tashkil qilindi. O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda jami 22 ta vazirlik mavjud. E‘tiborli tomoni, oxirgi 2 yil ichida vazirliklar soni 6taga ko‘paydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15-fevral 2017-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat Vazirligi faoliyatini tashkil

etish to'g'risida"gi Qaroriga binoan Madaniyat va sport ishlari vazirligi ikkita mustaqil idoraga qayta tashkil etildi: Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil topdi. 2017-yil 13-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi (TIAISV) **Tashqi savdo vazirligi** etib qayta tashkil qilindi. Yangi idora TIAISVning tashqi savdo munosabatlari qismida uning majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan, xalqaro majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi. Tashkil etilgan vazirlik vakolatli davlat organi bo'lib, tashqi savdo sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas'ul hisoblanadi. U tashqi savdo faoliyatini tartibga solish sohasida davlat boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi. Farmon bilan Tashqi savdo vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari tasdiqlandi, shuningdek, TIAISVni qayta tashkil etish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish va amalga oshirish bo'yicha komissiya tuzildi. Bundan tashqari:

2017-yil 18-aprel Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tashkil etildi;

2017-yil 24-may Mehnat vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi etib qayta tashkil qilindi (ushbu vazirlikning nomi 2016-yil 22-fevralda ham o'zgargandi)

2017-yil 30-sentyabr Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi;

2017-yil 29-noyabr Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi;

2018-yil 5-mart Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi negizida Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etildi;

2018-yil 2-aprel Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi negizida Qurilish vazirligi tashkil etildi;

2018-yil 17-aprel Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ikkiga bo'linib, Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Suv xo'jaligi vazirligi tashkil etildi.

2020-yil 18-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. 2020-yilgacha mahalla o‘z-o‘zini boshqarish organi edi. 2020-yildan boshlab davlat organiga aylantirildi.

Yurtimizda so‘nggi yillarda Vazirliklar tizimini yanada optimallashtirilib, yangi vazirliklar tashkil qilinayotganligi, eng avvalo, ijro mexenizmining yanada samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2.3. Sud hokimiyati islohotlari. Mahalliy davlat hokimiyati organlari

Davlat hokimiyati tizimiga kiruvchi hokimiyatlardan biri sud hokimiyatidir. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Sud – bu davlat tomonidan o‘rnatilgan qonunlarning buzilishiga qarshi yuridik sanksiyalar qo‘llash yordamida jazo tayinlaydigan davlat organidir. Agar qonun chiqaruvchi hokimiyat parlament tomonidan, ijro etuvchi hokimiyat hukumat tomonidan amalga oshirilsa, sud vakolatlari bir yoki ikki sud tomonidan amalga oshirilmay, balki butun sud hokimiyati tizimini tashkil etuvchi sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Sudlarning o‘zaro mojarolarni ko‘rib chiqishi, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga qonun normalariga muvofiq holda jazo tayinlash faoliyati odil sudlov deb ataladi. Sud tizimi 5 yil muddatga saylanadi. Sudlarni tashkil etish, faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilab qo‘yilgan.

Mazkur sudlarning huquqiy holati O‘zbekiston Respublikasi-ning Konstitutsiyasida, O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunida bayon

etilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi hamda 2005-yil 8-avgustdagi “Qamoqqa olishda sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016-yilning 21-oktyabrida e‘lon qilingan PF-4850-sonli “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo‘ysunishiga doir konstitutsiyaviy normani amalda to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishiga zamin yaratdi. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon hamda ushbu Farmon bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”da sudyalarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishga oid qator chora-tadbirlar nazarda tutildi³³.

O‘tgan davr mobaynida sud-huquq tizimini isloh qilish va jinoyat qonunchiligini liberallashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar izchilligini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich, 1991-2000-yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda, yangi davlat va jamiyat barpo etishning oqilona strategiyasi ishlab chiqildi. Sud hokimiyatining mustaqilligini ta‘minlashning huquqiy asoslari yaratilib, mamlakatimiz tarixida ilk bor Konstitutsiyaviy sud qaror topib, yangi mazmundagi umumiy yurisdiksiya sudlari, xo‘jalik sudlari joriy etildi. “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, odil sudlovga oid boshqa

³³ Мамасиддиқов М.М., ю.ф.д., профессор Суд ҳокимияти мустақиллигининг конституциявий асослари http://constitution.uz/uz/pages/Sud_hokimiyati_mustaqilligi

qonunchilik bazasi vujudga keldi. Fuqarolarning sud himoyasiga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlari kafolatlandi. 2000-yil 14-dekabrda "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi protsessual qonunchilikka sudlarda ish yuritishda tortishuvchilik prinsipini ta'minlash va amalga oshirish, jinoyat va fuqarolik tartibidagi ishlarni ko'rishning barcha bosqichlarida prokuror hamda advokatning tengligini ta'minlash, odil sudlovni sifatli va tezkor amalga oshirish, sud qarorlari adolatliligini ta'minlash, yuqori turuvchi sudlarni yakuniy qaror qabul qilishda mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan qator o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritilishini belgilab berdi. Shu maqsadda ishlarni apellyatsiya bosqichida ko'rish tartibi joriy etilib, kassatsiya instansiyasi isloh qilindi. Natijada fuqarolik va jinoyat sudlarida birinchi instansiya va tergov organi tomonidan yo'l qo'yilgan xato kamchiliklarni tez hamda samarali ravishda bartaraf etish imkoniyati yuzaga keldi.

Ikkinchi bosqich, 2001-2009-yillarni o'z ichiga olib, ushbu bosqich faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, bunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, siyosiy hayot, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy sohalarni izchil isloh qilish ta'minlandi. Jinoiy jazolarni liberallashtirishning yangi bosqichi 2001-yil 29-avgustda "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunning qabul qilinishi bilan boshlandi.

Bu davr jinoiy jazolar tizimidagi o'lim jazosini bekor qilinishi bilan ham ahamiyatlidir. Favqulodda jazo chorasi hisoblangan o'lim jazosi 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran jinoiy jazolar tizimidan chiqarilib, o'rniga og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va og'irlashtiruvchi holatlarda terrorizm jinoyatini sodir

etganlik uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi.

Mazkur bosqichning o'ziga xos xususiyati yana shundan iboratki, bunda sud hokimiyati bosqichma-bosqich mustahkamlandi, sudlarning mustaqilligi ta'minlandi, bu esa o'z navbatida sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarish imkonini berdi. Jumladan, sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash, sud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shug'ullanish vazifasi maxsus organ – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuklatildi.

O'z navbatida, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi natijasida sud hujjatlari majburiy ijro etilayotganda yuzaga keladigan mulkiy yoki nomulkiy munosabatlarni tartibga solib, sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o'zlariga xos bo'lmagan vazifalardan ozod qilindi.

Birinchi Prezident Islom Karimov 2005-yil 28-yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishida hokimiyatning ana shu tarmog'ini, sud tizimini tubdan isloh qilish yo'llarini ko'rsatib o'tdi. Sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish uchun prokuratura organlarining sud jarayonlariga aralashuvini cheklash, shaxsni ushlab turish, hibsga olish huquqlarini sud zimmasiga o'tkazishni belgilab beradi. Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlash ta'kidlab o'tildi³⁴.

Ushbu bosqichda amalga oshirilgan islohotlar natijasida siyosiy, iqtisodiy, davlat-huquqiy munosabatlarning butun tizimi modernizatsiya qilinib, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya etishning huquqiy asoslari yaratildi.

Sud-huquq sohasini erkinlashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolarni shavqatsiz jazolash bilan

³⁴ Умарова Ш.О. Узбекистон Республикасида демократик ҳуқуқий давлат қурилишида суд ҳокимиятининг ўрни. Дисс...юридик фанлари номзоди. –Тошкент: 2005.

emas, balki insonparvarlik ruhida tarbiyalash asosida huquqiy davlat yo'lidan borish zarurligini ko'rsatdi. 2006-yil 30-noyabrda Oliy Majlis Senatining qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining o'n to'rt yo'lligi munosabati bilan amnistiya to'g'risida"gi qaroriga asosdan 2007-yilda 44 mingdan ziyod shaxslar ozodlikka chiqarildi. Jumladan, sodir qilgan jinoiy harakatlar uchun jazoga tortilishi lozim bo'lgan 2 ming 377 ayol va 689 voyaga yetmaganlar jazodan ozod qilindi.³⁵ Shuningdek, prokuratura organlarining sud jarayoniga aralashuvini cheklash, prokuratura vakolatlarining bir qismini sudlarga o'tkazish maqsadida 2005-yil 8-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, mazkur tartib 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran amalga oshirilishi belgilandi. Natijada jinoiy jazoga sanksiya berish prokuratura organlaridan sud tizimiga o'tkazilmoqda, advokat, oqlovchilarning mavqei, rolini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich, 2010-yildan 2016-yilga qadar bo'lgan davrni o'zi ichiga olib, mazkur bosqichdagi sud-huquq islohotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 12-dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishida so'zlagan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi" bilan bog'liq bo'lib, unda kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat barpo etishda sud-huquq tizimini izchil isloh qilishning eng muhim jihatlari aks etdi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2012-yil 18-sentyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi

³⁵Кориев А. Адонат мезони. "Халқ сузи", 2007 йил 1 июнь.

protsessual majburlov choralarini sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibi joriy etilib, jinoyat protsessida "Xabeas korpus" institutini qo'llash sohasini yanada kengaytirish imkonini berdi. Bundan tashqari, ushbu Qonunga muvofiq sudning jinoyat ishi qo'zg'atishga doir vakolati chiqarildi. Amaldagi qonunchilikda prokurorning sud majlisida ayblov xulosasini o'qib eshittirish bo'yicha majburiyati aniq belgilanmaganligi sudning maqsad va vazifalariga zid ravishda ayblov xulosasini sudyalar tomonidan o'qib eshittirilishiga sabab bo'lgan. Yuqoridagi Qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 439-moddasiga o'zgartirish kiritilib, birinchi instansiya sudida ish bo'yicha ayblov xulosasini o'qib eshittirish majburiyati prokuror zimmasiga yuklatildi.

Shuningdek, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi islohotlar ham davom ettirilib, 2015-yil 11-avgustda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi natijasida jinoiy jazolar tizimiga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga muqobil bo'lgan yangi jazo turi – ozodlikni cheklash jazosi kiritildi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadi tadbirkorlik subyektlariga erkinliklar yaratish, ularni jadal rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, 2015-yil 20-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, Jinoyat kodeksi 189-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari dekriminalizatsiya qilinib, jinoiy qilmishlar doirasidan chiqarildi, shuningdek, 184-moddasi: "Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruv materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha davlat soliq xizmati organining qarorini olgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararining o'rnini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi", degan beshinchi qism bilan to'ldirildi.

Sud-huquq tizimini isloh qilishning to'rtinchi bosqichi 2016-yil sentyabr oyidan keyingi davr bo'lib, ushbu bosqichda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi", 2017-yil 20-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi bilan sifat jihatdan yangi davr boshlandi.

Qabul qilingan ushbu normativ hujjatlarda:

– sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyalik lavozimiga birinchi marotaba besh yil muddatga va keyin o'n yil muddatga, shundan so'ng muddatsiz davrga tayinlash;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi tugatilib, uning o'rniga Sudyalar hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadigan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sud hokimiyatining fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sudlov sohasida yagona oliy organi sifatida davr talablari asosida yangidan shakllantirilgani, odil sudlovning mazmun-mohiyatiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan

holat – sudlar tomonidan jinoyat ishlarini qo‘shimcha tergovga qaytarish amaliyotiga chek qo‘yilgandi. Bugungi kunda xalqimiz kutayotgan adolatli qarorlar qabul qilishga har tomonlama qodir, irodasi mustahkam, yuksak kasb va ma‘naviy fazilatlariga ega bo‘lgan sud xodimlari tarkibini shakllantirish eng muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

– 2017-yil 1-iyundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudini birlashtirish, fuqarolik, jinoiy, ma‘muriy va iqtisodiy sud ish yurituvi sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini tashkil etish, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma‘muriy nizolarni, shuningdek, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlarini, tuman (shahar) ma‘muriy sudlarini tashkil etish belgilandi.

Mazkur Farmon va Harakatlar strategiyasida qayd etilgan vazifalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2017-yil 29-aprelda “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 6-aprelda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunlar qabul qilindi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, odil sudlovga erishish darajasini oshirish kabi vazifalar bu boradagi ishlarning asosini tashkil etadi.

2017-yilning 1-apreldan jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual va boshqa qonun hujjatlariga inson huquq va

erkinliklari ustuvorligini ta'minlash, sud muhokamasini adolatli va o'z vaqtida o'tkazish, jazoning adolatli va insoniyligi kafolatlarini kuchaytirishni inobatga olgan holda odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator o'zgartishlar kiritilmoqda. Jumladan, qamoq tarzidagi jinoiy jazo turi tugatilib, uning o'rniga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoning muqobil turlarini qo'llash imkoniyati kengaytirilmoqda. Ya'ni, jinoiy jazolar tizimidan nisbatan qattiq ta'sir choralaridan biri chiqarilayotganligi jinoiy jazolarni liberallashtirishga, huquqbuzarlarga nisbatan tarbiyaviy-tuzatish ta'sir choralarining ilg'or shakl va uslublarini keng qo'llash bo'yicha olib borilayotgan siyosatning mantiqiy davomi hisoblanadi. Jinoyat protsessida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, jinoyat ishlarini tergov qilishning tezkorligini oshirish maqsadida jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga, qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralarini qo'llashning, shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergovning eng ko'p muddatlari 1 yildan 7 oyga qisqartirilmoqda. Shuningdek, "Xabeas korpus" instituti qo'llanish doirasini yanada kengaytirish ham ko'zda tutilmoqda. Fuqarolik ishi bo'yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beruvchi muddatning 3 yildan 1 yilga qisqartirilishi fuqarolik huquqiy munosabatlarning barqarorligi, fuqarolik protsessi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi. Yarashuv institutini jinoyat protsessida qo'llash doirasini kengaytirish, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan ayrim turdagi jinoyat tarkiblarini jinoyat toifasidan chiqarish, jabrlanuvchining arizasi asosida jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan jinoyat tarkiblari ro'yxatini kengaytirish nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, qonuniylikni ta'minlash va mamlakatimizda islohotlarni samarali ro'yobga chiqarishda yuridik xizmatlar rolini oshirish maqsadida davlat organlarining

yuridik xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir aniq chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda. Darhaqiqat, yurtimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining tub mohiyati sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash, shuningdek, odil sudlovga erishish darajasini oshirishga xizmat qiladi³⁶.

Ma'muriy sudlarni, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyatsiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta'sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Sansalorlikka va ishlarning ko'rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho'zib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Ushbu yo'nalish doirasida barcha huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining xalq bilan bevosita muloqotini yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish, aholi ularga erkin murojaat eta olishini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi murojaatlarning, xabarlarining o'z vaqtida olinishini ta'minlash nazarda tutilmoqda³⁷.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

³⁶ М.Курбонов масъул муҳаррирлигида. Фидойинг булғаймиз сени, Ўзбекистон! Уқув кулланма, Тошкент: Маънавият, 2017.

³⁷ Мамасиддиқов М.М., ю.ф.д., профессор. Суд ҳокимияти мустақиллигининг конституциявий асослари. http://constitution.uz/uz/pages/Sud_hokimiyati_mustaqilligi

Shuningdek, ushbu yo‘nalish 2018-2021-yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini o‘qitish, tanlash va joy-joyiga qo‘yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqti-vaqti bilan uning natijalarini e‘lon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notariat tizimini va FHDYO organlarini isloh qilishni ham o‘z ichiga oladi.

2017-yil 13-iyun kuni Toshkent shahrida sud organlari tizimida odil sudlovni ta‘minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi. Davlatimiz rahbari adolat xalqimiz uchun azal-azaldan tinch va farovon hayot mezonini, barcha ezguliklar manbai bo‘lib kelgani, Sohibqiron Amir Temur bobomiz «Kuch – adolatda» degan hikmatga amal qilib, davlat boshqaruvini tashkil qilish, el-yurtning tinchligi va obodligini ta‘minlashga erishganini qayd etib, bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishda qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlash eng muhim vazifa bo‘lib qolayotganini ta‘kidladi. Bu borada davlat hokimiyatining mustaqil tarmog‘i bo‘lgan sud tizimining o‘rni va ahamiyati g‘oyat katta. Bu haqiqatni biz bugungi kunda, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida tobora chuqur his etmoqdamiz, dedi Prezidentimiz³⁸.

Jamoat tartibini saqlash, avvalambor, voyaga yetmagan va yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning buzg‘unchi tahdidlarni barvaqt aniqlash

³⁸ Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

bo'yicha yakdil harakatlarni, ularni hamkorlikda va sifatli bartaraf etilishini ta'minlash maqsadida 2018-yil 14-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra taraqqiy etayotgan poytaxt xavfsizligining garovi sifatida harakatlar yakdilligi asosida barcha davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlik qilishning amaliy mexanizmini joriy etish, «Jaholatga qarshi ma'rifat» ezgu g'oyasi asosida har bir mahalla kesimida diniy-ekstremistik xususiyatga ega bo'lgan huquqbuzarliklarni sodir etish sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etishga, birinchi navbatda, ekstremistik oqim mafkurasi ta'siri ostiga tushib qolgan shaxslarni tuzatishga alohida e'tibor qaratish, prokuratura organlari tomonidan kundalik asosda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, shu jumladan, ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlashga amaliy yordam ko'rsatish, shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklar, sun'iy to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rish, jinoyatlarga choralar ko'rish va ularni fosh etishda, birinchi navbatda, tezkorlik va muvofiqlashgan hamkorlikni ta'minlash maqsadida Toshkent shahar huquqni muhofaza qiluvchi organlarini «Xavfsiz shahar» apparat-dasturiy kompleksi imkoniyatlaridan keng foydalanishga yo'naltirish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, jamiyatda sud organlarining nufuzini oshirish, sudyalarning chinakam mustaqilligini va faqat qonunlarga asoslanib ish yuritishini ta'minlash mamlakatimiz Konstitutsiyaisi va shu asosda qabul qilinayotgan qonunlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurishdagi muhim shartlardan biridir.

Tayanch tushunchalar:

Parlament, qonunchilik palatasi, Senat, Vazirlar Mahkamasi, xabeas korpusi, sud hokimiyati, aybsizlik prezumpsiyasi.

Tekshiruv savollari:

1. O‘zbekiston parlamentarizmi tarixi nechta bosqichdan iborat?
2. Oliy Majlisning ikki palatali tizimga o‘tishining asosiy sababi nimalardan iborat?
3. Bugungi kunda nechta vazirlik faoliyat yuritmoqda?
4. Mustaqillik yillarida hukumat tarkibi necha marta yangidan tasdiqlandi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15-fevral 2017-yildagi Qaroriga binoan qaysi vazirlik tarkibiga o‘zgarish kiritildi?
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yilning 21-oktyabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish ehora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra sud tizimida qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?

2-BO'LIM: MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOIIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY TARAQQIYOT. O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

3-BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKIS- TONDAGI IJTIMOIIY-IQTISODIY TARAQQIYOT.

3.1. Taraqqiyotning "O'zbek modeli". Iqtisodiy islohotlar

**3.2. Xususiylashtirish. Ko'p ukladli iqtisodiyot. Tadbir-
korlikning rivojlanishi.**

**3.3. Iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar, bozor
infratuzilmasining shakllanishi.**

3.4. Agrar islohotlar.

3.1. Taraqqiyotning "O'zbek modeli". Iqtisodiy islohotlar.

Tarixdan ma'lumki, o'z mamlakati milliy manfaatlarini hisobga olmay, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlash mumkin emas. Turli xorijiy mamlakatlar taraqqiyot modeliga ko'r-ko'rona tayanib, ish tutgan MDH doirasidagi ayrim mamlakatlarda islohotlarda depsinish hollari, tashqi qarzga botish, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ochilib, o'zining zaif tomonlarini ko'rsatdi. Dunyoda XX asrning boshlarida mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining Amerika va Yevropa modellari, Ikkinchi jahon urushidan keyin esa o'ziga xos Germaniya va Yaponiya modellari shakllandi. Keyinchalik o'zini to'liq oqlagan Janubiy Koreya,

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida taraqqiyot modellari yuzaga keldi. Shuningdek, mustaqillikka erishgan Osiyo va Afrika mamlakatlarida ko'proq boshqa modellardan andoza olingan yo'llar tanlandi. Lekin ushbu davlatlar tajribasi biron bir davlatning rivojlanish yo'lini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilib bo'lmashligini amalda isbotladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning turli modellari barcha mamlakatlarni bitta manzilga – erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keladi. Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti har xil bo'lganligi tufayli, unga o'tishning milliy xususiyatlari ham mavjud bo'ladi. Shu nuqtai nazardan biror mamlakatning taraqqiyot yo'lini yoki taraqqiyot modelini borligicha qabul qilib bo'lmaydi. Fransiyada chop etiladigan «Liberason» gazetasi muxbirining «Turkiya modeli» xususida bergan savoliga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagicha javob bergan edi: «Turkiya bozor munosabatlari yo'lga o'tib erishgan tub o'zgarishlari bilan ham hurmatga loyiqdir. Biroq, mustaqil O'zbekiston Turkiya yo'lidan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirmoqchi emas. Odamzod bironing bo'yiga qarab o'ziga to'n bichmaydi». 2016-yilning 8-sentyabrida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqida haqli ravishda ta'kidlaganidek: «Zamonaviy O'zbekistonning tarixi – bu mamlakatimizning haqiqiy mustaqillikka erishish yo'lida Islom Abdug'aniyevich Karimov rahnamoligida olib borilgan o'ta murakkab va og'ir kurashlar tarixidir»³⁹. Chorak asr mobaynida umrboqiy modelga aylanib ulgurgan, jamiyatimizni isloh etish, demokratlashtirish va liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha puxta o'ylangan,

³⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қушма мажлисидаги нутқи. // Халқ сўзи. – 2016 йил 9 сентябрь

dunyoda «o‘zbek modeli» nomi bilan tan olingan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish orqali O‘zbekiston zamonaviy jadal va barqaror rivojlanib borayotgan davlatga aylandi⁴⁰.

Shunday qilib, O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li nazariy va amaliy jihatdan belgilab olindi. Amaliy islohotlar jarayonida, xususan, XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning, rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizni jadallashtirish maqsadida bu tamoyillar Oliy Majlisning XIV sessiyasida (1999-yil 14-aprel) quyidagi oltita ustuvor yo‘nalish bilan to‘ldirildi:

1. Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish.

2. Jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish.

3. Kadrlar masalasi

4. Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o‘sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish.

5. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash.

6. Jamiyatdagi barqarorlik tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni sarhadlarimiz daxlsizligini, malakatimiz yaxlitligini ta’minlash⁴¹.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tish tamoyillari asosida g‘oyat mas’uliyatli va murakkab vazifa – iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang‘ich nuqtasi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o‘tishdan iboratdir.

* “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2016 йил 1 www.iqtisodiyot.uz Ш. Р. Қобилов. доцент, Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси тараққиётнинг «узбек модели» ва ижтимоий-иқтисодий хавфсизлик.

" Шамсутдинов Р., Муминов Ҳ. Ўзбекистон тарихи. Уқув қулланма. – Тошкент: 2013.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

Birinchi bosqichda totalitar tuzumdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish davridagi bir-biriga bog'liq ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to'g'ri keldi: ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning asosiy yo'nalishlari O'zbekistonning Birinchi Prezidenti tomonidan belgilab berildi:

– o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;

– qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

– ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish⁴².

Dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ularni mazmun-mohiyati jihatidan quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

1. Mulchilik munosabatlari va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar. Bu yo'nalish doirasida mulchilik to'g'risida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida, yer to'g'risida, ijara to'g'risida, davlat uy-joy fondini xususiyashtirish to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. Xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, Ya'ni xususiyashtirish, mulkchilik, tadbirkorlik, korxonalar, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, shirkat xo'jaligi to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi banklar va bank faoliyati, pul tizimi, tadbirkorlik, sug'urta, birjalar va birja faoliyati to'g'risida, qimmatli

⁴² Муртазаева Р.Х. ва бошқалар. *Ўзбекистон тарихи. Дарслик.* – I Янги аср авлоди, 2005

qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi. Korxonalar bilan davlat o'rtasidagi, korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, soliq kodeksi, bojxona kodeksi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarining bankrot bo'lishi haqidagi qonunlar qabul qilindi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida qabul qilingan qonunlar, xalqaro pakt va bitimlar, ularning O'zbekiston tomonidan belgilanishi mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida yangi sahifa ochdi.

O'zbek modelining hayotga izchil tadbir etilishi yurtimizning iqtisodiy va ijtimoiy qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Bugun O'zbekiston iqtisodiyoti izchil, barqaror va jadal o'sayotgan jahondagi juda kam sonli mamlakatlar safidan mustahkam o'rin oldi. Ijtimoiy, madaniy sohalarda erishilayotgan ulkan yutuqlar nufuzli xalqaro tashkilot va ekspertlar tomonidan keng e'tirof etilib, yuksak baholanmoqda.

Berlindagi Xalqaro iqtisodiyot akademiyasi direktori, professor Xans Yoaxim KNAUPE bu xususda shunday fikr bildiradi: *«O'zbekistonning g'oyat mukammal, to'g'ri va aniq ishlab chiqilgan Inqirozga qarshi choralar dasturi bo'hron sharoitida iqtisodiy islohotlarni qamrab olish barobarida, kelgusida – inqirozdan keyingi davrda ham taraqqiyot sari eltuvchi muhim ustuvor yo'nalishlarni, chora-tadbirlarni aks ettirgan. Unda belgilangan vazifalar ko'pgina mamlakatlar uchun istiqbolli dastur sifatida xizmat qilishi shubhasiz».*

Haqiqatan ham, mamlakatimizda YAIM ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida ham 8 foizdan yuqori bo'lgani jahon ahlida, jumladan, xalqaro ekspertlar, mashhur iqtisodchilarda ham katta hayrat va havas uyg'otmoqda. Jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasining mamlakatimizga kelgan missiyalari bayonotida O'zbekiston izchil o'sishga erishgani

va global moliyaviy inqirozga qarshi muvaffaqiyatli choralar ko'rayotgani qayd etildi, shuningdek, o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari saqlanib qolishi haqida ijobiy prognoz bildirildi.

Bu davlatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasida ham alohida ta'kidlandi. Jahonda umum-e'tirof etilgan rivojlanishning «o'zbek modeli» jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan inqirozli holatlarga qaramay, 2012-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini o'stirishning yuqori sur'atlari barqarorligi va makroiqtisodiy muvozanatni to'la ta'minladi. Xususan, o'tgan yilda mamlakatimiz YAIMning o'sishi 8,2 foizni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'sishi 7,7 foizni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi o'sishi 7,0 foizni tashkil etdi. Davlat byudjeti YAIMga nisbatan 0,4 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etildi. Inflyatsiya darajasi belgilangan prognoz ko'rsatkichidan oshmadi.

Iraqqiyotning o'zbek modeli yuksak zamonaviy texnika va texnologiyaning mavjudligi, ishlab chiqarishning industrial tavsifi, rivojlanishda axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyatining yuqoriligi, xizmat ko'rsatish sohasining muttasil o'sib borishi, iqtisodiy o'sishning intensiv yo'li ustuvorligi, iqtisodiyotning ochiqligi, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, raqobat muhitini yaratish, erkin tadbirkorlikka keng yo'l ochish orqali bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi, xalq farovonligining izchil yuksalishi, milliy iqtisodiyotning global iqtisodiyot bilan integratsiyalashuvining kuchayishi tendensiyalari bilan tavsiflanmoqda⁴³.

* Пурислом Тухлиев, иқтисод фанлари доктори, профессор. Узбек модели - гаракқиёт кафолати. Халқ сузи. 2013 йил 12 апрель.

Taraqqiyotning o'zbek modeli qotib qolgan statik tushuncha emas, albatta. Uning xarakteri va shakl-shamoyilini belgilaydigan asosiy tamoyillar saqlanib qolgan holda doimo yangi vazifa va qoidalar bilan boyitilib, takomillashtirilib borilmoqda. Zero, hayot barcha tartib-qoidalarga o'z tuzatishlarini kiritib boraveradi. Jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiyalash, innovatsion texnologiyani izchil rivojlantirish, sanoat mahsulotlari yetkazib berishni yanada kengroq mahalliyashtirish – «o'zbekcha taraqqiyot»ning mantiqiy davomidir.

Yuqorida qayd etilgan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi davlatimiz rahbari ma'ruzasida O'zbekistonni joriy yilda rivojlantirishning 6 ta eng muhim ustuvor yo'nalishi orasida iqtisodiyot va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik yangilashni jadallashtirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish markaziy o'ringa qo'yildi. Shu maqsadda 370 dan ortiq strategik loyihani ko'zda tutadigan investitsiya dasturi ishlab chiqilgan. Barcha investitsiyalarning to'rt dan uch qismi ichki manbalar hisobidan moliyalashtirilib, ular yangi quvvatlarni yaratish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga yo'naltirilmoqda. Bularning hammasi oxir-oqibatda milliy iqtisodiyotimiz rivojlanishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, o'zbek modelining hayotbaxsh kuchini butun dunyoga yana bir bor namoyish etish imkonini beradi.

3.2. Xususiylashtirish. Ko'p ukladli iqtisodiyot. Tadbirkorlikning rivojlanishi.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni amalga oshirishdir. Shu boisdan O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish iqtisodiy islohotlarda birinchi o'rinda turdi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida iqtisodiyot xilma-xil mulk shakllaridan iborat bo‘lishi, har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli ekanligi, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqli ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida ishlab chiqilishi alohida qayd etilgan hujjatlardan biri “Xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonun loyihasidir. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi amaldagi qonun 1991-yilda qabul qilingan bo‘lib, u respublikamizda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishining boshlanishiga ko‘mak bergan hamda xususiylashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy bazaning yaratilishida muhim ahamiyat kasb etgan hujjat sanaladi.

1991-2009-yillar mobaynida xususiylashtirishning huquqiy va institutsional asoslari ko‘p marotaba o‘zgartirildi⁴⁴. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrdagi «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahrida davlat uy-joy fondini xususiylashtirishni jadallashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini xususiylashtirishni davom ettirish to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori xususiylashtirishni ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyati qurish, korxonalar aksiyasini chiqarish, auksion savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog‘ozlarni chiqarish va xususiylashtirishni yoppasiga

⁴⁴ Джумамуратова К, Жабборов С, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутатлари. Хусусийлаштириш амалиётида қонун ижодкорлиги “Биржа” газетаси, 9 январь 2014 йил.

olib borish uchun sharoit yaratish yo‘li bilan amalga oshirishga qaratilgan edi.

Davlat mulkini xususiyashtirishning dastlabki bosqichlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 21-yanvardagi “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 27-dekabrda “Xususiyashtirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1998-yil 9-aprelda “Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-mayda “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunlari asosida olib borildi.

Respublikada kichik va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirishni ta‘minlovchi zaruriy huquqiy asos yaratildi. Birinchi Prezident farmonlarida xususiy tadbirkorlikdan soliq olish, unga moliyaviy yordam ko‘rsatish borasida imtiyozlar berish, imtiyozli kreditlar ajratish, moddiy texnika va xomashyo resurslari bilan ta‘minlash borasida ko‘maklashish nazarda tutilgan⁴⁵.

Xususiyashtirishning yangi mexanizmlari amaliyotga tadbiq etila borishi bilan mazkur qonunning qoidalarini aniqlashtirib beruvchi bir qator normativ huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish zarurati paydo bo‘ldi⁴⁶.

⁴⁵ Муртазаева Р.Х. ва бошқалар. Узбекистон гарихи. Дарслик. – Г.: Янги аср авлоди. 2005

⁴⁶ Джумамуратова К, Жабборов С, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутатлари. Хусусийлаштириш амалиётида қонун ижодкорлиги “Биржа” газетаси, 9 январь 2014 йил.

Hozirgi paytda davlat mulkini xususiylashtirishning turli tartib-taomillari va masalalarini tartibga soluvchi 80 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatning ko'pchiligida amaldagi qonunda mavjud bo'lmagan yangi normalar bor.

Ikkinchi bosqichda Birinchi Prezident I.A.Karimovning "O'zbekiston islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" asarida qo'yilgan masalalar, xususan, xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy valyutani mustahkamlash, iqtisodiyot tarkibiy strukturasi tubdan o'zgartirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. 2000-yilda xususiylashtirish davlat dasturi bo'yicha ko'zda tutilgan 167 obyekt o'rniga 374 obyekt xususiylashtirildi. Ularning negizida 152 ta hissadorlik jamiyati, 103 ta xususi korxonalar tashkil etildi. Shu yili davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan 14,3 milliard so'm mablag' tushdi. Bu 1999-yilgi ko'rsatkichdan 1,6 barobar ko'pdir. 2004-2008-yillar davomida 3904 ta davlat obyekti xususiylashtirilib, buning natijasida tushgan mablag'larning jami 471,1 mlrd so'mni tashkil etgan⁴⁷.

Umuman olganda, 2000-2010-yillarda bozor munosabatlarini shakllantirishda tub o'zgarishlar yuz berdi. Hozirgi paytda 87,4 foiz mulk nodavlat, 12,6 foizi davlat mulki ko'rinishida ish yuritmoqda. Respublikada jami 60 mingga yaqin korxonadan 50,5 mingga yaqini xususiylashtirilgan korxonalaridir. Mulkning tarkibi jihatidan 19,5 mingga yaqini davlat, 105 mingga yaqini xususi, 3,4 mingdan ortiq chet el investorlari ishtirokida, shundan 442 qo'shma korxonalar, 3,3 mingga yaqin aksionerlik jamiyati, 1,2 mingga yaqin jamoa va 34 mingdan ortiq boshqa korxonalaridir.

Iqtisodiy islohotlarning borishida o'rta va kichik biznesni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. 2012-yilga kelib 180 mingdan ortiq o'rta va kichik biznes subyektlari va 200

⁴⁷ Ergashev K.E., Zamonov A.T. Uzbekistonning yangi tarixi: Fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlar uchun qulqanma. -T., 2013.

mingga yaqin yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati yo'lga qo'yildi. 2011-yilning to'qqiz oyida mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati 8,2 %, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7% va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi esa 6,8% ga ko'paygani shundan dalolat beradi⁴⁸. «Bu haqda gapirganda, avvalambor, soha rivoji uchun mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgani va muntazam takomillashtirib borilayotgani, biznes uchun imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizatsiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko'rsatilayotganini ta'kidlash lozim»⁴⁹. Mazkur sohani davlat tomonidan tartibga solish, jumladan, uning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish va bandlikni ta'minlashdagi ulushini oshirish, texnologik tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish kabi yo'nalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu kabi muhim islohotlar natijasida 2015-yil yakuniga ko'ra kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yalpi ichki mahsulotda 56,5 foiz, sanoat mahsulotlari hajmida 40,6 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida 98,4 foiz, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida 35,8 foizga yetdi. Ish bilan band jami aholining 77,9 foizi mazkur tarmoqda mehnat qilmoqda⁵⁰.

2000-2016-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 31,0 foizdan 56,9 foizga o'sib, 25,9 foiz birlikka ortgan. Ushbu ko'rsatkichni rivojlangan mamlakatlar

⁴⁸ Жураев Н. Узбекистон тарихи. Миллий истиқлол даври. Учинчи китоб. –Т.: «Шарқ» 2011.

⁴⁹ Узбекистон Республикаси Биринчи Президентининг «Узбекистонда ижтимоий-иқтисодий сиёсатни амалга оширишда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikning роли ва аҳамияти» мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи. 2012 йил 14 сентябрь. – www.uza.uz

⁵⁰ Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Дисс.фалсафа доктори. – Тошкент: 2017.

bilan taqqoslaydigan bo'lsak, kichik biznesning YAIMdagi ulushi Fransiyada 62 foizni, Italiyada 60 foizni, Yaponiyada 55 foizni, Germaniyada 54 foizni, Buyuk Britaniyada 53 foizni, AQSHda 52 foizni, Qozog'istonda 25,6 foizni, Rossiyada 20,0 foizni tashkil etadi⁵¹.

Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlik turi ham keng rivojlanmoqda. O'zbekistonda biznesning oilaviy tadbirkorlik shakliga taalluqli ayrim masalalar dastlab umumiy holda O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-iyuldagi 216-son qaroriga ilova – «Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom»da o'z ifodasini topgan edi. 2012-yil 26-aprelda O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonuni⁵²ni, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Har bir oila-tadbirkor» dasturini amalga oshirish to'g'risida»gi Qarori qabul qilinishi mamlakatda oilaviy tadbirkorlikning huquqiy asosini belgilab berdi.

Ushbu qarorga ko'ra quyidagilar Dasturning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan:

– tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida mutasaddi idoralar tomonidan tizimli amaliy yordam ko'rsatilishini ta'minlash;

– tadbirkorlik va daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmagan aholiga tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish va tegishli faoliyat turini tashkil qilishga amaliy yordam ko'rsatish;

⁵¹ Очилов Ж. Кичик бизнесни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш йўналишлари. Иқтисод ва молия 2017. №10.

⁵² Юлдашев Д.Т. Оилавий тadbirkorlikни ривожлантиришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари буйича фалсафа доктори дисс...—Тошкент: 2019.

– tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirishga amaliy yordam berish orqali qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish;

– kasanachilik va kichik hajmda ishlab chiqaruvchi subyektlarni (mikrofirmalarni) tashkil etish uchun moliyaviy yordam berish orqali aholiga qo‘shimcha daromad ishlab topish imkoniyatini yaratish;

– qishloq va mahallalarning ixtisoslashuvini (hunarmandchilik, tikuvchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini etishtirish, ixcham issiqxonalar tashkil qilish va boshqalar) hisobga olgan holda mazkur sohada ijobiy natijalarga erishgan ishbilanmonlik tajribasiga ega tadbirkorlarni mahallalarda yangi biznes faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlagan oilalarga birlashtirish – mini-klasterlar tashkil etish;

– joylarda oilaviy tadbirkorlikka ko‘rsatiladigan xizmatlar ko‘lamini tubdan kengaytirish, tadbirkor oilalarning ishlab chiqargan mahsulotlari savdosini tashkil qiluvchi bozor infratuzilmasi obyektlari, xizmat ko‘rsatish va servis shoxobchalarini barpo etish;

qishloq va mahallalarda bo‘sh turgan yer maydonlarini yangi tashkil etilayotgan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga berish orqali aholi uchun qo‘shimcha ish o‘rinlari va daromad manbalarini yaratish;

– vaqtinchalik moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan hamda davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni aniqlab, ular faoliyatini tiklash va qonuniylashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish⁵³ni nazarda tutadi.

Yana ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni tadbirkorlik faoliyatini zamon talablari asosida rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu

⁵³ " Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 йил 7 июндаги «Ҳар бир оилла-тadbirkor» дастурини амалга ошириш туғрисида”ги Қарори

normativ hujjatda ta'kidlanishicha, "2019-yilning I choragi yakunlari bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga 16,4 trln so'm hajmda kreditlar ajratildi, iqtisodiyotda investitsiyalarni o'zlashtirish hajmlari 1,3 baravarga, yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2,3 baravarga o'sdi"⁵⁴.

2020-yil 8-yanvarda Vazirlar Mahkamasining "Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasiga baho berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirilishiga xizmat qildi. Ushbu qarorga ko'ra Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasini baholash tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi. Endi tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasiga baho berish bo'yicha ma'lumotlarning o'z vaqtida taqdim etilishi va haqqoniyligi uchun manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar rahbarlari shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo'yildi.

Adliya vazirligi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan birgalikda:

– bir oy muddatda hududlarda tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasini baholash bo'yicha tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnoma shakllarini hamda o'tkazish muddatlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

– 2020-yil 1-martga qadar hududlarning tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash bo'yicha "BUSINESS INDICATOR" avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimi ishlab chiqilishini va ishga tushirilishini ta'minlaydi;

– baholash natijalari bo'yicha tegishli hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga takliflar berib boradi;

⁵⁴ "Uzбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 15 майдаги "Тадбиркорлик фаолиятини куллаб-қувватлаш ва химоя қилиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тугрисида" ги Фармони.

Nizomga asosan, baholash yakunlari bo'yicha tegishli hududdagi nazarda tutilgan tashkilotlarning rahbar va boshqaruv xodimlarini, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) lar hokimlarining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarlarini namunali ko'rsatkichga ega bo'lganda – rag'batlantirish hamda qoniqarsiz ko'rsatkichga ega bo'lganda – intizomiy javobgarlikka tortish yuzasidan har yarim yillik yakunlari bo'yicha 15-avgustga qadar, yil yakunlari bo'yicha 15-martga qadar Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritib boradi⁵⁵.

Bu kabi chora-tadbirlarning amalga oshirilayotgani mamlakatda tadbirkor va ishbilarmonlarga, ayniqsa, kichik biznes vakillariga erkin va samarali ish yuritish, iqtisodiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

3.3. Iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar, bozor infratuzilmasining shakllanishi.

Sobiq SSSRning tarqatib yuborilishi bilan respublikalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar uzildi, oqibatda O'zbekistonning bir qancha sanoat korxonalari to'xtab qoldi va mahsulot ishlab chiqarish kamaydi. Endilikda iqtisodning tarkibiy tuzilishini yangidan qurish kerak edi. Jahon bozorida raqobatga bardosh bera oladigan va aholining iste'mol talablarini qondiradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur bo'ldi.

Bozor infratuzilmasi – bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimidir. Unga ombor xo'jaligi, transport, aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar, tovar va xizmatlar muomalasiga xizmat qiluvchi muassasalar (birjalar, auksionlar, savdo uylari, savdo-sotiq

⁵⁵ "Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йилдаги 8 январдаги "Республика ҳудудларида гадбиркорликнинг ривожланишилик даражасига баҳо бериш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари гуҳрисида"ги Қарори.

idoralari va agentliklari kabilar), moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasalar (bank turidagi muassasalar, kreditlash idoralari, sug'urta va moliya kompaniyalari, soliq idoralari) va ijtimoiy sohaga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar (uy-joy va kommunal xizmat idoralari, aholini ishga joylashtirish firmalari) kiradi. Axborot xizmati idoralari ham bozor infratuzilmasining alohida bo'g'inini tashkil qilib, ularga ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va sotish bilan shug'ullanuvchi kompaniya va firmalar kiradi⁵⁶.

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish yo'lida respublikada g'oyat yirik qurilishlar amalga oshirildi va mamlakatning yoqilg'i mustaqilligiga erishishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston hududida 2 trillion kubometrga yaqin gaz zahiralari, 160 dan ortiq neft koni mavjud. Biroq mamlakat neft mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha qaram bo'lgan. Xususan, XX asrning 90-yillari boshlarida chetdan 6 million tonnaga yaqin neft mahsulotlari keltirilar, 600 ming tonna paxta tolasi Rossiya va boshqa mamlakatlarga neft mahsulotlari uchun berilardi. Shu boisdan mamlakatimizda neft mustaqilligi uchun kurash boshlandi. Mamlakatimizning yoqilg'i mustaqilligiga erishish siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Istiqlolga erishgan O'zbekiston tarixda ilk bor 1995-yilda neft mustaqilligiga erishdi. Mamlakat endilikda neft mahsulotlariga bo'lgan o'z ichki ehtiyojlarini to'la qondiribgina qolmay, katta salohiyatga ega bo'lgan istiqbolli va ishonchli eksportyor sifatida jahon bozoriga yo'l oldi.

1992-yilda "O'zbekneftgaz" konserni tashkil etilgan bo'lsa, 1998-yilda O'zbekneftgaz neft va gaz sanoati milliy korporatsiyasi «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasiga aylantirildi. Natijada tabiiy gaz ishlab chiqarish sur'ati o'sdi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish 1990-yilgi 40,8 mlrd. kubometrdan 1998-yil salkam

* Бозор инфратузилмаси ва унинг унсурлари. <http://uz.denometr.com/docs/768/index-75974-1.html?page=10>

54 mlrd. Kubometrگا ko‘paydi⁵⁷. 1998-yilda «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasining mustaqillik yillarida amalga oshirgan eng yaxshi loyihalaridan biri Sho‘rtangazkimyo majmuasi 2001-yilda ishga tushirildi. 2002-yil 15-avgustda birinchi polietilen olindi. Majmua qurilishida AQSHning «ABB Lummus Global», «Honeywell», Germaniyaning «Fisher», «Ermafa», Kanadaning «Nova Chemicals», Italiyaning «Renco», «ABB Soimi», Yaponiyaning «Mitsui», «Nisho Ivai», Fransiyaning «Upedex», Rossiyaning «Soyuzvneshtans», VNIIGaz firma va kompaniyalari faol qatnashdi. Shuningdek, AQSH ning «Eksimbank», «Cheyz Manxetten Bank», Fransiyaning «Pariba», Germaniyaning «Kommersbank», Yaponiyaning «Eksimbank», «Germes» sug‘urta agentligi o‘z investitsiyalari bilan ishtirok etdi.

Loyiha quvvatiga ko‘ra, majmua bir yilda 4,2 mlrd. m³gazni qayta ishlaydi, 125 ming t polietilen granulalari, 137 ming t suyultirilgan gaz, 103 ming t gaz kondensati, 4 ming t donador oltingugurt, shuningdek, 4,2 mlrd. m³tovar gaz (yoqilg‘i) ishlab chiqaradi. 2004-yilda 100 ming t polietilen, 85 ming t suyultirilgan gaz, 88 ming t gaz kondensati, 2,6 mlrd.m 3 tovar gaz, 100 t oltingugurt ishlab chiqarildi. Majmua mahsulotining 60% dan ortig‘i xorij – Ukraina, Rossiya, Qozog‘iston, Boltiqbo‘yi, Polsha, Vengriya, Avstriya, Gretsiya, Turkiya, Eron, Pokiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarga eksport qilinadi⁵⁸.

Aholini tabiiy gaz bilan ta‘minlash yuzasidan katta yutuqlarga erishildi. 1995-2000-yillarda tarmoqqa 1,5 mlrd AQSH dollari miqdorida xorij sarmoyasi jalb etildi. Natijada respublikamizning Ustyurt, Buxoro-Xiva, janubi-g‘arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg‘ona mintaqalarida gaz, neft va gaz kondensati qazib oluvchi 92 ta korxonaga kengaytirildi, yangi texnik uskunalarga bilan jihozlandi.

⁵⁷ Жураев Нарзулло. Узбекистон тарих: (Миллий истиқлол даври) 3-китоб /Масъул муҳаррир Н. Абдуазимова. – Т.: “Шарк”, 2011 – 30-31-б.

⁵⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Sho%CA%BBrtan_gaz-kimyo_majmuasi

Xususan, mustaqillik arafasida shahar aholisining 43 foizi, qishloqlarda esa 17 foiz aholi tabiiy gaz bilan ta'minlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1997-yili 64 va 48 foizni tashkil qildi. Mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun ishonchli energetik bazasi yaratilgan⁵⁹.

Respublika sanoati barqaror, jadal va mos ravishda rivojlanishini, qayta o'zgartirishlar strukturasi chuqurlashtirish, soha komplekslari va sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida uning asosiy sohalarini diversifikatsiyalashga hamda eksport salohiyati, samaradorligi, raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan asosiy vazifalar 2011-2015-yillarda respublika sanoatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlarida belgilab berilgan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 15-dekabr 2010-yildagi «2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'rida»gi PQ-1442 son Qarori qabul qilingan u bugungi kunda «O'zbekneftgaz» MXK neft-gaz sohasining barcha faoliyat yo'nalishlarini ta'minlaydigan uch pog'onali xolding kompaniyaga aylantirildi. Ushbu jarayonning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi «Neft-gaz sohasining boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan «O'zbekneftgaz» aksiyadorlik jamiyati faoliyati takomillashtirildi.

Uglevodorod xomashyosini qazib olishni ko'paytirishning 2021-yilgacha bo'lgan dasturi va uni amalga oshirish mexanizmlari tasdiqlandi. 2019-yilda 63 milliard kub metr tabiiy gaz, 3 million tonna neft va kondensat qazib olishni ta'minlash uchun 255 ta yangi quduq va 26 ta yangi texnologik obyektni qurish ishlarini yakunlash, 76 ta quduqni kapital ta'mirdan chiqarish vaziflari qo'yildi. «O'zbekneftgaz» AJ tomonidan 2 milliard 756 million

⁵⁹ Муртазаева Р.Х. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Уқув қулланма. – Т.: Академия, 2010

dollarlik 24 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilishi rejalashtirildi. Bu mablag'lar Jizzax neftni qayta ishlash zavodini bunyod etish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, Qandim gazni qayta ishlash kompleksining 2-navbati va Qandim konlar guruhini jihozlash, Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish, Surxondaryodagi "Mustaqillikning 25 yilligi" konida qidiruv ishlarini olib borish va texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish kabi loyihalarga yo'naltirildi⁶⁰.

Hozirgi kunda respublika energetika tizimi 37 issiqlik gidravlik elektrostansiyalardan iborat bo'lib, ularning umumiy quvvati 11 million kilovattni tashkil etadi. U yiliga 55 milliard kilovatt-soatgacha energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

Yirik issiqlik elektrostansiyalari, jumladan, quvvati 3 million kilovatt-soat Sirdaryo GRESi, quvvati 2,1 million kilovatt yangi Angren, quvvati 1,86 million kilovatt Toshkent, quvvati 1,25 million kilovatt Navoiy GRESlari respublikamizning asosiy elektroenergetika manbai hisoblanadi.

Issiqlik elektrostansiyalaridan tashqari, nisbatan arzon va ekologik toza elektr energiyasini yetkazib beruvchi gidroelektrostansiyalar, jumladan, Chorvoq, Xo'jakent, Farg'ona, G'azalkent va boshqa bir qancha elektrostansiyalar ishlab turibdi.

O'zbekiston energotizimining Markaziy Osiyo Birlashgan energotizimidagi ulushi 40 foizni tashkil etadi. Respublikamiz elektr tarmoqlari orqali elektr energiyasi Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonga uzatilmoqda.

«O'zbekenergo» davlat aksiyadorlik kompaniyasi mustaqillik yillarida issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarini ta'mirlash va ular

⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 25 январдаги "Ўзбекнефтгаз" акциядорлик жамияти тизимида геология-қидирув ва қазиб олиш ишлари самарадорлиги, ёқилги материаллари билан ички эҳтиёжни таъминлашнинг аҳоли, тизимдаги истикболли вазифалар ижросига бағишланган йўғилишидаги маърузаси. <http://uza.uz/oz/politics/nft-gaz-so-asi-samaradorligi-va-isti-bollari-mu-okama-ilind-25-01-2018>

tarkibida yangi bloklar barpo etish ishlarini amalga oshirdi. Sirdaryo, Yangi Angren, Toshkent, Navoiy GRES lari energetika bloklarida texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari ishga tushirildi.

O'zbekiston istiqloli mashinasozlik sanoatini, ayniqsa, uning muhim tarmog'i avtomobilsozlikning rivojlanishiga bog'liq. 1992-yil 24-avgustda Toshkentda Janubiy Koreyaning «DAEWOO MOTORS» korporatsiyasi va O'zbekistonning «Avtoqishxo'jmash» davlat konserni o'rtasida Andijon viloyatining Asaka shahrida yiliga 180 ming avtomobil ishlab chiqaradigan «O'zDAEWOO avto» qo'shma korxonasini qurish to'g'risida shartnoma imzolandi. 1996-yilning mart-iyul oylarida «O'zDAEWOO» avtokorxonasi «NEXIA», «TIKO», «DAMAS» yengil avtomashinalarini chiqara boshladi. 1999-yilning 1-iyuniga qadar, uch yil davomida 87 mingdan ko'proq «NEXIA», 51 mingdan ko'proq «TIKO», 40 mingdan ortiq «DAMAS» avtomashinalar ishlab chiqarildi.

1993-yilda GFRdagi «MERSEDES BENZ AG» korporatsiyasi bilan Xorazmda yuk avtomashinasini chiqarish uchun shartnoma tuzildi. 1994-yili «Do'stlik» avtomobil zavodida dastlabki 350 «MERSEDES BENZ AG» yuk avtomobili ishlab chiqildi. 1995 yili «O'zavtosanoat» uyushmasi bilan Turkiyaning mashhur «KOCHOLDING» kompaniyasi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida Samarqandning Suishyona mavzesida qad ko'targan avtobus zavodi 1999-yil mart oyida o'zining mahsulotini bera boshladi.

1999-yil mart oyida «SAM KOCAVTO» qo'shma korxonasi ishga tushirildi. O'sha yili foydalanishga qulay, ixcham 163 ta va 302 ta yuk avtomobili, 2000-yilda esa 483 ta avtobus va 102 ta yuk avtomobili ishlab chiqarildi. Respublika aholisi uchun «OTAYO'L» rusumli avtobuslar asosiy transport vositasiga aylandi.

Istiqlol yillarida iqtisodiyotda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagi jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga olib keldi:

- yonilg‘i-energetika resurslariga bo‘lgan ehtiyojini O‘zbekiston o‘zini-o‘zi ta‘minlaydigan bo‘ldi;
- g‘alla mustaqilligiga erishildi;
- ishlab chiqarishda sanoat mahsulotlari hissasi oshgan;
- sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan istiqbolli tarmoqlarning hissasi oshdi.

Natijada O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik davom etdi. Hatto, 1998-yili ichki yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 4,4 foiz, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishi 5,8 foizga ortdi. Iste‘mol mollarini ishlab chiqarish 7,2 foiz ko‘paydi. Avvalgi yillardagi kabi qat‘iy moliya-kredit siyosati amalga oshirildi. Natijada inflyatsiya darajasining pasayishiga olib keldi.

1991-2010-yillar mobaynida YAIMda sanoat ulushi 2,2 barobar, Ya‘ni 11%dan 24%ga o‘sd; tovar va xizmatlar eksport hajmi 2000-2010-yillar davomida 4,1 barobarga o‘sishi ta‘minlanibgina qolmay, 1991-yilda eksport tarkibining qariyb 90%ni xomashyo mahsulotlari tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunda qariyb 70% ni tayyor mahsulotlar tashkil etishiga erishildi.⁶¹

Iqtisodiyotda pozitiv o‘zgarish kuzatilmoqda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 4,2 mlrd dollarni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o‘sd. Investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 37%ga yetdi. Iqtisodiy o‘sish 5,6%ni tashkil etdi, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6%ga, eksport 28%ga ko‘paydi, oltin-valyuta zaxiralarimiz 2,2 mlrd dollarga ortib, 28,6 mlrd dollarga yetdi⁶².

Bizga xos bo‘lgan mashhur tamoyillar doirasida kechayotgan taraqqiyot o‘z samarasini ko‘rsatishi bilan barobar, mamlakatimiz

⁶¹ А.Набихужаев Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирилиги бўлим бошлиғи. и.ф.н., доцент Ю. Шеров П. Султонов. Макроиқтисодий барқарорлик курсаткичлари ва уларнинг Ўзбекистондаги динамикаси. Иқтисод ва молия. №2, 2011.

⁶² Ўзбекистон Президенти 2019 йил 24 январдаги Парламентга мурожаатномаси. https://www.norma.uz/bizning_sharhlar/2020_vilgi_murojaatnoma_prezidentning_maruzasidan_asosiy_tezislar

modernizatsiyasi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar borasida keng miqyosda ilmiy izlanishlar va amaliy ishlar davom etib bormoqda.

3.3. Agrar islohotlar.

Mustaqillikning dastlabki yillarida qishloqni ustun darajada rivojlanishini ta'minlamasdan, qishloq xo'jaligini sifat jihatidan yangi asoslarda qayta tiklamasdan turib mamlakatda iqtisodiy islohotlar samaradorligiga erishib bo'lmay, mamlakat aholisining ko'pchiligini tashkil qiluvchi qishloq mehnatkashlari turmushini yanada to'kinroq qilish vazifasini bajarib bo'lmaydi». Ayni chog'da mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi salmog'i yuqori edi. Shuning uchun iqtisodiy islohotlarning hal qiluvchi bo'g'ini sifatida qishloq xo'jaligida islohot o'tkazish, uni jadal rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. Bunga sabab O'zbekiston aholisining 64 foizdan ko'prog'ini qishloqda yashashi, ya'ni ichki mahsulotning 24 foizdan ko'prog'i agrar sektorga to'g'ri kelishi va qishloqda istiqomat qilganlarning 37 foizga yaqini qishloq xo'jaligi bilan bandligida edi.

Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlab qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda, xususan, «Yer to'g'risida»gi (20-iyun 1990-yil) va boshqa qonunlarda, Prezident farmonlarida qishloq xo'jaligidagi tub islohotlarning huquqiy asoslari yaratildi⁶³. Agrar siyosatda yangicha yondashuvning amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligidagi yuzaga kelgan tanazzulni ma'lum ma'noda to'xtatib turish imkonini berdi. 1992-yil 224 ta davlat xo'jaligi iqtisodiy ahvoli nochor bo'lganligi uchun jamoa xo'jaliklariga, ularning mulki esa jamoa mulkiga aylantirildi. 1993-yildan boshlab jamoa hamda davlat mulkiga asoslangan xo'jaliklarning mulki

⁶³ Муртазаева Р.Х. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. – Т.: Янги аср авлоди, 2005 (лотин алифбосида).

shirkat mulkiga aylantirildi. 1998-yildan boshlab zararga ishlayotgan jamoa va shirkat xo‘jaliklari mustaqil fermer xo‘jaliklariga mustaqil fermer xo‘jaliklariga tanlov asosida aylantirildi⁶⁴.

Bugungi kunda davr talabidan kelib chiqib, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritilmoqda. Mazkur loyihada ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining huquqiy maqomi belgilanmoqda. Unga ko‘ra, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyati bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaligidir.

Ekin ekiladigan maydonlarda tarkibiy o‘zgarishlar qilinib, xo‘jaliklar har qanday ekin ekish sohasida mustaqil bo‘ldilar. Sug‘oriladigan yerlarda g‘alla ekish kengaydi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog‘i 1991-yilda 18,8% ni tashkil etgan bo‘lsa, 1998-yilda 36% ga o‘sdi, natijada g‘alla yetishtirish sezilarli darajada oshdi. Don ekinlari uchun ajratilgan maydonlar 1990-yildan 1998-yilgacha bo‘lgan davr mobaynida, asosan, paxta ekinlari maydonini qisqartirish hisobiga 1,7 barobar oshdi. Don ishlab chiqarish ikki barobardan ko‘proq oshib, 4,15 mln. tonnani tashkil qildi. Agar 1991-yilda 1,9 mln tonna don, shu jumladan, 600 ming tonna bug‘doy yetishtirilgan bo‘lsa, 2002-yilda 5,4 mln tonnaga yaqin don, shu jumladan, 5,0 mln tonnadan ortiq bug‘doy, 2007-yilda 6,25 mln tonna g‘alla yetishtirildi. Sug‘oriladigan yerlarda o‘rtacha hosildorlik gektariga 48,0 sentnerni tashkil etdi. Andijon viloyatida esa rekord natijaga erishildi – har gektardan 75 sentnerdan ortiq xirmon ko‘tarildi⁶⁵.

⁶⁴ Тошилдаев С.Р. Узбекистонда аграр муносабатлар ривожланишининг тарихий жиҳатлари. Дисс.икт.фанлари номзоди. –Тошкент: 2011.

⁶⁵ Жураев Нарзулло. Узбекистон тарих: (Миллий истиқлол даври) 3-китоб / Масъул муҳаррир Н. Абдуазимова. – Т.: “Шарк”, 2011

Bu sohada islohotlarning yangi bosqichi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-oktyabrdagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari huuqurlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5199-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan, endilikda fermer xo‘jaliklari faoliyatida tubdan o‘zgarish, ya’ni fermer xo‘jaliklarida bosqichma-bosqich ko‘p tarmoqli faoliyat yo‘lga qo‘yish ishlari amalga oshiriladi. Unga ko‘ra, faqatgina qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan fermer-tadbirkorlarimiz bozor talablaridan kelib chiqib o‘zlarida qo‘shimcha yo‘nalishlarni joriy qiladi. Ushbu talabga javob bermaydigan, ko‘p tarmoqli faoliyatni yo‘lga qo‘ymagan subyektlar 2022-yilning 1-yanvaridan boshlab yangilik va yangilanishga intiluvchan, yangi g‘oyalar asosida ish yuritishga qobiliyatli, tadbirkorlik qilish, nafaqat o‘zining, balki butun xalqimiz dasturxonini to‘kin bo‘lishiga hissa qo‘shishga tayyor bo‘lgan shaxslar, ayniqsa, yoshlarga joylarini bo‘shatib beradilar. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-oktyabrdagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3318-son qarori bilan O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tashkil etilib, uning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlaridan biri etib ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga ko‘maklashish, ular uchun qulay ishbilarmolik muhitini yaratishda bevosita ishtirok etishi belgilab qo‘yildi. Mazkur Farmon va qarorlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, hozirda ishchi guruhi tomonidan chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik, bog‘dorchilik-uzumchilik, sabzavot polizchilik va qishloq xo‘jaligining boshqa muhim

yo'nalishlarini yanada rivojlantirish, fermer xo'jaliklarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari loyihalari hamda har bir yo'nalish bo'yicha alohida yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish bo'yicha namunaviy shartnoma loyihalari ishlab chiqilmoqda⁶⁶.

O'zbekiston ulkan qishloq xo'jalik resurslariga ega mamlakat uning asosiy qishloq xo'jalik ekinlaridan yana biri paxta hisoblanadi. 2011-yillarda butun Markaziy Osiyo mamlakatlari 2 million tonna paxta tolasi yetishtirgan bo'lsa, birgina O'zbekiston 1 million 400 ming tonna paxta tolasi yetishtirgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.12.2018 y. PQ-4087-son «Paxta xomashyosini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.01.2020 y. 47-son «Ingichka tolali paxta yetishtirishni samarali tashkil qilish, yangi navlarni ko'paytirish va rag'batlantirish mexanizmini joriy etish to'g'risida»gi Qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti ilmiy-ishlab chiqarish markazi ingichka tolali g'o'za navlari genetikasi, seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalarini va ingichka tolali paxta xomashyosini tozalash uskunalarini takomillashtirish

⁶⁶ Қодиров А.Куп тармокли фермер хужаликлари фаолиятини ташкил этиш ва уларнинг фаолиятини йулга қуйиш буйича олиб борилаётган ишлар https://clck.vandex.ru/redirect/nWO_r1F33ck?data=NnBZTWRhdFZKOHRArTENSMFc4S0VOOXpkRDRwMFUtV21LZlpGQlVndkxvOHBjSzZjWGs0RVNtWFdaZ3JXMnIldXpFRHZMVHRuWXPZVksRbFNjMzlnamRIMelidFhpdmE5cDczeG5XR2htS2k0U2ppLXVlc0lmWFB2c1FJVlFWU1k&b64e=2&sign=b1298095116208cf7f186a309fdbe4ce&keyno=17

bo'yicha davlat ilmiy dasturlari grant loyihalarini ishlab chiqishga hamda paxtachilikni rivojlantirishning yangi innovatsion ilmiy yechimini topishga alohida ahamiyat qaratilmoqda⁶⁷.

Respublika sabzavot, meva, uzum yetishtirish bo'yicha ham salmoqli o'ringa ega. 2012-yilda O'zbekistonda yiliga 5 million tonnaga yaqin meva sabzavot yetishtirilgan bo'lsa, 2019-yilga kelib 1,5-2 milliard dollar miqdorida meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilinmoqda. Lekin ushbu sohada yiliga 10-15 milliard dollar mahsulot eksport qilish imkoniyati mavjud. Mahsulot tayyorlash va eksport qilishda "O'zagroeksport" aksiyadorlik jamiyati, birjalar, agrofimlar va ulgurji kompaniyalar katta rol o'ynamoqda.

2005-yilda Respublikada pilla yetishtirish hajmi 60 ming tonmani, 2010-yilda 70 ming tonnani tashkil qilgan. 2019-yil 31-iyul kuni Pillachilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Prezident qarori qabul qilinishi pillachilikni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Ushbu qarorga ko'ra 2022-yil 1-avgustgacha pillachilik korxonalariga 8 turdagi mahsulotlarni AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Turkiyaga eksport qilishda havo va temir yo'llari transportida tashish xarajatlarining 50 foizgacha miqdorini davlat byudjetidan kompensatsiya qilish uchun subsidiya berish, lizing asosida qishloq xo'jaligi texnikasini xarid qilish, mineral o'g'itlar va boshqa material resurslarini yetkazib berish bo'yicha fermer xo'jaliklari uchun nazarda tutilgan shartlar va tartibni pillachilik korxonalariga ham tadbiriq etish, 2020-yil 1-yanvardan tut daraxtlarini g'ayriqonuniy kesganlik, shikastlaganlik yoki yo'q qilganlik uchun undirilgan jarimaning 50 foizi huquqbuzarlik sodir

⁶⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.12.2018 й. ПК-4087-сон «Пاختа хомашёсини етиштиришда томчилатиб суғориш технологияларидан кенг фойдаланиш учун кулай шарт-шароитлар яратишга оид кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар туғрисида»ги Қарори.

bo'lgan hududda yangi tut ko'chatlari ekish uchun yo'naltirish masalalari nazarda tutilgan⁶⁸.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-sentyabr kuni 2020-2030-yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Ushbu yig'ilishda qishloq xo'jaligi yerlarining aniq hisobini yuritish, ulardan foydalanishni takomillashtirish muhimligi qayd etildi. Shundan kelib chiqib, "Davergeodezkadastr" qo'mitasiga 2021-yil oxiriga qadar respublikaning barcha hududlarida yerni hisobga olish ishlarini yakunlash, yer hisobini yuritish bo'yicha yagona elektron bazani yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish va qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilib, bu boradagi jahon tajribasi tahlil qilindi⁶⁹.

Shunday qilib, iqtisodiyot tarkibidagi tub o'zgarishlar, yangi korxonlarning bunyod etilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida samarali natijalar berdi.

Tayanch iboralar:

O'zbek modeli, bozor iqtisodiyoti, vaucher, milliy valyuta, soliq, bozor infrastrukturasi, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyat, kichik va o'rta biznes, xususiy lashtirish, avtomobil ishlab chiqarish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning qaysi asarida bozor iqtisodiyotiga o'tish asoslari yoritib berilgan?

2. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xos yo'li nimalarda namoyon bo'ladi?

⁶⁸ Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 31 iyulda "Tilchilik taromgida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish b'uyicha kuzumcha chora-tadbirlar tuzgusida"gi Karori. www.lex.uz

⁶⁹ Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6 sentyabrda 2020-2030 yillarda qishloq xuzaligini rivojlantirishning ustuvor yunaliishlariga bag'ishlangan yig'ilishda qayd etildi. <http://uz.uz/oz/politics/ishlo-kh-zhaligidagi-isllo-otlarning-vangi-bos-ichi-beleilend-06-09-2019>

3. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” qanday ustuvor tamoyillarga tayangan?

4. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning qaysi asarida bozor iqtisodiyotiga o‘tish asoslari yoritib berilgan?

5. O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tishining o‘ziga xos yo‘li nimalarda namoyon bo‘ladi?

6. Bugungi kunda O‘zbekiston avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha qaysi davlatlar bilan samarali hamkorlikni amalga oshirmoqda?

7. Istiqlol yillarida iqtisodiyotda amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar qanday natijalarga olib keldi?

8. Qishloq xo‘jaligi infrastrukturasi rivojlanishi nimalarga asoslanadi?

9. Qishloq xo‘jaligi tizimidagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?

10. 2016-2019-yillarda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tizimidagi islohotlarning mazmuni nimadan iborat?

4-BOB. IQTISODIY BARQARORLIKNING TA'MINLANISHI. KUCHLI IJTIMOIIY SIYOSAT.

4.1. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholining ijtimoiy ahvoli hamda kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi.

4.2. O'zbekistonda aholi salomatligini mustahkamlash va tibbiyot sohasidagi islohotlar.

4.1. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholining ijtimoiy ahvoli hamda kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq aholini ijtimoiy himoya qilishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab oldi. Bu esa olib borilayotgan islohotlarning, avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishining yorqin dalili ekanligini isbotlaydi. Dunyo e'tirof etgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyilning aynan biri ham kuchli ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, «Bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin insonlarni ijtimoiy himoya qilish tadbirlari amalga oshirilmog'i lozim. Davlat o'z aholisini himoya qila olgan taqdirdagina, insonparvar hisoblanadi»⁷⁰ deyilgan.

Shu maqsadda har yili ijtimoiy himoya tizimiga ajratiladigan saramoyalarning ko'lami ortib bormoqda. Masalan, 2006-yilda byudjet mablag'larining 51,9% i "Ijtimoiy himoya yili" Davlat

⁷⁰ Каримов И.А. Узбекистоннинг уз истиклол ва гарақкийет йули // Узбекистон: миллии истиклол, иктисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. Тошкент: Узбекистон, 1996.

- Б. 65.

dasturi doirasida aholining ijtimoiy himoyasiga 484 mlrd. soʻmdan ortiq (53,8%), 2008-yil «Yoshlar yili» da 1,5 trln. soʻmdan ortiq (54,6%), «Barkamol avlod yili» doirasida 1 trillion 700 milliard soʻm, «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik» yilida 2 trillion soʻm miqdorida mablagʻ ajratildi⁷¹. 2016-yil – “Sogʻlom ona va bola yili”da mamlakatimiz tibbiyot muassasalarini zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash uchun 80 million dollar qiymatidagi kredit va grant mablagʻlari yoʻnaltirildi, farzand koʻrish yoshidagi ayollar va bolalar tibbiy koʻrikdan oʻtkazilib, sogʻlomlashtirildi⁷².

Yuqoridagi raqamlardan koʻrinib turganidek aholining ijtimoiy himoyasiga yoʻnaltirilgan mablagʻlarning miqdori yildan-yilga ortib bormoqda va bu boshqa sohalarga nisbatan ham koʻpni tashkil qiladi.

Shunday ekan, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq aholining kam taʼminlangan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini moddiy qoʻllab quvvatlashning qonunchilik tizimi izchil shakllana bordi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida: «Har bir shaxs qariganda, mehnat layoqatini yoʻqotganda, boquvchisidan mahrum boʻlganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat ijtimoiy taminotini olishga haqli»⁷³ deb mustahkamlangan. Oʻzbekiston Respublikasida imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy himoya qilish pensiya, ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat koʻrinishlarda namoyon boʻladi. Ijtimoiy himoyaning bir koʻrinishi sifatida pensiya 3 xil toifadagi fuqarolarga beriladi.

⁷¹ Юсупов Д. Узбекистонда ижтимоий ипниниң ривожланиш жараёнлари / Кадрият. – Тошкент, 2012 йил 4 апрель . – №34.

⁷² Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 5 январь куни соғлиқни сақлаш соҳасининг бир гуруҳ етакчи мутахассислари билан учрашувдаги маърузаси. Халқ сузи. 2017 йил 12 январь.

⁷³ Узбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Узбекистон, 2015. – Б. 15.

1. Yoshga doir
2. Nogironlik
3. Boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan beriladigan pensiya sifatida ta'minlanadi.

Bundan tashqari, 1994-yildan buyon nafaqalarni belgilashda nogironlarga to'lanadigan nafaqalar miqdori eng kam oylik ish haqidan balandroq qilib belgilana boshladi. Xususan, iqtisodchi olim B.Umurzaqovning tahlil qilishicha, 1993-yilda eng kam ish haqi miqdori 2500 so'm va eng kam pensiya miqdori ham shuncha qilib belgilangan bo'lsa, 1994-yil iyul oyidan boshlab eng kam ish haqi miqdori 70 so'm, pensiya miqdori 75 so'm qilib belgilangan⁷⁴. 1996-yilda 1995-yildagiga nisbatan 2,7 barobar oshirildi. 1998 yilda 1400 so'm, o'rtacha 1945, eng yuqori miqdori 3937 so'mni tashkil qilgan bo'lgan⁷⁵. Nogironlarning ijtimoiy ahvoli inobatga olinib, eng kam pensiya miqdori eng kam ish haqi miqdoridan ortiqroq qilib belgilandi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi Qarorlarining qabul qilinishi natijasida pensiyalar miqdori eng kam oylik ish haqidan ancha yuqori qilib belgilandi. Ayniqsa, 2000-2004-yillarda nogironlik pensiyalarining o'rtacha ko'rsatkichi 3 marta oshirildi⁷⁶.

Buni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti quyidagicha tahlil qilgandilar «Kuni kecha 1-avgustdan e'tiboran o'rtacha ish haqi, stipendiyalar, pensiya vanafaqalarni 1,4 barobar oshirish haqida Farmon qabul qilindi.

Agar yanvar oyidagi ish haqi va pensiya, stipendiyalarning

⁷⁴ Умурзаков Б.Х. Совершенствование системы социальной защиты нетрудоспособных слоев населения Республики Узбекистан в условиях формирования рыночной экономики. Дисс... канд.экон.наук. –Ташкент, 1995. – С. 65.

⁷⁵ Агзамходжаев З. Социальная сфера: адресно на правовой основе / Кадрият. – Ташкент, 1998 йил, 27 апрель, №48. – Б. 3.

⁷⁶ Гендерное равенство в Узбекистане: факты и цифры 2002-2004. Госкомстат Республики Узбекистан. Статистический сборник (программа развития ООН Узбекистан), Ташкент, 2005.– Б. 84.

oshirilganini qo‘shib hisoblaydigan bo‘lsak, bu raqam yil bo‘yicha 1,7 barobarni tashkil etadi. Bu taxmin qilingan inflyatsiya, Ya‘ni narx oshishi sur‘atlariga nisbatan 3 marta ko‘pdir. Ish haqini oshirish uchun qo‘shimcha 50 milliard so‘mlik byudjet mablag‘lari qidirib topildi. Aholining nochor tabaqalari – kam ta‘minlangan oilalar, nogironlar, yolg‘iz nafaqadorlarga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordamning aniq borib yetishiga katta ahamiyat berilmoqda. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni ta‘minlash uchun mustahkam me‘yoriy-huquqiy zamin va samarali mexanizm yaratildi»⁷⁷.

1997-yilda ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyaviy ta‘minlash uchun davlat byudjetidan 123 milliard so‘m yoki byudjet xarajatlarining 40 foizi ajratildi. Shu jumladan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo‘yicha 30mlrd so‘m sog‘liqni saqlash, gazlashtirish, suv ta‘minoti va ijtimoiy sohaning boshqa obyektlari qurilishi uchun 34 mlrd. so‘m ajratildi. Yil davomida 6.7 mln. kv.metr uy-joy ishga tushirildi. 16 yoshgacha farzandi bor bo‘lgan oilalarga nafaqa to‘lash uchun 9.6 mlrd. so‘m sarflandi.

Iqtisodiy taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘lini tanlagan mamlakatimiz yorqin istiqbol sari ishonchli qadamlar tashlayotganligi hammaga ma‘qul. Jahon hamjamiyati o‘rtasida uning obro‘ va nufuzi oshayotganligi ham real haqiqat. Keyingi yillardagi farmon va qarorlarda yurt taqdiri, inson manfaatlari yotadi. Zero insonparvarlik davlatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishidir. Ayniqsa, “Bolali oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi farmonda 2 ta asosiy maqsad ko‘zda tutilgan: birinchisi, bolali oilalarga ijtimoiy aniq yordam berilishini kuchaytirish bo‘lsa, ikkinchisi bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari roli va mas‘uliyatini yanada kuchaytiradi⁷⁸.

⁷⁷ Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 26.

⁷⁸ Халикова Л.Н. ижтимоий ҳимоя социал-иқтисодий мунсабат сифатида. Дисс...

Aholining kam ta'minlangan qatlamlarining davlat tomonidan moddiy ta'minlash doimiy ravishda takomillashtirilib bormoqda. 1997-yil sentyabr oyidan boshlab, har yili 1-sinf o'quvchilariga bepul o'quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo'lga qo'yildi. Serfarzand va kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash tizimi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Kam ta'minlangan oilalarga va ko'p bolali muhtoj oilalarga moddiy yordam to'lovlarini moliyalashtirishning asosiy manbasi Respublika va mahalliy byudjet vositalaridir. Kam ta'minlangan oilalarga 1998-yilda to'langan nafaqalarning umumiy miqdori 3 mlrd. so'mni tashkil qildi, 16 yoshgacha bo'lgan farzandli oilalarga to'langan nafaqalar – 15,6 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Bunday holat pensiya oluvchilar sonining ortib borishiga ham ma'lum bir ma'noda ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni, 1990-yillardan to 2002-yilgacha pensiya oluvchilar soni yildan-yilga oshib bordi.

Natijada 1991-yilda jami pensionerlar soni 215905 ming nafar bo'lgan bo'lsa⁷⁹, 1998-yilda jami pensionerlar soni 2 mln 798,4 ming nafarga⁸⁰ yetdi, shulardan 574,4 nafari nogironlik pensiyasini oluvchilardir⁸¹. 2005-yilning boshida ijtimoiy himoya organlari tizimida 32224,8 ming pensioner, jumladan, 49,9% ayollar va 50,1% erkaklar. Pensionerlarning umumiy sonidan ayollar orasidan yoshga doir pensiya oluvchilar 74,2%, erkaklar orasidan 44,6%, nogironlik uchun 17,1% va 18,3% qilib belgilandi. 2008-yilda 539,2 nafar, 2009-yilda 600,4 nafar, 2010-yilda 535, nafarga oshgan bo'lsa,

иктисод фан. номзоди. –Самарканд:2000.

⁷⁹ УзМДА, М.110-жамғарма, 1-руйхат, 335-йиғма жилд. 7-варақнинг оркаси.

⁸⁰ Агзамходжаев З. Социальная сфера: адресно на правовой основе / Қадрият. Тошкент, 1998 йил 27 апрел. – №48

⁸¹ Умурузаков Б.Х. Совершенствование системы социальной защиты нетрудоспособных слоев населения Республики Узбекистанв условиях формирования рыночной экономики. Дисс. канд.экон.наук. Ташкент: 1995. – С. 65.

2011-yilga kelib ularning soni 451,1 nafarga kamaydi⁸²(Jadval.3.5). Buning sababi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2009-yil «Pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan 3-guruh nogironligi bekor qilindi. Shuning hisobiga nogironlik pensiyasi oluvchilar soni 2010-yildan 2011-yilgacha keskin kamaygan. Ayrim manbalarda ushbu hol nogiron bolalar tug'ilishining kamayishi bilan izohlansada, keyingi yillarda ijtimoiy nafaqa oluvchi 16 yoshgacha nogiron bolalar soni ortib borgan. Masalan, 2013-yilda nafaqa oluvchi bolalar absolyut son va foizlar hisobida 78356 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2014-yilda 79238 nafarga, 2015-yilda 81530 nafarga ortdi⁸³. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganlaridek, «Qariyalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha tasdiqlangan dasturni amalga oshirish alohida nazoratga olinishi kerak. Har bir imtiyoz va ijtimoiy himoya chorasi o'z egasiga yetib borishi darkor»⁸⁴.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy yordam tizimini kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 7-dekabrda qarori bilan 2000-2005-yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi⁸⁵va O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006-yil 7-sentyabrdagi qaroriga asosan ishlab chiqilgan «2007-2010-yillarda yolg'iz

⁸² Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Социальное развитие и уровень жизни в Узбекистане. –Ташкент, 2012. – С. 45.

⁸³ Uzbekiston Respublikasida birламчи ногирошлик ҳолати ва унинг 2013-2015 йиллардаги солиштирма курсаткичлари таҳлили (таҳлилий-статистик кулланма). – Тошкент: Истиқбол, 2015. – Б. 46.

⁸⁴ Мирзисев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси булиши керак. – Тошкент: Узбекистон, 2017. –104 б.

⁸⁵ Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Маҳкамасининг «2000-2005 йилларда ёлғиз кексалар, пенсионерлар ва ногиронларни ижтимоий химоя қилишни кучайтиришга қаратилган чора-тадбирлар дастури туғрисида»ги Қарори // Uzbekiston Respublikasi қонун ҳужжатлари тўплами, 2004. 3-сон, 31-модда.

keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniq manzilli ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmat tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Dasturiga asosan 2007-yildan boshlab O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand va Farg'ona universitetlarida oliy ma'lumotli ijtimoiy xizmat xodimlarini tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi, «Saxovat» va «Muruvvat» uylariga 2009-yil 1-noyabrda 552,8 mln so'mlik homiylik yordami ajratildi. 2008-yil 9300 kishi, 2009-yili 12078 nafar kishi protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta'minlandilar. 2008-yilda 2821, 2009-yilda 2662 nafar shaxs nogironlar aravachasi bilan ta'minlandilar, 2008-yilda 1 304 nafar odam, 2009-yilda 1 225 nafar odam eshitish moslamasi bilan, 2008-yilda 1 510 nafar odam, 2009 – 1404 * ta'minlandi. Ammo ushbu protez-ortopediya mahsulotlari muhtoj bo'lganlarning barchasini to'liq qamrab ololmayapti. Masalan, 2001-yilda 1234 nafar nogiron bola protez mahsulotlariga muhtojlik sezsa, shulardan atigi 40% i ta'minlangan, 2010-yilda 1634 nafar muhtojlarning 1304 nafari ta'minlangan. 2016-yilga kelib protez-otopediya mahsulotlariga muhtojlar soni 2996 nafar bo'lib, 2525 nafari ta'minlangan⁸⁷. Shulardan 10% i Sirdaryo viloyati hissasiga to'g'ri keladi⁸⁸.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Nogironlik guruhini aniqlash hamda protez-ortopediya va rehabilitatsiya texnika vositalari bilan ta'minlashda tibbiy-maslahat komissiyalari va tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari faoliyatida byurokratik tartib tamoyillar bartaraf etilmagan⁸⁹.

⁸⁶ Государственная программа по повышению социальной защиты инвалидов и их интеграции в общество на 2011-2015 гг.

* Uzbekiston Respublikasida birламчи ногиронлик ҳолати ва унинг 2013-2015 йиллардаги солиштирма курсаткичлари таҳлили (таҳлилий-статистик қўлланма). –Тошкент: Истикбол, 2015. – Б. 63.

⁸⁸ Сирдарё вилоят Давлат архиви, 322-жамгарма, 1-руйҳаг, 61-йиғма жилд. 18-варақ.

* Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironlarni davlat tomonidan қўллаб қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари туғрисида»ги Фармойиши // Халқ сузи, –Тошкент, 2017 йил 2 август, –151(6845).

Nogironlar uchun reabilitatsiya texnika vositalari ishlab chiqarish bo'yicha korxonalarni modernizatsiya qilish talab etiladi. Respublikada nogironlar uchun protez mahsulotlari va reabilitatsiya texnika vositalari ishlab chiqarish bo'yicha 7 ta korxonalar faoliyat yuritadi, ularning atigi 2 tasi zamonaviy talablarga javob beradi. Boshqa korxonalarda foydalanilayotgan asbob-uskunalar ma'nan va jismonan eskirgan bo'lib, bu tayyorlanadigan buyumlarning, birinchi navbatda, protez-ortopediya buyumlarining sifati va qulayligiga ta'sir ko'rsatadi». ⁹⁰ Mavjud muammolarning barchasi nogironlarni protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta'minlash borasidagi faoliyatning monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yilmaganligidan dalolat beradi.

Har yili davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish uchun milliardlab mablag' ajratiladi. Masalan, «2007-2010-yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniq manzilli ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmat tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Dasturining mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan 2011-yil 30-maydagi «2011-2015-yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazining 150 o'ringa mo'ljallangan davolash korpusi ta'mirlandi. Samarqand viloyati nogironlar uchun reabilitatsiya markazida esa 75 o'rinli yangi reabilitatsiya binosini qurish ishlari yakunlandi⁹¹. Keksalar va nogironlar istiqomat qiladigan «Sahovat» va «Muruvvat» uylarida ham yolg'iz qariya va nogironlar uchun uyidagidek sharoit yaratish

⁹⁰ «Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironlarni davlat tomonidan ku'llab-kuvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farмойиши // Халқ сузи, –Тошкент, 2017, 2 август, – 151(6845).

⁹¹ Қосимов Ш.(Ногиронларни реабилитация қилиш ва протезлаш миллий маркази бўлим мудирини) 2012 йил Реабилитация: Назария ва тажрибалар амалиётга / Кадрият. – Тошкент, 2012 йил 29 сентябр. – Б. 4.

maqsadida 2012-yilda 9573,0 mln. soʻmlik qurilish va taʼmirlash ishlari amalga oshirildi.

Sogʻliqni saqlash vazirligi tizimidagi 33 ta «Sahovat» va «Muruvvat» uylarida, shulardan 8 tasi «Sahovat» uyi, 5 ta «Bolalar muruvvat» uyi, 20 ta erkaklar va ayollar «Muruvvat» uylari boʻlib, ularda 7 ming nafarga yaqin yolgʻiz keksa-qariyalar, nogironlar davlat tomonidan toʻliq taʼminotga olinganlar⁹²(2 jadval). 2017-2021-yillarda barcha «Sahovat» va «Muruvvat» uylari kapital rekonstruksiya qilinadi. Ularning moddiy texnik bazasi tiklanib zamonaviy sharoitlar yaratiladi⁹³. Ushbu tibbiy-ijtimoiy muassasalarda aholining muhtoj qatlamlari hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan yangi ijtimoiy texnologiyalar joriy qilindi. Xususan, aloqador vazirliklar va tashkilotlar hamda hokimiyatlar bilan hamkorlikda 4,6 mingta reabilitatsiya texnik vositalarini (nogiron aravachalari, eshitish moslamalari, hassa va qoʻltiqayoq va boshqalar) vaqtincha foydalanishga berish prokat punktlari tashkil qilinib, fuqarolarga xizmat koʻrsatmoqda. Bugungi kunda faoliyat koʻrsatib kelayotgan 177 ta muloqotda boʻlish va xordiq chiqarish markazlariga 18 ming nafar yolgʻiz keksalar, pensioner va nogironlar jalb qilinib, bu yerda ularga ambulator tipda kunduzgi koʻrinishdagi ijtimoiy xizmat turlari koʻrsatilmoqda.

Toshkent shahrida tajriba tariqasida joriy etilgan «Harakatlanishda qiynalayotgan fuqarolarga bepul transport xizmat koʻrsatish» tizimi respublikaning yana 192 ta tuman (shahar) larida ham joriy etilib, bu yoʻnalishda 8057 nafar yolgʻiz keksalar, pensioner va nogironlarga bepul transport xizmati amalga oshirildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-avgustdagi «Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari

⁹² Ўзбекистон Республикасида алоҳида эҳтиёжни кишилар учун фаолият юритаётган муассаса ва ташкилотлар ҳақида маълумотнома. – Тошкент, 2008. – Б. 25-26.

⁹³ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.

to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi Qarori qabul qilindi va bu bilan vazirlik tasarrufidagi «Saxovat» uylari, «Muruvvat» uylari, bolalar «Muruvvat» uylari, Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionati, Urush va mehnat faxriylari uchun sihatgohlarning namunaviy nizomlari tasdiqlanib, mazkur muassasalarda ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy va maishiy xizmatlarning kafolatlangan standart shakllari belgilab berildi.

2011-yilga kelib O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining «O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»⁹⁴ gi Buyrug'iga asosan ijtimoiy xizmat xodimlarining asosiy vazifalari tizimi ishlab chiqildi. Unga ko'ra ijtimoiy xizmat xodimlari tomonidan nogironlar uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlarini uyiga yetkazib berish, kiyimlari va uy anjomlarini tozalab berish, tibbiy yordam ko'rsatish kabi vazifalar yuklangan va ular aholining ishsiz qatlamidan saralab olinadi. Tuman badlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan ijtimoiy xizmat xodimlarining faoliyati monitoring qilib boriladi va har haftalik natijaga ko'ra uning faoliyatiga baho beriladi. Lekin, Mehribonlik uylari, Bolalar uylariga ijtimoiy xizmat ko'rsatish va himoya qilish Respublika reabilitatsiya markazida bor-yo'g'i bir necha oliy ma'lumotli ijtimoiy xizmatchi lavozimi joriy etilgan. Ya'ni, Respublika bo'ylab atigi 40 ta professional ijtimoiy xizmatchi lavozimi mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2011-yil 30-maydagi «2011-2015-yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq, nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy marakazining

⁹⁴ Uzbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining «Uzgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam kursatish haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi Buyrug'i // Uzbekiston konun hujjatlari toplami, 2011, 28-son, 294-modd; 2015, 11-son, 129-modd.

150 o'ringa mo'ljallangan davolash korpusi qayta ta'mirlashdan chiqarildi. Samarqand viloyati nogironlar uchun reabilitatsiya markazida esa 75 o'rinli yangi reabilitatsiya binosini qurish ishlari yakuniga yetmoqda. Shuningdek, mazkur qarorga asosan 2015-yilga qadar Toshkent, Namangan va Farg'ona viloyatlaridagi Nogironlar uchun hududiy reabilitatsiya markazlaridagi davolash korpuslari ham qayta ta'mirlandi.

2012-yil «Navro'z» va «Mustaqillik» bayramlari arafasida 22 ming nafar yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarga, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga salkam 3 mlrd. so'mlik moddiy yordam ko'rsatildi. 15700 nafar muhtoj nogironning protez-ortopediya mahsulotlari va reabilitatsiya texnik vositalariga bo'lgan ehtiyoji qondirildi. 2004-yilda Ulardan 4594 nafariga protez-ortopediya mahsulotlari, 1322 nafariga nogironlar aravachasi, 676 tasiga eshitish moslamasi va qariyb 3,4 ming nafariga hassa va qo'ltiq-tayoqlar bepul yetkazildi.

Bugungi kunda tizimdagi nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlari tomonidan nogironlarni yakka tartibda reabilitatsiya qilish, bu borada sog'likni saqlash tizimi bilan yaqindan hamkorlik qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida reabilitatsiya markazlarida salkam 15 ming nafar nogironlar reabilitatsiya qilindilar. 2012-yil 3-dekabr xalqaro nogironlar kuni arafasida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida istiqomat qilayotgan nogironlarga 579 dona nogironlar aravachasi, 55 dona eshitish moslamasi, 550 ta hassa va 40 juft qo'ltiq-tayoqlar ajratilib, joylarda o'tkazilayotgan tadbirlarda muhtoj nogironlarga yetkazildi⁹⁵.

⁹⁵ — Ўзбекистон ногиронлар жамияти жорий архив материаллари. Пресс релиз, 3-декабр «Халқаро ногиронлар куни»га бағишланган тadbир ва матбуот-анжуманига тайёрланган маъруза, – Тошкент, 2012 йил 3 декабр.

Manzilli ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ijtimoiy qo'llab quvvatlashga ehtiyojmand aholi qatlamlarining turmush darajasi sifatini oshirish, 2008-2013-yillarda O'zbekistonda nogironlar jamiyati tarkibidagi viloyat tuman nogironlar jamiyatlari jismoniy imkoniyatlari cheklangan turli yoshdagi aholi qatlamlarini qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan 135 dan ortiq loyiha uchun 1 mlrd 614,5 mln so'mdan ortiq mablag'lar yo'naltirilgan. «Mustahkam oila yili» Davlat dasturini (2012-yil) amalga oshirish doirasida NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarini aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamlariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga yanada keng jalb qilish, ularning sifatini yaxshilash va yangi ish o'rinlari yaratish yo'lida jamoat fondi va parlament komissiyasi o'z tajribasida davlat granti ajratish bo'yicha birinchi marta qo'shma tanlov o'tkazdi.

Ushbu tanlov «Aholininig ijtimoiy ko'makka muhtoj qismiga xizmatlar ko'rsatishga NNT larni jalb qilish» mavzusida BMT TD O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda o'tkazildi. Tanlovning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, Parlament komissiyasining qaroriga asosan ijtimoiy muhim deb topilgan 19 nafar loyiha 280,0 mln so'mdan ortiq mablag' bilan qo'llab-quvvatlandi. Natijada o'zganing ko'magiga muhtoj bo'lgan jismoniy imkoniyati cheklangan fuqarolarga va yakka yolg'iz nafaqaxo'rlarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, protez-ortopedik mahsulotlar, rehabilitatsiya texnik vositalarini ishlab chiqish oshirildi, ijtimoiy tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengaytirildi⁹⁶.

Keksalar va nogironlarni rehabilitatsiya qilishning bir turi sifatida Nogironlar va keksalarni bepul sanatoriya-kurort yo'llanmalari bilan ta'minlash tartibi to'g'risida⁹⁷gi Yo'riqnomada (ro'yxat raqami

⁹⁶ Саидова А.Х., Тураева Т. «Мамалакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси»ни фаол амалга оширишда жамоат фонди ва парламент комиссияси фаолияти. (график ва статистик рақамлар). –Тошкент: ARTFLEX, 2015. – Б. 44

2356, 2012-yil 27-aprel) keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylarga bepul yo‘llanmalar berish tartibi belgilab qo‘yilgan. Respublikamizda nogironlar uchun Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida «Tovoqsoy», «Oltiariq», «Kosonsoy», «Taxiatosh», «Marjon suvi», «Nuroniylar» urush va mehnat faxriylari sihatgohi, Jizzax viloyatidagi «Qariyalar» oromgohi kabi 7 ta sihatgoh va oromgohlar mavjud bo‘lib,⁹⁷. Ushbu sanatoriylarga har yili 7 mingdan ortiq nogironlar davolanishga boradilar. Birgina Jizzax viloyatidagi «Qariyalar» oromgohida yiliga 1400 kishi davolangan bo‘lsa, 2013-yildan boshlab yiliga 2800 nafar dam oluvchi davolanish imkoniyatiga ega bo‘ldi⁹⁸.

2012-yilning o‘zida 55 nafar yolg‘iz keksalar dispanser ko‘rigidan o‘tkazildi. Ulardan 4 nafari sihatgohlarda davolandi, 32 nafariga 325 ming so‘mlik bepul dori-darmon yetkazib berildi. Bir kishi ko‘z oynak va yana bir kishi nogironlar aravachasi, 8 kishi hassa bilan ta‘minlandi. Ushbu maqsadlarga 528 ming mablag‘ sarflandi. «Oltiariq», «Kosonsoy», «Marjon suvi», «Nuroniylar» oromgohlariga 45 nafari, 83 kishi esa Jizzax qariyalar pansionatiga yo‘llanmalar bilan ta‘minlandilar. Bu imtiyoz bilan mustaqillikning dastlabki yillarida (1993-yil) 210 ming, 1994-yilda 915 mingga yaqin pensionerlar foydalangan bo‘lsalar, 2014-yilga kelib 2900 nafar pensionerlar «Oltiariq» va «Tovoqsoy» sanatoriylariga yo‘llanmalar oldilar⁹⁹. Shuningdek, muhtoj nogironlardan 6 nafariga nogironlik aravachasi, 6 nafariga eshitish moslamasi, 25 nafariga hassa, 4 nafariga qo‘ltiqtayoq yetkazib berildi¹⁰⁰. 2012-yilning o‘tgan to‘qqiz oyi yakuni bo‘yicha, rehabilitatsiya markazida jami 3433 nafar nogironga (shu jumladan, 210 nafar bola) kompleks

⁹⁷ Ўзбекистон республикасида алоҳида эҳтиёжли кишилар учун фаолият юритаётган муассаса ва ташкилотлар ҳақида маълумотнома. – Тошкент: 2008. – Б. 25.

⁹⁸ Саидов О. Соғлом танда-соғ ақл / Қадрият. –Тошкент, 2013 йил 19 январь. – №3. – Б. 2.

⁹⁹ ЎЗМДА, М.44-жамғарма, 1-руйхат, 25-йиғма жилд. 13-варак.

¹⁰⁰ Зуфаров Ё. Ижтимоий ҳимоянинг муҳим кафолати / Қадрият. – Тошкент, 2012. – №12-14. – Б. 3.

reabilitatsiya tadbirlari o'tkazildi. 22 nafar bemor nogironning chanoq son bo'g'imida endoprotezlash jarrohligi amalga oshirildi.

Yaponiya tomonidan beg'araz grant yordami sifatida NRPMM ga berilgan tibbiy asbob-uskuna va jihozlar markazni yangi rivojlanish markaziga olib chiqdi. Natijada, nogironlarni funksional-diagnostika va tibbiy ijtimoiy reabilitatsiya qilish tadbirlarining sifati, ish ko'lamini samaradorligi ortdi. Grant orqali olingan barcha tibbiy apparaturalar markazning klinik bo'limlari, jarrohlik bo'limi va intensiv terapiya bo'limi, kompyuter tomografiya bo'linmasi, fizioterapiya va davolash, badan tarbiya, funksional diagnostika nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul xizmat ko'rsatmoqda. Andijon viloyat markazidagi reabilitatsiya markazi orqali uch yil davomida 1774 nafar homiylik yo'li bilan qayta davolandi. 192 nafar nogironga ortopedik xizmati ko'rsatildi¹⁰¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabr-dagi «Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2705-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 1-avgust-dagi R-5006-sonli «Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoyishi, 2017-yil 1-dekabr-dagi «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga asosan «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonun asosida nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

¹⁰¹ Кушоков Т. / Кадрият. –Тошкент. 2013 йил 22 апрель. – №14-16. – Б. 3.

Ayniqsa, ularni uy-joy bilan ta'minlash, rehabilitatsiya va abilitatsiya qilish, jamiyatga ijtimoiy moslashtirish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-yanvardagi "Uy-joylar qurishni rivojlantirish bo'yicha maqsadli Dasturlarini samarali amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-3480 sonli qaroriga asosan 2018-yil Dasturiga 22 145 ta yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurilishi belgilangan.

2019-yillarda nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan xotin-qizlarga jami **3 mingta** uy berilishi rejalashtirilgan, shundan **1 ming 640 tasi** sentyabr oyigacha berilishi mo'ljallangan bo'lib, shu kungacha jami **1 ming 691 nafar** uy-joyga muhtoj, nogironligi bo'lgan xotin-qizlarga uy-joy ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uylarni berish to'g'risida"gi 285-son qaroriga muvofiq, Xotin-qizlar qo'mitasi qoshidagi Xotin-qizlarni va oilani qo'llab quvvatlash jamoat fondi orqali 2020-yilning 1-yanvar holatiga **1207 nafar** uy-joyga muhtoj, og'ir turmush sharoitidagi va nogironligi bo'lgan xotin-qizlar uchun jami **47,7 mlrd.** so'mlik boshlang'ich to'lov miqdori to'lab berildi. Umumiy qilib olganda, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatishning kompleks tizimi yaratildi.

Umumiy qilib olganda, Respublika bo'yicha har yili 100 ming nafardan ortiq fuqaroga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun 150 milliard so'm miqdoridagi mablag' ajratiladi. Birgina Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida 95 mingdan ortiq keksa va nogironlar ijtimoiy yordam olishadi. Shulardan 30 ming nafari sog'lomlashtirish maskanlarida, 17 mingi rehabilitatsiya markazlarida, 16 mingiga uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatiladi, 12 mingiga har yili protez-ortopediya mahsulotlari taqdim qilinadi. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatishning kompleks tizimi yaratildi.

4.2.O'zbekistonda aholi salomatligini mustahkamlash va tibbiyot sohasidagi islohotlar.

Aholining salomatligi davlatning farovonligidan dalolat beruvchi eng asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab onalar va bolalar salomatligi va nogironlikning oldini olish yo'lida uzluksiz islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ularga tibbiy yordam sifatini oshirish va bu borada qulayliklar yaratish ishlarini barcha hududlarda yuksaltirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalashda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining keyingi yillarda qabul qilgan qarorlari, har bir yilga nom berilishining zamirida o'z aksini topgan. Masalan, 1999-yil «Ayollar yili», 2000-yil «Ona va bola yili», 2010-yil «Barkamol avlod yili» va h.k. Respublikamizda sog'lom naslning shakllantirish bilan bir qatorda nogiron bolalarni ham sog'lomlashtirish yo'lida izchil islohotlar olib borilmoqda va buning uchun mustahkam qonunchilik bazasi ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonun, «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun, «Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida»gi Qonun, «O'zbekiston Respublikasida OIV kasalligining tarqalishiga qarshi kurashning samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», «Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining «16 yoshgacha bo'lgan bolalarni nogiron deb topish haqidagi tibbiy xulosa berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori, «Nogironni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturini tasdiqlash

to'g'risida»gi Qonuni¹⁰², O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy hojatmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida»gi Qonuni, «Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoyishi kabi 70 dan ortiq normativ huquqiy-hujjatlar bilan tartibga solinadi. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga¹⁰³ ega ekanligi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 40-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Mamlakatda sog'liqni saqlash sohasidagi islohot bosqichma-bosqich olib borildi. Birinchi bosqich, 1991-1994-yillarda butun e'tibor onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish, demografik ko'rsatkichlarni barqarorlashtirish, yukumli kasalliklarni kamaytirishga qaratildi.

Ikkinchi bosqich 1994-1998-yillarda dorixonalar va bir qancha davolash-profilaktika muassasalari xususiylashtirildi, ambulatoriya-poliklinika xizmati rivojlantirilib qayta tuzildi. Natijada, aholining kasalxonada yotib davolanishi 1997-yildagi 18,3% o'rniga 2001-yilda 13,8% ga kamaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-maydagi «O'zbekiston Respublikasi qishloqlari ijtimoiy infrastrukturasi 2000-yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq sog'liqni saqlash sohasida mutlaqo yangi muassasa – qishloq vrachlik punktlari tashkil etish va aholiga dastlabki feldsherlik yordami emas, balki malakali vrachlik yordami ko'rsatish ko'zda tutildi. Qishloq vrachlik punkti uchun hamma ko'rsatkichlar – moddiy ta'minot, kadrlar, zamonaviy asbob-uskunalar va dori-darmonlar bilan ta'minlash bo'yicha xalqaro standartlarga mos keladigan maxsus mezon ishlab chiqildi.

¹⁰² Uzbekiston Respublikasining 2009 йил 18 мартдаги 75-сонли «Ногиронни реабилитация қилишнинг яқка тартибдаги дастурийни тасдиқлаш туғрисида»ги Қонуни // www.lex.uz

¹⁰³ Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Тошкент: Uzbekiston, 2015.
– Б. 15

1998-yildan sogʻliqni saqlashning rivojlanishida yangi davr boshlandi – 1998-yil 10-noyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining farmoni bilan 1998-2005-yillarda sogʻliqni saqlash tizimini qayta qurish Davlat dasturi qabul qilindi. Unda mamlakat aholisiga tibbiy yordam koʻrsatish sifatini oshirish tadbirlari koʻrsatib berildi. Bu dastur asosida sogʻliqni saqlashning birlamchi boʻgʻinini mustahkamlash va umumiy vrachlik amaliyotini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Hamma viloyatlarda qishloq vrachlik punkting keng tarmoqlari tashkil etildi, natijada ikki bosqichli, yaʼni qishloq vrachlik punkti hamda tuman markaziy shifoxonasi orqali tibbiy yordam koʻrsatish yoʻliga qoʻyildi. Mazkur ishlar Jahon banki bilan hamkorlikda «Salomatlik» loyihasi asosida amalga oshirildi. Bu sogʻliqni saqlashning birlamchi boʻgʻini muassasalarini boshqarish va moliyalashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish, tibbiy xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilash va umumiy amaliy tibbiy xodimlar tayyorlash imkonini berdi¹⁰⁴.

Ammo ushbu tizim doirasida bajarilgan ishlar barcha viloyatlarda ham birday amalga oshirilmadi va natijada Respublika miqyosida nogironlar soni yil sayin ortib bormoqda. Buning asosiy sabablari sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganlaridek, «Tugʻma va nasliy kasalliklarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish boʻyicha koʻrilayotgan choralar kutilgan natijani bermayapti. Chaqaloqlarni perinatal skriningi koʻrigidan oʻtkazish tugʻma nuqsonlarni oʻz vaqtida aniqlashni va nogironlikning keyinchalik oldini olishni taʼminlamayapti»¹⁰⁵.

Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida umumiy aholi

Т. Файзуллаев, А. Саримсоқов. Мустақил Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши (уқув- услубий кулланма). – Наманган, 2013. – 185 б.

¹⁰⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ногиронларни давлат томонидан қўллаб қувватлаш тизimini янада такомиллаштириш чора-тадбирлари туғрисида» и Фармойиши // Халқ сузи, –Тошкент, 2017 йил 2 август, – 151(6845).

soni 22 million bo‘lib, ular orasida nogironlar soni 350 mingni tashkil qilgan bo‘lsa,¹⁰⁶ 1996-yilda 82551¹⁰⁷ nafar, 2017-yilga kelib umumiy aholi soni 32 milliondan ortiq va nogironlar soni 600 mingdan ortiqni tashkil qildi¹⁰⁸. Ayniqsa, 1989-yildan 1996-yilgacha umumiy nogironlik 67,7% ga oshdi.¹⁰⁹

1996-yildan nogironlik sur‘atining kamayishida Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-noyabr kuni qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi nogironlar reabilitatsiyasi bo‘yicha 1996-2000-yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Qarori asosida «Nogironlarni reabilitatsiya qilish Davlat dasturi»ning ishlab chiqilishi muhim rol o‘ynadi. Dasturning amalga oshirilishi natijasida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimida Respublika Milliy reabilitatsiya va protezlash markazining tashkil qilinishi va har biri 50 o‘rinli jami 500 o‘ringa mo‘ljallangan 10 ta nogironlar uchun mintaqaviy reabilitatsiya markazlari hamda poliklinika va statsionarlarda reabilitatsiya bo‘limlarining ochilishi asosida 1996-2000-yillarda nogironlarni reabilitatsiya qilish tizimi tashkil qilindi¹¹⁰ va unda nevrologiya, xirurgiya, terapevtik bo‘limlari tashkil qilindi. Dunyo tajribasida nogironlarni psixologik reabilitatsiya usuli keng qo‘llanilmoqda¹¹¹. O‘zbekistonda ham shunday bo‘lim ochilgan bo‘lib, psixologik reabilitatsiya uchun ijtimoiy psixologik yordam bo‘limida psixolog tomonidan nogironlarning ijtimoiy belgilari, ular bilan individual suhbat va autotrening, mikrorelaksatsiya turlarini o‘tkazish jara-

¹⁰⁶ УЗМДА, М.110-жамғарма, 1-руйхат, 335-йиғма жилд. 9-варакнинг орқаси.

¹⁰⁷ УЗМДА, М.110-жамғарма, 1-руйхат, 2137-йиғма жилд. 1-варак.

¹⁰⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ногиронлиги булган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари туғрисида»ги Фармони. www.lex.uz.

¹⁰⁹ Ўзбекистон Республикасида алоҳида эҳтиёжли кишилар учун фаолият юритаётган муассаса ва ташкилотлар ҳақида маълумотнома, – Тошкент, 2008. – Б. 12.

¹¹⁰ Акбаров Р. Келажакка умид билан (Ўзбекистон ногиронлар жамиятининг 2-қурултойи) / Қадрият. – Тошкент, 2001, 1 декабр, №35-40(150-155). – Б. 2.

¹¹¹ Хидирова Б. Не только лечение но и реабилитация / Вечерний Ташкент. – Тошкент, 2003 йил 2 декабр, №233(10.036). – Б. 3.

vonida bemorlarni hayotga, mehnatga va turli madaniy oqartuv ishlariga nisbatan xohish, ishonch uyg'otishga yordam ko'rsatadi. Psixologik rehabilitatsiya o'taganlar soni 65,5% ni tashkil qiladi¹¹².

«O'zbekiston Respublikasi nogironlar rehabilitatsiyasi bo'yicha 1996-2000-yillarga mo'ljallangan» Davlat dasturining mantiqiy davomi sifatida 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan «Sog'liqni saqlash to'g'risida»gi Qonun va 1997-yil 2-dekabrda Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan stasionar davolash profilaktika muassasalarida davolanayotgan onkologik, tuberkulyoz, psixik kasalliklar, nurlanish kasaliga uchraganlar, infeksiyon kasalliklar, stilis, VICH, Endokrin kasallikka chalinganlar bemorlarga dori darmonlar tekin tarqatila boshladi. Bolalikdan nogironlar va 1, 2 guruh nogironlari va yolg'iz keksalar davolash profilaktika muassasalarida ovqat uchun pul to'lamaydilar.¹¹³

Nogironlarga bepul tibbiy xizmat tizimini joriy qilish, aholining imtiyozli guruhlariga kiruvchi barcha qatlamlariga tibbiy xizmatdan foydalanishda imtiyozlar joriy qilish tizimi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1998-yil 10-noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni ushbu tizimni yanada takomillashtirishga ahamiyat qaratildi. Natijada, 1991-1996-yillar davomida nogironlik tez sur'atlar bilan o'sib borgan bo'lsa-da, 2001-yildan keyin pasaydi¹¹⁴. Buning asosiy sabablaridan biri, 1998-yildan «Ona va bola skriningi» Davlat dasturi doirasida amaliy tadbirlar olib borilishi natijasida nogiron bolalarning tug'ilishi sur'atining pasayishi bo'lsa, ikkinchi sabablardan biri 1996-2000-yillarga mo'ljallangan nogironlarni

¹¹² Жуманиёзов Д. Юксак малака ва шунга яраша муолажа / Қадрият. – Тошкент, 2011. 8 январь. – №1.

¹¹³ Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 29 августдаги «Соғлиқни сақлаш то'ғрисида»ги Қонун. // Узбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари туплами, 1997, 1-сон, 114-модда

¹¹⁴ Ўзбекистон Республикасида алоҳида эҳтиёжли кишилар учун фаолият юритаётган муассаса ва ташкилотлар ҳақида маълумотнома. –Тошкент, 2008. – Б. 12.

reabilitatsiya qilish davlat dasturi doirasida olib borilgan tadbirlar sababdir.

Unga ko'ra, Buxoro, Farg'ona, Jizzax, Navoiy viloyatlarida ortopedik markazlari ochildi. «Travmatolog-ortopediya ITI» qoshida protezlash sexi ochildi hamda nogironlarga tibbiy xizmat ko'rsatishda tibbiy mutaxassislar tayyorlashga e'tibor qaratilib oliy o'quv yurtlarining «Davolash ishi» yangi o'quv rejasiga 18 soat TME va TMEK fani kiritildi¹¹⁵. Bundan tashqari, 1998-yilda milliy reabilitatsiya markazi mutaxassislari Gollandiya va Angliyaning markazlari faoliyati bilan tanishib malaka oshirib keldilar. Unga ko'ra tayanch harakat a'zolari kasalliklarini reabilitatsiya qilish samaradorligini oshirish masalasiga asosiy e'tibor qaratildi¹¹⁶. Xuddi shu yili Mehnat vazirligining 1998-yil 16-iyuldagi qarori bilan ijtimoiy ta'minot tizimida ishchi xizmatchilar klassifikatsiyasiga «Vrach-reabilitolog-ekspert» lavozimi va sog'liqni saqlash vazirligining maxsus buyrug'i bilan «Vrach-reabilitolog-ekspert ortoped», «Vrach-reabilitolog-ekspert-nevropatolog» mutaxassisliklari kiritildi¹¹⁷.

Ayniqsa, malakali tibbiy yordamning bepulligi va uning barcha uchun bir xilligi, aholi orasida faol emlash ishlari olib borilishi hisobiga ko'p yuqumli kasalliklar yo'q bo'lib ketdi¹¹⁸(jumladan, bezgak kasalligi, ichak infeksiyalari va parazitar kasalliklar asoratlari, poliemiya bilan kasallanish sur'ati sezilarli kamaygan). Ammo reabilitatsiya borasida yutuqlar bilan bir qatorda muammolar ham mavjud. Masalan, Jizzax viloyatida 1998-yilda 154 nafar nogiron reabilitatsiyani o'tagan bo'lsa, 1999-yilda 469 taga yetdi¹¹⁹. Lekin ushbu viloyatda reabilitatsiya olib boruvchi mutaxassislar

¹¹⁵ УзМДА, М.37-жамгарма, 1-руйхат, 4453-йигма жилд. 8-варақ.

¹¹⁶ УзМДА, М.37-жамгарма, 1-руйхат, 4453-йигма жилд. 3-варақ.

¹¹⁷ УзМДА, М.37-жамгарма, 1-руйхат, 4453-йигма жилд. 4-варақ.

¹¹⁸ Иноятов А.А. Узбекистон Республикаси ижтимоий таъминот ҳуқуқи: Дарелик. –Тошкент, ГДЮИ, 2005. – Б. 11.

¹¹⁹ Жиззах Вилоят Давлат Архиви. 317-жамгарма, 1-руйхат, 12-йигма жилд. Вилоят ногиронлар учун минтақавий реабилитация маркази. 53-варақ.

yetishmas va ushbu tizim to'liq takomillashmagan edi. Natijada 50 o'ringa mo'ljallangan reabilitatsiya markazining atigi 27 tasi band edi¹²⁰. Samarqand viloyatida esa reabilitatsiya markazi binosi ta'mirga muhtoj edi¹²¹.

Umumiy Respublika bo'yicha tahlil qilinsa, jami respublikadagi reabilitatsiya markazlari nogironlarni reabilitatsiya qilishga to'liq moslashtirilmagan hamda malakali shifokorlar yetishmas edi va ushbu muammo hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan Respublika bo'yicha xavfli kasalliklar va nogironlar sonida o'sish kuzatilgan.

Orol dengizi atrofidagi ekologik vaziyat tufayli lepra kasalligi 1991-yilgacha 49,6% dan 84,6%ga o'sgan¹²². Ayniqsa, kattalar orasida nogironlikning boshqa turlariga nisbatan sil, spid, onkologik, yurak qon-tomir tizimi kasalliklar bilan kasallanish sur'ati ortdi. 1995-yildan 2002-yilgacha sil bilan kasallanish 46,8% ga, spid bilan kasallanish 1760 nafarga (25,6% ga) oshgan va aholining har 100 mingta aholisining 12% ini tashkil qiladi. 2000-yildan buyon sil bilan kasallanish O'zbekistonda 78,7% ga oshdi¹²³.

Ushbu kasallik asosan O'zbekistonning ekologik vaziyati og'ir hududlariga to'g'ri keladi (Diagramma.3.7). Dunyoda sil kasalligidan vafot etish holatlari AQSH da 0,1%, Hindistonda 24%, Turkiyada 0,7%, Germaniyada 0,3%, Fransiyada 0,5%, Italiyada 0,6%, Xitoyda 3,5%, Yaponiyada 1,7%, Koreyada 4,9% ni tashkil qilsa, MDH davlatlaridan Afg'onistonda 39%, Rossiyada 16%, Qozog'istonda sil kasalligidan vafot etish holatlari 14%, Qirg'izistonda 10%, Turkmanistonda 10%, bo'lsa O'zbekistonda 6,1% ni tashkil qiladi.¹²⁴ O'zbekistonda sil kasalligidan vafot etish

¹²⁰ ЎзМДА, М.37-жамгарма, 1-руйхат, 4460-йигма жилд, 248-варақ.

¹²¹ ЎзМДА, М.37-жамгарма, 1-руйхат, 4460-йигма жилд, 249-варақ.

¹²² УРИТТХМДА, М.372-жамгарма, 1-руйхат, 50-йигма жилд, 28-варақ.

¹²³ Госкомстат Узбекистана. Узбекистан в цифрах. Статистический сборник. – Ташкент, 2010. – С. 47.

¹²⁴ Всемирная Организация Здравоохранения (ВОЗ). Мировая статистика здравоохранения. – Россия, 2013. – Б. 32.

holatlari rivojlangan mamalakatlarga nisbatan yuqoriroq bo'lsa-da, MDH davlatlari ichida eng past foizga to'g'ri keladi.

Sil kasalligiga qarshi kurashish uchun O'zbekistonda bugungi kunda 108 ta dispanser, 71 ta bo'lim, 37 ta kabinet, 12 ta mustaqil kasalxonalar, 26 ta sanatoriya faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, sil bilan kasallanganlarni davolashga ixtisoslashtirilgan 64 maktabgacha va 13 sanatoriya turidagi maktablar faoliyat yuritadi. 1998-yildan boshlab DOTS strategiyasining amalga tadbiq etilishi natijasida silga qarshi tibbiy muassasalar zarur texnik va texnologik jihatdan ta'minlandilar. 2001-yil «Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida»gi¹²⁵ qonunning qabul qilinishi va 2004-yildan boshlab silga qarshi bolalarni emlash (BSJ) tizimi takomillashdi. Respublika bo'yicha sil bilan kasallanganlar eng ko'p qayd etilgan hudud Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri kelganligi uchun 2006-yildan boshlab PROON bilan hamkorlikda «Qoraqalpog'istonda aholi turmush darajasini oshirish loyihasi» doirasida 11 ta manzilgohlarda aholining sil kasalligi bilan kasallanish darajasini aniqlash ishlari olib borildi. Lekin viloyatlarda ushbu strategiya haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagani uchun ham DOTS staregiyasi sust olib borilmoqda. Bundan tashqari, Sirdaryo, Surxondaryo, Navoiy viloyati, Toshkent shaharlarida silga qarshi kurash muassasalari yetishmaydi¹²⁶.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagi «Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»¹²⁷ Qarori va 2008-yil 18-iyunda

¹²⁵ Uzbekiston Respublikasining «Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonun // Uzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari tuzilmasi. 2001-й., 10-сон, 52-м.

¹²⁶ Сайдова Г. Доклад о человеческом развитии 2006. Узбекистан. ПРООН. Б. 48-49.

¹²⁷ Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 25 августдаги «Никохланувчи шахсларни тиббий куриқдан утказиш тоғрисидаги низомни тасдиқлаш хақида»ги Қарори // Uzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari tuzilmasi. 2003, 15-16-сон, 136-модда; 2007 й., 16-сон, 164-модда.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining qaroriga asosan «Nogironlikning oldini olish maqsadida irsiy kasalliklarni erta aniqlash to‘g‘risida»gi Davlat dasturi qabul qilinishi asosida 1 478 322 nafar yoshlar tibbiy ko‘rikdan o‘tgan bo‘lsa, ulardan 3989 nafarida psixik kasalliklar, 1417-sil, 489-sifilis, 369-narkomaniya i 371 – VICH- infeksiyasi kasalliklari aniqlandi. Bu bilan qanchadan-qancha nogiron bolalarning tug‘ilishi oldi olindi. Bundan tashqari, «Ona va bola skrining» markazlari faoliyati ham nogiron bolalarning tug‘ilishining oldini olish va irsiy kasalliklarni erta muddatlarda aniqlash imkonini bermoqda. Ushbu tadbirlar natijasida 404419 nafar homilador ayol tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ularning 6266 nafarida tug‘ma yurak parogi aniqlandi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi va “Sog‘lom avlod uchun” jang‘armasi Germaniyaning Friedenzdorf xalqaro xayriya tashkiloti bilan 2002-yildan hamkorlik natijasida 2003-2014-yillar davomida jami 4273 nafar lab va tanglayning tug‘ma nuqsoni, ortopedik oyoq va bo‘yinning tug‘ma nuqsonlari bo‘lgan bolalar plastik jarrohlik yo‘li bilan sog‘lomlashtirildi¹²⁸.

Neontal skrining markazlarida 70% bolalarda, ya‘ni 2382 tasida gipotireoz va 423 tasida fenilketonuriya kasalliklari aniqlandi. 3391 nafar bolada aqliy rivojlanishda orqada qolish holatlari erta tashxis natijasida aniqlanib bartaraf etildi va bunday holatlar asosan qarindoshlar o‘rtasida tuzilgan nikoh holatlarida va nosog‘lom muhit hukmron bo‘lgan oilalarda ko‘proq qayd etilgan. Mavjud neonatal va skrining markazlari tomonidan nogironlik holatlari erta muddatlarda aniqlangan homilador ayollarning 70% i markaziy shahar hududlarida istiqomat qilsalar, qolgan 30% i qishloq hududlarida istiqomat qiladilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta‘kidlaganlaridek: «Ushbu tadbirlar barcha viloyatlarda birday amalga oshirilmaganligi natijasida barcha ayollar ham ushbu

¹²⁸ Пнамова.С. Соғлом авлод-соғлом келажак// Соғлом авлод учун. –Тошкент: 2014. №11 –Б.6.

tekshiruvlarga jalb qilinmagan. Natijada homilador ayollarning 60% dan ortig'i skrining tekshirishlari bilan qamrab olinmagan. Kasalliklar o'z vaqtida aniqlanmaganligi oqibatida 3568 nafar bola tug'ma nuqsonlar bilan tug'ilganligi aniqlangan.

Respublikada chaqaloqlarga nisbatan o'tkazilayotgan perinatal skrining tadqiqotlar faqat ikki turdagi tadqiqotlarni o'z ichiga oladi (qalqonsimon bez garmoni yetishmovchiligi, aqliy qoloqlikka olib keladigan nuqsonlar) hamda bu tug'ma nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlash va nogironlikning keyinchalik oldini olish uchun yetarli bo'lmayapti. Yosh bolalarni yalpi skrining tadqiq etishni tashkil etish va o'tkazishdagi kamchiliklar reabilitatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun qulay fursatning boy berilishiga hamda bolalar nogironligi paydo bo'lishiga olib kelmoqda».¹²⁹

2008-yil 11-iyulda «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri amalga kirdi. Qonunning 3-bobi to'la imkoniyati cheklangan shaxslarning reabilitatsiyasiga bag'ishlangan bo'lib, uning 14-moddasida «Nogironlarni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturiga bag'ishlangan bo'lib, ushbu dastur Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 18-martda 75-sonli «Nogironni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonuni,¹³⁰ 2009-yil 17-iyundagi 166-sonli «Reabilitatsion texnik vositalar yoki xizmatni tashkil qilish bilan bog'liq kompensatsiya to'lash tartibini tasdiqlash to'g'risidagi»¹³¹ Qonuni qabul qilinishi bilan

¹²⁹ Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironlarni davlat tomonidan ku'lab-ku'vvaqlash tizimini yanada takomillashtirish chora-gadbirlari tug'risida»i Farмойиши // Xalq suzi, – Toshkent, 2017. 2 avgust. – 151(6845).

¹³⁰ Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Nogironni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturini tasdiqlash tug'risida»gi Qarori // Uzbekiston Respublikasi konun hujjatlari tu'plami, 2009, 13-son, 140-mdda.

¹³¹ Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Reabilitatsion texnik vositalar e'ki xizmatni tashkil qilish bilan bog'liq kompensatsiya to'lash tartibini tasdiqlash tug'risida»i Konun // Uzbekiston Respublikasi konun hujjatlari tu'plami, 2009, 25-son, 286-mdda.

yanada takomillashtirildi. Unga binoan imkoniyati cheklanganlarni reabilitatsiya qilishda tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va reabilitatsiya samaradorligini jahon standartlari talablariga moslashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2009-yil 5-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Mehnat Vazirligining imkoniyati cheklangan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi jihozlanishini yaxshilash bo'yicha Yaponiya hukumati grantidan samarali foydalanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»¹³²gi Qarori qabul qilindi.

Reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturi har bir nogironga alohida tuziladi va unda nogironning tibbiy, kasbiy va ijtimoiy reabilitatsiyasi individual tarzda ishlab chiqiladi hamda uni amalga oshirilishi nazorat qilinadi. Dasturda belgilangan tadbirlarni bajarilishi uchun tegishli barcha tashkilot va muassasalar rahbarlari javobgardirlar¹³³.

2010-yilda avval bo'lgani kabi xavfli o'simtalar bilan kasallanish darajasi (100 ming kishiga xastalanganlar soni) ayollar orasida erkaklarga ko'ra sezilarli darajada yuqoriroq, ayollarda 73,6 va erkaklarda 61,1 holat. Lekin ayollar orasida bu kasallik bilan kasallanish darajasi 2010-yilda 2007-yilga nisbatan har 100 ming kishi nisbatida 78 holatdan 73,6 holatga tushdi. Erkaklarda 64,2 holatdan 61,1 holatga tushdi. Faol sil bilan kasallanish darajasi 2010-yilda 2007-yilga nisbatan 11,7 foiz pasaydi. Ayollar o'rtasida 22% dan 17,2% ga, erkaklar o'rtasida 55,3% dan 50,6% ga pasaydi. Erkaklarda 79,6 dan 71,2 ga kamaydi.

¹³² Uzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Uzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirligining nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi jihozlanishini yaxshilash bo'yicha Yaponiya hukumati grantidan samarali foydalanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori // Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi delegatlarining axborotnomasi, 2009, 2-son, 38-mudda.

¹³³ Солиев А. Nogironlarni reabilitatsiya qilish. / Qadriyat. – Toshkent, 2012 yil 12-avgust. – B. 2.

2010-yilda ruhiy buzilishlar bilan kasallanganlar soni 2007-yilga nisbatan sezilarli pasaydi. Kasallanish har 100 ming kishidan ayollarda 114,2 holatga. Erkaklarda 152,9 dan 148,1 holatga kamaydi. Giyohvandlik va toksikomaniya bilan kasallanish darajasi 0,9 holatdan 0,6 holatga kamaydi. Ayollarda bu kasallik erkaklarga nisbatan 25 marotaba kam.¹³⁴

MDH davlatlari bilan qiyoslaganda narkomaniya va toksikomaniya bo'yicha Qozog'iston, Ozarbayjon, Rossiya, Moldova, Ukraina, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Belorussiyadagiga qaraganda O'zbekistonda kamroq bo'lsa¹³⁵ ham boshqa turdagi nogironliklar soni keskin ortib ketgan. Jumladan, 2007-yildan 2010-yilgacha xavfli o'simta kasalligi bilan kasallanganlar soni kamaygan bo'lsa-da, 2013-yilda 33221,09 mingdan 2015-yilda 40711,29 tagacha ortgan¹³⁶.

2009-yilda umumiy nogironlik 23577346 nafardan 2010-yilda 23871388 nafarga oshdi¹³⁷. 2015-yilda 2013-yildagiga nisbatan 14,8% ga ortgan¹³⁸ bo'lsa, 2017-yilda 600 mingdan oshdi¹³⁹. Respublika bo'yicha birlamchi nogironlik o'tgan uch yil ichida kasallik tizimlari o'rtasida o'sish holatlari aniqlangan:

¹³⁴ Uzbekiston aёллари ва эркеклари. Статистик туплам – Тошкент, 2012.– Б. 75.

¹³⁵ Щербакoвa E. Демoскoв weeklу. Евразийский демографический барометр. Институт демографии государственного Университета-высшей школы экономики. 21 июнь-31 июль, 2010. – №427-428.

¹³⁶ Uzbekiston Respublikasida бирламчи ногиронлик ҳолати ва унинг 2013-2015 йиллардаги солиштирма курсаткичлари таҳлили (гаҳилий-статистик қўлланма). – Тошкент: Истикбол, 2017. – Б.33.

¹³⁷ Uzbekiston Respublikasida меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги, ногиронларни реабилитация қилиш ва протезлаш миллий маркази. Respubликада ногиронликни 2010-2011 йил якушлари бўйича солиштирма курсаткичлари ва сабабларига доир илмий таҳлилий ахборотнома. –Тошкент, 2012. – Б. 12.

¹³⁸ Uzbekiston Respublikasida бирламчи ногиронлик ҳолати ва унинг 2013-2015 йиллардаги солиштирма курсаткичлари таҳлили (гаҳилий-статистик қўлланма). – Тошкент: Истикбол, 2017. – Б. 24.

¹³⁹ Uzbekiston ногиронлар жамияти жорий архив материаллари. Uzbekiston ногиронлар жамиятининг ҚР, вилоятлар ва Тошкент шаҳри бўлимларида ногиронлар сони ҳақида маълумот.–Тошкент, 1.01.2017.

Birinchi o'ringda qon aylanish tizimi kasalliklari, ikkinchi o'ringda xavfli o'smalar, uchinchi o'ringda ruhiy kasalliklar, to'rtinchi o'ringda asab, beshinchi o'ringda suyak-mushak tizimi kasalliklari, oltinchi o'ringda endokrin tizimi kasalliklari turadi. Respublika Salomatlik va tibbiy statistika institutidan olingan ma'lumotlarga asosan O'zbekiston Respublikasida aholi o'rtasidagi umumiy kasallanishning 2010-2011-yillar bo'yicha solishtirma statistika ko'rsatkichi 100000 aholiga nisbatan, jami 82626,76dan 80586,73taga kamayganligi (farqi 2040,03; 2,5%) kuzatildi. 2013-2015-yillar 78356 dan 81530 taga ortgan¹⁴⁰.

Respublika hududlari bo'yicha umumiy kasallanishning solishtirma ko'rsatkichini yaqqol kamayish farqi asosan Navoiy (- 9813,06), Farg'ona (-9643,04), Xorazm (- 8629,97), Buxoro (-7805,24), Jizzax (-5394,81) viloyatlarida kuzatilgan bo'lsa, uning ortishi Namangan (+ 8038,64) va Surxondaryo (+1864,79) viloyatlarida qayd etildi.

O'tgan yillar mobaynida O'zbekistonda tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi amalda to'liq qayta ko'rib chiqildi. Hozirgi vaqtda bu boradagi islohotlarning asosiy bosqichlaridan biri nihoyasiga yetmoqda. Aholiga bepul shoshilinch va yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish uchun eng yuksak talablarga javob beradigan ixtisoslashtirilgan shifoxona va bo'limlar tarmog'ining tashkil etilishi bu bosqichning eng muhim va aniq natijasi bo'lganini ta'kidlash joiz. Maxsus tashkil etilgan respublika markazi bu tizimga rahbarlikni va uning faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlamoqda¹⁴¹.

Jumladan, 2018-yilda qishloq vrachlik punktlari, shahar va qishloq oilaviy poliklinikalarini tashkil etish orqali birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish tizimi takomillashtirildi hamda aholining ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengay-

Уша асар. – Ъ. 24.

¹⁴¹ Гафарали М.С., Касаев А.Г. Ривожланишнинг узбек модели: тинчлик ва барқарорлик тараккиёт асоси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000.

tirildi. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning yagona markazlashgan tizimi yaratildi, fuqarolarga, jumladan, joylarda yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tarmog'i takomillashtirilmoqda. Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha qator maqsadli milliy dasturlar amalga oshirildi. Bolalarning irsiy va tug'ma kasalliklar bilan tug'ilishining oldini olish maqsadida respublika va hududiy skrining markazlari tashkil etildi.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil yil 7-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida» gi farmoni muhim ahamiyat kasb etdi. Farmon bilan tasdiqlangan 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi soha rivojida yangi davrni boshlab beradi¹⁴².

Dunyo tajribasiga qaraydigan bo'lsak, bu boradagi islohotlar uzoq yillar davom etgan. Misol uchun, tibbiyoti rivojlangan Fransiyada ushbu jarayon 60 yil davom etgan bo'lsa, Koreya Respublikasida bunga 40 yil vaqt kerak bo'lgan. Turkiya esa boshqa mamlakatlar yo'l qo'ygan kamchiliklardan xulosa chiqargan holda, 10 yil muddatda tibbiyot tizimini isloh qilgan. Biz chuqur tahlillar va o'rganishlar asosida 7 yil muddatda, Ya'ni 2019–2025-yillarda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilishdek ulkan maqsad oldimizga qo'yildi¹⁴³.

¹⁴² Узбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2018 йил 7 декабрдаги «Узбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар туғрисида» ги Фармони. www.lex.uz

¹⁴³ https://www.medicalexpress.uz/r/public_health2/id/819/ Узбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги Ахборот хизмати. Улкан мақсадлар остонасида.

Sogʻliqni saqlashning birlamchi boʻgʻinida, ayniqsa, qishloq joylarda jiddiy oʻzgarishlar roʻy berdi. Samarasiz ishlayotgan teldsherlik-akusherlik punktlari va qishloq ambulatoriyalari oʻrinda zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlangan 3 mingdan ziyod qishloq vrachlik punkti tashkil etilgani bu sohadagi katta qadam boʻldi, desak, toʻgʻri boʻladi. Tibbiyot xodimlari mehnatga haq toʻlash va ularni ragʻbatlantirish tizimining har tomonlama qayta koʻrib chiqilishi aholiga tibbiy xizmat koʻrsatishni sifat jihatidan yaxshilash imkonini berdi. Natijada keyingi 2-3 yilda soha xodimlarining ish haqi ikki barobardan ziyod koʻpaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan soʻnggi vaqtda inson salomatligini muhofaza qilish borasida tizimli ishlar boshlandi. Avvalo, joylarda bu borada koʻplab muammolar hamon saqlanib qolayotgani roʻy-rost aytili va aholimizning barcha qatlami uchun qulay boʻlgan, sifatli va zamonaviy tibbiy yordam koʻrsatish, kasalliklarni barvaqt aniqlash vazifalari qoʻyildi. Shubhasiz, bu islohotlar markazida onalar va bolalar orasidagi oʻlim hollarini kamaytirish masalasi turadi.

Sogʻliqni saqlash tizimida boʻlajak onalar salomatligini muntazam nazorat qilib boradigan, sogʻlom bolalar tugʻilishiga xizmat qiladigan keng tarmoqli skrining markazlarining oʻrni va ahamiyati nihoyatda katta.

Agar 1991-yilda onalar oʻlimi bilan bogʻliq koʻrsatkich har 100 ming nafar ayolga nisbatan 65 tani tashkil etgan boʻlsa, 2019-yilda bu raqam 24 taga tushdi. Yurtimizda bolalar oʻlimi bilan bogʻliq soʻnggi vaziyat davlat statistika koʻrsatkichlariga koʻra, 2017-yilga qaraganda 2018-yilda yaxshi tomonga oʻzgargan. Jumladan, 2018-yilda goʻdaklar oʻlimi koʻrsatkichi 9,9 promillini tashkil etdi (2017-yilda bu koʻrsatkich 11,5 promilliga teng boʻlgan). 1991–2017-yillarda umumiy oʻlim koʻrsatkichi 20 foizga, onalar va chaqaloqlar oʻlimi 3,1 barobar kamaydi. Oʻrtacha umr koʻrish davomiyligi 1995-yilga nisbatan 4,6 yilga oshdi va bugungi kunda

73,7 yilni tashkil etmoqda¹⁴⁴. Go‘daklar o‘limining strukturasi 63,6 foizni neonatal o‘lim tashkil etadi. “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” maqsadiga erishishda demografik holatni yaxshilash eng muhim hisoblanadi.

Sog‘liqni saqlash tizimidagi, shu jumladan, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishdagi holatni yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan 2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlangan. Konsepsiyada sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, bolalar va onalar salomatligini muhofaza qilishdagi muammolarni yechish uchun maqsad va vazifalar belgilangan¹⁴⁵.

2019-2021-yillarda Konsepsiyani amalga oshirish jarayonida “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi qonun, Prezidentning 2019-yil 7-sentyabrda “Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi¹⁴⁶.

Respublika bolalar ixtisoslashtirilgan va regional ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari davlat byudjeti mablag‘lari va xalqaro moliya institutlari hisobidan tashxislash va davolash asbob-uskunalari bilan jihozlanishi bolalarga xalqaro standartlarga muvofiq yuqori

¹⁴⁴ Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda “Uzbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz

¹⁴⁵ <https://uza.uz/oz/society/onalar-va-bolalar-limining-oldini-olishga-doir-islohtlar-z--18-10-2019> M. Пулатова

Манба: “Оила даврасида” газетаси

¹⁴⁶ Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 sentyabrda “Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.

texnologik tibbiy yordam ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Bolalar o'limini kamaytirishda emlash ham katta ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda emlash kalendari 13 ta antigenga qarshi 12 vaksinani o'z ichiga olgan.

O'zbekistonda ovqatlantirish sohasidagi muammolarni yechish integral yondashuv asosida olib boriladi. Onalar va bolalar orasida ovqatlanishni yaxshilash hamda mikronutrientlar yetishmovchiligining oldini olish maqsadida qisqa muddatli (6 oygacha bo'lgan bolalarni istisnosiz ko'krak suti bilan emizish), o'rta muddatli (un fortifikatsiyasi, tuzni yodlash) va uzoq muddatli (shifokor va tashkilotchilar uchun "ilk 1000 kun" dasturi bo'yicha seminarlar, sog'lom ovqatlanishga qaratilgan aholining ovqatlanish odatlarini o'zgartirish) tadbirlar o'tkazilmoqda.

Barcha viloyat perinatal markazlarida ayollarga ixtisoslashtirilgan, yuqori texnologiyali jahon standartlari talablariga javob beradigan kaminvaziv (laparoskopik) ginekologiya bo'limlari tashkil etildi. Birlamchi tizim muassasalarida "Ayollar maslahatxona"lari, ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda "Qizlar salomatligi xonasi" hamda "Perinatal skrining xonasi" tashkil etildi. 2017-2020-yillar davomida 439 ta obyektida, jumladan, perinatal markazlar, tug'uruq komplekslari va birlamchi tizim muassasalarida qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, ulardan 384 ta (87,5 foiz) obyektida qurilish-ta'mirlash ishlari olib borildi. 2013-2019-yillar davomida 159 dan ortiq turdagi tibbiy asbob-uskunalar tug'uruq va bolalar tibbiyot muassasalariga yetkazilgan. O'z o'rnida jami 221 ta tibbiyot muassasasi, jumladan tuman, shahar markaziy shifoxonalari va markaziy ko'p tarmoqli poliklinikalar, oilaviy poliklinikalar moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Turli yo'nalish bo'yicha 212 ta mutaxassis Germaniyaning nufuzli klinikalarida, Koreya Respublikasi Pusan universitetida bir yillik kurslarda malaka oshirdi.

Shunisi e'tiborliki, bugun O'zbekistonda chechak va ich terlama, kuydirgi, o'lat va vabo kabi yuqumli kasalliklarga butunlay barham

berildi. O'tgan davr mobaynida yurtimizda aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi ham sezilarli ravishda ortib bormoqda. Bu boradagi umumiy ko'rsatkich 1990-yilda 67 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 72,5 yoshni tashkil etdi. Jumladan, erkaklar o'rtasidagi o'rtacha umr ko'rish 66 yoshdan 70 yoshga, ayollar o'rtasida esa 70 yoshdan 74,6 yoshga uzaygani odamlar salomatligini muhofaza qilish va turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning aniq va yaqqol natijasi sifatida baholash o'rinni bo'ladi.

Tayanch iboralar:

Pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari, ijtimoiy himoya, iqtisodiyot tarmoqlari, ichki iste'mol bozori, narx-navoni erkinlashtirish, ijtimoiy yordam, tibbiy xizmat.

Mavzu yuzasidan savollar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aholi salomatligi masalasini qaysi ma'ruzasida dolzarb masala sifatida ko'tardi?

2.O'zbekistonda kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish yo'lida qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?

3.Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash borasida qanday ishlar qilingan?

4. O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tizimi necha bosqichdan iborat?

5.Aholi salomatligini mustahkamlash yo'lida qaysi davlatlar bilan aloqalar yo'lga qo'yilgan?

3-BO'LIM. MA'NAVIY-MADANIY TARAQQIYOT.

5-BOB. MA'NAVIY QADRIYATLARNING TIKLANISHI.

5.1. Tarixiy xotiraning tiklanishi va milliy o'zlikni anglash.

5.2. O'zbekistonda diniy qadriyatlarining tiklanishi va bu boradagi mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar.

5.1. Tarixiy xotiraning tiklanishi va milliy o'zlikni anglash.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz hozirgi vaqtda yirik bir loyiha – O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish bo'yicha katta ishlarni boshlab yubordik. Bu markaz, avvalo, xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosni har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo'lga qo'yish, bugungi murakkab davrda islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlarni ko'zda tutadi".¹⁴⁷

* <http://uza.uz/oz/politics/adabyet-va-sanat-madaniyatni-rivozhlantirishkhalimiz-mana-03-08-2017> Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёдилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. 03.08.2017

Tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlari azaldan bashariyat tafakkur xazinasiga ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga unutilmas hissa qo'shib kelganlar. Ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan asarlar, madaniyatning barcha sohalariga taalluqli nodir asarlar, qimmatbaho fikr-mulohazalar hozirgi kunda ham jahon xalqlari ma'naviy dunyosini boyitib, ularning ma'naviy kamolotiga xizmat qilib kelmoqdaki, bundan biz faxrlansak arziydi.

Bugungi kunda ma'naviy merosimizni, qadriyatlarimizni tiklash, xalqimiz, jumladan, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish, o'zligini anglash, xususan kelajagimiz bo'lgan, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlarni tayyorlash ularning ma'naviyatini yuksaltirishga erishish g'oyat muhimdir.

O'zbek xalqining boy ma'naviy qadriyatlarini qaytadan tiklash, ularni xalqimizga qaytarish mustaqillik davri tariximizning ajralmas qismidir. Shu ma'noda bu tarixni yoritmay turib, umuman mustaqillik davrining to'la tarixini yaratib bo'lmaydi¹⁴⁸.

Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Mustaqillikka erishilganidan so'ng O'zbekiston rahbariyati, eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzu-istaklarini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e'tibor bera boshladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Farmonlari asosida "Navro'z", "Ro'za hayiti", "Qurbon hayit" lari rasman tiklanib, xalq o'rtasida keng nishonlana boshladi. Shuningdek, istiqlolni sharaflydigan bayramlar "Mustaqillik kuni" va "Konstitutsiya kuni" joriy etildi. O'z navbatida, davlatimiz rahbariyati sovetlar davrida paydo bo'lgan barcha bayramlarni taqiqlamadi. Ular orasida umuminsoniy g'oya va qadriyatlarni

¹⁴⁸ Тожибоев М.Т. Узбекистон мустақиллиги шароитида миллий маънавий қадриятларнинг тикланиши ва ривожланиши. Дисс... тарих фанлари номзоди. — Андижон: 2001.

targ'ib qiluvchi "Yangi yil bayrami", "Xotin-qizlar bayrami" kabilar saqlab qolindi.¹⁴⁹

Tarix xotirasi, xalqning jonajon o'lkani, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda.

Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarning ko'p bo'lgan. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Muhammad al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalar hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum¹⁵⁰.

Mamlakat ma'naviy hayotini yanada yaxshilashda 1994-yil 23-aprelda qabul qilgan «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik Markazini tashkil etish to'g'risidagi Birinchi Prezident Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu yili 8-iyunda esa Vazirlar Maxkamasi ushbu Farmonning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan maxsus qaror qabul qildi. Unda Markazning asosiy vazifasi va faoliyat yo'nalishi qilib o'zbek xalqining boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni

¹⁴⁹ Қорабоев У. Ўзбекистон маданияти. –Тошкент: Тафаккур бустони, 2011. –Б. 149.

¹⁵⁰ Тожирахмедова М. Мустақиллик йилларида ўзбекистонда миллий ва маънавий қадриятларнинг тикланиши. xxI международная научно-практическая интернет-конференция. 30–31 Марта, 2014.

yuzaga chiqarish, jamiyatdagi sog'lom kuchlar, yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan istiqboli sari yo'naltirish, millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini oshirish, tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqada yashayotgan millatlarning madaniy, ma'rifiy, ma'naviy taraqqiyot tomlari mushtarakligini targ'ib qilish va hokazolar qilib belgilandi¹⁵¹. 1996-yil sentyabrda qabul qilingan «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi ishini yanada takomillashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining farmoni asosida shu yil yanvarda Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi huzurida «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi tuzildi.

1996-yil 27-sentyabrda Respublika Vazirlar Mahkamasining «Oltin meros» xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Qaroriga binoan mazkur jamg'arma davlat tomonidan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Bu qarorida o'tmish milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirish, buyuk ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan bebaho madaniy-ma'rifiy merosini ko'z qo'rachig'iday asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yodgorlik qilib qoldirish, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga qo'shgan ulkan hissasini butun dunyoga qayta tanitish, uni keng targ'ib etish, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga milliy g'urur, milliy iftixor, Vatanga muhabbat va istiqlol g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini singdirib borish kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar beriladi¹⁵².

Mustaqillik yillarida buyuk sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi bo'lib o'tdi. YUNESKO tomonidan 1996-yil «Amir Temur yili», deb e'lon qilindi. Shu yili YUNESKOning Parijdagi qarorgohida «Temuriylar davri, fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» mavzuida anjuman va unga bag'ishlangan ko'rgazma ochildi. Mamlakatimizda «Temur va temuriylar»

¹⁵¹ Т.Файзуллаев, А.Саримсоков. Мустақил Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши (уқув-услугий қўлланма). – Наманган, 2013. – 185 б.

¹⁵² Шамсутдинов Р., Муминов Х. Ўзбекистон тарихи. Уқув қўлланма. – Гоишкенг: 2013

muzeyi, Amir Temur nomi berilgan bog'lar, ko'chalar barpo etildi¹⁵³.

1996-yil 28-avgustda Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Shahrisabz shahri "Amir Temur" ordeni bilan mukofotlandi. 1996-yil 18-oktyabrda Toshkentda Amir Temur haykali va muzeyi, Shahrisabzda esa Amir Temur haykali ochilish marosimi bo'lib o'tdi¹⁵⁴.

«Oltin meros» xayriya jamg'armasi «Xalq merosi durdonalari» ilmiy anjumanlarini, xorijdan izlab topilgan qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi amaliy san'at namunalari, yodgorliklarini tahlil qilish, ko'rik tanlovlar o'tkazish bilan shug'ullanmoqda. 1996-2002-yillarda «Oltin meros» jamg'armasi sa'y-harakatlari natijasida buyuk allomalarimiz yaratgan ko'plab madaniy-ma'naviy meros namunalari mamlakatimizdan va xorijiy davlatlardan izlab topildi, jamlandi hamda kutubxona va muzeylarga joylashtirildi. Shuningdek, u xalqimizning rasm-rusumlarini, urf-odatlarini, marosimlarini o'rganish, tiklash, xalqimizga qaytarish, ularning ma'no-mohiyatini, hozirgi kundagi ahamiyatini keng ommaga tushuntirish ishiga katta hissa qo'shmoqda¹⁵⁵.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2001-yil 1-mayda qabul qilgan "Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida"gi farmonida shunday deyilgan: "El-yurtimiz ozodligi va erkinligi yo'lida, xalqimizning qadr-qimmatini, ornomusini, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizni himoya qilishda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda qurbon bo'lganlar xotirasi minnatdor avlodlar yodida abadiy saqlanib qoladi.

¹⁵³ Муртазаева Р.Х. ва бошқалар. *Ўзбекистон тарихи. Уқув қулламанма.* – Т.: Академия, 2010.

¹⁵⁴ Гилаев Э.Р. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётидаги узгаришлар (Жанубий вилоятлар мисолида). Дисс... тарих фанлари доктори. – Тошкент: 2010.

¹⁵⁵ Шамсутдинов Р., Муминов Х. *Ўзбекистон тарихи. Уқув қулламанма.* – Тошкент: 2013.

Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo'la boshladi.

Mustaqillik yillarida xalqimiz ma'naviyati yulduzlari bo'lgan buyuk allomalarimizning tavallud topgan tarixiy sanalari Yunesko bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi:

1. 1991-yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi;
2. 1992-yil – Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi;
3. 1993-yil – Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi;
4. 1994-yil – Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi;
5. 1996-yil – Amir Temur tavalludining 660 yilligi;
6. 1997-yil – Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon tavalludining 100 yilligi;
7. 1998-yil – Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi;
8. 1999-yil – “Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligi;
9. 2000-yil – Burxoniddin Marg'iloniy tavalludining 910 yilligi;
10. 2000-yil – Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi;
11. 2001-yil – “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligi;
12. 2002-yil-Termiz shahrining 2500 yilligi;
13. 2005-yil-Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi;
14. 2006-yil-Qarshi shahrining 2700 yilligi;
15. 2007-yil-Samarqand shahrining 2750 yilligi;
16. 2007-yil-Marg'ilon shahrining 2000 yilligi;
17. 2009-yil-Toshkent shahrining 2200 yilligi¹⁵⁶.

¹⁵⁶ Тожиахмедова М. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда миллий ва маънавий қадриятларнинг тикланиши. xxl международная научно-практическая интернет-конференция. 30–31 Марта, 2014

Islom olamining allomasi Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahovuddin Naqshbandiyning 675 yilligi keng ko‘lamda nishonlandi. Ularning boy asarlari nashrdan chiqarildi.

Barcha viloyatlar va shaharlarda har yili Bobur, Mashrab, Ogahiy larga bag‘ishlanib kechalar o‘tkazildi, Jaloliddin Manguberdining 800 yillik tavalludiga, «Alpomish» dostoni yaratilishining 1000 yilligiga bag‘ishlangan turli kechalar, bahslar tashkil etildi.

Ma‘naviy hayotni takomillashtirish maqsadida Imom al-Buxoriyning yubileyiga bagishlab, Qur‘oni Karimdan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan «Al-jome‘ as-sahih» (Ishonarli to‘plam), «Al-adab al-mufrad» (Adab durdonalari) o‘zbek tiliga tarjima qilinish, nashrdan chiqarildi.

1998-yili Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Respublikada yubileylar munosabati bilan allomalar hayotiga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlar va badiiy ko‘rgazmalar ochildi.

Dunyoda hech bir xalq o‘zbeklarchalik buyuk madaniy va ma‘naviy merosga ega emas. Endi mustaqillik tufayli ana shu ulkan xaritaning ochish, uni o‘rganish, undan bahramand bo‘lish imkoniyati tug‘ildi. Xalqimiz bundan foydalanish yo‘lidan bormoqda.

Xususan, hukumatning maxsus qaroriga binoan, 1999-yil 17-dekabr kuni Xorazmda Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy tavalludining 190 yilligi, 18-dekabr kuni esa Nukusda Ajiniyoz Eusiboy ugli tavalludining 175 yilligi, 1998-yil 24-oktyabr kuni esa Farg‘onada Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlandi. Yurtboshimiz tantana qatnashchilariga yo‘llagan tabrigida ulug‘ ajdodlarimizning jamiyatimiz hayotida tutgan o‘rni nihoyatda bebaho ekanligi alohida ta‘kidlangan.

Xususan, shu davrda Behbudiyning «Padarkush» asari, I litratning «Qiyomat» qissasi va «Abulfayzxon» tarixiy dramasi

nashr qilindi. Cho‘lponning ayrim she‘rlari «Guliston» jurnalida, «Kecha va kunduz» asari esa «Sharq Yulduzi» jurnalida e‘lon qilindi. Keyinroq ular alohida kitob holida nashr etildi.

Ulug‘ shoir Abdulhamid Cho‘lponning adabiy-badiiy merosi xalqimizning bebaho ma‘naviy mulkidir. Uning har bir asari, har bir she‘ri odamlarni o‘zaro hamkorlikka, ijtimoiy adolat uchun kurashga, nohaqlikka nisbatan murosasizlikka da‘vat etadi¹⁵⁷.

Bu ezgu ishlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning sa‘y-harakati va rolini alohida ta‘kidlash o‘rinlidir. Fikrimizning dalili sifatida Qashqadaryo zaminida buyuk alloma, moturidiya ta‘limotining yirik vakili, islomiy e‘tiqod pokligi masalasida 15 ga yaqin kitob muallifi Abu Muin Nasafiy, Sherobod tumanida buyuk hadisshunos alloma Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Buxoroda Bahouddin Naqshband hazratlari, Toshkentda Imom Termiziy nomidagi masjid va Suzuk ota maqbaralari kabi ko‘plab ziyoratgohlarni obod qilish borasidagi ezgu ishlarni qayd etish mumkin. Shuningdek, Yurtboshimizning O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrashga g‘amxo‘rligining yaqqol namunasi sifatida 2017-yil 15-fevraldagi “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4956-sonli farmoni, 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli qarori, 2017-yil 20-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3074-sonli qarori, 2017-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlarakademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3105-sonli

¹⁵⁷ Т.Файзуллаев, А.Саримсоқов. Мустақил Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши (ўқув-услубий кулланма). – Наманган, 2013. – 185 б.

qarorlari xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, chet ellarda saqlanayotgan, mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga oid madaniy boyliklarni aniqlash, shu tarixiy eksponatlarning asl yoki ko'chirma nusxalarini yurtimizga olib kelish kabi ishlarni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va topshirig'i asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida atoqli ma'rifatparvar Ishoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasini tashkil etish to'g'risida"gi, 2017-yil 14-apreldagi "Xorazm Ma'mun akademiyasining faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 211-sonli, 2017-yil 15-iyundagi "Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash sohasidagi ishlarni tashkil etishni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 376-sonli qarorlari madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etishda alohida ahamiyatga ega me'yoriy hujjatlar hisoblanadi. Demak, bugungi kunda O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini asrab-avaylash, saqlash hamda kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish davlatimiz taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi¹⁵⁸.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning kelajagi, eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lmasligi lozim. Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi.

¹⁵⁸ Усмонов М. Маънавий ва маданий меросни асрашнинг ҳуқуқий асослари. УзДСМИ хабарлари – 2018/1(5) 4

5.2. O‘zbekistonda diniy qadriyatlarning tiklanishi va bu boradagi mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar.

Mustaqillik sharofati bilan O‘zbekistonda diniy qadriyatlar to‘la tiklana boshladi. Qaramlik davrida tahqirlangan diniy qadriyatlarimiz mustaqillik nuri bilan qayta tiklandi, islomshunos allomalarimizning ulug‘ nomi va ilmiy merosi tiklandi.

Mustaqillik sharofati bois mo‘tabar Qur’oni karim va hadislarni chop etish imkoniyati qo‘lga kiritildi. 2001-yilda Qur’oni karimning Abdulaziz Mansur tarjimasi, 2004-yilda esa ilmiy-tarixiy izohlari bilan Mutallib Usmon va boshqalar tarjimasi chop etildi. Hozirgi kunda Mo‘yi muborak madrasasida O‘zbekiston Musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanayotgan VII asrga oid «Usmoni Qur’on» mushafi va nodir qo‘lyozmalar saqlanmoqda¹⁵⁹.

1991-yilda haj qilish baxtiga 350 kishi sazovar bo‘lgan bo‘lsa, 2001-yili hojilarning soni 3801 kishiga yetdi. Jami mustaqillik yillari haj ibodatini ado etishga muvaffaq bo‘lganlarning soni 31.057 kishini tashkil qildi. 1991-yil Birinchi Prezident farmoni bilan Ramazon va Qurban hayit kunlari umumxalq bayrami, deb e‘lon qilindi. Xalqimiz asrlar davomida *nishonlab* kelgan bayramlaridan biri – «Navro‘z» umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi.

«Movarounnahr» diniy boshqarmasi faoliyati respublikamiz hayotida o‘z o‘rnini egalladi. Din inson ruhini poklashi, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat tuyg‘ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an‘analarni asrashga xizmat qilishi bilan jamiyat hayotida muhim o‘rin tutib kelgan. O‘zbek yurti azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makondir. Hozirgi kunda ko‘p millatli O‘zbekiston Respublikasida islom dini bilan bir qatorda o‘n yettita diniy konfessiyalar yonmayon yashab kelmoqda.

1996-yili rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo eparxiyasi tashkil etilganligining 125 yilligi yubileyi, O‘zbekiston

¹⁵⁹ Шамсутдинов Р., Муминов Х. Узбекистон тарихи. Уқув қўлланма. 2013.

evangel-lyuteran jamoasi tashkil etilganining 100 yilligiga bag'ishlangan «Bir osmon ostida» shiori bilan musulmon va xristian dinlari vakillari o'rtasida o'tkazilgan muloqot katta ahamiyat kasb etdi. Toshkentda 2000-yilning sentyabrida YUNESKO rahnamoligida «Jahon dinlari tinchlik madaniyati yo'lida» mavzuida *dinlararo* muloqot, xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Unda AQSH, Fransiya, Rossiya, Eron, Isroil, Hindiston, Xitoy, Vatikan kabi o'ttizga yaqin mamlakat, shuningdek, xalqaro diniy muassasalar vakillari qatnashdilar. Anjumanni o'tkazish uchun aynan O'zbekiston tanlangani bejiz emas. Zero, bu o'lkadan dunyoga dong'i ketgan buyuk allomalar, islom olamida katta hurmatga ega bo'lgan buyuk zotlar yetishib chiqqan. Hozirgi kunda mustaqil O'zbekistonda din va vijdon erkinligi mustahkam quror topgan va barcha diniy konfessiyalar birgalikda mustahkam tinchlikni saqlash, diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikka qarshi dadil kurash olib bormoqda. AQSH sobiq davlat sekretari Madlen Olbrayt 2000-yil aprelida Toshkent Sinagogida ibodat qilgandan keyin shunday degan edi: «O'zbekistonda, yana takror aytaman, O'zbekistonda barcha dinlarga bir xil e'tibor berilayotgani, vijdon erkinligi to'la ta'minlanganligi meni juda quvontirdi. Bu jihatdan O'zbekistonni bugun dunyoga ibrat qilib ko'rsatsa arziydi».

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 15-iyun kuni Toshkent shahridagi O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi qurilish maydoniga tashrif buyurib, inshoot poydevoriga ramziy tunal toshi qo'ydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so'nggi bir yarim yil ichida xalqimizning milliy-diniy qadriyatlarini tiklash, ma'rifiy islomni rivojlantirish, buyuk ajdodlarimizning dinimiz sofligini ta'minlashga qo'shgan ulkan hissasini keng o'rganish va targ'ib etish yuzasidan ko'plab tashabbuslarni boshlab berdi. Davlatimiz rahbari BMT minbaridan turib islomning dunyo miqyosidagi o'rniga, ajdodlarimizning dinimiz rivojiga qo'shgan hissasiga

yuksak baho berdi hamda “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish taklifini ilgari surdi. Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi, din masalasidagi jaholatga barham berishni ko’zda tutuvchi “Jaholatga qarshi – ma’rifat” shiori joriy qilingani O’zbekistonning diniy bag’rikenglik sohasidagi tashabbuslarining yaqqol ifodasi sifatida dunyo hamjamiyatida katta qiziqish uyg’otdi. Bundan bir necha yil oldin – 2017-yil 15-iyunda imom-xatiblar bilan o’tkazilgan uchrashuvda Shavkat Mirziyoyev muqaddas dinimiz pokligini asrash masalasi jamiyatda sog’lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni ta’minlashning muhim sharti ekanini ta’kidlab, bu borada muhim vazifalarni belgilab bergan edi. O’tgan davrda mazkur yo’nalishda izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda ma’naviy muhitni asrash, din yo’lida adashgan fuqarolarni sog’lom hayotga qaytarish bo’yicha keng miqyosli ishlar bajarildi. O’zbekiston Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi va boshqa islomiy ta’lim muassasalari tashkil etildi¹⁶⁰.

Bugungi kunda Islom sivilizatsiyasi markazi dunyodagi 20 dan ortiq xuddi shunday markazlar bilan aloqalar o’rnatdi. Jumladan, Oksford islom tadqiqotlari markazi, Turkiyadagi qator ilmiy-tekshirish institutlari, Istanbuldagi To’pqqopi muzeyi, Fransiya islom markazi, Parijdagi Luvr muzeyi, Sankt-Peterburgdagi Ermitaj davlat muzeyi va boshqa qator yetakchi markazlar bilan hamkorlik o’rnatilib, bu borada 7 ta memorandum imzolandi. Markaz kutubxonasi shakllantirilmoqda. Bugunga qadar unga 400 dan ortiq noyob qo’lyozmalar xarid qilindi, yurtdoshlarimiz o’zlaridagi qadimiy qo’lyozmalarni topshirmoqda. Bu xalqimizning iymon-

¹⁶⁰ Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Uzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari tugrısında» 2017 yil 23 iyundagi IҚ-3080-son Qarori. www.lex.uz

e'tiqod, ma'naviyat va ma'rifatga intilishidan, ezgu va savobli ishlarga bosh qo'shayotganidan dalolatdir.

Kuni kecha SHHTning Sindao sammitida qabul qilingan SHHT davlat rahbarlarining Yoshlarga qo'shma murojaati ham O'zbekiston tashabbusidir. Davlatimiz rahbari tadbirga yig'ilgan diniy ulamolar va barcha yurtdoshlarimizni Ramazon hayiti bilan tabriklab, shunday ulug' ayyom kunlarida markaz qurilishining boshlanayotgani zamirida ezgu niyat, chuqur ma'no-mazmun mujassam ekanini ta'kidladi. Bu markazni qurishdan maqsad islom ma'rifatini, buyuk ajdodlarimizning boy merosini, avvalambor, xalqimizga, dunyo hamjamiyatiga yetkazishdir. Buning uchun buyuk bobolarimiz merosiga o'zimiz munosib bo'lishimiz, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishimiz zarur. Boshlagan hamma sa'y-harakatlarimiz yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, xalqimiz tinchlik-osoyishtaligiga, yorug' kelajagiga zamin yaratadi, dedi Prezidentimiz⁶¹.

Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan mafkuraviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak.

Bunday uzoqni ko'zlaydigan, aniq maqsadlarga ega bo'lgan turli xuruj va g'arazli intilishlar, xorijiy markazlar tomonidan katta kuch va mablag' sarflanayotgan harakatlar va bu kabi xavf-xatarlar bizga qanday zararli oqibatlar olib kelishidan ogoh bo'lishimiz darkor.

Bunday balo-qazolarga qarshi kurashda, farzandlarimizning ma'naviy dunyosini himoya qilishda nimalarga tayanishimiz zarur?

⁶¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2018 йил 15 июнь кuni Тошкент шаҳридаги Ўзбекистон ислом цивилизацияси маркази қурилиш майдонига ташрифидаги нутқи.

Avvalo, to'g'ri tarbiya, sog'lom turmush g'oyasi, faqatgina qattiq iroda va iymon-e'tiqod hisobidan bunga erishishimiz mumkin.

Aynan ana shunday o'z kuchiga va irodasiga ishongan, keng fikrlaydigan bilimli va madaniyatli yoshlarimiz har qanday buzg'unchi oqimlarga berilmasdan, hayotda o'z yo'lini topib olishi muqarrar.

Shu nuqtai nazardan mamlakatimizni 1991-2019-yillar davomida isloh qilish va yangilash borasida qo'lga kiritilgan natijalarni sarhisob qilar ekanmiz, bugun ushbu bosqich milliy davlatchilikni shakllantirish va respublikamizni barqaror rivojlantirishda mustahkam zamin bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Tarixan qisqa vaqt ichida sovet davridagi eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi, milliy davlatchilikni shakllantirishning huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyati yo'lga qo'yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o'tkazish jarayoni amalga oshirildi.

Eng muhimi, aholining ong-u tafakkurida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ularning uzoq yillar mobaynida kommunistik mafkura va sovet mafkurasida tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi va dunyoqarashi, bir so'z bilan aytganda, odamlarning o'zi o'zgardi. Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, mamlakatimizning kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq holda quradigan yangi avlod vakillari hayotga kirib kelmoqda.

Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarni ortga qaytarib bo'lmasligi, islohotlar muqarrarligining ishonchli kafolatidir.

Muxtasar qilib aytganda, Vatanimiz va xalqimiz tarixida muhim o'rin tutgan keyingi 28 yilda tom ma'noda tub o'zgarishlar amalga

oshirildi, xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektiga aylangan, jahon hamjamiyatida o'zining munosib va mustahkam o'rniga ega bo'lgan – O'zbekiston deb atalgan yangi demokratik davlat barpo etildi. Bugun ana shu mustahkam poydevor asosida mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning keyingi mantiqiy bosqichi izchil davom etmoqda, deb xulosa yasash mumkin.

Tayanch iboralar:

Ma'naviy meros, ilmiy-ijodiy muassasa, oltin meros, fan, madaniyat va maorif, qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi namunalari, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, xalqaro jamg'arma, «Ijtimoiy fikr».

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Xalqaro Islom sivilizatsiyasi qachon tashkil etildi?
2. Qaysi shaharlarda xalqaro maqom festivali o'tkazilmoqda?
3. Tarixiy obidalarni rekonstruksiya qilish va ularni YUNESKO ro'yxatiga kiritish borasida qanday amaliy ishlar qilinmoqda?
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning qaysi qarorida ma'naviyat-targ'ibot markazining faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish belgilangan?
5. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning yangi shiori?
6. Respublika ma'naviyat kengashining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

6-BOB. “TA’LIM TO’G’RISIDA”GI QONUN VA “KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI”. JIS- MONIY TARBIYA VA SPORT.

6.1. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi ta’lim sohasidagi islohotlar. “Ta’lim to’g’risidagi” Qonun va “Kadrlar tayyorlash” milliy Dasturining qabul qilinishi.

6.2. Ta’lim sohasidagi islohotlarning yangi bosqichga ko’tarilishi. Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil topishi va kollej va litseylarning isloh qilinishi.

6.3. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi.

6.1. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi ta’lim sohasidagi islohotlar. Ta’lim to’g’risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor qaratib kelmoqda. Shu boisdan yoshlar ta’lim-tarbiyasi davlat siyosatining ustivor darajasiga ko’tarildi. Bunga jamiyatimizdagi so‘nggi yillardagi ijobiy o‘zgarishlar misol bo‘la oladi.

«Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak», – deydi Prezident Sh.M.Mirziyoyev¹⁶².

Bolalarga doir davlat siyosatini Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respub-

¹⁶² Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta’limi tizimining rivojlantirish, pedagoglarning mалаkasi va jamiyatdagi nuфуzini oshirish, ёsh avlod maъnaviyatini yuksaltirish masalalariga baъiъlangan videoselektor yigiliшиdagi maърузasi.

likasida bu talablarni to'la ro'yobga chiqarish yuzasidan qonunchilik, ma'muriy va boshqa yo'nalishda chora-tadbirlar belgilangan. Bolalar huquqini tartibga soluvchi O'zbekiston qonun hujjatlari tizimini mamlakat Kostitutsiyasi, oila kodeksi, Mehnat kodeksi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va boshqa bir qancha qonunlar tashkil etadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, ular asosida ishlab chiqilgan UO'TDS va BMT ning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasidan kelib chiqqan holda maxsus ta'lim mazmunining yangilanuvi jarayoni boshlandi¹⁶³.

MDH mamlakatlari, jumladan, O'zbekistonda ta'lim darajasi ko'rsatkichi juda yuqori. O'zbekistonda ta'lim ko'rsatkichi 0,99 ni tashkil etsa, ayni paytda dunyoda bu ko'rsatkich 0,77 ni tashkil qiladi. O'zbekiston ta'lim ko'rsatkichi bo'yicha Yevropa ittifoqi tarkibiga kiradigan Malta (0,86), Ruminiya (0,90), Xorvatiya (0,90), Markaziy Amerikaning sanoati eng rivojlangan mamlakati Kosta Rika (0,87) va Xitoy Gonkongidan (0,87) oldinda. Bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston neft hisobidan boyib ketgan Baxrayn va Bruney (0,88), Quvayt (0,87), Qatar (0,86), BAA (0,71), shuningdek, iqtisodiy va texnik rivojlanish sohasida katta muvaffaqiyatga erishgan Meksika (0,86) va Malayziyadan (0,84) oldinda¹⁶⁴ turadi.

Mustaqillik yillarida xalq ta'limini isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etilib bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. 2004-yil 21-may – O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi.

— Халқ таълими тизимида алоҳида эътиборга муҳтож бўлган болалар таълим тарбиясининг ташкил этилиши. Маълумотнома, -Б.18.

— Саидова.Г. Ўзбекистонда таълим: талаб ва тақриф мутаносиблиги.-Тошкент, 2007-2008, -Б.28

- Ta'limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib borildi:
- ta'lim tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;
 - ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
 - ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarining ustuvorligi;
 - e'tiqodi, dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyatlari yaratilganligi;
 - ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan holiligi¹⁶⁵.

O'zbekiston mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab eng muhim masalalardan biri eskicha tafakkur, e'tiqodidan qutilgan, istiqloq uchun, o'z ona-yurti uchun xizmat qiladigan kadrlar tayyorlash masalasi bo'ldi. Eski tuzumni asta-sekin tag-tomiri bilan tugatib, batamom yangi, jahonning ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlari yo'lidan boradigan haqiqiy demokratik jamiyat qurish endilikda yangicha fikrlaydigan quyidan tortib yuqori toifadagi kadrlarga bog'liq bo'lib qoldi.

O'zbekistonda ta'limning insonparvarligining muhim faktorlaridan biri sog'lom bolalar qatori imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham ta'limning barcha shakllarida teng imkoniyatlar yaratib berilganligidir. Bunday bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalanish hamda o'z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo'lgan ta'lim olish huquqiga ega.

Tibbiy – psixologik komissiyaning tavsiyasi bo'lgan taqdirda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishlarida nuqsoni bo'lgan bolalar va nogiron bolalarning ota onalari o'z xohish istagiga ko'ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim muassasasi turini (ya'ni umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan) tanlash huquqiga ega¹⁶⁶.

¹⁶⁵ Жураев Нарзулло. Ўзбекистон тарих: (Миллий истиқлол даври) 3-китоб /Маъсул муҳаррир Н. Абдуазимова. – Т.: “Шарқ”, 2011.

¹⁶⁶ Хужамбердиев.М. Ўзбекистонда инклюзив таълимнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш масалалари // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. -3/2013. –Б.42.

Ular uchun uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarni sog'lomlashtirish va ularga ta'lim berish uchun ularning nuqson turlari va uning darajalarini inobatga olgan holda davlat tomonidan to'liq yoki qisman ta'minlanadigan quyidagi turdagi ta'lim maskanlari faoliyat yuritadi¹⁶⁷.

1. Maxsus maktab va sanatoriya turidagi maktab internatlardagi ta'lim.

2. Uyda yakka tartibdagi ta'lim;

3. Inklyuziv ta'lim.

Maxsus maktab va sanatoriya turidagi maktab internatlarning o'zi ham 2turga bo'linadi. Ular:

1. Maxsus maktablar

2. Sanatoriya turidagi maktab internatlar.

Bundan tashqari, bolalar muruvvat uylari ham mavjud bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiradi. Bolalar muruvvat uylariga aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, ruhiy kasal, ta'lim olish va mehnat qilishga, kasb o'rganishga layoqatsiz 4 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar joylashtiriladi¹⁶⁸. Bugungi kunda Respublikamizda 5 ta imkoniyati cheklangan bolalar uchun "Muruvvat" internat uylarida 1,5 ming nafardan ziyod nogiron bolalar davlat ta'minotiga olingan¹⁶⁹.

¹⁶⁷ Закон Республики Узбекистан "Об образовании" (ст.23) от 29.08.1997г. Умарова.Н. Алоҳида эҳтиёжли болалар учун махсус мактабдаги таълим. Декабрь 2014 <http://turkiston.uz/index.php/dolzarbmavzu/97-2012-01-18-12-15-38.html>

¹⁶⁸ Равные права- равные возможности. –Ташкент: SIM-ASIA, 2011, -С.41, Узбекистон Республикаси меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлигининг буйруғи билан тасдиқланган ёлғиз кексалар, пенсионерлар ва ногиронларни Ўзбекистон Республикаси меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги тизимидаги республика уруш ва меҳнат фахрийлари пансионати, "Саховат" ва "Мурувват" уйларида расмийлаштириш тартиби туғрисидаги қоидалар туғрисидаги (руйхат рақами 1848, 2008 йил 29 август) қонуни.

¹⁶⁹ Узбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги Ахборот хизмати. <http://muruvvat.uz/index.php/uz/vangiliklar/itcm/33>, Саидова.Г. Ўзбекистонда таълим: талаб ва тақлиф мутаносиблиги.- Тошкент, 2007-2008, -Б.28

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining soni esa, saxon beshtani tashkil qilib, sakkiztaga bo'linadi. Mazkur muassasalarda 8 turdagi: kuzi ojiz, zaif ko'ruvchi, kar va zaif eshituvchi, aqli zaif, ruxiy rivojlanishi sustlashgan, tayanch harakati a'zolari harakati buzilgan, nutqida murakkab nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim tarbiya oladilar. Ularning ta'lim-tarbiyasi bolalarning individual xususiyati va qobiliyatini hamda differensial yondashuvni e'tiborga olgan holda, 13 turdagi o'quv reja asosida amalga oshiriladi. Maxsus maktablarning ta'lim jarayonida bolalarning sog'ligini tiklash, davolash, rehabilitatsiya, ijtimoiy hayotga moslashtirish, korreksion ta'lim tarbiya, ijtimoiy mehnatga o'rgatish kabi tadbirlarni amalga oshirish bolalarning kasallik turiga ko'ra belgilanadi. Ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan aqliy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun maxsus mehnat-ta'lim maktabida ta'lim olish imkoniyatiga ega¹⁷⁰.

Bundan tashqari, mamlakatimizda yigirma ikkita sanatoriy turidagi maktab-internat mavjud bo'lib, 6087 nafar bolalar tahsil oladilar. Bunday ta'lim muassasalarida skolioz bilan kasallangan, sil va nafas olish organlarining surunkali xastaliklariga chalingan bolalar davolanish hamda maxsus sharoitlarda ta'lim olish imkoniyatiga ega. Jumladan, suyak kasalligiga chalinganlar uchun jami 10 ta maktab internatda 2877 nafar nogiron bolalar va sil kasalligiga chalinganlar uchun 13 ta maktab-internat bo'lib, ularda 3210 nafar nogiron bolalarga o'rta ta'lim ma'lumoti beriladi¹⁷¹, surunkali kasalliklarga chalingan zaif bolalar uchun sanatoriya tipidagi 5 ta maktab-internatida 1541 nafar bola tahsil olmoqda¹⁷².

¹⁷⁰ Шомахмудова.Р.Ш. Инклюзив таълим (халқаро ва Ўзбекистондаги тажрибалар). -Тошкент, 2011, -Б.5, Тенг ҳуқуқлар-тенг имкониятлар. –Ташкент: SMI-ASIA? 2011, -Б.128, Тухташев.С. Махсус мактаб-интернат болаларида тарбиявий ишларни олиб боришнинг коррекцион хусусиятлари// Мактаб ва ҳаёт. -2010. -№6. –Б.9.

¹⁷¹ Мингйиллик ривожланиш мақсадларининг маърузаси. -Ўзбекистон, 2006, Б.120.

¹⁷² Саядова.Г. Ўзбекистонда таълим: талаб ва тақлиф мутаносиблиги.-Тошкент, 2007-2008, -Б.28

Mustaqillikning dastlabki yillarida 19347 nafar nogiron bolalar bo‘lib, ularning 12717 nafari maxsus maktablarga jalb qilingan. 5513 nafar bola sanatoriya turidagi maktab internatlarda tahsil olgan¹⁷³. Maxsus maktab internatlarga boruvchi bolalar 1991-yilda 18169 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa¹⁷⁴, 2020-yilga kelib nogiron bolalar soni 17708 taga kamaygan. Ya’ni, keyingi 5-yil mobaynida nonormal rivojlangan bolalar tug‘ilishi 1,3 barobarga kamaydi. 6 – 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida o‘tkir respirator virus infeksiyalari bilan kasallanish – 9,7 %ga, pnevmoniya bilan – 49,1 %, bronxit bilan – 32,8%, skolioz bilan kasallanish – 32,7 %ga pasaydi¹⁷⁵. Birgina 2010-yildan 2012-yilgacha bo‘lgan davr oralig‘ida nogiron bolalar soni 105102 tadan 96047taga kamaygan.

Buni birinchi sabablaridan biri O‘zbekistonda nogiron bolalar tug‘ilishining kamayishi bilan izohlansa, ikkinchidan 1996-yildan inklyuziv¹⁷⁶ ta’lim tizimi joriy qilinishi munosabati bilan ko‘pgina bolalar sog‘lom bolalar qatori umumiy maktablarda tahsil olmoqdalar. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar soni 1692 tadan 2540 taga ortdi. Maxsus maktab internatlarda tahsil oluvchi kar va zaif eshituvchi bolalar soni 3026 tadan 5100 taga ortdi. Buning sababi, umumta’lim maktablarida eshitmaydigan bolalarni sog‘lom bolalar bilan birga o‘qitish uchun kerakli sharoit va mutaxassislar mavjud emas. Bunday ta’lim tayyorlanmagan bolaning ruhiy va

¹⁷³ УзМДА Ф.М-26, оп.1, д.219.Сводный статистический отчет МНО РУз и статистические отчеты облУно о школах для детей с недостатками умственного и физического развития на начало 1992-1993 уч. года. –Б.12

¹⁷⁴ УзМДА Ф.М-26, оп.1, д.220.Сводный статистический отчет МНО РУз и статистические отчеты облУно о школах для детей с недостатками умственного и физического развития на начало 1992-1993 уч. года. –Б.18

¹⁷⁵ 2014-2018 йилларда Ўзбекистонда аҳолининг репродуктив саломатлигини мустаҳкамлаш, оналар, болалар ва усмирлар соғлигини муҳофаза қилиш борасидаги давлат дастури тугрисида.2014 йил 1 август

¹⁷⁶ Инклюзив таълим бу ривожланишида нуқсонли бор болалар ва усмирларни соғлом тенгдошлари билан биргаликда таълим олиши ва умумий таълимга қушилиб ўқишидир.

jismoniy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin¹⁷⁷. Shu jumladan, intellekti normal bo'lgan biroq ko'rishda nuqsoni bor bolalarning ham umuta'lim maktablarida ta'lim olishi biroz qiyin¹⁷⁸. Shuning uchun ham bunday bolalar maxsus maktab internatlarda tahsil olishni ma'qul ko'radilar.

1997-yil 29-30-avgust kunlari Toshkentda birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi bo'lib o'tdi. 27-avgustda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (yangi tahrirda) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Mazkur dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

– ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

– kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

– kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

¹⁷⁷ Равные права- равные возможности. –Ташкент: SIM-ASIA, 2011, -С.48.

¹⁷⁸ Уша манба, -Б.50.

– ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

– ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o’tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

– yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko’rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

– ta’lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

– uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag’lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– kadrlar tayyorlash sohasida o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazkur maqsadlarni amalga oshirishni quyidagi bosqichlarda malga oshiradi:

1. Birinchi bosqich (1997–2001-yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

2. Ikkinchi bosqich (2001–2005-yillar) Milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar

majburiy umumiy Oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimiga, shuningdek, oʻquvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan taʼlimga oʻtish toʻliq amalga oshiriladi. Taʼlim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan toʻldirish taʼminlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

3.Uchinchi bosqich (2005-va undan keyingi yillar) toʻplangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Taʼlim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, oʻquv-tarbiya jarayoni yangi oʻquv-uslubiy majmualar, ilgʻor pedagogik texnologiyalar bilan toʻliq taʼminlanadi¹⁷⁹.

«Taʼlim toʻgʻrisida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oʻzbekiston Respublikasida oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» 1998-yil 13-maydagi 204-son qaroriga muvofiq kasb-hunar kollejlari tashkil qilina boshladi. 1999-2000 oʻquv yilidan boshlab – tayanch pedagogika institutlari va universitetlar talabalarini tayyorlash dasturiga yangi taʼlim, kasb-hunar dasturlari hamda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida oʻqitish uslubiyoti boʻyicha maxsus kurslar kiritildi¹⁸⁰.

Viloyatlarda ham yangidan-yangi oʻquv yurtlari ochildi. Birinchi Prezident I. Karimovning 1992-yil 28-fevral Farmoni

¹⁷⁹ Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-сон, 295-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар туплами, 2007 й., 15-сон, 150-модда)

¹⁸⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 13 майдаги “Ўзбекистон Республикасида ўрта махсус, касб-хунар таълимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.

bilan 8 viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi. Bu respublika hukumatining izchil madaniy-ma'rifiy siyosatining yana bir dalili bo'ldi. Viloyatlarda oliy universitet ta'limini tashkil etish, bu joylarda ilmiy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga, eng olis va chekka shaharlarni madaniy-ma'rifiy markazga aylantirishga asos bo'ldi.

2000-yil boshlariga kelib, mamlakatimizda 61 ta oliy, 258 ta o'rta maxsus o'quv yurtlari, shu jumladan, 75 ta kollejlarda 360 mingdan ortiq talaba bilim olmoqda. Mustaqilligimiz kelajagi yoshlar qo'lida ekan bilimdon, ma'naviyatli, mustaqil fikrlab, mustaqil ish yuritadigan yoshlarni, yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, jamiyatimizning eng katta boyligi, millatimizning intellektual, aql-zakovat boyligi bo'lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa etib qo'yilmoqda.

6.2. Ta'lim sohasidagi islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilishi. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil topishi. kollej va litseylarning isloh qilinishi

Ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida,

yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Ma'lumki, murakkab o'tish yillarida maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan tomonidan xalq ta'limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me'yoriy asoslari mustahkamlandi. Ota-onalar, jamoatchilikning istaklari inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta'limi tizimi tiklandi. 2017-2019-yillarda yurtimizda 157 ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi¹⁸¹.

Ulug' allomalarimiz – Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Ishoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishda erkak o'qituvchilarning alohida o'rni va ta'siri borligi hisobga olinib, ko'rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta'limi tizimiga 12 ming 871 nafar erkak o'qituvchi qaytdi.

¹⁸¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.01.2020.

Pedagog xodimlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda. Oxirgi 3 yilda o‘qituvchilarning ish haqi o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo‘shimcha oylik ustamalar to‘lanmoqda. Bu olis hududlarda yetishmayotgan mingdan ziyod o‘qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o‘qituvchilarga pensiyasi to‘liq miqdorda berilmoqda¹⁸².

Bugungi kunda respublikada 114 ta oliy ta‘lim muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta‘lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so‘nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta‘lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta‘lim muassasasi filiali tashkil etildi.

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta‘lim yo‘nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi.

2019/2020 o‘quv yilida 59 ta oliy ta‘lim muassasasida sirtqi ta‘lim, 10 ta oliy ta‘lim muassasasida kechki ta‘lim shakli joriy etildi.

Respublika oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo‘yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so‘nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi.

Talabalarning 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo‘jaligi, 4,4 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot, 4,5 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohaslariga oid ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha tahsil olmoqdalar.

¹⁸² «Мақтаблар учун маблағни аямаймиз» – Президент таълим масалаларига бағинланган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. 23.08.2019 <https://kun.uz/news/2019/08/23/maktablar-uchun-mablag-ni-ayamaymiz-prezident-talim-masalalariga-bagishlangan-videosелектор-otkazdi>

Magistratura talabalarining 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 13,5 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 3,2 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

2019/2020 o'quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016-yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi.

Respublikaning 16 ta oliy ta'lim muassasasida 2018/2019 o'quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni 84 tani tashkil qilmoqda (2017 yilda 48 ta). So'nggi 3 yilda 1 693 nafar professor-o'qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni 9 636 nafarga etdi (shundan 2 130 nafari fan doktori (DSc), 7 506 nafari fan nomzodi (PhD) hamda respublika oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati 5,1 foizga oshishiga erishildi.

So'nggi 3 yilda oliy ta'lim muassasalarining 1 611 nafar professor-o'qituvchisi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida stajirovka o'tashi va malaka oshirishi ta'minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta'lim va ilmiy muassasalar magistratura mutaxassisligiga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta'lim olishga qabul qilindi.

«El-yurt umidi» jamg'armasi orqali 46 nafar professor-o'qituvchining Kanada, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlarida stajirovka o'tashi ta'minlandi.

2017-2019-yillarda ta'lim jarayoniga 1 154 nafar xorijlik yuqori malakali pedagog xodim va olim jalb etildi (AQSHdan 94 nafar, Yevropa mamlakatlaridan 445 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 299 nafar, MDH mamlakatlaridan 316 nafar)¹⁸³.

Oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Masalan, 2030-yilga borib o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo'yilgan¹⁸⁴.

Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi, Moliya va Xalq ta'limi vazirliklariga 2020-yilda xalq ta'limi xodimlari oylik ish haqini oshirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi. Uzoq qishloqlardagi maktablarga o'qituvchilarni jalb etishni yanada rag'batlantirish uchun ularga uy-joylar, avtotransport uchun kreditlar berish ham ko'zda tutilgan. Bu ishlar davlatimiz tomonidan izchil davom ettiriladi. Lekin bu – masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan, o'qituvchi va murabbiylarning o'zi ham bilim va kasb mahoratini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro'sini oshirishi kerakligiga urg'u berildi.

* Узбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси (УзР Президентининг 08.10.2019 й. ПФ-5847-сон Фармонида 1-илова)

— Узбекистон Республикаси Президентининг 29.04.2019 й. п пф-5712 “Узбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш туғрисида”ги Фармони

Maktablardagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona "Tarbiya" fanini joriy qilish zarurligi qayd etildi. Maktablarga buyuk allomalar, davlat va siyosat arboblari, mashhur sarkarda ajdodlarimizning nomlarini berish muhimligi ta'kidlandi.

10-11-sinflar joriy etilib, kollejlarda kontingent qisqarishi munosabati bilan mavjud moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanish maqsadida 7 ta kollej va akademik litsey negizida yangi 3 ta oliy ta'lim muassasasi filiallari va 1 ta oliy ta'lim muassasasi tashkil etilmoqda.

Hozirgi kunda ilm-u fan sohasida ham raqobat muhiti hayotiy zarurat bo'lib qoldi. Busiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. Ilm-fandagi raqobat yangi-yangi fikr va g'oyalarga turtki beradi, kishi dunyoqarashini kengaytiradi. Qaysi universitet o'z ixtirolari, ilmiy xulosa va ishlanmalari bilan nom chiqarsa, o'sha universitetning nufuz va e'tibori osha boradi¹⁸⁵.

To'rtinchidan, viloyatlarning kelajak taraqqiyoti ana shu hududlardagi oliy ta'lim markazlari bilan bevosita bog'liq. Viloyatlarda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun yangi sohalarni egallash, yangi ixtisosliklarni tashkil etish, zarur kadrlarni shu joylarda tayyorlash imkoniyati tug'ildi.

Oldindan markazda o'qigan kadrlarni viloyatga yuborish masalasi ancha-muncha muammo edi. Viloyatlarda universitetlar filiallari tashkil etilishi bilan bu muammoning ham yechimi topildi.

Beshinchidan, viloyatlardagi universitetlar vositasida dunyo-ning eng ilg'or, mashhur o'quv yurtlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu esa o'z navbatida dunyo tajribasini

¹⁸⁵ * Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning mалаkasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, e-sh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalarini a bahsihlangan videosелектор йиғилишидаги маърузаси <http://uza.uz/oz/politics/maktab-talimini-rivozhlantirish-umumkhal-arakatiga-aylanishi-23-08-2019>

hayotga tezroq olib kirish, fan va texnikani yangi o'zanga burish, shu asosda mamlakat taraqqiyotini jadallashtirish imkonini berdi.

Kadrlar tayyorlash sohalari tarkibiy tuzilishi loyihasida yoshlarni oliy o'quv yurtlariga yanada ko'proq qamrab olish bo'yicha batafsil ma'lumot berildi. 2018-2019 o'quv yilida mamlakatimiz oliy o'quv yurtlariga 96 ming 950 talaba qabul qilingan bo'lsa, 2019-2020-yilda 123 ming 170 nafar yigit-qiz o'qishga jalb etiladi. Bu ko'rsatkichni 2022-2023 o'quv yilida 180 mingtaga yetkazish rejalashtirilgan¹⁸⁶.

Oliy ta'limga innovatsiya investitsiyalarini – xorijiy ta'lim-ilm texnologiyalarini jalb etish borasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2018-yilda yurtimizda Rossiyaning 2, Janubiy Koreyaning 2, Latviyaning 1 oliy ta'lim muassasasi filiallari tashkil etildi. Joriy yilda Hindistonning 2, Rossiyaning 2 va AQSHning 1 oliy ta'lim muassasasi filiali talabalarni qabul qiladi. Ulardagi ta'lim jarayoniga 832 nafar xorijiy mutaxassis jalb etilgan.

Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida tashkil etiladigan Yoshlar akademiyasi ham ilm-fan vakillarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ushbu akademiyaga innovatsion fikrlaydigan iqtidorli talabalar va 40 yoshgacha bo'lgan olimlar, tashabbuskor yoshlar a'zo bo'ladi. Akademiyada sun'iy intellekt, qayta tiklanadigan energiya manbalari, robot texnikasi va mexatronika, farmatsevtika, biotexnologiya, dasturlash, sanoat dizayni, 3D modellash tirish kabi yo'nalishlarda ilmiy ishlar olib boriladi.

Maktabgacha tarbiya O'zbekiston xalq ta'limi tizimida birinchi bosqichdir.

Bu bosqichda xilma-xil toifadagi, turlicha muassasalarni ko'rish mumkin. Ya'ni bolalar yaslilari, bolalar bog'chalari, yasli

¹⁸⁶ <https://za.uz/oz/documents/2019-2023-yillarda-mirzo-ulu-bek-nomidagi-zbekiston-milliy-u-18-06-2019> Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning 2019 yil 24 maydagi Uzbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, ish-tadqiqotchilar bilan uchrashuvdagi nutqi.

bog'chalar, sog'lomlashtirish bog'chalari, aqliy, jismoniy jihatdan nogiron bolalar bog'chalari, xonadon bog'chalari, mavsumiy bog'chalar va hokazolar shu tizimga kiradi¹⁸⁷.

Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori asosida Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Yangi vazirlikning asosiy vazifalari bosqichma-bosqich barcha bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish, mamlakatda o'zaro raqobat qiluvchi davlat va nodavlat MTMLari tarmog'ini yaratish, amaliyotga maktabgacha ta'lim va bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini joriy etishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tizimi rahbar va pedagog kadrlarini zamonaviy texnologiyalar va metodlar bazasida qayta tayyorlash, shuningdek, bolalarni tarbiyalashning mumsib sharoitlarini yaratish rejalashtirilgan¹⁸⁸.

Barcha MTMLar mahkamaviy tegishligidan qat'i nazar yangi vazirlik tizimiga o'tkaziladi. O'zbekistonning barcha hududlarida 50, 70, 100, 120 va 150 o'ringa mo'ljallangan qo'shimcha davlat va nodavlat MTMLarni tashkil etish, shuningdek, maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini tadbiq qilish yo'li bilan bolalarni maktabgacha ta'limga to'liq qamrab olish rejalashtirilmoqda.

¹⁸⁷ Инновация вазирлиги хузурида ёшлар академияси ташкил этилади/
<https://mininnovation.uz/uz/news/innovatsiya-vazirligi-huzurida-voshlar-akademiyasi-tashkil-etiladi>

¹⁸⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сон қарорига илова Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси

O'zbekiston Respublikasida hozir 9467 maktabgacha tarbiya va ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, 1,3 million kichkintoylarni o'z bag'riga olgan. Ularning tarbiyasi bilan 100 mingdan ortikrok pedagog xodimlar shug'ullanmoqdalar. Xususiy MTM lar soni 2017-yilda 200 dan ortiq bo'lgan bo'lsa, 2019-yilga kelib bu ko'rsatkich 600 ga yaqinni tashkil qilmoqda. Raqamlar kun sayin oshib bormoqda, chunki xususiy MTMlar va Davlat-xususiy sektori hamkorligi asosidagi MTMlar ochilmoqda.

Keyingi yillarda maktabgacha tarbiya, o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'limning ishlab chiqilgan konsepsiyalari asosida ta'limning barcha darajalari uchun o'quv dasturlarining eskilari qayta ko'rib chiqilib, yangilari ishlab chiqilmoqda.

2018-yilda maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalari va oilalar uchun 17 nomdagi o'quv-metodik qo'llanmalar, respublika hududida istiqomat qiluvchi xalqlarning 7 tilida 58 nomdagi yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari va umumiy ta'lim maktablari dasturlari ishlab chiqildi va nashrga tayyorlandi. Ularning 51 tasi e'lon qilindi va o'quv yurtlarida foydalanish uchun qabul qilindi¹⁸⁹.

Yurtimizda so'nggi yillarda ta'lim sifatini yaxshilash, tizimda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash hamda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, rivojlangan davlatlar bilan tajriba va axborot almashish, mehnat resurslariga, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, texnik rivojlanish hamda modernizatsiya jarayonlari bilan bog'liq ehtiyojni inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida o'quv dasturlari, mutaxassislik yo'nalishlarini yangilab borish, tayyorlanayotgan mutaxassislar bilan mehnat bozori o'rtasidagi talab hamda taklif mutanosibligiga erishish borasidagi islohotlar o'z samarasini bermoqda.

¹⁸⁹ Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrda "Maktabgacha ta'lim gizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari tug'risida" gi Qarori. www.lex.uz

6.3. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan sportga katta e‘tibor qaratib kelingan. Chunki sport aynan barkamol avlodni tarbiyalashdagi eng muhim vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston sportchilari tomonidan mustaqillik yillarida olimpiada o‘yinlarida, osiyo o‘yinlarida, chempionat va kuboklarda 6700 tadan ortiq turli darajadagi medallar qo‘lga kiritildi. O‘zbekiston sportchilari 5 ta Osiyo o‘yinlarida ishtirok etib, 232 ta medalni qo‘lga kiritdilar. Ulardan 53 tasi oltin, 83 tasi kumush, 96 tasi bronza medalidir. Bularning barchasi bejizga emas, balki aholi o‘rtasida sportni rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratilayotgani, bolalarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlar natijasidir.

1992-yilda qabul qilingan «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonunning 13-moddasiga binoan «Davlat tashkilotlari joylarda maxsus sport sog‘lomlashtirish majmualari, sport inshootlari va boshqa sharoitlarni yaratib berishni o‘z zimmalariga oladilar»¹⁹⁰

O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonunining yangi tahriri 2015-yil 4-sentyabrda qabul qilindi. Mazkur Qonunda O‘zbekiston hukumatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish huquqiy-me‘yoriy asoslari Konstitutsiya va xalqaro huquq normalariga mos ravishda yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va

¹⁹⁰ Uzbekiston Respublikasining «Жисмоний тарбия ва спорт туғрисида»ги Қонун//Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000, 5-6-сон. 147-модда; Узбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари туплами, 2005, 37-38-сон. 277 модда. Мазкур Қонун Узбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт туғрисида»ги Узбекистон Республикаси Қонунига узгартиш ва қушимчалар киритиш ҳақидаги 2015, 4 сентябрдаги УРҚ-394-сонли Қонунига мувофиқ янги таҳрирда қабул қилинган.

sport to'g'risida»gi Qonuni mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi: jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; har kimning jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shug'ullanishga bo'lgan huquqini ta'minlash; jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat hamda jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish; fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqlarining davlat kafolatlarini belgilash; jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitishga hamda zo'rvonlikka yo'l qo'ymaslik; jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ishtirokchilari hamda tomoshabinlarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash; sportning barcha turlari va tarkibiy qismlarini rivojlantirishga ko'maklashish; nogironlar va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar, shuningdek, yuqori darajada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko'maklashish; O'zbekistonning milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish; fuqarolarni jismoniy tarbiyalashning uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash; xalqaro hamkorlikni amalga oshirish shular jumlasidandir¹⁹¹.

Shu o'rinda O'zbekistonda sportning rivojlanish tarixi bir necha bosqichlarga bo'linadi:

Birinchi bosqich, 1991-1997-yillarni o'z ichiga olib, respublikamiz hayotida tub burilish yasagan bu davrni Respublikada jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qonunlar, Prezident Farmonlari va Vazirlar mahkamasining qarorlari ishlab chiqildi. Ularda sportning huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy asoslari belgilanib, sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari ko'rsatib berildi.

Shu davrlarda ko'plab ommaviy sport turlarini rivojlantirishga katta e'tibor berila boshladi. Xususan, 1992-yildan milliy kurash

¹⁹¹ Шакиржанова К.Т. Узбекистон Республикасида мустақиллик йилларида жисмоний тарбия ва спортнинг ривожланиши. Замонавий таълим / 2016, 9

bo'yicha jahon chempionatlari, 1994-yildan tennis bo'yicha "kubogi" xalqaro turniri, 1996-yildan "Toshkent open" xalqaro ayollar turnirlari kabi turnirlar o'tkazila boshladi. O'zbekiston ilk bor mustaqil jamoa sifatida 1994-yilda qishki Olimpiya o'yinlarida ishtirok etib birinchi oltin medalni qo'lga kiritdi. (L.Cheryazova). Toshkentda 1996-yil 14-avgustda Olimpiya muzeyi tashkil etildi. Uni Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti X. A. Samaranch mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I. Karimov bilan birga tantanali ravishda ochib berdi. X. A. Samaranchning O'zbekiston sportini rivojlantirish borasidagi katta xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. 1996-yilda O'zbekiston boks federatsiyasi sport bo'yicha yo'riqchisi Artur Grigoryan o'z vazni bo'yicha Germaniyada o'tkazilgan jahon chempionatida qatnashib katta yutuqlarga erishdi. U mutlaq chempion «Oltin kamarini» qo'lga kiritdi. Uning sport sohasida yutuqlari mamlakat Prezidenti tomonidan yuksak baxolandi¹⁹².

1997-yil O'zbekiston Respublikasi sporti tarixida, umuman, olganda, muvaffaqiyatli yil bo'ldi. Saralash musobaqalarida g'olib chiqqan 77 sportchimiz 13 sport turi bo'yicha Avstraliyaning Sidney shahrida bo'lib o'tgan XXVII Olimpiada o'yinlarida qatnashishga muassar bo'ldilar. Olimpiadachilarimiz 1 oltin, 1 kumush va 2 bronza medallarini qo'lga kiritib, 200 mamlakat o'rtasida 4-o'rinni egalladilar. Respublika kurashchilari, bokschilari, tennischilari, dzyudochi va karatechilari mustaqil O'zbekistonimizni butun jahonga tanitmoqda.

Mamlakatda «Sog'lom avlod» Davlat dasturi ishlab chiqildi va keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi. Ushbu dasturga muvofiq, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi milliy ma'naviyatni tiklashga katta e'tibor berildi. Milliy o'yin va sport turlari bo'yicha har yili musobaqalar o'tkazish odat tusiga kirdi.

¹⁹² Абдуллаева З.А. Узбекистонда жисмоний тарбия ва спортнинг ривожланиш тарихи.(1991-2006йй). Дисс... тарих фанлари номзоди. –Тошкент:2009. 12-бет.

Ikkinchi bosqich, 1998-2006-yillarni o'z ichiga olib, bu davr ham yuqoridagi amaliy ishlarni uzviy va mantiqiy davomi sifatida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish davri boshlandi. Bu davrda davlatimiz rahbariyati tomonidan milliy sport turlari, professional va ommaviy sport, ayollar va bolalar sporti, xalq milliy o'yinlarini rivojlantirish uchun maxsus qarorlar qabul qilinib, chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Uchinchi bosqich, 2007-yildan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi¹⁹³. Bu bosqichda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'l-jallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlashning muhim va samarali omili bo'lgan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratildi. 1991-2020-yillar davomida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishini to'rtta asosiy yo'nalishlarda kuzatish mumkin: ommaviy sport, bolalar sporti, xotin-qizlar sporti, yuqori natijalar sporti. Ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida aholini ommaviy tarzda qamrab oladigan musobaqalar orqali barcha ijtimoiy qatlamga mansub aholi vakillari sportga jalb qilinmoqda. Har yili yoshlar, ishchi va xizmatchilar, madaniyat, huquq-tartibot, mudofaa xodimlari o'rtasida basketbol va voleybol bo'yicha «Kamolot kubogi», milliy o'yinlar bo'yicha «Alpomish» sport musobaqalari, yoshlarning «Shunqorlar» harbiy sport musobaqalari, ayollarning «To'maris» sport festivali, «Jasorat-iroda-g'alaba» nogironlar sport musobaqalari, o'quvchi va talabalarning «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» uzluksiz sport musobaqalari muntazam o'tkazilmoqda. Sportning ommaviy o'yin turi – futbolni yanada rivojlantirish maqsadida barcha viloyatlar va shahar markazlaridagi stadionlar qayta

¹⁹³ Уша манба, 38-бет.

ta'mirlandi, futbol maydonlari rekonstruksiya qilindi, futbol maktab internatlari tashkil etildi, futbolning professional klublar tizimiga o'tkazilishining asosiy tamoyillari belgilandi. Shuningdek, sportning o'yin turlari qatorida katta tennis mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy ravishda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 2015-yilda O'zbekiston sportchilari jahon, Osiyo chempionatlari va boshqa xalqaro turnirlarda 860 dan ortiq medalni qo'lga kiritishga erishdilar. Shuning 311 tasi oltin, 274 tasi kumush va 276 tasi bronza medallaridir. Sportchilarimiz, ayniqsa, yengil atletika, badiiy gimnastika, boks, kurash, dzyudo, taekvondo, ot sporti bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirok etishmoqda.¹⁹⁴

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 5-mart "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida ilgari davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etilib, uning vazifa va vakolatlari kengaytirildi. Sportchilarni tanlab olish – seleksiya ishlarini takomillashtirish bo'yicha yangi tizim joriy etilib, bu o'zining dastlabki natijalarini bera boshladi. Avgust-sentyabr oylarida Indoneziyada o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida sportchilarimiz 21 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta bronza – jami 70 ta medalni qo'lga kiritdi. Mamlakatimiz oltin medallar soni bo'yicha 5-o'rinni egallagani o'zbek sporti tarixida eng yaxshi natija bo'ldi¹⁹⁵.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, "Biz xalqaro sport maydonlarida O'zbekistonning nufuzi va obro'-e'tiborini oshirishga katta hissa qo'shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham

¹⁹⁴ Шакиржанова К.Т. Узбекистон Республикасида мустақиллик йилларида жисмоний тарбия ва спортнинг ривожланиши. Замонавий таълим / 2016, 9

¹⁹⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2018 йил 5 март "Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида давлат бoshқаруви тизимини тубдан тақомиллаштириш чора-тадбирлари туг'рисида"ги Фармони. www.lex.uz

katta e'tibor berishimiz kerak". Shu bois Jismoniy tarbiya va sport vazirligi Yoshlar ittifoqi, tegishli vazirliklar bilan birgalikda ta'lim muassasalaridagi sport inshootlari hamda bo'sh turgan obyektlarda sport seksiyalarini ochish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni ko'rishi zarurligi ta'kidlandi. Aholi, ayniqsa, yoshlarni sportga keng jalb qilish uchun "Alpomish" va "Barchinoy" testlarini musobaqa tarzida o'tkazishni hamda uch darajadagi ko'krak nishonlari bilan taqdirlashni joriy qilish vazifasi qo'yildi¹⁹⁶.

2016-yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan Yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportning 13 turi bo'yicha ishtirok etdi. Braziliya shahrida bo'lib o'tgan o'yinlarda bokschilarimiz Xasanboy Do'stmatov, Shahobiddin Zoirov va Fazliddin G'oibnazarov, Bektemir Meliqo'ziyev mamlakatimizga oltin va kumush medallar olib kelishdi. Andijonlik Ruslan Nuriddinov esa 105 kilogramgacha bo'lgan mutlaq vazndagi o'zining birinchi jahon rekordini o'rnatdi. Oksana Chusovitina – bizning faxrimiz, gimnastikachimiz, jahon arenasida mamlakatimizni sharafigini 10 yildan ortiq muddatdan buyon himoya qilib kelayotgan, 7 ta yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan dunyodagi yagona Olimpiya chempioni. 2020-yilgi Tokio Olimpiadasida u gimnastika bo'yicha eng yaxshi jismoniy imkoniyatlarini namoyish etadi va ehtimol, munosib mukofotini mamlakatimizga olib keladi. Bu kabi «uzoq umr ko'ruvchi olimpiyachilar» qatoriga Artur Toymazov (kurash), Abdulla Tangriev (dzyudo), Denis Istomin (tennis)larni qo'shish mumkin.

Hozirgi paytda O'zbekistonda aholi bilan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishini amalga oshiradigan 15085 birlamchi tashkilotlar – jismoniy tarbiya jamoalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 9501 tasi umumta'lim maktablarida, 710 tasi kollej va litseylarda, 62 oliy o'quv yurtlarida, 4812 tasi mehnat jamoalarida, 12092 tasi qishloq joylarida ishlamoqda.

¹⁹⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 20 сентябрь кuni жисмоний тарбия ва спорт соҳасини ривожлантириш масалаларига бағиниланган йиғилишдаги нутқи.

Respublikada yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan 536 bolalar-o'smirlar sport maktablari, 5 olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari, 8 respublika oliy sport mahorati maktablari faoliyat ko'rsatmoqda.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda 2000-yil may oyidan o'tkazib kelinayotgan «Universiada», «Barkamol avlod», «Umid nihollari» sport o'yinlari ahamiyatini alohida ko'rsatish lozim.

2004-yildan boshlab O'zbekiston Gretsiyada bo'lib o'tgan paralimpiya o'yinlarida ilk bora ishtirok etishni boshladi. Ushbu sport o'yinida 144 ta davlatdan 3969 ta sportchi sportning 19 ta turi bo'yicha ishtirok etdi. Bu o'yinda ilk bor ko'zi ojizlar futboli va ayollar uchun o'tirib o'ynaladigan ayollar volleyboli va nogironlar aravachasidagilar uchun tennis o'yini qo'shildi. Unda Xitoy 141 ta medalni, Buyuk Britaniya 94 ta, Kanada 71 ta medalni qo'lga kiritdi. O'zbekistondan 1 nafar sportchi ishtirok etib medalni qo'lga kiritgan va 76 o'rinni egallagan bo'lsa-da, bu o'yin O'zbekiston sportchilari uchun tajriba maktabi bo'ldi.

2016-yildagi Rio de-Janeyrodagi sport o'yinlarida ishtirok etish uchun 31 nafar paralimpiyachi Paraosiyo o'yinlarida yo'llanmani qo'lga kiritdilar. 2016-yildagi paralimpiya o'yinlarida 31 nafar sportchi ishtirok etib, jahonda 16 o'rinni egalladilar. 2016-yilgacha bo'lgan qisqa 12 yillik davr mobaynida sport sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Paralimpiya o'yinlariga yo'llanma beruvchi xalqaro Paraosiyo o'yinlarida esa hatto 27 nafar ishtirokchi 31 ta medalni qo'lga kiritgan. Bu bir nafar sportchi 2 tadan medalni qo'lga kiritganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi sportini yanada rivojlantirishda 2019-yil 13-fevralda 2019–2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

tomonidan ilgari surilgan 5 ta tashabbus ham muhim rol o'ynaydi. Bolalar o'rtasida sport o'yinlarini rivojlantirish masalasi ikkinchi tashabbusda ilgari surilgan.

Diyorimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Umumta'lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko'rsatkichi mamlakat bo'yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpog'istonda 15 foizni tashkil etadi, xolos. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi. Tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlariga mutaxassislar bilan birgalikda yoshlarning sport turlariga qiziqishi hamda sport inshootlarining jihozlanish darajasini o'rganib, shu asosda takliflar berish, Vazirlar Mahkamasiga ularni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar manbasini aniqlash vazifasi yuklatildi.

Olis va chekka qishloqlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun yer ajratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday tadbirkorlarga O'zmilliybank tomonidan "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi. Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o'quv yurtlarining maxsus sirtqi bo'limlarida maqsadli o'qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari sonini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Ushbu islohotlar Respublikada jismoniy tarbiya va sportni faol rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzining foydasi va ustunligini keng targ'ib qilish, mamlakatda yaratilgan

jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport infratuzilmasidan to'laqonli va samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek, yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tayanch iboralar:

Oliy o'quv yurti, maktab, ta'lim, ilm-ma'rifat, uzluksiz ta'lim, ta'lim bosqichlari, bakalavr, magistratura, milliy g'oya, istiqlol mafkurasi, ta'lim to'g'risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, innovatsiya, ilmiy ishlanmalar.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

2. Kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha xalqaro hamkorlik borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

3. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etishi va uning faoliyatining samaradorligini oshirishga oid qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda?

4. Oliy ta'lim muassalarini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi nechta banddan iborat?

5. O'zbekiston Innovatsiya rivojlanish vazirligi qachon tashkil etildi?

6. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida sportni rivojlantirish maqsadida qanday amaliy harakatlar qilindi? O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi qachon tashkil topgan?

7. Sportning qaysi turlari bo'yicha mamlakatimizda federatsiyalar faoliyat ko'rsatadi?

8. O'zbek milliy kurashini rivojlantirish uchun qanday ishlar amalga oshirildi?

9. O'zbekiston milliy paralimpiya assotsiatsiyasining nogironlar sportini rivojlantirishdagi faoliyati nimalardan iborat?

7-BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA FAN VA MADANIYATNING RIVOJLANISHI.

7.1.O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanishi va innovatsion ilmiy ishlanmalarning yangi bosqichga ko‘tarilishi.

7.2. O‘zbekistonda musiqa va teatr san‘atining rivojlanishi.

7.3. Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilishda beshta tashabbusning tutgan o‘rni.

7.1.O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanishi va innovatsion ilmiy ishlanmalarning yangi bosqichga ko‘tarilishi.

O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududida qadimdan boshlab ilm-fanning hamma sohasi, ayniqsa, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, me‘morchilik, ma‘dashunoslik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik rivojlangan. Hozirgi kunda O‘zbekiston olimlari ota-bobolari yaratib ketgan ilmiy merosni chuqurroq o‘rganib yanada boyitdilar. O‘zbekiston olimlari o‘z milliy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo‘shdilar. Respublikamizda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Nukus va Samarqandda O‘zbekiston Respublikasi FAning bo‘limlari ochilgan. Ilmiy-tadqiqot ishlari xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatadigan ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy markazlari, shuningdek, universitetlar va boshqa oliy o‘quv yurtlarida ham olib boriladi. Ilmiy kadrlar fanlar akademiyalari tizimida ham, oliy o‘quv yurtlari, xalq ta‘limi

tizimida ham tayyorlanadi. Faqat Oliy va O'рта maxsus ta'lim tizimidagi o'quv yurtlarida 600 dan ortiq fan doktorlari va deyarli 6 mingga yaqin fan nomzodlari o'qituvchilik va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanadilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatda ilm-fanga alohida e'tibor berildi. Xalq xo'jaligi va madaniy hayotning tobora ortib borayotgan talablaridan orqada qolayotgan ilmiy tadqiqot institutlari tugatildi. Turmush taqozo etgan yangi institutlar ochildi. Respublikamiz Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-aprelidagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi FANing yangi Nizomi tasdiklandi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yil 8-aprelidagi Farmoni hamda uni amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fanlar rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari va innovatsiya faoliyati haqida» gi Qaror hamda Vazirlar Mahkamasining mazkur farmonining ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan qarori ilm-fan taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Respublika Fanlar akademiyasi qoshida ilmiy ishlanmalarni ichki va tashqi bozorda targ'ib etuvchi va tarqatuvchi innovatsiya tijorat markazi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestatsiya komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan Fanlar Akademiyasining mavqei ortdi. 1997-yilda Birinchi Prezident farmoni bilan Xorazm Fanlar akademiyasi qayta tiklandi.

Respublikamizda ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining faoliyati yanada takomillashtirildi, shuningdek, Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, Bank-moliya Akademiyasi, Nukus va Samarqandda O'zbekiston Respublikasi FANing bo'limlari ochildi. Ilmiy tadqiqot ishlari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatadigan ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish

birlashmalari, ilmiy markazlari, shuningdek, universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida ham kadrlar Fanlar Akademiyasi tizimida ham, oliy o'quv yurtlari, xalq ta'lim tizimida ham, oliy o'quv yurtlari, xalq ta'limi tizimida ham tayyorlanmoqda.

O'zbek olimlarining fan-texnika sohasidagi yutuqlari nafaqat O'zbekiston, balki jahon hamjamiyatida ham tan olina boshlandi va ko'pchilik olimlarimiz davlatimiz mukofotlariga sazovor bo'ldilar va xorijiy davlatlar akademiyalariga haqiqiy ham faxriy a'zolikka saylandilar. O'zbekiston Respublikasining Fanlar akademiyasi al-Xorazmiy nomidagi, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi oltin medallarni ta'sis etdi. 1993-yilda O'zbekiston Respublikasi l'Aning akademigi X.F.Fozilov tabiiy va texnikaviy sohada katta yutuqlarga erishgani uchun al-Xorazmiy nomidagi Oltin medalning birinchi sohibi bo'ldi¹⁹⁷.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Oltin medal birinchi bo'lib shu yili ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida katta yutuqlarga erishgani uchun filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining a'zosi U. I. Karimovga nasib etdi.

1991-yil oktyabr oyida esa geologiya-mineralogiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi FAning akademigi I.X. Hamroboev geologiya va geofizika sohasida erishgan muvaffaqiyatlari uchun Habib Abdullaev nomidagi Oltin medalning birinchi sohibi bo'ldi. U AQSH da chiqadigan «Global tektonika va metallogeniya» xalqaro ilmiy jurnal» tahririyatiga a'zo etib saylandi.

«Fan va texnikada kim haqiqatan kim?», deb nomlangan jahon fan va texnikasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan eng buyuk olimlarning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan komuera O'zbekiston Respublikasi

— Раҳимов.Б.С. Узбекистоннинг мустақиллик йилларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти.дисс...тарих фанлари номзоди. —Т.:2008.

FANing akademigi P.K. Xabibullaev kiritilgan. O‘zbek olimi bu sharafiga O‘zining qattiq va yumshoq, jismlar issiqlik fizikasining katta muammolarini, energetikaning fizika-texnikaviy muammolarni ishlab chiqqanligi uchun muayassar bo‘lgan.

Mustaqillik yillarida (1996) FANing 40ga yaqin ilmiy markazi va tadqiqot laboratoriyalarida yirik olimlar faol mehnat qilmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi FA institutlari olimlari xorijiy davlatlar olimlari bilan hamkorlikda ilmiy aloqalarni kengaytirib bormoqdalar. Natijada, 1992-yil dekabr oyida texnika fanlari doktori F.F. Umarov K.E. Siolkovskiy nomidagi Kosmonavtika xalqaro akademiyasining a‘zosi bo‘ldi. U mazkur Xalqaro akademianing a‘zosi bo‘lgan birinchi o‘zbek olimidir. Shuningdek, O‘zbekistonlik M.S. Bulatov, S.M. Sutyagin, M.S. Ochildinov YUNESKO Informatsiya xalqaro akademiyasining haqiqiy a‘zoriga, 1994-yil oktyabr oyida Xudoyor Olloyorov, 1995-yil fevral oyida Azamat Shamsiev Nyu-York FANing faxriy a‘zoriga, Ekologiya va hayot faoliyati xafvsizligi xalqaro akademiyasining haqiqiy a‘zoriga Z.S. Salimov, A.A. A‘zamxo‘jaev, 1997-yil oktyabrida U. Tojixonov va Zaripovlar Tabiat va jamiyat fanlari xalqaro akademiyasining a‘zoriga akademik E. Yusupov esa Turkiya Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zoriga saylandilar. Amerika biologiya instituti O‘zbekistonning yetakchi olimlaridan biri Omonulla Fayzullaevga uning jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasiga asoslanib «2001-yil insoni» unvonini berdi hamda mazkur institutning maslahatchilar kengashi a‘zoriga sayladi¹⁹⁸.

So‘nggi yillarda Fanlar akademiyasi tomonidan jalb etilgan byudjetdan tashqari mablag‘lar, shuningdek, ekport qilinayotgan ilmiy mahsulotlar hajmi 2 barobardan ko‘proq oshdi. 2012-yilda 2010-2011-yillarga nisbatan Fanlar akademiyasi olimlarining

¹⁹⁸ Шамсуддинов Р., Муминов Х. Узбекистон тарихи: Уқув қуллашма.-Г.: «Шарқ», 2013.

ishlanmalari uchun olingan patentlar soni ham qariyb 5 marta ko'paydi, ularni litsenziyalash jarayoni faollashdi.

Shu bilan birga, Fanlar akademiyasi ilm-fan va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini izchillik bilan mustahkamlamoqda. Uning ilmiy muassasalari huzurida oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda 26 ta ilmiy-o'quv markazi va ixtisoslashtirilgan kafedralar tashkil etilgan bo'lib, ularda hozirgi paytda talab katta bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha magistr va bakalavrlar tayyorlanmoqda. Ana shu markaz va kafedralar bazasida bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari nafaqat eng so'nggi tadqiqot ishlanmalari bilan tanishish, balki ularda bevosita ishtirok etish imkoniga ega bo'lmoqda. Akademiya institutlarining yetakchi ta'lim muassasalariga integratsiyalashuvi oliy o'quv yurtlarida ham ilm-fanni rivojlantirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi yangilanish yo'lini bosib o'tdi, qator yutuqlarga erishdi va xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi. Chunonchi, Fanlar akademiyasi muassasalarining jahondagi yirik ilmiy markazlar bilan to'g'ridan-to'g'ri ilmiy aloqalari tenglik va o'zaro manfaatdorlik asosida sezilarli ravishda kengayib bormoqda. Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSH, Fransiya va Germaniyadagi ilmiy markazlar va institutlar bilan hamkorlik samarali rivojlanayotir. Masalan, 2006-2012-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ikki tomonlama ilmiy hamkorlik to'g'risida 16 xalqaro shartnoma tuzib, ularni amalga oshirmoqda, uning ilmiy muassasalari esa dunyoning turli davlatlaridagi ilmiy tashkilotlar, markazlar, universitetlar va muzeylar bilan hamkorlik to'g'risida qirq beshdan ziyod xalqaro shartnoma ijrosini ta'minlashda ishtirok etmoqda¹⁹⁹.

2016-2020-yillarda ilm-fan va innovatsion ishlanmalarni takomillashtirish sohasidagi islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi.

¹⁹⁹ Ilm-fan – mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri. <http://med.uz/ses/khorazm/uz/news/detail.php?ID=35778>

Respublikada ilmiy va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoning qabul qilindi. Ushbu vazirlik O‘zbekiston Respublikasini innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi²⁰⁰. 2017-2019-yillar davomida innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan hozirgi kunga qadar 21 nafar yosh olimlarning xorij mamlakatlariga ilmiy stajirovkalari tashkillashtirildi. Jalb qilingan xorijiy yuqori malakali olim va mutaxassislarning xarajatlarini moliyalashtirishga 17,0 ming AQSH dollari hamda 70 mln. so‘m miqdorida mablag‘ yo‘naltirildi. Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondiga 117 turdagi jami 158,1 mln. so‘mlik (20,1 ming AQSH dollari) noyob qo‘lyozma va tarixiy manbalar mazkur qo‘lyozma egalari – jismoniy shaxslardan xarid qilindi. 2018-yil 20-avgustda yosh olimlar uchun qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish maqsadida tanlov e‘lon qilindi, 8 nafar yosh olim tanlovdan muvafaqqiyatli o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-apreldagi PQ-3674-son qaroriga muvofiq «Yuqori texnologiyalar o‘quv-eksperimental markazi» davlat korxonasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi davlat ilmiy muassasasi shaklidagi Ilg‘or texnologiyalar markaziga aylantirildi. Ilmiy va innovatsion loyihalarini tijoratlashtirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Ilg‘or texnologiyalar markazi bazasida innovatsion startap akseleratori va inkubator tashkil etilib, faoliyat ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda 25

²⁰⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni. www.lex.uz

startap jamoalar o'z faoliyatini boshlash uchun uchun maxsus o'quv treninglaridan o'tmoqdalar. Hozirgi vaqtda markazda jami 2,7 mlrd. so'mlik 18 ta loyiha (fundamental, amaliy, innovatsion va yosh olimlar) amalga oshirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-sentyabrdagi 721-son «Innovatsion faoliyatni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, «Yashnobod innovatsion texnoparki direksiyasi» Davlat unitar korxonasi Toshkent shahar hokimligi tasarrufidan chiqarilib, Innovatsion rivojlanish vazirligi tuzilmasiga o'tkazildi.

2018-yil 13-sentyabrda Belarus Respublikasi, 1-oktyabrda Hindiston Hukumatlari bilan fan, texnika va innovatsiyalar sohasida hamkorlik to'g'risida Bitimlar imzolandi. «INNOWEEK» davomida Innovatsion rivojlanish vazirligi va manfaatdor hamkor xorijiy tashkilotlar, kompaniyalar o'rtasida 30 dan ortiq o'zaro anglashuv bitimlari va hujjatlari imzolandi. Xususan:

Innovatsion rivojlanish vazirligi va BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekiston Respublikasidagi Doimiy vakilligi o'rtasida davlat boshqaruvida innovatsiyalarni tadqiq qiluvchi Innovatsiyalar laboratoriyasini tashkil etish to'g'risida anglashuv memorandumini imzolandi. Laboratoriyani tashkil qilish va uning faoliyatini moliyalashtirish uchun BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan 400 ming AQSH dollari miqdorida mablag' yo'naltirish nazarda tutilgan;

Cambridge Innovation Park China Center bilan ta'lim, axborot texnologiyalari, tibbiyot, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi va kommunal xo'jaligi sohalarida hamkorlikni nazarda tutgan o'zaro anglashuv to'g'risida memorandum imzolandi²⁰¹. Memorandumga muvofiq Xitoy tarafi Xitoyda mavjud 6 ta texnopark ulangan Kembridj innovatsion parkiga O'zbekistonda ochiladigan innovatsion markazlar ulanishiga amaliy ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yilga «Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni

²⁰¹ Uzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlaniish vazirligi faoliyati bуйича хисобот (2018 йилнинг 29 ноябрь санасига қадар)

rivojlantirish yili» deb nom berish Respublikada innovatsion faoliyat va ilm-fanning jahon standartlariga mos ravishda rivojlanishiga zamin yaratadi.

7.2. O‘zbekistonda musiqa va teatr san’atining rivojlanishi.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar qatorida madaniyat sohasida ham tubdan o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu avvalo, teatr san’ati, milliy musiqa, me‘morchilik, adabiyot sohalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi va yangi-yangi teatr dargohlari qurib ishga tushirildi. 1991-yil Fargonada, 1993-yil Xivada Davlat qo‘g‘irchoq teatrlari ish boshladi, 1994-yil Qashqadaryo va Namangan viloyati teatrlari qoshida qo‘g‘irchoq guruhlarini ochildi. Andijonda jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, u 1994-yilda Abbos Bakirov nomidagi Andijon yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

1993-yil avgustida Toshkent shahrida ish boshlagan hashamatli «Turkiston» saroyi nafaqat mahalliy teatr va tomosha guruhlarining chiqishlariga, balki, uzoq va yaqin mamlakatlardan tashrif buyuradigan sahna guruhlarini va atoqli artistlarning chiqishlariga ham mo‘ljallandi.

Madaniyat mutaxassislarining ijodiy faoliyati, ularning moddiy va texnikaviy uskunalari, zamonaviy binolar bilan ta‘minlandi. 2001-yilning davlat byudjetidan madaniyat va san’at muassasalarini rivojlantirish uchun 12 milliard 703 million so‘m (bu ko‘rsatkich 2000-yili 9 mlrd. 463 mln. so‘mni tashkil qilgan edi) ajratilishi fikrimizning dalilidir.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1995-yil 20-oktabrdagi «O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 1998-yil 26-martdagi «O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida»gi farmonlari asosida

teatrlar davlat byudjeti hisobiga qo‘llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998-yilda «o‘zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

Teatr bilan bir vaqtda musiqa san’ati ham rivojlanib bordi. Respublika madaniyat ishlari vazirligi, 1992-yilda tashkil etilgan «Xalq ijodi va madaniy-ma’rifiy ishlar respublika Markazi», uning viloyatlardagi bo‘limlari musiqa va qo‘shiqchilik san’atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko‘rik-tanlovlar, festivallar tashkil etdilar. 1996-yilda o‘tkazilgan barcha viloyat, shahar va tumanlarida «O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiq tanlovida 54 mingdan ziyod qo‘shiqchilar qatnashdi. 1997-yil 25-avgust – 2 sentabr kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan «Sharq taronalari» birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san’atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdi, festivalda yangragan o‘zbek ohanglari, kuy-qo‘shiqlari jahon uzra taraldi. 2013-yil 26-30-avgust kunlari o‘tkazilgan IX xalqaro musiqa festivali butun dunyo miqyosida e’tirof etilganligi, bu tantananing nufuzi naqadar oshganini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltirish joiz: «... Xalqimizning ma’naviy saviyasini oshirish, yosh avlodni yuksak insoniy g‘oyalar, ona Vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishda musiqa san’atining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir»²⁰²

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgust kuni Toshkent shahri mamlakatimiz ijodkor, ziyolilari bilan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishi Toshkent dav-

²⁰² Узбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 августдаги “Ўзбекистон композиторлари ва бастакорлари уюшмаси фаолиятини гашкил этиш туғрисида”ги ПҚ-3212-сонли қарори (Электрон ресурс) // www.uza.uz.

lat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabiga –“Ipotekabank”ning homiylik qilishi esa oliy xoreografiya instituti va unda tahsil olayotgan yoshlar uchun ham o‘qituvchi pedagoglar uchun ham juda katta yutuq bo‘ldi. 2017-2018-yillarda 3 guruh o‘qituvchilarni malaka oshirishlari uchun xorij safarlariga yuborildi. O‘z xohishi bo‘lgan iqtidorli talabalarning barchasi har yili jahon miqyosida bo‘lib o‘tadigan turli konferensiyalar, tanlovlarga, bayram-u tantanalarda qatnashib, o‘zbek xalqining ma’naviy merosi hisoblangan milliy raqslarini butun dunyoga tarannum etib kelishmoqda.

7.3. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilishda besh tashabbusning tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 3-aprelda yoshlarimizga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. Ma’lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi. Taniqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida birlashtirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida birlashtirilib, o'sha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga mas'ul bo'ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi. Musiqa va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratildi²⁰³.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi sahifalar ochildi. Asarlari zararli,

²⁰³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2019 йил 19 март куни ёшларга эътиборни кучайтириш, уларни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларда ахборот технологияларидан фойдаланиш куникмаларини шакллантириш, ёшлар уртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини ошириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилишидаги ишуртки. <https://tma.uz/uz/5-tashabbus/>

o'zlari millatchi, deb nohaq baholangan Cho'lpon, Otajon Xotim, Vadud Maxmud, Munavvar Qori singari millatparvar yozuvchi, ma'rifatparvarlar ijodi xolisona o'rganilib, ularning asarlari chop etildi, teatr sahnalarida o'z o'rnini egalladi.

Ma'rifatparvarlar faoliyatining asl mohiyatini, adabiy, madaniy, siyosiy hayotdagi o'rnini ro'yi-rost ko'rsatish boshlandi. O'tmishda diniy va saroy adabiyoti vakili, deb tamg'a bosilgan buyuk shoir va mutafakkirlar hayoti va ijodi o'rganilib, asarlari xalqqa qaytarildi.

Mustaqillik sharofati bois mo'tabar Qur'oni Karim va hadislar chop etildi, iste'dodli olim Hamidulla Karamatovning «Qur'on va O'zbek adabiyoti» nomli kitobi nashr etildi. Aytish mumkinki, bunday asarlarning xalqimiz qalbiga yetib borishi butunlay yangi, sog'lom, sof milliy g'oyalarimizning, maqsad va intilishlarimizning sifat darajasini belgilaydi. Adabiyot sohasidagi va ko'plab nashr etilgan boshqa asarlar milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining buyuk hayotbaxsh kuchini ko'rsatadi.

Mustaqillik davri adabiyotining bayroqdorlari O'zbekiston Qahramonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'zbekiston xalq shoirlari Muhammad Yusuf, Xabib Sa'dullayevlar ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

Milliy istiqlol davridagi o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda Ozod Sharafiddinov, Begali Karimov, Naim Karimov, Erkin Karimov, Ahmad Aliyev, Najmiddin Komilovlarning asarlari alohida o'rin egallaydi. T. Malikning romanlari, O. Matjon, O. Xojieva, X.Sultonov, A. Suyun, Y. Eshbek, X.Do'stmuhammad, Sh. Salimova singari shoir va adiblarning badiiy (barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari o'zbek milliy istiqlol adabiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Mustaqillik yillarida madaniy-ma'rifiy muassasalar ishlarida ham keskin o'zgarishlar yuz berdi. Bu muassasalarning soni 1997-yili 9442 ta bo'lsa, bulardan 60 tasi muzeylar, 2657 ta klublar,

6725 ta kutubxonalardir. Mustaqillik yillari bu muassasalar aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy tarbiyaning o'chog'iga aylandi.

Aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil qiluvchi muassasalardan biri kutubxonalar bo'lib, ularning soni 1996-yili 6723 ta edi. Kutubxonalarda jami kitobxonlar 6 mln. 211 kishini tashkil qilsa, shundan 4 mln. 425 mingi qishloq tumanlarida edi. Kutubxona xodimlaridan 65 foizi oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislardir.

Tayanch iboralar:

Musiqqa va teatr, Fanlar Akademiyasi, ilmiy tadqiqot instituti, axborot texnologiyalari, tibbiyot, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi, texnopark, milliy qo'shiqchilik san'ati, xalqaro festival, milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi, beshta tashabbus.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Yoshlarning musiqa, rassomchilik adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishda beshta tashabbusning roli nimalardan iborat?
2. Temuriylar davri tarixi davlat muzeyi qachon tashkil etildi?
3. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonining ilm fanni rivojlantirishdagi o'rni.
4. O'zbek kinomatograflari tomonidan yaratilgan qaysi filmlar xalqaro tanlovlarda ishtirok etdi.

4-BO‘LIM. O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI.

8-BOB. MILLATLARARO MUNOSABATLARDAGI BARQARORLIK. TINCHLIKSEVAR MUSTAQIL TASHQI SIYOSAT ASOSLARINING ISHLAB CHIQLISHI.

8.1. O‘zbekiston Respublikasining tinchliksevar tashqi siyosati asoslarining yaratilishi, uning tamoyillari.

8.2. BMT, YeXHT bilan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi.

8.3. Shanxay hamkorlik tashkiloti va O‘zbekiston.

8.4. O‘zbekiston va MDH.

8.1. O‘zbekiston Respublikasining tinchliksevar tashqi siyosati asoslarining yaratilishi, uning tamoyillari.

XX asrning 90-yillariga kelib dunyo siyosiy xaritasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Chunki bir-biriga qarama-qarshi SSSR va AQSH yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida uning tarkibidagi 15 ta mustaqil davlat, jumladan, mustaqil O‘zbekiston davlati vujudga keldi.

Istiqloq sharofati bilan O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy qiyofasi tubdan o‘zgardi. Suveren mustaqil davlat sifatida O‘zbekiston o‘zining ichki va tashqi siyosatini erkin belgilash imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Respublikada ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, barcha sohalarida islohotlar amalga oshirildi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va asosiy tamoyillari ishlab chiqildi.

O'zbekistonning o'z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay jo'g'rofiy-siyosiy imkoniyatlarga ega ekanligi ham mustaqil tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish uchun imkon berdi. Xususan, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rni, bu hududda istiqomat qiladigan xalqlarning qadimdan hamfikir bo'lib kelgani Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi siyosat yuritishda ijtimoiy zarurat hisoblanib kelinmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda xalqaro tashkilotlarning faoliyatini o'rganish va ular bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yish ehtiyoji paydo bo'ldi. Ammo XX asrning so'nggi yillaridagi xalqaro vaziyatning o'zgarishi jahon taraqqiyotining holatini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Imdi dunyoning geosiyosiy holati yangi qiyofada namoyon bo'ldi. Jahonning turli mintaqalari, yaqin va uzoq hududlarida qarama-qarshilik o'choqlari kuchayib, bir so'z bilan aytganda, xavf-hatar tobora o'sib borayotganini nazarda tutmoq kerak. Shu bois O'zbekistonning xalqaro maydonda olib borayotgan tashqi siyosatini, uning mamlakatimizning milliy manfaatlariga javob beradigan strategik ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilab olish nihoyatda dolzarb masalalardan biriga aylandi.

«Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, quolsizlanish, o'z hududini qurol-yarog'lardan holi qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini yo'qotish, suveren davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo'l qo'ymaslikdan iborat», deyiladi 1991-yil 31-avgustda Oliy Kengashning VI sessiyasida qabul qilingan «Mustaqillik haqidagi bayonot»da o'z tashqi siyosatining asosiy yo'lini belgilab olgan O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 17-moddasida bu yo'lni qonun bilan mustahkamladi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillari quyidagilarni tashkil etadi:

- milliy-davlat manfaatlarini ustun qo‘ygan holda tashqi siyosatda davlatlarning suveren tengligini hisobga olish;
- umumbashariy qadriyatlarni ustun qo‘ygan holda nizoli mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish;
- tashqi siyosatdagi teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlikni o‘rnatishda boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- barcha tinchliksevar davlatlar bilan tashqi aloqalarni o‘rnatishga intilish;
- xalqaro huquq normalarini tan olgan holda jahon hamjamiyatida xalqaro talablarga rioya qilish;
- tashqi siyosatda ko‘p tomonlama aloqalarni o‘rnatishda xalqaro tashkilotlar doirasida alokalarni kengaytirish masalalari kiritildi.

O‘zbekiston butun jahon jamoatchiligi oldida xalqaro huquqning umumjahon e‘tirof etgan normalariga sodiqligini konstitutsiya darajasida ham mustahkamladi. Konstitutsiya xalqaro huquq tamoyillari va normalarining butun bir majmui – BMT Ustaviga, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga va inson huquqlariga oid boshqa xalqaro huquq bitimlaridan – Xelsinki bitimi, Parij va Madrid xartiyalariga asoslandi. Shuningdek, asosiy qonunga kiritilgan qonunlarni rivojlantirish maqsadida «Diplomatik munosabatlarni o‘rganish tartibi», «O‘zbekistonda xalqaro shartnomalarni tuzish, ijro etish va bekor qilish» haqida aktlar ham qabul qilindi. Ularda tashqi siyosatning har tomonlama asoslangan tamoyillari o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydonda olib borayotgan tashqi siyosatini, uning mamlakatimizning milliy manfaatlariga javob beradigan strategik ustuvor yo‘nalishlarini yanada takomillashtirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan

biri bo'lishi tabiiydir. Shu bois 2012-yil sentyabr oyida «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Unda O'zbekiston Respublikasining turli harbiy siyosiy bloklarga kirmasligi, o'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha qat'iy pozitsiyaga ega bo'lishi hamda o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishiga yo'l qo'ymasligi, ochiq, izchil va faol tashqi siyosat olib borishi kabi tinchlikparvarlik tamoyillariga yo'ng'rilgan ezgu-maqсадlar mujassamdir. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, qon-qonimizga singib ketgan bizga tinchlik va omonlik kerak, tamoyilini amalga oshirish barchamiz uchun dolzarb vazifadir. Shubhasiz, tinchlik diplomatiyasini targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlash xalqlar hamda davlatlar o'rtasidagi do'stlik, yuksalish va taraqqiyot omilidir.

Dunyo yangilanishi jarayonida har bir davlat o'z taraqqiyot olami jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish uchun harakat boshladi. Shular qatorida O'zbekiston ham jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish yo'lida dadil odimlamoqda. Shu o'rinda aytib o'tmoq lozimki, bu tamoyillar yosh suveren davlatning asosiy tashqi siyosiy doktrinasini ifoda etish bilan birga davlatlararo munosabatlar yo'nalishlarining rivojlanishi va keng doiradagi tashqi muammolarni himoya qilish imkonini berdi. Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. Toshkentda AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Shuningdek, O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'z navbatida O'zbekistonning elchilari dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda faoliyat ko'rsatib turibdi.

O‘zbekiston tashqi siyosat hamda diplomatik munosabatlarni amalga oshirishi uchun qulay imkoniyatlarga ega. Bu birinchidan, mamlakatimizning qulay geografik joylashuvi, ikkinchidan, mamlakat hududining mineral va foydali qazilmalarga boyligi, uchinchidan, davlat miqyosida iqtisodiy-ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun imkoniyat beradigan barqarorlik, baynalmilallik prinsiplarining poydevor ahamiyati mujassamligidandir²⁰⁴.

Mustaqil O‘zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiq-oydinlik, teng huquqlik, demokratik prinsiplarga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta’sir qilish kabilar tashkil etadi va Respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umumjahon e’tirof etgan ochiq, yakdillik talablariga asoslanadi.

8.2. BMT, YeXHT bilan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi.

Xalqaro munosabatlarning hozirgi rivojlanish bosqichida Birlashgan Millatlar tashkilotining tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. O‘zbekiston ushbu tashkilotga 1992-yil 2-martida teng huquqli a’zo bo‘lib kirdi. BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalari tizimi mavjud bo‘lib, O‘zbekiston ularni deyarli barchasining faoliyatida faol ishtirok etmoqda. Bular quyidagilar hisoblanadi: BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YUNESKO), Xalqaro Mehnat tashkiloti (XMT), Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va boshqalar²⁰⁵.

Bu voqea respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin olishida ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 1993-yil fevral oyiga kelib Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. Xuddi shu yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi O‘zbekiston Birinchi Prezidenti

²⁰⁴ Юнусова М., Муминов Х. Узбекистонда геосиёсат ва геосиёсий вазият асослари. –Андижон, 2009.

²⁰⁵ Хамидова А.М. Узбекистон Республикасининг БМТ билан ҳамкорлигининг халқаро-ҳуқуқий жиҳатлари. –Тошкент: 2008.

I.A. Karimov ma'ruza qildi. Birinchi Prezident I.A. Karimov bu ma'ruzasida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning doimiy ishlaydigan seminarini chaqirish, BMT xavfsizlik kengashida yuzaga kelayotgan mojarolarni tahlil qilish va istiqbolni belgilash bo'yicha maxsus guruh tuzish, Markaziy Osiyoni yadrosiz zona, deb e'lon qilish, bu mintaqada kimyoviy modda hamda bakteriologik qurolni taqiqlash bo'yicha xalqaro nazorat o'rnatish, Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi hamkorlikda kurashish uchun BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish, Orol muammosini hal qilish masalasi bo'yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish kabilarni aytib o'tdi²⁰⁶.

2000-yilning sentyabr oyida BMTning Ming yillik Sammiti bo'lib o'tdi va unda BMTning Ming yillik Deklaratsiyasi, ya'ni xalqaro hamjamiyatning inson taraqqiyoti va inson xavfsizligini ta'minlash borasidagi harakat dasturi bir ovozdan qabul qilindi. Bu hujjatga binoan Ming yillik rivojlanish maqsadlari, ya'ni 192 davlat va 23 xalqaro tashkilotlar tomonidan 2015-yilga kelib qashshoqlikni bartaraf qilish, odamlarning bilim darajasini ko'tarish, atrof-muhitni himoya qilish, inson huquq va erkinliklari tengligini ta'minlash, kasalliklarga qarshi kurashish, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash borasida erishish kerak bo'lgan vazifalarga oid majburiyatlar belgilandi. MRMga erishish bilan bog'liq holatlar 8 ta maqsad, 21 ta vazifa va 60 ko'rsatkichlarga asoslangan holda baholanadi²⁰⁷.

2010-yilning sentyabr oyida Nyu-Yorkda, a'zo-davlatlar tomonidan o'z zimmlariga olgan Ming yillik rivojlanish maqsadlarida belgilangan majburiyatlarni bajarilish holatiga bag'ishlangan BMTning maxsus sammiti bo'lib o'tdi. O'zbekiston

— Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг Бмт бош ассамблеясининг 48-сессиясидаги маъруза<https://uz.denemetr.com/docs/768/index-29514-1.html>

— “Минг йиллик Декларациясида белгиланган ривожланиш соҳасидаги мақсадларни амалга ошириш туғрисидаги маъруза”. 2010 йил. 74-б.

Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov sammit yalpi majlisidagi o‘z ma‘ruzasida ta’kidlaganidek: “Ilgari o‘zining bir tomonlama rivojlangan xomashyo yetishtirishga yo‘naltirilgan iqtisodiyoti, halokatli paxta yakkahokimligi avjga chiqqan, qoloq ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasi, jon boshiga iste‘mol darajasi past bo‘lgan mamlakatimiz mustaqil rivojlanish yillarida yangi va ulkan marralarni qo‘lga kiritdi va buning natijasida uning qiyofasi tamomila o‘zgardi, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladi”²⁰⁸.

O‘zbekiston Respublikasining BMT bilan o‘zaro ko‘p tomonlama hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari bu – xavfsizlik, tahdidlarga qarshi kurashish, ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatmaslik, Afg‘oniston masalasini tinch yo‘l bilan hal etish, bu mamlakatni qayta tiklash, ekologik muammolarni bartaraf etish, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli hudud sifatida e’tirof etish, Orol fojeasi oqibatlarini bartaraf etish, ta’lim, fan va madaniyatni rivojlantirish, tarixiy an‘analar, tarixiy shaxslar va me‘moriy yodgorliklarni asrash, qayta tiklash, ularni umumbashariy obidalar sifatida jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini e’tirof etish va boshqalardir. Bu borada O‘zbekiston BMT doirasida ko‘plab tashabbuslarni ilgari surdi. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT doirasida 1997-yilda Afg‘oniston muammosi yuzasidan “6+2 guruhi” muloqot guruhini tashkil etildi, Markaziy Osiyo Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud, deb e‘lon qilindi, Orol muammosi va mintaqaviy ekologik masalalar yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda BMTning 2000-2015-yillarga mo‘ljallangan Mingyillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development

²⁰⁸ Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг БМТ Бош ассамблеясининг Минг йиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган олий даражадаги ялпи мажлисдаги нутқи. – Т.: Ўзбекистон, 2010 9-б.

Goals) amalga oshirildi hamda 2015-2030-yillarga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals) global dasturi yuzasidan turli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda BMT va O'zbekiston hamkorligi yangi bosqichga ko'tarilgan. Xususan, 2017-yil 19-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev AQSHda bo'lib, BMTning 72-sessiyasida nutq so'zladi. Mazkur nutq O'zbekistonning BMT doirasidagi xalqaro tashabbuslarida yangi tendensiyalarni namoyon qildi. O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar hamda aniq va asosli manbalarga ega bir nechta tashabbuslarni ilgari surdi²⁰⁹.

Ya'ni globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish, BMT Bosh Assambleyasining “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish, BMT Xavfsizlik Kengashini bosqichma-bosqich isloh qilish kabi global xarakterdagi takliflari jahon jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi.

O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning mazkur nutqi mavjud muammolarga mahalliy, mintaqaviy va global darajada ahamiyat qaratib, ularning yechimiga pragmatik yondashilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu tashabbuslar xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanib, 2018-yil 22-iyun kuni “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” va 2018-yil 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi

²⁰⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрь кuni Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бosh Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. <http://uz.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyev-bmt-bosh-assamblevasi-20-09-2017>

majlisida “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyalari qabul qilindi. Shuningdek, 2017-yil noyabr oyida BMT shafeligida Samarqandda “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik”, 2018-yil 27-mart kuni Toshkentda “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida xalqaro anjumanlar tashkil etildi²¹⁰.

O‘zbekiston Respublikasining jahondagi yirik xalqaro tashkilot BMT bilan hamkorligi masalalari va bu boradagi yutuqlar O‘zbekistonning eng yangi tarixi sahifalarida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni yanada boyitdi.

O‘zbekiston BMTga a‘zo bo‘lib kirganidan so‘ng YeXHTning Pragadagi yig‘ilishida MDH tarkibidagi davlatlarni ushbu tashkilotga a‘zo bo‘lib kirishi masalasi ko‘tarildi. 1992-yil 26-fevralga kelib O‘zbekiston ham bu tashkilot kengashining yakunlovchi hujjatiga imzo chekdi. O‘zbekistonning 1996-yil Lissabon sammitida ishtiroki respublika rahbariyatining xavfsizlik doirasiga kiruvchi qarashlarini bayon etishga ham imkon berdi. Unda O‘zbekiston rahbariyati tomonidan «xavfsizlikning, shu jumladan, Yevropa xavfsizligining chegarasi yo‘q. Shundan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, Yevropada xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining roli, ahamiyati, qolaversa, ma’suliyati Yevropa bilangina chegaralanib qolmasligi, undan tashqaridan kelayotgan xavfni ham hisobga olishi kerak bo‘ladi», deb aytilgan so‘zlari alohida ahamiyat kasb etdi. 1996-yil 18-19-noyabr kunlari mazkur tashkilotga a‘zo 54 mamlakat rahbarlarining Turkiyaning Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvida Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning asosiy tamoyillari ishlab

²¹⁰ БМТ Бош Ассамблеясининг «Марказий Осиё минтақасида тинчлик, барқарорлик ва изчил тараққиётни таъминлаш буйича минтақавий ва халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш» резолюцияси қабул қилиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазириликнинг 2018 йил 22 июндаги баёноти.

chiqildi. Mazkur yig'ilishda Birinchi Prezident I.A.Karimov global ahamiyatga ega bo'lgan terrorizmga qarshi markaz tuzish haqidagi taklifini kiritdi va turli qabih niyatdagilarga yordam berayotgan tashkilotlarni ildizi bilan yo'qotish orqaligina mamlakatlar xavfsizligini ta'minlash mumkinligini alohida ta'kidladi. XX asr oxiri XXI asr boshlari xalqaro terrorizmga qarshi keskin kurash davri bo'ldi. Bu kurashga O'zbekiston o'zining katta hissasini qo'shmoqda. Buni AQSH senatorlaridan Liberman tasdiqlab: «O'zbekiston siz bizning Afg'onistondagi aksilterrorchilarga qarshi kurashimiz muvaffaqiyatli bo'lmas edi», deydi²¹.

Bugungi kunda O'zbekiston YeXHT rahnamoligidagi ko'plab anjumanlarga mezbonlik qilib kelmoqda. O'zbekistonning YeXHT bilan hamkorligi mustahkamlanib, o'sib borayotganligiga 2002-yil 6-7-aprel kunlari YeXHT Bosh kotibi Y. Kubishning mamlakatimizga tashrifi ham yaqqol misol bo'la oladi. O'zbekistonning tashqi siyosatida mintaqalararo xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro tashkilotlar faoliyatidan, ularning dasturlaridan ham keng foydalanishi istiqbolli natijalarni ko'rsatdi. Ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, NATO EKO, Islom konfrensiyasi Qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorliklar yo'lga qo'yildi²².

2017-yilning 18-19 oktyabr kunlari Toshkentda Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (YeXHT) OAV erkinligi masalalari bo'yicha vakili ofisi tomonidan tashkil etilgan "Markaziy Osiyoda ochiq jurnalistika" deb nomlangan XIX regional Markaziy Osiyo konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Konferensiya davomida 80 nafar ishtirokchi, shu jumladan, jurnalistlar, hukumatlar, fuqarolik jamiyati tashkilotlari vakillari

²¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B0%D0%BC%D0%BC%D0%B8%D1%82_%D0%B2_%D0%A1%D1%82%D0%B0%D0%BC%D0%B1%D1%83%D0%B3%D0%B5_\(1999\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B0%D0%BC%D0%BC%D0%B8%D1%82_%D0%B2_%D0%A1%D1%82%D0%B0%D0%BC%D0%B1%D1%83%D0%B3%D0%B5_(1999))

²² Саидов А. Инсонийлик мезонлари соҳасидаги мажбуриятлар. Ўзбекистон Республикасини ЕХХТга аъзолигининг 20 йиллигига бағишланади. — Г.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2012. — 368 б.

va ilmiy doiralar vakillari xalqaro ekspertlar bilan Markaziy Osiyoda OAV erkinligining joriy muammolarini muhokama qilib oldilar. Misol uchun, anjumanda OAV tarqatish tendensiyalari masalalari, raqamli muhit hamda adovatni avj oldirish sharoitida OAV erkinligini himoya qilish bilan bog‘liq muammolar ko‘tarildi. Forumda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston vakillari ishtirok etishdi²¹³.

Ushbu xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi siyosiy mavqeiga, keng hamkorliklar yo‘lidan ilgarilab borishiga, shubhasiz, ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bu xalqaro tashkilotlarning ko‘plab vakillik organlarining poytaxtimiz Toshkentda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatayotganligi ham shundan dalolat beradi.

8.3. Shanxay hamkorlik tashkiloti va O‘zbekiston.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – submintaqaviy xalqaro O‘zbekiston va Shanxay tashkilot bo‘lib, uning tarkibiga dastlab asoschilar sifatida 6 ta davlat (Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va O‘zbekiston) kirdi. SHHTning rasmiy tili rus va xitoy tili, ramzi esa oq bayroq bo‘lib, uning markazida tashkilotning gerbi joylashgan. Tashkilotning shtab-kvartirasi Pekinda joylashgan.

Hozirgi vaqtda SHHTda 8 ta a‘zo-davlat, 4 ta kuzatuvchi-davlat va 6 ta muloqot uchun hamkor-davlat faoliyat yuritmoqda. Boshqacha aytganda, u Yevroosiyoning beshdan uch qismini va dunyo aholisining qariyb yarmini qamrab olgan. Buni raqamlarda ifoda etadigan bo‘lsak, SHHT tarkibidagi mamlakatlarning umumiy maydoni 34 mln. kvadrat kilometrdan iborat. Bu ulkan

²¹³ <http://uza.uz/oz/politics/zbekistonning-i-t-tash-i-ishlar-vazirlari-kengashiga-raislig-03-08-2017>

makonda 3,2 milliard aholi yashaydi. Shu tariqa ushbu tashkilot jug'rofiy jihatdan va aholi soni borasida jahonning eng yirik tuzilmalaridan biriga aylandi. O'tgan davrda SHHTga a'zo davlatlar turli sivilizatsiyalar to'qnashuvi, "sovuq urush" va boshqa har xil salbiy yondashuvlardan voz kechdi. Tashkilotning barcha a'zolari o'zaro hurmat, teng huquqlilik, adolat va manfaatli amaliy hamkorlik tarafdoridir. Eng muhimi, mazkur mintaqaviy tashkilot barqaror va sog'lom ruhda rivojlanmoqda. Bugungi kunda Xitoy bilan SHXTga a'zo boshqa davlatlar o'rtasidagi savdo aylanmasi 20 barobar ortgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil yakunlari bo'yicha 12 milliard AQSH dollaridan 255 milliard dollarga yetdi. Jahon yalpi ichki mahsulotining 20 foizdan ziyodi SHHTga a'zo davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda²¹⁴.

1996-yil Shanxayda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Sammitda chegara hududlari bo'yicha harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash bilan bog'liq shartnomani imzolanishi natijasida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti vujudga keldi. 1997-yil Moskvada yuqorida nomlari ko'rsatilgan besh davlat rahbarlarining ishtirokida sammit bo'lib o'tgan. Sammitda chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida Bitim (1997-yil 24- aprel) imzolanadi. Almati (1998), Bishkek (1999)da bolib o'tgan sammitlarda «Shanxay beshligi»ning holati yanada mustahkamlanib, o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. 2000-yil 5-iyun Dushanbeda «Shanxay beshligi» davlatlari boshliqlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan. Shuni aytish lozimki, «Shanxay beshligi» Dushanbeda «*Shanxay forumi*»ga aylantiriladi²¹⁵.

²¹⁴ Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyev joriy yilning 13-14 iyun kunlari Kirgizistonning Bishkek shahrida bulib utgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining un tukkuzinchi majlisida suylan nutki. <https://uza.uz/oz/politics/bishkek-sammiti-sh-t-doirasidagi-manfaatli-hamkorlikning-besh-17-06-2019>

²¹⁵ Бабаходжаев М. Суверенный Узбекистан: вопросы внутренней и внешней экономической политики. – Т.: «Ташгосив», 2005.

2001-yil 14-15-iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo‘lib o‘tdi. Ushbu sammitda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etdi hamda Shanxay forumiga to‘la huquqli a‘zo bo‘lib kirdi. Natijada Shanxay forumi «*Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – SHHT*», deb o‘zgartirildi. Sammitda «SHHT ni tuzish to‘g‘risida»gi Deklaratsiya hamda «Terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida “Shanxay konvensiyasi” imzolandi.

2002-yilning 6-7-iyunida SHHTga a‘zo mamlakatlar rahbarlarining navbatdagi Sankt-Peterburg sammiti bo‘lib o‘tdi. Mazkur sammitda *SHHTga a‘zo davlatlar rahbarlarining Deklaratsiyasi, SHHTXartiyasi, SHHTga a‘zo davlatlar o‘rtasida Mintaqaviy antiterror tuzilmasi (MATT)* haqidagi Bitim imzolash masallari hal qilindi. Huquq-tartibot idoralari va maxsus xizmatlarning terrorizmga qarshi kurashdagi faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutgan mintaqaviy antiterror tuzilmasi tuzildi.

SHHTning 2005-yil 5-iyul SHHTning Ostona sammitida Eron, Pokiston, Hindiston va Mo‘g‘uliston kuzatuvchi maqomga ega bo‘lib tashkilot tarkibiga kirdi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash masalalari, jumladan, Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, uning iqtisodiy infratuzilmasini birgalikda tiklash yuzasidan fikr almashilgan.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining asosiy maqsad va vazifalari:

– a‘zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, do‘stlik va yaqin qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlash;

– mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, yangi demokratik, adolatli va oqilona siyosiy hamda iqtisodiy xalqaro tartibni shakllantirishga ko‘maklashish maqsadida turli yo‘nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish;

– terrorizm, separatizm va ekstremizmning barcha ko‘rinishlariga qarshi birgalikda kurash olib borish, giyohvand moddalar va qurol-

yarog'ning noqonuniy savdosi hamda transmilliy jinoiy faoliyatning boshqa turlari, jumladan, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish:

- siyosiy, savdo-iqtisodiy, mudofaa, huquq-tartibotni saqlash, tabiatni muhofaza etish, madaniy, ilmiy-texnikaviy ta'lim, energetik, transport, moliya-kredit va boshqa sohalarda samarali mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;

- a'zo davlatlar xalqlari turmush darajasi va sharoitlarini uzluksiz yaxshilash maqsadida teng sherikchilik asosida mintaqada har tomonlama va barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy hamda madaniy taraqqiyotga ko'maklashish;

- jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda yondashuvlarni muvofiqlashtirish;

- a'zo davlatlarning xalqaro majburiyatlari hamda milliy qonunchiligiga mos ravishda insonning huquq va erkinliklarini ta'minlashga ko'maklashish;

- boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish;

- xalqaro nizolarning oldini olish hamda ularni tinch yo'l bilan hal etilishida o'zaro aloqalarni mustahkamlash;

- XXI asrda vujudga keladigan muammolarning yechimini birgalikda izlab topish²¹⁶.

Hozirda tinchlik, barqarorlik va mintaqaviy hamda milliy xavfsizlikni ta'minlashda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti roli va ahamiyati yildan yilga oshmoqda. Bevosita bu tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlarning soni ham oshdi. Ularning soni 10 taga yetdi. O'zbekiston Respublikasi ushbu tashkilot doirasida mustaqil harakat qilib, SHHTning faoliyatida faol qatnashib kelmoqda.

2013-yil 12-13-sentabr Bishkekda SHHT Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Mazkur anjumanda

²¹⁶ Шарипов М.Ш. Марказий Осий ҳавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлашда Шанхай ҳамкорлик ва ҳавфсизлик ташкилотининг аҳамияти. дисс...сий фанлари номзоди. – Тошкент: 2007.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘z ma’ruzasida Suriya va Afg‘onistonda ro‘y berayotgan voqealarga to‘xtalib, Afg‘oniston muammosini harbiy yo‘l bilan bartaraf etib bo‘lmasligi, uning siyosiy yechimini topish, BMT shafeligida muzokaralar o‘tkazish va qarama-qarshi kuchlarning murosaga kelishiga erishish birdan bir to‘g‘ri yo‘l ekanini uqtirib o‘tdi. Muzokaralar chog‘ida O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlikka doir masalalarga ham alohida e’tibor qaratildi²¹⁷.

Shanxay hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammiti 2016-yil 23-24-iyun kunlari bo‘lib o‘tdi. Qozog‘iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev raisligida o‘tgan yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Xitoy Xalq Respublikasi raisi Xi Jinping, Qirg‘iziston Prezidenti Almazbek Atambaev, Rossiya Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, kuzatuvchi maqomidagi mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari – Afg‘oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G‘ani, Belarus Respublikasi prezidenti Aleksandr Lukashenko, Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi, Mo‘g‘uliston Respublikasi prezidenti Tsakhiagiin Elbegdorj, Pokiston Islom Respublikasi bosh vaziri Navoz Sharif, Eron Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari Ibrohim Rahipur ishtirok etdi. Majlisda SHHT Bosh kotibi Rashid Alimov, SHHT Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi ijroiya qo‘mitasi direktori Evgeniy Sisoev qatnashdi²¹⁸.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antonio Guterres, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Ijroiya qo‘mitasi raisi – Ijrochi kotibi Sergey Lebedev, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti

²¹⁷ <https://kun.uz/news/2019/11/03/shht-hukumat-rahbarlari-kengashining-toshkent-majlisida-qanday-masalalar-korildi>

²¹⁸ 2016 йил 23-24 июнь кунлари Куксаройда Шанхай ҳамкорлик ташкилоти Давлат раҳбарлари кенгашиининг мажлиси. <http://uza.uz/oz/politics/shankhav-amkorlik-tashkilotining-toshkent-sammiti-24-06-2016>

Bosh kotibi o‘rinbosari Amanjol Janquliev, ASEAN Bosh kotibi Le Liong Min ishtirok etdi²¹⁹.

Tashkilotning 2016-yilgi Toshkent sammitida Hindiston Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasining SHHTga a‘zo davlat maqomini olish yo‘lidagi majburiyatlari to‘g‘risidagi memorandumlar imzolangan edi.

Sammitda Hindiston va Pokiston tashkilotga a‘zo sifatida qabul qilindi. Hindiston va Pokistonning SHHT a‘zosi maqomiga ega bo‘lishi tashkilot imkoniyatlarini kengaytirib, xalqaro maydonda dolzarb muammolarni hal etish, mintaq va dunyoda xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta‘minlashda ko‘p tomonlama mexanizm sifatida tashkilot rolini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Sammit ishtirokchilari SHHT ishbilarmonlar kengashi va banklararo birlashmasi faoliyatiga oid axborotlarni tinglab, ularning faoliyatini ijobiy baholadi. Ushbu tuzilmalarga Tashkilot doirasida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash borasida, xususan, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlarini jadal rivojlantirish, sanoat infratuzilmalarini modernizatsiyalash, sarmoyaviy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ishbilarmon doiralar va moliyaviy tuzilmalar o‘rtasida bevosita aloqalarni rivojlantirish orqali amaliy ko‘mak berishga yo‘naltirilgan faoliyatni kengaytirish bo‘yicha o‘zaro aloqalarni faollashtirishni tavsiya etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida sammit ishtirokchilari e‘tiborini Afg‘onistondagi vaziyatni yaxshilash zarurligiga qaratib, u yerda sodir etilayotgan davomli teraktlar dunyoning barcha mamlakatlari uchun xavf solayotganini alohida ta‘kidladi. Ushbu tahdidlarga hamkorlikda, jahon

²¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2016 йил 23-24 июнь кунлари Куksаройда Шанхай ҳамкорлик ташкилоти Давлат раҳбарлари кенгашининг навбадгаги мажлисида сузлаган маърузаси. <http://uza.uz/oz/politics/shankhav-amkorlik-tashkilotining-toshkent-sammiti-24-06-2016>

hamjamiyati harakatlarini birlashtirgan holda qarshi kurashish zarurligini qayd etdi.

Yoshlarni turli yot g'oyalardan asrash, ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya olishi, komil inson bo'lib voyaga yetishida davlatlararo hamkorlikning ahamiyati katta.

Samarqand shahrida Islom hamkorlik tashkiloti Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining tashkil etilishi millatlararo, madaniyatlararo munosabatlarni mustahkamlashda muhim qadam bo'ladi, – dedi Mirziyoyev.

O'zbekiston SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash, bir ma'kon-bir yo'l loyihasi doirasida transport-kommunikatsiya sohasini jadal rivojlantirish tarafdori ekanini qayd etdi. Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'lining qurilishi mamlakatimizning jahon bozoriga chiqishida alohida ahamiyatga ega. Shavkat Mirziyoyev SHHT davlatlari temir yo'l sohasi rahbarlarining uchrashuvlarini tashkil qilish zarurligini ta'kidladi. SHHTning doimiy faoliyat yurituvchi xalq diplomatiyasi markazini tashkil etish g'oyasini ilgari surdi.

Davlat rahbarlari kengashi majlisi yakunlari bo'yicha qabul qilingan Ostona deklaratsiyasida amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid asosiy yondashuvlar, ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish uchun barcha sa'y-harakatlarni yo'naltirishga qaratilgan mushtarak intilishlar o'z ifodasini topgan²²⁰.

SHHTning keyingi uchrashuvi 2018-yil 9-10 iyun kunlari Xitoyning Sindao shahrida bo'lib o'tdi. Unda Hindiston Respublikasi Bosh vaziri N. Modi, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti N. Nazarboyev, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti S. Jeenbekov, Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti M. Husayn, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti I. Rahmon va O'zbekiston

²²⁰ <http://www.uzavtovul.uz/cv/post/shhtning-ostona-sammiti.html>

Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ishtirok etdilar. Majlisga Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin raislik qildi.

A'zo davlatlar rahbarlari 2017-yilgi Ostona sammiti yakunlarining ijrosini hamda jahon siyosati va iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlar asnosida SHHTni yanada rivojlantirishga doir birinchi galdagi vazifalarni ko'rib chiqdilar. Tomonlarning o'zaro kelishilgan pozitsiyasi qabul qilingan Sindao deklaratsiyasida o'z ifodasini topdi. A'zo davlatlar SHHT Xartiyasining maqsad va prinsiplariga rioya etgan hamda "Shanxay ruhi"ga tayangan holda SHHTni 2025-yilgacha mo'ljallangan rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirayotganlari qayd etildi. Bugungi kunda SHHT noyob, nufuzli va obro'li mintaqaviy birlashma sifatida qaror topgani, Tashkilotga Hindiston va Pokiston a'zo bo'lgandan so'ng uning salohiyati sezilarli darajada oshgani ta'kidlandi. Siyosat, xavfsizlik, savdo va iqtisodiyot, jumladan, moliya, investitsiya, transport, energetika, qishloq xo'jaligi sohalaridagi amaliy hamkorlikni, shuningdek, madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashni davom ettirish borasidagi istak-xohishlar mushtarak ekani bildirildi. SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida Uzoq muddatli yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma qoidalarini amalga oshirish bo'yicha 2018–2022-yillarga mo'ljallangan Harakatlar rejasi ma'qullandi. A'zo davlatlar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan norma va prinsiplari doirasida Afg'oniston, Suriya, Yaqin Sharq, Koreya yarimorolidagi va boshqa mintaqaviy nizolarga barham berishning qat'iy tarafdoridir. Eron yadro dasturi atrofidagi vaziyatni tartibga solish bo'yicha Qo'shma yalpi harakatlar dasturining izchil ijrosini ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekani qayd etildi²²¹.

"SHHT roli va mavqeini yanada mustahkamlash bizning "Shanxay ruhi" hamda tashkilot tamoyil va qadriyatlariga nechog'li

¹ Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 йил 9-10 июнь кунлари Хитойнинг Циндао шаҳрида Шанхай ҳамкорлик ташкилоти Давлат раҳбарлари кенгашидаги нутқи. мажлиси <http://uza.uz/oz/societv/shankhav-amkorlik-tashkiloti-davlat-ra-barlari-kengashi-mazh-11-06-2018>

amal qilishimizga bog‘liq bo‘ladi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 13-14-iyun kunlari Qirg‘izistonning Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining o‘n to‘qqizinchi majlisida so‘zlagan nutqida shunday deb ta’kidladi.

Ushbu muhim mintaqaviy tadbir doirasida Shanxay hamkorlik tashkiloti tashkil topganining 18-yilligi nishonlandi.

O‘z navbatida, Bishkek sammiti – SHHT doirasidagi hamkorlik jarayonlarida yana bir muhim marrani zabt etish nuqtasi sifatida e’tirof etildi. Bunday amaliy muloqotlar, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, “mintaqamizda zamonaviy taraqqiyotning eng muhim masalalari bo‘yicha yondashuvlarni moslashtirishga xizmat qiladi”.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida, shuningdek, bugungi kunda SHHTga a‘zo davlatlar uchun, bir tomondan, xavfsizlikni ta‘minlashda kelishilgan siyosatni yuritish, ikkinchi tomondan, davlatlarimiz barqaror taraqqiyoti va ravnaqi uchun qulay sharoitlarni shakllantirish muhim ekaniga to‘xtaldi.

Sammit yakunlari bo‘yicha SHHTga a‘zo mamlakatlar o‘rtasida turli sohalaridagi sheriklikni rivojlantirishga doir 22 ta hujjat imzolangani juda muhim. Jumladan, O‘zbekiston Prezidentining taklifi asosida Hududlararo hamkorlikni rivojlantirish dasturi qabul qilindi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bugun SHHT o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Ilk bosqichda asosiy e’tibor chegara muammolarini hal qilishga qaratilgan bo‘lsa, endilikda o‘zaro hamkorlikning ko‘lamlari va miqyoslari tubdan kengaydi.

O‘zbekiston Prezidenti “SHHTni rivojlantirish konsepsiyasi”ni ishlab chiqish g‘oyasini ilgari surdi. Bunda, beshta ustuvor mezonga tayangan holda, SHHT doirasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikning asosiy yo‘nalishlarini belgilab olish maqsadga muvofiq ekaniga e’tibor qaratildi.

SHHT doirasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikning birinchi mezonini – iqtisodiyot. O‘zaro aloqalar, samarali iqtisodiy va transport yo‘laklarini rivojlantirish bo‘yicha SHHT Hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish zarurligi alohida ta’kidlandi. Prezidentimizning fikricha, Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi o‘zaro savdoni rivojlantirish va SHHT doirasidagi hamkor mamlakatlarga investitsiyalar oqimini oshirishga kuchli turtki beradi.

Davlatimiz rahbarining Bishkek sammitidagi ushbu tashabbusi nafaqat yurtimiz, balki mintaqa va dunyo jamoatchiligi tomonidan ham katta qiziqish bilan kutib olindi. SHHT doirasidagi barcha tadbirlarda faol ishtirok etib kelayotgan O‘zbekistonning yangi tashabbuslariga bunday keng qiziqish va katta e’tibor zamirida, albatta, muayyan omillar o‘z mujassamini topgan.

Birinchidan, mamlakatimiz rahbarining ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflari, xususan, SHHTning 2017-yili Ostonada va 2018-yili Sindaoda bo‘lib o‘tgan sammitlarida ilgari surgan tashabbuslari to‘la qo‘llab-quvvatlandi hamda izchil amalga oshirilmoqda.

Ikkinchidan, SHHT doirasida tashkil etiladigan turli maqomdagi uchrashuvlarga, asosli ravishda, o‘z strategik maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay maydon sifatida yondashadigan O‘zbekiston uchun SHHT mintaqasidagi transport kommunikatsiyalari mamlakatimizning jahon bozoriga chiqishida muhim omil hisoblanadi.

Uchinchidan, Bishkek anjumani kun tartibidagi dolzarb ahamiyatga molik mavzular qatorida transport-kommunikatsiya sohasidagi hamkorlikni faollashtirish, xususan, SHHT makonidagi mavjud transport yo‘laklaridan foydalanishning samaradorligini oshirish va yangi transport yo‘laklarini barpo etish istiqbollari ham atroflicha muhokama qilindi.

SHHT doirasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikning uchinchi mezonini – axborot sohasi. Davlatimiz rahbari SHHT makonidagi barcha mamlakatlarning axborot texnologiyalari rivojlanishiga mas’ul idoralari rahbarlarining muntazam uchrashuvlari mexanizmini joriy etish taklifi bilan chiqdi.

Kiberxavfsizlik masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlik dasturini ishlab chiqish g'oyasi ham diqqatga loyiqdir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Prezidenti tashabbusi asosida SHHTga a'zo mamlakatlarning Raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi hamkorligi konsepsiyasi qabul qilinganini alohida ta'kidlash lozim.

SHHT doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning to'rtinchi mezon – gumanitar hamkorlik. Sayyohlik va madaniyat sohasida rang-barang va serqamrov dasturlarni amalga oshirish, “xalq diplomatiyasi” imkoniyatlaridan yanada keng foydalanish ham shu jumlag kiradi.

SHHT doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning beshinchi mezon – xavfsizlik. Mintaqamiz, umuman, SHHT makonidagi barqarorlik ko'p jihatdan Afg'onistondagi vaziyat bilan uzviy bog'liqdir.

Hozirgi vaqtda SHHTga a'zo davlatlar Afg'oniston bilan asosan ikki tomonlama bitimlar negizida hamkorlik qilmoqda. Bir qancha loyihalar bo'yicha ushbu mamlakatning energetika va infratuzilmalar tizimlarini tiklash hamda rivojlantirishga ko'maklashilmoqda. Kelgusida Afg'oniston bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirishda ko'p tomonlama shartnomalarga tayanish muhim samaralar berishi tayin.

Shu nuqtai nazardan, Bishkek sammiti yakunida qabul qilingan “SHHT – Afg'oniston” Muloqot guruhining harakatlariga doir “Yo'l xaritasi” alohida diqqatni tortadi. Ushbu mamlakat bilan yaqin hamkorlikda ustuvor infratuzilma loyihalarini ilgari surish orqali Afg'onistonni mintaqaviy hamkorlikka jalb qilish rejasini ham muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, “O'zbekiston afg'on muammosini tinch yo'l bilan hal etish jarayonini to'liq qo'llab-quvvatlaydi”²²².

²²² Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyev joriy yilning 13-14 iyun kunlari Qirg'izistonning Bishkek shahrida bulib ulgan Shanxai hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining un tukkininchi majlisida suzlagan nutki. <https://uz.uz/oz/politics/bishkek-sammiti-sh-t-doirasidagi-manfaatli-hamkorlikning-besh-17-06-2019>

8.4. O'zbekiston va MDH.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991-yil 8-dekabrda MDH tuzish to'g'risida bitim va 1991-yil 21-dekabrda mazkur Bitim Protokoli asosida tashkil qilingan. Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina MDH ishtirokchi davlatlari hisoblanadi.

Ular bu bitimda davlatlarining hududiy butunligini tan olish, amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi, fuqarolarning harakati erkinligiga, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, harbiy harakat va qurol-yarog' tarqatishning oldini olishda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar.

MDH davlatlarining birgalikdagi faoliyatidan tashqi siyosiy faoliyatlarni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegarani muhofaza qilish, Umum yevropa, Yevroosiyo bozorini shakllantirish, bojxona siyosatini birga olib borish, transport, aloqa, energetika tizimlarini rivojlantirish, ekologik, atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash hamda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadlarni nazarda tutmoqda.

Hamdo'stlik ishtirokchi davlatlarning barqaror ruvojanishi va xavfsizligiga to'sqinlik qiluvchi har qanday tahdid va xavf-xatarlarga o'z vaqtida munosib javob qaytarish borasida o'zaro maqbul yondashuvlar va kelishilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish, muammo va kelishmovchiliklarni hal qilish, MDH hududidagi fuqarolarning o'zaro muloqot yuritishlari uchun keng imkoniyat yaratdi.

O'zbekistonda MDHga ko'p rejali munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi mexanizm va bevosita muloqotlar olib borish, davlatlararo muzokaralarni tashkil qilish, jumladan, MDH formatida davlat rahbarlari va tegishli idoralar boshliqlari darajasida ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazish maydoni, shuningdek, ko'p

tomonlama hamkorlik shart-sharoitlarini yaratishda manfaatdor bo'lgan suveren davlatlarning birlashmasi sifatida qarashadi.

O'zbekiston Respublikasi MDHning asosiy nizomiy va tarmoq organlari faoliyatida ishtirok etadi. O'zbekiston Hamdo'stlik tashkil etilgandan boshlab uning doirasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va yangicha asosda xo'jalik aloqalarini jarayonlarga siyosiy tus bermagan holda amalga oshirish tarafdori bo'lgan davlatlar qatoriga kirgan.

O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

O'zbekiston tomoni jahondagi jadal o'zgarishlar sharoitida MDHni davlatlararo hamkorlik tizimi sifatida doimiy muzokaralar, oliy darajada siyosiy muloqotlar, vujudga kelayotgan yangi tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kelishilgan yondashuvlar ishlab chiqish, xalqaro xavfsizlikka oid ko'plab dolzarb masalalarni hal etishning muhim mexanizmi deb hisoblaydi²²³.

1991-2020-yillarda MDH davlatlari rahbarlarining 40 ga yaqin kengashlari bo'lib o'tdi va muhim hujjatlar imzolandi. Ular orasida xavfsizlik masalalari, tinchlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yib olish uchun davlatlararo iqtisodiy qo'mita tuzish, iqtisodiy integratsiyani to'laqonli amalga oshirish, bojxona va ittifoq to'lovi masalalarini izga solib olish kabilar muhim o'rin egalladi. O'zbekiston MDH doirasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar bo'yicha shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va boshqa mamlakatlar bilan imzolab, o'zaro manfaatli hamdo'stlik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi²²⁴.

²²³ Uzbekiston Respublikasining MDHdagi ishtiroki. <https://mift.uz/uz/menu/uchastie-respubliki-uzbekistan-v-sng>

²²⁴ Мусаев О.Р. Узбекистонда миллатлараро муносабатларни ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари. дисс...фалсафа фанлари фалсафа доктори.-Т.: 2017.

Bugungi kunda MDHning tarkibi 10 ta a'zo davlatlar: Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldaviya va bitta kuzatuvchi Turkmaniston kiradi.

Shunday bo'lsa-da, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. MDH yon-atrofdagi voqealarga munosabat bildirishda yakdillik ko'rsatish, xususan, terror, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, ekstremizm kabi balolarga qarshi turishda hamjihatlikni mustahkamlash, bahamjihat harakat qilishda muhim o'ringa ega.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 10-11 oktyabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashi majlisida ishtirok etdi. Dastlab MDH davlat rahbarlari tor doirada uchrashuv o'tkazdi. Unda Hamdo'stlik doirasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, ushbu xalqaro tuzilma faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi, mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport, turizm, ilm-fan, ta'lim va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdorligini ta'kidladi. Yil boshidan buyon mamlakatimiz bilan MDH davlatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 20 foiz o'sgan. O'zbekiston tuzilmadagi ishtirokini yanada faollashtiradi. Shu yil 3-noyabr kuni poytaxtimizda MDH Hukumat rahbarlari kengashi yig'ilishi o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti a'zo mamlakatlar o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash, Hamdo'stlik doirasida yangi, aniq loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligini qayd etdi.

Transport va kommunikatsiyalar hamkorlikning strategik muhim yo'nalishi hisoblanadi. O'zaro integratsiyalashgan transport

tizimlarini rivojlantirish, Hamdo'stlik mintaqasining ulkan tranzit salohiyatidan to'la foydalanish barcha uchun manfaatli. Ma'muriy jarayonlarni takomillashtirish va o'zaro imtiyozlar berish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm sohasidagi imkoniyatlar ham to'la ishga solinmagani, bu imkoniyatlarni tahlil qilish va aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Afg'onistondagi vaziyatga ham e'tibor qaratildi. Jinoiy daromadlarni legallashtirish, korrupsiya, terrorizm, narkobiznes kabi xavf-xatarlarga qarshi birgalikda kurashish masalalari muhokama qilindi²²⁵.

Majlisda Hamdo'stlik mamlakatlarining Parlamentlararo assambleyasi faoliyatini takomillashtirish, Tashqi ishlar vazirlari kengashi va Iqtisodiy kengashini rivojlantirish, kelgusi yillarda MDHning madaniy poytaxtlarini belgilash kabi masalalar muhokama qilindi. MDHga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlarining Oila instituti va an'anaviy oilaviy qadriyatlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bayonoti, Hamdo'stlikda 2019-yilni «Kitob yili», 2020-yilni «1941-1945-yillardagi ulug' Vatan urushida qozonilgan g'alabaning 75 yilligi» yili, deb e'lon qilish haqida qaror qabul qilindi.

Hamdo'stlik mamlakatlarining jinoiy daromadlarni legallashtirish, terrorizm va qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohalaridagi hamkorligiga doir konsepsiyalar ma'qullandi.

Shuningdek, MDH mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan yana qator hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi hamkorlik 2004-yil 16-iyunda imzolangan Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma,

■ Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyev 2017 йил 10-11 октябрь кунлари Россия Федерациясининг Сочи шаҳрида булиб утган Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги Давлат раҳбарлари кенгаши мажлисида иштироки. <http://uza.uz/oz/politics/md-ning-sochi-sammiti-11-10-2017>

2005-yil 14-noyabrda imzolangan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma asosida izchil rivojlanib bormoqda. Mamlakatlarimiz BMT, SHHT, MDH kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston Prezidentining Rossiyaga davlat tashrifidan so'ng o'tgan qisqa davrda o'zaro aloqalar sezilarli faollashdi. Hamkorlik doirasiga yangi sohalar qo'shildi. Keyingi oylarda hukumatlararo va hududlararo darajada bir qancha tashriflar amalga oshirildi²²⁶.

Rossiya O'zbekistonning muhim savdo-iqtisodiy sheriklaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda Rossiyaning yetakchi kompaniya va banklari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Eksport va importning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda. Yil boshidan buyon o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 3 milliard dollardan oshgan.

2017-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan O'zbekiston – Rossiya biznes-forumida ikki mamlakat ishbiarmonlari ko'plab istiqbolli kelishuvlarga erishdi. Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida kooperatsiya kuchayotgani, biznes vakillari hamkorligi kengayotgani, xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar mustahkamlanib borayotgani ta'kidlandi. Moskva va Butun Rus Patriarxi Kirillning O'zbekistonga tashrifi ham xalqlarimiz o'rtasida do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qilgani qayd etildi. Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi²²⁷.

Уша манба. <http://uza.uz/oz/politics/md-ning-sochi-sammiti-11-10-2017>

Сочи шаҳрида угаётган Мустақил Давлатлар Ҳамдустлиги саммити доирасида Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев билан Россия Федерацияси Президенти Владимир Путиннинг учрашуви . <https://kun.uz/79059556?q=%2F79059556>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Shavkat Mirziyoyev davlat rahbarlarining 2016-yil Samarqandda o‘tgan uchrashuvidan keyin O‘zbekiston va Belarus munosabatlari faollashgani, o‘zaro savdo aylanmasi sezilarli oshganini ta’kidladi. Ikki mamlakat iqtisodiyoti bir-birini to‘ldirishi, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, mashinasozlik, oziq-ovqat sanoati va boshqa sohalarda foydalanilmagan katta imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi. Aleksandr Lukashenko Belarus O‘zbekiston bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishdan manfaatdor ekanini ta’kidladi. Belarus O‘zbekistonga Markaziy Osiyodagi muhim iqtisodiy sherik sifatida qaraydi. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar do‘stlik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillari asosida rivojlanib bormoqda. Qo‘shma korxonalar tashkil etish, savdo uylarini kengaytirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash bo‘yicha hamkorlik qilish masalalari muhokama qilindi.

Shu asosda 2019-yil 7-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi xavfsizlik organlari va maxsus xizmatlari rahbarlari kengashining Toshkentdagi yig‘ilishida ishtirok etadigan delegatsiyalar boshliqlarini qabul qildi. Ushbu tadbirda Prezidentimiz O‘zbekistonda MDH doirasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni, jumladan, zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi kurash borasidagi hamkorlikni kengaytirishga muhim ahamiyat qaratilayotganini ta’kidladi. Xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash mamlakatimizning Hamdo‘stlikda 2020-yilgi raisligining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekani qayd etildi. Tashkilotga a‘zo davlatlar maxsus xizmatlari o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni davom ettirish, shu jumladan, tezkor axborot almashish hamda terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va uyushgan jinoyatchilikni bartaraf etish bo‘yicha qo‘shma tadbirlar o‘tkazish zarurligiga alohida e‘tibor qaratildi. Kiberjinoyatchilikka

qarshi kurashda, internet va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan zo‘ravonlik va radikal qarashlarni targ‘ib qilish maqsadida foydalanishga chek qo‘yish borasida sa‘y-harakatlarni birlashtirish muhimligi ta‘kidlandi²²⁸.

Hamdo‘stlikning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, globalizatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarga tayyor turish, turli inqirozlarni yengishda barcha a‘zo davlatlar uchun kerakli va foydali tashkilotdir.

Tayanch iboralar:

Tinchliksevar tashqi siyosat, Milliy xavfsizlik, qulay geosiyosiy vaziyat, milliy xavfsizlik konsepsiyasi, millatlararo bag‘rikenglik, mudofaa, «Markaziy Osiyo – yadrosiz zona», xalqaro terrorizm, xalqaro tashkilotlar.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsplari nimalardan iborat?

2. Xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish qaysi markaziy davlat hokimiyatining vakolatiga kiradi?

3. «O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qonunda belgilab berilgan asosiy prinsiplar nimlardan iborat?

4. Mustaqil O‘zbekistonning qulay geosiyosiy imkoniyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

5. O‘zbekiston tinchlik yo‘lida qaysi xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlikni amalga oshirmoqda?

6. O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Birlashgan

²²⁸ 2019 йил 7 ноябрь куни, Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёев Мустақил Давлатлар Ҳамдустлиги хавфсизлик органлари ва махсус хизматлари раҳбарлари кенгашининг Тошкентдаги йиғилишида иштирок этадиган делегациялар бошлиқларини қабул қилдиш маросимидаги натижаси. 2019/11/07/shavkat-mirziyoyev-mdh-mamlakatlari-maxsus-xizmatlari-rahbarlarini-qabul-qildi

Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining nechinchi sessiyasidagi ilk bor ma'ruza qildi?

7. O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A. Karimov BMTning nechinchi sessiyasida so'zlagan nutqida asosiy e'tiborni bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda yana mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratdi?

8. Nechinchi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Mingyillik Deklaratsiyasi» qabul qilindi?

9. Nechinchi yilda BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyalari qabul qilindi?

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining nechinchi sessiyasidagi ilk bor ma'ruza qildi?

11. Nechinchi yilda O'zbekiston Respublikasi «Shanxay forumi»ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida» Bayonot imzolanadi?

12. SHHTning qaysi sammitida «SHHTga a'zo davlatlarning 20 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi» qabul qilindi?

13. SHHTning Sindao sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqi asosan qanday masalalarga qaratilgan edi?

14. Milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

15. Mustaqil O'zbekistonning BMTga qo'shilishi qanday ahamiyatga ega bo'ldi?

16. «Turkiston – umumiy uyimiz» shiori qanday ahamiyatga ega?

5-BO‘LIM. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.M.MIRZIYOYEVNING IJTIMOIIY- IQTISODIY, MADANIY-MA‘RIFIY JARAYONLARDA AMALGA OSHIRAYOTGAN ISLOHOTLARI

9-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.M.MIRZIYOYEV TOMONIDAN IJTIMOIIY – IQTISODIY ISLOHOTLARNI YANADA JADALLASHTIRILISHI.

9.1. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning strategik maqsadlari va taraqqiyotining yangi bosqichi.

9.2. Agrar sektorni modernizatsiyalash va intensiv rivojlantirish va qishloq xo‘jaligida eksportbop mahsulotlar yetishtirish tizimining yo‘lga qo‘yilishi .

9.3. Arzon uy joylar barpo etishning maqsadli dasturlarini amalga oshirishning muhim jihatlari va yoshlarga oid siyosatni ro‘yobga chiqarishning davlat dasturi.

9.1. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning strategik maqsadlari va taraqqiyotining yangi bosqichi.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy sur‘ati tubdan o‘zgardi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish, avvalo, aholining hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga o‘tdi. Amalga oshirilgan barcha islohotlar “Inson manfaatlari va farovonligi hamma narsadan ustun” degan tamoyilga asoslandi. Bu borada,

eng avvalo, mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash, qat'iy pul-kredit siyosatini yuritish, milliy valyuta va ichki bozordagi narxlar barqarorligini ta'minlash, soliq-byudjet islohotlarini olib borishga asosiy e'tibor qaratildi.

Valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi va 2017-yil 5-sentyabrdan milliy valyutamiz – so'mning erkin ayirboshlanishi ta'minlandi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z valyuta resurslarini erkin tasarruf etishlari yo'lidagi barcha sun'iy to'siqlar bartaraf etildi va ular tomonidan valyuta tushumlarini sotish majburiyatlari bekor qilindi. Yuridik shaxslar uchun mahsulotlarni import qilishda chet el valyutasini erkin xarid qilish va chet el investorlarining foydani erkin olib chiqish imkoniyati yaratildi. Fuqarolarga chet elda ta'lim olish yoki davolanish, turizm, biznes va boshqa maqsadlar uchun valyuta mablag'larini hech qanday to'siqlarsiz qonuniy sotib olishi va sotish imkoniyati yaratildi. Mazkur islohotlar dunyoning yetakchi moliya institutlari, shu jumladan, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan e'tirof etildi. Inflyatsiya darajasi hamda ichki bozorda iste'mol tovarlar narxlarining barqarorligini nazorat qilish kuchaytirildi. Ushbu maqsadda, resurs bazasi 100 million dollarga teng ichki iste'mol bozorida narx-navoni barqarorlashtirish jamg'armasi tashkil etildi. Hayot uchun zarur bo'lgan dori-darmonlarni sotib olish uchun qo'shimcha 70 million dollar ajratildi. Tashqi savdoni liberallashtirish va samarador bozor iqtisodiyotini yaratish maqsadida bojxona to'lovlari stavkalari ikki baravar pasaytirildi. Ichki bozor uchun zarur bo'lgan 8 ming turdan ziyod import tovarlari uchun bojxona to'lovlari keskin pasaytirildi, jumladan, import boji bo'yicha 3 550 ta va aksiz solig'i bo'yicha 1 122 ta mahsulotlarga nisbatan nol darajali stavkalar belgilandi. Xalqaro andozalarga mos ravishda, hukumat, barcha vazirlik va idoralar hamda Markaziy bank tomonidan makroiqtisodiy

ko'rsatkichlar, davlat byudjeti ijrosi, pul muomalasi va oltin-valyuta zaxiralari holati to'g'risidagi barcha statistik va tahliliy ma'lumotlarni doimiy ravishda ochiq chop etib borilishi yo'lga qo'yildi.

Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida hammaga yaxshi ma'lum bo'lgan "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" tamoyiliga asoslanildi. Bunda: birinchidan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirish bekor qilindi. Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish ko'rinishida jazo qo'llash taqiqlandi. O'zbekistonning Jahon bankining "Doing Business 2018" ma'ruzasida biznes yuritish uchun eng qulay sharoit yaratgan "top 10" talik islohotchi mamlakatlar ro'yxatiga kirishi ham olib borilgan islohotlarning natijasidir; ikkinchidan, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibotlari tubdan qayta ko'rib chiqilib, ular soni va ro'yxatdan o'tish uchun ketadigan vaqt esa qisqardi; uchinchidan, Savdo-sanoat palatasi faoliyati to'liq qayta isloh qilindi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil instituti (ombudsman) ta'sis etildi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash Davlat jamg'armasi tashkil etildi; to'rtinchidan, joriy yilda tijorat banklari va ularning filiallari biznes bilan ishlash, har bir mahallada aholini, avvalo, yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha o'z yondashuvlarini tubdan o'zgartirdi²²⁹.

Iqtisodiyotni isloh qilishning yana bir o'ziga xos ustuvor yo'nalishi, bu davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyotda xususiy sektorning o'rni va ahamiyatini oshirishdir. Bunda, eng avvalo, xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash,

²²⁹ Иқтисодийотни ривожлантириш ва либераллаштириш. "Тараққиёт стратегияси" маркази маълумотлари асосида тайёрланган. <http://www.biznes-daily.uz/ru/mening-mulkim/53144-xs->

ularning faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat mulkini boshqarish uslublari tamoman o'zgartirilib, quyidagi ijobiy natijalarga erishildi: birinchidan, korxonalarni xususiylashtirishdan keyingi qo'llab-quvvatlashning yangi amaliyoti joriy etildi, ishlamayotgan korxonalar faoliyatini qayta tiklash bo'yicha investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda davlat tomonidan ko'maklashish yo'lga qo'yildi. Tadbirkorlik subyektlariga faoliyat yuritmayotgan va to'liq quvvat bilan ishlamayotgan korxonalar maydonlarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish imkoniyati berildi. Bu esa, yuqori qiymatdagi investitsiyalarni o'zlashtirish va minglab ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyatini berdi. Ushbu loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish maxsus jamg'armasi tashkil etildi va ushbu jamg'arma tomonidan tegishli kredit liniyalari ochildi²³⁰.

“Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida o'z biznesini boshlayotgan oilalarga 5,9 trillion so'm kreditlar ajratildi. Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi²³¹.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o'tgan yili soliq to'lovchilar ixtiyorida 2 trillion so'm qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag' qolishi, albatta, ularga o'z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 93 mingta yoki 2018-yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi. Jahon bankining “Biznes yuritish” reytingida 7 pog'ona ko'tarilib, biznesni ro'yxatga olish

²³⁰ 2017 йил – шиддатли ислохотлар йили. – Т.: “Адолат”, 2017. – 96 б

²³¹ Алимжанова Д. “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази директорининг уринбосари. Хар бир оила муқаддас қурғонга айланади. <http://uza.uz/oz/society/ar-bir-oila-mu-addas-r-onga-aylanadi-24-01-2020>

ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning 190 ta davlati orasida 8-o'rinni egalladi va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy olindi.

Ikkinchidan, tadbirkorlik subyektlariga investitsiya kiritish va yangi ish o'rinlarini yaratish majburiyati bilan davlat mulkini "nol" xarid qiymatida berish amaliyoti sezilarli kengaytirildi. 2017-yilda tadbirkorlarga 509 ta obyekt "nol" xarid qiymatida investitsiyalar kiritish majburiyati bilan xususiy mulk sifatida berildi. Bu esa, minglab yangi ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyatini bermoqda.

Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 4,2 milliard dollarni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan – mana shu raqamga e'tiboringizni qaratmoqchiman – 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o'sdi. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga yetdi.

Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O'zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi.

Energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo'l qurilishi, qishloq va suv xo'jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog'ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda. Natijada o'tgan yili iqtisodiy o'sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko'paydi. Oltinvalyuta zaxiralarimiz 2019-yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga yetdi²³². Uchinchidan, faoliyat yuritmayotgan,

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 20 январдаги Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг биринчи мажлисидаги ҳамда 21 январдаги Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги маърузалари, 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлис палаталарига мурожаатномаси. <http://staff.tii.ame.uz/storage/users/427/presentations/Z8U9zbM08MdNsSseN8CBWEGoXR70Czp0YGibp7oB.p>

bo'shab yotgan va samarali foydalanilmayotgan yirik obyektlar va yer uchastkalarida yil davomida 45 ta yangi kichik sanoat zonalari tashkil etilib, ularning umumiy soni 75 taga yetkazildi. Ularda yuqori talabga ega bo'lgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat o'zgartirildi, bunda ish o'rinlarini tashkil etish va odamlar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish ustuvor maqsad etib belgilandi.

2017-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, alohida tuman va shaharlarni rivojlantirish bo'yicha qirqdan ortiq dasturlar qabul qilindi. Dasturlar ijrosini ta'minlash, shu jumladan, hududlar iqtisodiy o'sishini tezlashtirish va doimiy ish o'rinlarini yaratish maqsadida 2017-2018-yillarda sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida har bir tuman uchun istiqbolli yangi 2 077 ta yirik loyihalar tasdiqlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududlaridagi tumanlarda sanoat sohasida 1 619 ta yangi korxonalar tashkil etildi, bu o'tgan yilga nisbatan 1,2 marta ko'pdir. Yangidan tashkil etiladigan korxonalariga soliq to'lovi bo'yicha 5 yildan 10 yilgacha imtiyozlar, shu jumladan, mulk, yer va obodonlashtirish soliqlari hamda Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlaridan ozod etish kabi imtiyozlar qo'llanilib kelinmoqda. 47 ta uzoq va chekka tumanlarda yangi tashkil etilgan va mikrokredit olgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 6 oy muddatga qat'iy belgilangan soliq to'lovidan ozod etildi. Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga yondashuv tubdan o'zgartirilib, aholining ehtiyojlari ko'proq inobatga olinadigan bo'ldi. Xususan, so'nggi yillarda birinchi marta 2 700 km avtomobil yo'llari va 5,1 ming km past kuchlanishli elektr tarmoqlarini qurish va kapital ta'mirlashga davlat mablag'lari yo'naltirildi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari boshchiligida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va uning o'rinbosarlariga birlashtirilgan

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sektorlariga bo‘linishini nazarda tutuvchi ish tashkil etishning yangi tizimi joriy etildi²³³.

Jamoatchilik oldida hisobot berish, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish vazifalarini so‘zsiz amalga oshirish maqsadida joylarda ishlarni tashkil etishning “mahalla – tuman (shahar) – viloyat – respublika” tamoyili asosidagi yangi tizimi joriy etildi. Ijro etuvchi va vakillik hokimiyati markaziy organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro hamkorligining darajasi hududlarda yechimini kutayotgan muammolarni hal qilish bo‘yicha uyg‘un faoliyatni ta‘minlab berdi. Shuningdek, sektorlar tomonidan uyma-uy yurish va aholi bilan uchrashuvlar asosida mahalladagi dolzarb muammolarni aniqlash – tuman (shahar)ni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarga takliflar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, kichik sanoat hududlarining tashkil qilinishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb qilish, yangi yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil qilish, hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy omili bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan dasturlarni qabul qilish maqsadida 2017-yilning o‘tgan davri mobaynida respublikaning barcha mintaqalariga, ayrimlariga esa takror tashrif buyurdilar. Har bir tashrif natijasi bo‘yicha har bir hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi.

²³³ 2017 йил – шиддатли ислохотлар йили. – Г.: “Адолат”, 2017. – 96 б.

Milliy valyutaning tezkor o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari korxonalariga moliyaviy yordam berish bo'yicha tegishli qonun hujjatlari qabul qilindi. Xususan, neft va gaz, kimyo va energetika tarmoqlari korxonalarining yillar mobaynida to'planib qolgan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari kamaytirildi, neft mahsulotlari bo'yicha hisoblangan aksiz solig'i neftni qayta ishlash zavodlariga qoldirildi, O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish choralari ko'rildi. Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarida yetti mingdan ortiq ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishga topshirildi, yuzdan ortiq yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Natijada qayta ishlash sanoatining jami sanoatdagi ulushi 80 foizdan ortiqni tashkil etdi, mehnat unumdorligi qariyb 6 foizga oshdi. Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi yuqori texnologik ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan yirik investitsion loyihalarning amalga oshirilishi qariyb 67,4 trillion so'mlik kapital qo'yilmalarni o'zlashtirish imkonini berdi.

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish mamlakat eksport hajmini barqarorligini oshirish va uning tarkibida ijobiy o'zgarishlarga erishish muhim omilga aylanib, eksport tarkibida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ulushi barqaror sur'atlar bilan o'sib bormoqda. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha dasturda "Sanoatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yangicha yondashuv" chora tadbirlari belgilab berilgan³⁴.

Birinchidan, hamkor mamlakatlar va xalqaro moliya institutlari bilan munosabatlardagi yondashuv o'zgartirildi. Oliy darajadagi tashriflar chog'ida, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, AQSH,

³⁴ Пулатова М.С. Саноат корхонаарининг ташки иктисодий фаолиятини молиялаштиришда инвестициялардан самарали фойдаланиш йуллари. Иктисодиёт фанлари буйича фалсафа доктори диссертацияси. –Тошкент:2008.

Koreya, Turkiya, Qozog‘iston va Qirg‘iziston bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha ikki tomonlama davlatlararo shartnomalar imzolandi. Yevropa tiklanish va tarraqqiyot banki bilan to‘laqonli munosabatlar tiklandi, bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka 190 million AQSH dollari miqdorida kredit liniyasi ajratildi. Turli yo‘nalishlarda 20 dan ortiq loyihalar ishlab chiqildi. Yevropa investitsiya banki, Fransiya rivojlanish agentligi bilan hamkorlik o‘rnatildi. O‘zbekiston yangi tuzilgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining teng huquqli a‘zosiga aylandi.

Ikkinchidan, tashqi savdo faoliyatidagi barcha sun‘iy to‘siqlar olib tashlandi. Xususan, oldindan to‘lovlarsiz va kafolat majburiyatlarisiz eksport qilish tartibi joriy etildi. Ortiqcha va eskirgan ruxsat beruvchi talablar bekor qilindi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish mexanizmlari soddalashtirildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida eksport hajmi 11,3 milliard AQSH dollarini tashkil etdi va oldingi yil shu davr ko‘rsatkichiga nisbatan 126 foizga oshdi. Tashqi savdo saldosini 519,5 million dollarni tashkil etdi. MDH davlatlari ichida mahsulot eksport qilinadigan eng yirik davlatlar qatoriga Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston hamda uzoq xorijiy mamlakatlar – Xitoy, Turkiya, Afg‘oniston, Eron, Koreya Respublikasi va Fransiya davlatlarini kiritish mumkin. Barcha qayd etib o‘tilgan mamlakatlar bo‘yicha eksportning o‘shish dinamikasiga erishildi.

Mahsulot turlari bo‘yicha eksportning eng yuqori o‘shish sur‘atlari mashina va asbob-uskuna, rangli metall, oziq-ovqat mahsulotlari hamda tekstil mahsulotlariga to‘g‘ri keldi. Bunda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti ham mablag‘ jihatidan (592,6 million dollar), ham miqdor jihatidan (831,7 ming tonna) o‘shishiga erishildi. Bugungi kunda eksport tarkibining qariyb 78 foizini qayta ishlash tarmog‘i mahsulotlari tashkil etmoqda. Jumladan, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportining ulushi 28,5

foizdan 34,5 foizgacha ortdi, elektr maishiy texnika 2,4 baravarga, avtomobil eksporti 3 baravarga, to'qimachilik mahsulotlari 1,3 baravarga va charm-poyabzal mahsulotlari eksporti 14,2 foizga o'sdi.

9.2. Agrar sektorni modernizatsiyalash va intensiv rivojlantirish va qishloq xo'jaligida eksportbop mahsulotlar yetishtirish tizimining yo'lga qo'yilishi

Agrar sektorni modernizatsiyalash va intensiv rivojlantirish, qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida ilg'or xorijiy davlatlarning tajribasiga tayangan holda qishloq xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash darajasini oshirish va ularning narxlarini barqarorligini saqlash paxta xomashyosini yetishtirishni moliyalashtirish tizimida bozor mexanizmlarini joriy etish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan²³⁵.

2017-yilning o'zida qishloq xo'jaligi sohasiga oid 5 ta qonun, 20 dan ortiq farmon va qaror qabul qilindi, 2 ta yangi qo'mita va 3 ta uyushma tuzildi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyati tubdan takomillashtirildi. Qishloq tumanlarida hokimlarning qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy qilindi. O'zbekiston Fermerlari kengashi O'zbekiston Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi sifatida qayta tashkil etildi. Joriy yilda mamlakatimizda 8 million 377 ming tonna g'alla, 2 million 900 tonnadan ziyod paxta, 12 ming 450 tonna pilla, 500,8

²³⁵ Юсупов М.С. Қишлоқ хужалигини давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизmlарини такомиллаштириш. Иқтисодийг фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. –Тошкент:2008. 4-бет.

ming tonna sholi, 22 million tonna meva-sabzavot, 12,3 million tonna go'sht va sut mahsulotlari yetishtirildi. Bu yil birinchi marta g'alladan bo'shagan qariyb 1 million gektar maydonga sabzavot, kartoshka, poliz va dukkakli ekinlar ekildi va 5,5 million tonnadan ortiq mahsulot yetishtirildi. Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin o'z samarasini bermoqda. Masalan, joriy yilda 96 ming gektar hosildorligi past maydonlarda paxta va g'alla o'rniga 32 ming gektar yerda karam, turli sabzavot va ko'katlar ekildi va bu maydonlardan olingan minglab tonna mahsulotlar eksport qilindi. Shuningdek, 11 ming gektarda intensiv bog' va yangi tokzorlar, 1 ming 500 gektarda issiqxonalar barpo etildi. Bu borada Ispaniya, Polsha, Niderlandiya, Gretsiya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Vetnam va Indoneziya davlatlarining ilg'or tajribasidan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, mamlakatimizda birinchi marta shafran kabi noan'anaviy ekin ekish yo'lga qo'yildi, soya ekish kengaydi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 132 ming tonnasi qayta ishlanib, 100 million dollarlik tayyor mahsulot eksport qilindi. 856 million dollarlik 724 ming tonna ho'l meva chetga sotildi. Chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish dasturlari doirasida baliq, asal yetishtiriladigan, parranda, echki, qoramol boqiladigan ko'plab xo'jaliklar faoliyati yo'lga qo'yildi. Zotdor qorabayir otlarini ko'paytirish va ot sportini rivojlantirish maqsadida Qashqadaryoda yangi yilqichilik kompleksi tashkil etildi. Toshkent viloyatida va boshqa hududlarda ham bunday majmualar barpo etilmoqda. Pillachilikda yuqori hosil olishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ammo deyarli yo'qolib borayotgan an'analar qayta tiklanmoqda. Eng muhimi, qimmatbaho xomashyo bo'lgan ipak yetishtirishning mutlaqo yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Ushbu sohada ishlarni mutlaqo

yangi asosda yo'lga qo'yish maqsadida "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tashkil etildi. Bu yil mamlakatimizda birinchi marta pilladan yiliga ikki marta hosil olish tajribasi sinovdan o'tkazildi va ijobiy natija berdi. Har bir viloyatda pila xom ashyosini qayta ishlab, tayyor mahsulot olish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari jalb qilinmoqda. Natijada shu yilning o'zida ipakni qayta ishlashga ixtisoslashgan 10 ta korxonona ishga tushirildi. Baliqchilik sohasini tiklash uchun "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi tashkil etildi. Uning tizimiga 3 ming 600 ta baliqchilik xo'jaligi kiritildi. Joriy yilda 580 ming gektar tabiiy va 28 ming gektar sun'iy ko'llarda 100 ming tonnadan ortiq baliq yetishtirildi. Yana bir muhim yo'nalish – asalarichilik sohasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston asalarichilar uyushmasi tashkil etilib, unga asal yetishtiradigan 14 mingdan ortiq tadbirkor a'zo bo'ldi. Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta yetishtiradigan fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat byudjetidan mablag' ajratish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. 2008-yilda ushbu maqsadlar uchun 80 milliard so'm mablag' yo'naltirilgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 300 milliard so'mni tashkil etdi. Yil davomida qilingan mashaqqatli mehnat, agrotexnik tadbirlarning o'z muddatida va sifatli o'tkazilishi natijasida gektaridan o'rtacha 50 sentnerdan ziyod hosil olgan fermerlar 1 ming 121 tani, 45 sentnerlik marrani egallagan fermerlar 2 ming 130 tani, 40 sentnerchilar 7 ming 208 tani tashkil etdi. Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tadbirlar qo'llab-quvvatlanib, ularning tashabbuskori bo'lgan xo'jalik va tashkilotlarga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar yaratib berilmoqda. Natijada, bugungi kunda qariyb 240 ming gektar maydonda ana shunday texnologiyalar, jumladan, 28 ming gektar yerda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilindi.

Qishloq xo'jaligining rivoji aholi ijtimoiy ahvolidning yaxshilanishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Shahar va qishloqlarda

aholining haqiqiy ehtiyoji va milliy an'analar to'la hisobga olingan holda turar joy qurilishi va tegishli infratuzilma tarmoqlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, qishloqlarda yangi ikki tipdagi yosh oilalar uchun maqbullashtirilgan yer uchastkasiga ega bo'lgan 2 va 3 xonali turar joy binolari loyihasi ishlab chiqildi. Bu esa, ularning narxini qishloq aholisining barcha qatlamlari uchun maqbul tarzda arzonlashtirish imkonini berdi²³⁶.

Shaharlarda yangi, zamonaviy ko'p qavatli uylar qurish dasturi qabul qilinib, unga ko'ra shaharlarda yuzlab besh va yetti qavatli uylar foydalanishga topshirildi. Yangi qurilayotgan shahar va qishloq hududlarining infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. 2017-yilda mamlakatning bir qator shaharlarida davlat-xususiy sektor sherikchiligi asosida maishiy chiqindilarni kompleks qayta ishlash klasterlari tashkil etildi. Har bir tuman va shaharda "Toza hudud" korxonalarini tashkil etilishi aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini sezilarli darajada oshirishga imkon yaratdi. Minglab kilometr ichki yo'llarni qurish va ta'mirlashga davlat mablag'lari yo'naltirildi²³⁷.

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, yangi tashkil etilgan Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi oldiga respublika aholisini markazlashtirilgan suv ta'minoti bilan qamrab olish vazifasi qo'yildi. Moliya vazirligi huzurida "Toza ichimlik suvi" fondi tashkil etilib, uning hisobidan 2018-yilda 584,7 milliard so'm mablag' ajratilishi ko'zda tutildi.

<http://vetgov.uz/uz/vangiliklar/riz-r-zimiz-bunvedkori-b-lgan-ishlo-kh-zhaligi-kho?print=y>

²³⁶ Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qishloq xujaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan gantanalari marosimdagi nutqi. <http://uza.uz/oz/politics/riz-r-zimiz-bunvedkori-b-lgan-ishlo-kh-zhaligi-khodimlari-mc-09-12-2017>

9.3. Arzon uy-joylar barpo etishning maqsadli dasturlarini amalga oshirishning muhim jihatlari va yoshlarga oid siyosatni ro'yobga chiqarishning davlat dasturi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilda sog'liqni saqlash masalasiga bag'ishlab to'rt marta videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Har uchala yig'ilishda ham tizim faoliyatini tubdan takomillashtirish, odamlarda haqli e'tiroz uyg'otayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi, shu yo'nalishda amalga oshirilayotgan dasturlar ijrosi atroflicha ko'rib chiqildi. Davlat rahbari tomonidan berilgan topshiriq va ko'rsatmalardan kelib chiqib, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish yuzasidan ham bir qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Sog'liqni saqlash sohasini yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatini oshirishga qaratilgan 30 ga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi. Eng avvalo, qishloqlarda sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inida samarasiz qishloq vrachlik punktlari qisqartirilib, ularning o'rniga tun-u kun faoliyati ko'rsatadigan 793 qishloq oilaviy poliklinikasi tashkil etilib, ularda tez tibbiy yordam shahobchasi hamda kunduzgi statsionarlar ochildi. Sil bilan kasallanish keskin kamaydi. Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari hududlarga 2407 marta chiqdi, 2016-yilda bu raqam 500 tani tashkil qilgan edi. O'tgan yil ularning xizmatidan 30 ming kishi foydalangan bo'lsa, joriy yil ko'rsatkich 220 mingga chiqdi. Soha uchun kadrlar tayyorlash ishlari ko'lami kengaymoqda. Oliy ma'lumotli shifokorlar tayyorlash uchun qabul kvotalari soni 3445 taga yetkazildi, shundan 1180 tasi maqsadli hududiy kvotadir. Klinik ordinaturada tayyorlash bo'yicha ham kvotalar oshirildi. Bu ishlar doirasida qishloqda faoliyat yuritadigan 700 ga yaqin shifokorlar xizmat uy-joylari bilan ta'minlandi. Tez tibbiy yordam bo'limlari ixtisoslashtirilgan avtotransport vositalari, asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlandi hamda ularga ajratiladigan

dori vositalari hajmi 2 baravarga ko'paytirildi. 2016-yilda 806 ta tez tibbiy yordam stansiyasi va kichik stansiyasi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 2 ming 100 dan oshdi. Respublikamizning barcha hududlarida yuqori texnologiyalar asosida ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatilishini yaqinlashtirish maqsadida o'nlab hududlarda respublika ixtisoslashtirilgan markazlarining bo'limi ochildi.

Sog'liqni saqlash sohasida davlat muassasalari bilan bir qatorda xususiy tibbiyot yo'nalishi ham jadal rivojlanmoqda. Davolash faoliyati turlari 50 tadan 126 taga ko'paytirilib, qator imtiyozlar berilgani tufayli o'tgan yili 634 ta xususiy tibbiyot muassasasi tashkil etildi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Bunga 6,1 trillion so'm yoki 2018-yilga nisbatan 1,5 trillion so'm ko'p mablag' sarflandi.

Respublika markazlarida mingdan ortiq viloyat mutaxassisleri malaka oshirdi, mutaxassislar viloyatlarga borib, ko'riklar o'tkazdi, og'ir bemorlar uchun yuqori texnologik operatsiyalar yoki davolashni amalga oshirdi, shuningdek, bir qator xorijiy mutaxassislar viloyatlarda murakkab operatsiyalar va master-klaslar o'tkazdi. Ijtimoiy ahamiyatga ega dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini uzluksiz va arzon narxlarda ta'minlash maqsadida yangi tizim joriy etilib, ularni xarid qilish uchun Sog'liqni saqlash vazirligiga 500 milliard so'mdan ziyod qo'shimcha byudjet mablag'lari ajratildi. Davlat tibbiyot tashkilotlariga dori vositalari va tibbiy buyumlar sotib olish uchun ajratilgan mablag' miqdori 821 milliard so'mni tashkil yetdi. Bu 2016-yildagidan 3,5 baravar ko'pdir. Shu bilan birga sohaga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiya miqdori oshib bormoqda. 2016-yilda 40,2 million dollar o'zlashtirilgan bo'lsa, joriy yilda bu raqam 93,5 millionga yetdi. Nodavlat tibbiyot muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilib, unga 14

million AQSH dollari miqdorida mablag' yo'naltirildi. O'tgan davr mobaynida xususiy tibbiyot muassasalari yana 400 dan ziyodga ko'payib, ularning soni 3 ming 860 dan oshdi. Sog'liqni saqlash tizimida xususiy sektorni rivojlantirishni takomillashtirishga oid qaror bilan xususiy tibbiyot muassasalari shug'ullanishi mumkin bo'lgan tibbiy ixtisoslik turlari 50 tadan 126 taga ko'paytirildi. Natijada, Toshkent shahrida Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Jizzax shahrida Janubiy Koreya, Farg'ona, Qarshi shaharlarida va Qumqo'rg'on tumanida Hindiston kabi davlatlar bilan qo'shma klinikalar tashkil etilmoqda. Soliq va bojxona imtiyozlari 2022-yilga qadar uzaytirildi, Respublika ixtisoslashtirilgan markazlarning viloyatlardagi filiallari tashkil etilmoqda. Chet el klinikalarida faoliyat yuritayotgan 99 ta vatandoshimiz yurtimizga qaytdi. Davlat rahbarining nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga oid farmoyishi doirasida 8,4 ming nafar nogiron protez-ortopediya mahsulotlari bilan, 9,3 mingdan ziyod ehtiyojmand fuqaro reabilitatsiya texnik vositalari bilan bepul ta'minlandi²³⁸. Shuningdek, 23 mingdan ziyod 1941-1945-yillardagi urush faxriylari, yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarning sanatoriylarda bepul dam olishi ta'minlandi. 2017-yilda nogironlarga 2 trillion 600 milliard so'm pensiya va nafaqalar to'landi kam ta'minlangan, uy-joyga muhtoj 1 ming 200 dan ortiq nogiron fuqarolarga arzon uy-joy ajratish bo'yicha shartnomalar imzolanib, boshlang'ich to'lovlar uchun 22 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Mehnatga layoqati cheklangan nogiron ayollarga 6 ming 500 dan ortiq nogironlik aravachalari, 1 ming 600 ga yaqin eshitish apparatlari bepul berildi. Keng jamoatchilik vakillari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

²³⁸ • Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасини урганиш ва кенг жамоатчилик уртасида тарғиб этишга бағишланган илмий-оммабоп кулланма. –Ташкент: «маънавият», 2019.

to'g'risida"gi Farmon qabul qilindi va bu borada qo'shimcha imtiyoz va imkoniyatlar berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm" va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi, avvalo, mamlakatda farmatsevtika sohasini rivojlantirish, dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, mahalliy dori-darmon vositalari bozorini o'zimizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli preparatlar bilan to'ldirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Farmatsevtika faoliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tashkil etildi²³⁹.

Aholining ehtiyojmand qatlamlarining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi ushbu masalada yetakchi muassasa sifatida belgilandi, unga tegishli vakolat va huquqlar berildi hamda bir qator yangi mexanizmlar joriy qilindi, jumladan: uy-joyi bo'lmagan yoki eski uylarda yashovchi respublikaning har bir tumani va shahridagi o'rta hisobda 5 ta oilaga arzon uy-joylarni berish; respublikaning har bir tumani va shahridan o'rta hisobda 70 tagacha oilalarga har yili maishiy texnika yoki bir boshdan qoramol xarid qilib berish; og'ir kasalliklar mavjud bo'lgan taqdirda tibbiy xizmatlar haqini to'lash va har bir tuman va shahardan o'rta hisobda 6

²³⁹ Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «Нукус-фарм», «Зомин-фарм», «Косонсой-фарм», Сирдарё-фарм», «Бойсун-фарм», «Бустонлиқ-фарм» ва «Паркент-фарм» эркин иқтисодий зоналарини ташкил этиш туғрисида»ги Фармонига ШАПХ, https://nrm.uz/contentf?doc=499797_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidentining_nukus-farm_zomin-farm_kosonsoy-farm_sirdare-farm_boysun-farm_bo%E2%80%98stonliq-farm_va_parkent-farm_erkin_iqtisodiy_zonalarini_tashkil_etish_to%E2%80%98g%98risidagi_farmoniga_sharh

tagacha kam ta'minlangan oilalarga beg'araz yordam ko'rsatish uchun mablag'lar ajratish asosiy vazifa sifatida belgilab olindi. "Muruvvat" va "Saxovat" internat uylarida istiqomat qilayotgan nogironlar va keksalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish maqsadida internat-uylarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha homiylik kengashlari, shuningdek, byudjetdan tashqari internat-uylarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil qilindi²⁴⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-iyuldagi qarori bilan "Ezgu maqsad" xalqaro xayriya jamoat jamg'armasi tuzildi, uning faoliyati aholining ijtimoiy nochor qatlamlari sog'lig'ini himoyalash, yetim bolalar va "Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilariga, "Muruvvat" va "Saxovat" uylarida yashovchilarga yordam ko'rsatishga yo'naltirildi²⁴¹. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-iyuldagi "Mehnat faxriysi" ko'krak nishonini ta'xis etish to'g'risida"gi Qarori muhim voqea bo'ldi. Ushbu mukofot bilan ko'p yillar davomida halol va samarali mehnat qilgan nafaqa yoshidagi yurtdoshlarimiz, shuningdek, hayotini oilalar mustahkamligini ta'minlash ishlariga bag'ishlab, jamiyatda hurmat qozongan onalar taqdirlanadi.

Ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish ijtimoiy sohaning muhim yo'nalishini tashkil etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (20.04), "2017/2018 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish to'g'risida" (05.05), "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-

²⁴⁰ Кариялар ва ногиронларни Саҳоват-мурувват уйларида сакклаш. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-71522-1.html?page=5>

²⁴¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 14 июль 2017 йилдаги «Эзгу мақсад» халқаро хайрия жамоат жамғармасини ташкил этиш тўғрисида»ги Қарори. https://nrm.uz/contentf?doc=488639_2017_vil&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

tadbirlari to'g'risida" (03.06), "Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" (14.08) va boshqa Qarorlari chiqarilganini alohida qayd etish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining joriy yilda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan 70 ga yaqin farmon, qaror va farmoyishi qabul qilindi. Bu tom ma'noda ta'lim tizimidagi o'zgarish va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi. Avvalo, maktabgacha ta'lim sohasini isloh qilish maqsadida 5 yillik alohida dastur qabul qilindi. Joriy yilning o'zidayoq, uch yuzdan ortiq maktabgacha ta'lim muassasalari rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirdan chiqarildi. Davlat byudjeti va xalqaro grantlar mablag'lari hisobiga mingdan ortiq bolalar bog'chasi zamonaviy mebel, rivojlantiruvchi o'yinlar va jihozlar bilan ta'minlandi. Bolalarning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini inobatga olib, bu sohada alohida vazirlik tashkil etildi va uning zimmasiga maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar yuklatildi.

Maktab tizimi qayta ko'rib chiqilib, tajribali pedagog, otanalar va o'quvchilar bilan o'tkazilgan muhokamalar natijasida 9-sinfni tamomlagan o'quvchilar uchun o'qishni ixtiyoriy ravishda kollej va litseyda yoki 10-11 sinflarda davom ettirish imkoniyati yaratib berildi. Yangi o'quv yilida respublika bo'yicha qariyb 70 foiz o'quvchilar maktabda ta'lim olishni davom ettirishni tanladi. 10-sinflarda o'quv jarayonini tashkil etish maqsadida 22 ming nafar yangi o'qituvchi ishga qabul qilindi, yetti tildagi 8,5 million nusxa darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar nashr qilindi. Respublikadagi 486 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, shundan 234 tasida loy-paxsadan qurilgan binolar o'rniga

yangi o'quv binolari qurib berildi, 900 ta maktabning 8 mingtaga yaqin sinfidagi o'quv partalar yangisiga almashtirildi, 400 dan oshiq maktab zamonaviy kompyuter sinflari va interaktiv uskunalar bilan ta'minlandi, nogiron bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 17 ta maktab-internat binolari ta'mirdan chiqarildi.

2019-yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta Ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta'limni rivojlantirish uchun o'tgan yili 19 ta yangi oliy o'quv yurti, jumladan, 9 ta nufuzli xorijiy universitetning filiali ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016-yilga nisbatan 2 barobar ko'p talaba o'qishga qabul qilindi.

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos mutaxassislar tayyorlash maqsadida, tizimni kompleks rivojlantirishga qaratilgan 5 yillik dastur qabul qilindi va unga ko'ra joriy yilda bir qator oliygohlarda qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi hamda zamonaviy kompyuter, o'quv laboratoriyalar bilan jihozlandi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetining binosi yangilanib, foydalanishga topshirildi²⁴.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi a'zolari hamda yetakchi olimlar bilan bo'lib o'tgan yig'ilishda bildirilgan takliflardan kelib chiqib, respublika ilm-fan nufuzini yuksaltirish va rivojlantirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, ilmiy-tadqiqot muassasalarining innovatsion faoliyatini va infratuzilmasini kompleks rivojlantirish 5 yillik dasturi ishlab chiqilib, ularni ta'mirlash, zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash uchun 450 milliard so'm ajratilishi rejalashtirildi.

²⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://www.pv.uz/uz/newspapers/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeva-olij-mazhlisi-2020>

O‘zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish vazirligi va Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etildi. Fanlar akademiyasi maqomi mustahkamlandi, uning Navoiy shahrida bo‘limi ochildi, 9 ta ilmiy muassasalar qayta tiklandi. Xalqaro amaliyotga muvofiq oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tayanch doktorantura va doktorantura tizimi joriy etildi. Yuqori malakali va bilimdon o‘qituvchi-pedagoglar bazasini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab-internati hamda Astronomiya va aeronavtika bog‘i tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyun kuni yoshlar bilan bo‘lib o‘tgan tarixiy uchrashuvi mamlakatda yoshlar siyosati samaradorligini oshirish bilan bog‘liq yangi davrni boshlab berdi. Eng muhim jihat sifatida, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O‘zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan ommaviy harakat – O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi tashkil etildi. Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ta’kidlash joizki, joriy yilning o‘tgan davrida mamlakatda yoshlarga doir davlat siyosati samaradorligini oshirishga doir o‘nlab qonun hujjatlari qabul qilinib, ularda birinchi navbatda, yoshlar tarbiyasini mustahkamlash va ularni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi. Eng avvalo, barcha darajadagi davlat hokimiyati organlarida, mahallalarda yoshlar masalalari bo‘yicha xizmatlar tashkil etildi, 30-iyun mamlakatda “Yoshlar kuni” deb belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat

boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida uning muntazam daromad manbai belgilandi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi, jumladan:

- 2018-yilda kichik biznes korxonalarini tomonidan to'lanadigan yagona soliq to'lovi uchun hisoblangan summaning 8 foizi hisobidan 200 milliard so'm O'zbekiston Yoshlar Ittifoqining rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi; respublikaning tuman va shaharlarida bo'shayotgan kollejlar binolarini O'zbekiston Yoshlar Ittifoqiga beg'araz o'tkazish, ularning negizida barcha qulayliklarga, kutubxona va kitob do'koniga ega bo'lgan Yoshlar markazlari va zamonaviy yoshlar kinoteatrlarini, shuningdek, yoshlarni 6 oygacha bo'lgan muddatda kasb-hunarga to'lovsiz o'qitish markazlarini tashkil etish dasturi tayyorlandi;

- Yoshlar Ittifoqi qoshida turli fanlar, jumladan, chet tillarni o'rgatish, kompyuter dasturlarini tuzish va tadbirkorlik asoslarini o'qitish maqsadida tashkil etiladigan korxonalarini 10 yilga barcha soliqlardan ozod etish, bunda korxonada qoladigan summaning 20 foizini O'zbekiston Yoshlar Ittifoqining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazish belgilandi. Yosh mutaxassis va tadbirkorlar faoliyatini rag'batlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar joriy qilindi, jumladan:

- birinchi marta ishga qabul qilingan yoshlarga daromad solig'i birinchi yil uchun 50 foiz, ikkinchi va uchinchi yillar uchun esa, 25 foizga kamaytirildi;

- ishlab chiqilgan maxsus dasturga ko'ra, 7 mingdan ziyod yosh oilalar o'z shaxsiy uy-joylariga ega bo'ldilar, 2018-yildan esa, barcha yirik shaharlarda – ko'p qavatli, qishloq tumanlarida – 1-2 qavatli namunaviy loyihalar asosida arzon uylarni yoshlar uchun qurish rejalashtirildi;

- O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi tizimida 3 yil davomida faol ishlab kelayotgan xodimlarga uy-joy sotib olish uchun ipoteka kreditining boshlang‘ich to‘lovi O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqining rivojlantirish jamg‘armasidan to‘lanishi belgilandi;

- O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqining rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Ittifoqning faol a‘zosi bo‘lgan oliygoh talabalariga o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan hadda kontrakt miqdorining 35 foizi to‘lab berilishi joriy etildi;

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida “yoshlar etakchisi” vazifasi yuklatilgan xodimga 50 foiz miqdorida har oylik ustama belgilandi;

- O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqining faol a‘zolariga oliy ta‘lim muassasalariga imtiyozli qabul qilish bo‘yicha tavsiyanomalar asosida doimiy yashash joyidagi oliy ta‘lim muassasalarining pedagogika ta‘lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari test sinovlarisiz va kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz davlat grantlari asosida qabul qilinishi belgilandi;

- faol yoshlar uchun “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta‘sis etildi.

Tayanch iboralar:

Agrar sektor, Arzon uy-joylar, yoshlarga oid davlat siyosati, pul-kredit siyosati, tadbirkorlik subyektlari, Savdo-sanoat palatasi, xususiy lashtirilgan korxonalar, xorijiy investitsiya, raqamli iqtisodiyot.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Yoshlarga oid davlat siyosatining takomillashtirilishi
2. Aholi bandligi va real daromadlarini oshirishning asosiy maqsadi nima?
3. Yo‘l-transport, muhandislik kommunikatsiya va ijtimoiy infituzilmani modernizatsiya qilishdagi asosiy vazifalar nimamalardan iborat?

4. Arzon uy-joylar barpo etishning maqsadli dasturlarini amalga oshirishning muhim jihatlari.

5. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning ahamiyati nimalarada namoyon bo'ladi?

6. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning yetakchi omillari nimalardan iborat?

7. Viloyat, shahar va tumanlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish mexanizmlari.

GLOSSARIY

Iqtisodiy plyuralizm (rus.-*ekonomicheskiy plyuralizm*; *ing.- economic pluralism*) – mulk shakllari va xo‘jalik yuritish usullarining turli-tumanligi.

“O‘zbek modeli” (rus.- *“Uzbekskaya model”*; *ing.- the uzbek model*) – Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyotining besh tamoyili.

Menedjer (rus.- *menedjer*; *ing. – manager*) – firma, kompaniya va bankning boshqaruv rahbari, yollanma boshqaruv rahbari.

Ma’naviyat (rus.- *duxovnost*; *ing.- spiritualiti*) – insonlarning ichki, ruhiy olami, iroda va e’tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lgan insoniy fazilatlar majmui.

Baynalmilalchilik – (internatsionalizm, arabcha “baynalmilal” – millatlararo) jahondagi barcha millat va elatlarning tengligi, hamjihatligi nazariyasi va amaliyoti. Baynalmikalchilik umuminsoniy voqea bo‘lib, davlatlar o‘rtasidagi chegaralar va turli to‘siqlar barchaga putur yetkazmasligi kerakligini tasniflaydi.

Birja – (lotincha “bure” – hamyon) standartlar, Ya’ni andozalar yoki namunalar bo‘yicha sotiladigan ommaviy tovarlarning muntazam foydalanadigan savdo shakllaridan biri bo‘lib, tovar birjasi, qimmatbaho qog‘ozlar (aksiyalar, oblegatsiyalar va boshqalar) birjasi, fond birjasi, valyuta, ya’ni chet el pullari birjachi va shu kabi turlarga bo‘linadi.

Bojxona – davlat chegarasidan o‘tadigan va o‘tkaziladigan mol-mulklar hamda transport vositalarini nazorat qiluvchi, shuningdek,

yuk egalaridan belgilangan tartibda (poshlina) va boshqa yig'implarni undiruvchi davlat muassasasi. Bojxona davlatning iqtisodiy manfaatlarini muhofaza qiluvchi organlaridan biridir.

Bozor iqtisodiyoti – jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyoti mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy ishtirokchilariga aylantiradi. Shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilashib borishiga, miqdorning esa ko'payishiga sababchi bo'ladi.

Vijdon erkinligi – bu fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” – BMT tomonidan 1948-yilda qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatdir. Bu hujjatda insonlarning huquq va erkinliklari, hayot kechirishini ta'minlaydigan huquq va erkinliklari belgilangan.

Geosiyosat – (yunoncha “geo”-yer va “politike”-davlatni boshqarish san'ati.) – davlatlar tashqi siyosatini amalga oshirishga geografik omillar (davlat egallab turgan hududning qulayligi yoki noqulayligi, katta yoki kichik ekanligi, tuprog'ining serhosilligi, tog' va dashtu-cho'llarning ko'p-kamligi va h.k.)ga alohida urg'u berish geopolitika nazariyasiga binoan millatlarning va davlatning tabiati, geografik joylashganligiga bog'liq.

Globalashuv – lotincha “glob” so'zidan olingan bo'lib, ayni uni “Dumaloqlashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi.

Global muammolar – ushbu muammolar o'zining dahshatli oqibatlari, jinoyatga keltiradigan zarari bilan boshqa xar qanday muammolardan qisman farq qiladi. Bu muammolarni jamiyat hayotida ro'y beradigan birdan-bir muammoga qiyoslab bo'lmaydi.

Ular o'zining ko'lamini va miqyoslariga ko'ra dunyoning juda katta qismiga yoyilgan bo'lib, ko'pchilik mamlakatlar va xalqlar hayotiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Diplomat – (yunoncha “diploma” – “ikkiga buklangan hujjat” so'zidan olingan va ushbu hujjatni manzilga yetkazuvchi shaxs “Diplomat”, deb ataladi) – davlatning xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi faoliyatini ta'minlash hamda uning milliy manfaatlarini himoyalashni amalga oshirishga qaratilgan rasmiy faoliyati. Diplomatiya – tashqi siyosatning, davlat xalqaro faoliyatining ajralmas qismi.

Despotizm – 1) Davlat tuzilishi tizimi hokimiyatning zo'ravonligiga, xalqning har qanday huquqidan mahrum etilganligini xarakterlovchi cheklanmagan monarxiyaga 2) cheklanmagan hokimiyatga, xalqning erkin irodasini bo'g'ishga. Despot – cheklanmagan va qattiqqo'l hukmdor, zolim.

Yevro – “Yevropa” qit'asi nomining qisqartirilgani bo'lib shu qit'aga tegishli pul birligini mamlakatlarning yagona valyutasidir.

1998-yilda Yevropaning yagona valyuta – iqtisodiy bazasi vujudga keltirildi. Yevropa markaziy banki tashkil qilinib, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining umum pul-kredit siyosati amalga oshirila boshlandi va yanvardan Yevropa ittifoqi bo'yicha yagona pul birligi “Yevro” kiritildi. 2002-yil 1-iyuldan milliy valyutalar muomaladan uzil-kesil chiqarildi.

Yevropa davlatlari iqtisodiy uyushmasi – 1957-yilda Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg davlatlari tomonidan shartnoma asosida tuzilgan iqtisodiy uyushma tashkil topgan kundan boshlab hozirgi kungacha mazkur uyushmaga g'arbiy Yevropadagi 26 davlat a'zo bo'lgan.

Uyushmaning maqsadlariga muvofiq:

A) Davlatlararo bojxona uyushmasi tuzilgan

B) Mehnat kuchi, xizmatlar va kapitallar umumiy bozori tuzilgan.

V) Qishloq xo'jaligi va transportda o'zaro kelishilgan tadbirlar o'tkazilmoqda.

G) Davlatlarning iqtisodiy kamchiligini yaqinlashtirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

D) Uyushma a'zolar bilan boshqa mamlakatlar bilan o'zaro kelishilgan savdo-sotiq siyosatini amalga oshiradilar.

Investitsiya – (lotincha “investicio” – joylamoq) mablag'ni ma'lum boylikni, qo'shimcha daromad olish maqsadida, ishlab chiqarish, yoki boshqa sohaga joylashtirish, mablag' sarflash demakdir, “investitsiya” va “mablag' sarflash” teng kuchli so'zlar deyish mumkin. Tadbirkorlik va boshqa faoliyatlar turlariga qo'shiladigan barcha moddiy hamda nomoddiy boyliklar investitsiya hisoblanadi.

Integratsiya – (lotincha “integratio” — o'zaro moslashish va birlashish) milliy iqtisodiyotlarning sifat jixatdan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiy ravishda birlashishi, bir-biriga o'zaro ta'sir etishi jarayonining kuchayishi. Iqtisodiy integratsiya hamkorlik, iqtisodiy siyosatda ustuvor yo'nalish deb ishlab chiqarish rivojlanishni belgilangan mamlakatlar o'rtasida, asosan ishlab chiqarish alohida yuz beradi va bu jarayonni amalga oshirish maqsadida mamlakatlar qator chora-tadbirlarni qo'llaydilar integratsiya jarayoni rivojlanishi darajasiga bog'liq hamda besh pog'onaga ajratiladi.

5. Erkin savdo mintaqasi;

6. Umumiy bozor;

7. Bojxona ittifoqi

8. Valyuta – iqtisodiy ittifoq;

9. Siyosiy ittifoq;

Mazkur borada Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi (YeIX) Yevropa ittifoqi namuna bo'lib hisoblanadi.

Internet – Yagona tilda muloqot qiluvchi kompyuterlarni butun dunyo bo'ylab (global) tarqalgan tarmog'idir. U xalqaro

televideniya tarmog'iga o'xshash hech kimga tobe emas va uni hech kim to'laligicha boshqarmaydi. Shunga qaramay u shunday bog'langanki, go'yoki u yagona sizga ishlagandek imkon yaratadi. Bugungi kunda internet 190 dan ziyod mamlakatlarda bor va 600 mln. dan ortiq abonentga xizmat qiladi.

Inflyatsiya – (lotincha “inflatio” – shishish, ko'pirgi) narx – navoning tez sur'atlarda – oshishi, real tovarlar takliflarga nisbatan pul massasi ortib, pulning qadr-qiymati va xarid qobiliyatining pasayib ketish. Iqtisodiyotda vujudga keladigan muammolar pul bosib chiqarishni kuchaytirish orqali hal qilinsa yoki qog'oz pullar hajmini o'zgartirmagan holda tovar hajmi kamaysa, inflyatsiya yuz beradi. U aholi turmush darajasining pasayishiga sabab bo'lishdan tashqari korxonalarni ma'lum muddatli investitsiyalar joriy etishga majbur qiladi, ishlab chiqarish salohiyatini va texnikani yangilashga qaratilgan – intilishlarni so'ndiradi. Bu bilan iqtisodiyotning qayta rejalaniishiga to'sqinlik qilibgina qolmay, uning kelajakda rivojlanishining susayishiga olib keladi.

Inflyatsiya turlari – integratsiyalashgan inflyatsiya – iqtisodiy omillar asosida ro'y beradi;

1. **Kredit inflyatsiya** – haddan tashqari kredit ekonomiyasi natijasida vujudga keladi;

2. **O'rmalovchi inflyatsiya** – sust sur'atlarda rivojlanuvchi inflyatsiya;

3. **Qatag'on inflyatsiya** – narxlarning yuqori suratlari ko'tarilishi;

4. **Ma'muriy inflyatsiya** – narxlarni boshqarish yo'li bilan oshirish natijalarida yuzaga keladi.

5. **Giperinflyatsiya** – narxlar o'ta tezlikda o'sadi.

6. **Ijtimoiy inflyatsiya** – narxlar ortadi, atrof-muhit himoya etishga harakat qilinishi natijasida o'sadi. Iqtisodiy tushkunlikning, ishsizlikning ortishiga va ishlab chiqarishning qisqarishiga bog'liq inflyatsiya.

Impichment – ayblash, davlat jinoyatchisini so'zga tortish. Bir qator mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya)

davlat jinoyatchilarini, mansabdor shaxslarni hattoki davlat boshlig'i – Prezidentini konstitutsiyasida ko'rsatilgan moddalarni buzganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish qonun yo'li bilan mustahkamlangan. Mas'uliyat amalga oshirish qiyin qonunchilik palatasi, ushbu masalani ko'rib chiqish esa yuqori palataga yuklatilgan.

Korrupsiya – (lotincha “coruptio” – poraga sotish, aynish, tanazzul) – mansabdor shaxsning boyish maqsadida o'z mansabi bilan bog'liq huquqlarni suiiste'mol qilishdan iborat jinoyat. Korrupsiya butun jahonga yoyilgan jinoyatlardan biridir.

Ko'ppartiyaviylik – hozirgi zamon jamiyatining ajralmas belgisi, uning demokratiyalashuvi darajasining muhim poydevor ko'rsatkichidir. Ko'ppartiyaviylikning o'ziga xos belgisi, bu siyosat xilma-xillik, jamiyatda bir nechta siyosiy partiyaning mavjudligidir. Siyosiy partiyalar fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini parlament davlat hokimiyati, mahalliy vakillik idoralari, aholining o'zini – o'zi boshqarish uyushmalari va hokazolar orqali ifoda etish holda ro'yobga chiqarish maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi kishilar birlashmalaridir.

Liberallashtirish – ijtimoiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, korxonalariga iqtisodiy erkinliklar va xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalaniishi.

Lobbizm – Qonuniyat organida faoliyat ko'rsatuvchi yirik monopoliyalar agentligi yoki tashkiliy guruh bo'lib ular manfaatlarini ifoda etgan qonunlarni, zakazlarini, yordamga beriladigan mablag'ni (subsidiyani) olish yo'lida qonun chiqaruvchilarni majburlash (kerak bo'lsa, sotib olishi) yo'lini tutuvchi tushuncha.

Menejment – (fransuzcha “menagement” – xo'jalik ishlari bilan shug'ullanish) – samarali ishlab chiqarish faoliyatini ta'min etish, manaviy hamda moddiy zaxiralardan foydalanish shakllari, usullari va vositalarining jami. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda menejment ko'p tarmoqli bo'lib, unga o'rganish, o'qish va bilish, menejment sohasidagi ishlarni takomillashtirish juda keng taraqqiy etgan o'quv – o'rganuv yo'nalishidir.

Mentalitet – (lotincha “mens” – aql, idrok) – jamiyat, millat, birlik yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muhim ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati, jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti uning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, diniy e’tiqodni ham qamrab oladi.

Millat – (arabcha “millat” – xalq) – kishilarning yagona holda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

Millatchilik – kapitalizm davrida jahonning mustamlakalar va qoloq o‘lka va ilg‘or davlatlar, ozod xalqlar va mustabidlik iskanjasidagi xalqlarga bo‘linib ketishiga qarshi kurashuvchi demokratik, ma’rifatparvar hamda insonparvar kuchlardan farqli o‘laroq bu ziddiyatlarni o‘z millatini manfaatlarini boshqa millatlar haq-huquqlaridan yuqori qo‘yib hal etishiga intiluvchi siyosiy oqim.

Milliy valyuta – mamlakat hududida barcha tovar va xizmatlar uchun narxlarni ifodalash vazifasini o‘tovchi va qonuniy himoyalangan yagona to‘lov vositasi.

Milliy siyosat – ushbu so‘z birikmasi, odatda, ikki ma’noda ishlatiladi. Birinchisi – muayyan milliy davlatda amalga oshirilgan umumiy siyosat. Ma’lumki, davlat, asosan, milliy negizida shakllanadi, masalan, Fransiyada fransuzlar asosiy millatni va aholining ko‘pchiligini tashkil qilgan davlat. “Milliy siyosat” so‘z birikmasining ikkinchi ma’nosi shundan iboratki, ko‘pchilik davlatlarda, ayniqsa, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga (MDH) mansub mamlakatlarda millatlararo munosabatlarga tegishli siyosat ma’nosini bildiradi. Hozirgi kunda o‘zbeklar O‘zbekiston aholisining deyarli 4/5 qismini tashkil qiladi.

Respublika – (lotincha “res” – ish, faoliyat va “publikus” – jamoatchilik faoliyati) – davlatni boshqarishning asosiy shakllaridan biridir. Boshqarishning Respublika shakli o‘rnatilgan mamlakatlarda davlat hokimiyatining oliy organlari muayyan muddatga saylanib qo‘yiladi.

Referendum – (lotincha “referendum” – e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan xabar) jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qo‘llaniladigan tadbirlardan biri, ba‘zi muhim masalalarni umumxalq ovozigacha, umumxalq so‘roviga, xalq muhokamasiga qo‘yib hal etish. Referendumni davlatning oliy organi o‘tkazadi. Referendum – jamiyatni demokratik asosda boshqarishni ta‘min etishga erishishi uchun olib boriladigan ko‘ppartiyaviylik kurashida erishilgan yutuqlardan biri.

Raqobat – ishlab chiqarish munosabatlarining subyektlari (ishlab chiqaruvchilar, iste‘molchilar, tadbirkorlar, yollanma ishchilar va b.) o‘rtasida qulayroq ishlab chiqarish sharoitiga, arzon ishlab chiqarish resurslari va ishchi kuchiga ega bo‘lishi, unumli texnologiya, ish joyi, yaxshi bozorni qo‘lga olish, umuman, yuqori daromad olish imkoniyati uchun olib boriladigan kurash.

Siyosiy institutlar – Jamiyatning qaror topgan davlat tashkiloti muassasalari va undagi lavozimlar tarkibi tushuniladi. Ular muayyan siyosiy faoliyatni amalga oshiradilar.

Siyosiy partiya – (lotincha “Part”, “Pars” – qism, guruh, eski o‘zbekchada, arabcha “Firka” so‘zi – guruh to‘da) – umumiy g‘oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy maqsadlar asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda unashtiruvchi turg‘un tashkilot, fuqarolik jamiyati bilan davlatni biri-biriga bog‘lovchi eng muhim vositalardan biri, hozirgi zamon huquqiy demokratik davlati hayotining zaruriy omillaridan biri. Siyosiy partiyalar saylov tizimi vositasida markazdagi yoki joylardagi hokimiyatni qo‘lga kiritish yoxud undagi lavozimlarni saylovda olgan ulushlariga qarab mutanosib ravishda taqsimlab olishga harakat qiladi.

Tolerantlik – (lotincha “Tolerantia” – chidamlilik, bag‘rikenglik, sabr-toqatlik, yon berish) – boshqa dinlar ijtimoiy tartiblar milliy va diniy urf-odatlar, o‘zga diniy va siyosiy qarashlar, e‘tiqodlar va turmush tarziga nisbatan sabr bardoshlik, chidamlilik, andishalilik bo‘lish ma‘nolarini anglatadi. Demak, tolerantlik deganda, turli xil dinlarni inkor etmaslik; dinlararo bag‘rikenglik tushuniladi.

Xalqaro tashkilotlar – mustaqil davlatlar yoki milliy jamiyatlar (assotsiatsialar) ning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan birlashmalar, mamlakatlar o‘rtasida ko‘p tomonlama hamkorlik qilishning eng muhim turlaridan biri. Xalqaro tashkilotlarning umumiy xususiyatlari shundan iboratki, ularning vazifalari va faoliyati har bir davlat chegarasidan chetga chiqadi. Xalqaro tashkilotlar BMT terminologiyasida “Hukumatlararo tashkilotlar” deb yuritiladi. Hozirgi kunda jahonda 350dan ortiq hukumatlararo tashkilotlar mavjud.

Sivilizatsiya – (lotincha “Civilis” fuqaroviy, ijtimoiy, ya‘ni harbiylar va dindorlar hukmronligisiz) jamiyatning o‘z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma‘naviy boyliklarni hamda ularni yanada ko‘paytirib, takomillashtirib borish usullarining majmui.

Ma‘rifat (rus.– prosvetlenie; ing.– enlightenment) – ta‘lim tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy va ma‘naviy boyliklarning, ularni yanada ko‘paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui.

Ekstremizm (rus.– ekstremizm; ing.– extremism) – o‘z maqsadi yo‘lida har qanday keskin tadbir-choralar ko‘rishga tarafdorlik.

Siyosiy jarayonlar (rus.– politicheskie protsessy; ing.– political processes) – turli siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar individlar munosabati sifatida namoyon bo‘ladi.

Siyosiy tizim (rus.– politicheskaya sistema; ing.– politic system) jamiyatda davlat hokimiyati va boshqaruvni shakllantirish va amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar harakatlarida o‘z ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Normativ me'yoriy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining buyrug'i bilan tasdiqlangan yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimidagi respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, "Saxovat" va "Muruvvat" uylariga rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi qoidalar to'g'risidagi (ro'yxat raqami 1848, 2008-yil 29-avgust) Qonuni. www.lex.uz/

2. 2014-2018-yillarda O'zbekistonda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalar, bolalar va o'smirlar sog'lig'ini muhofaza qilish borasidagi davlat dasturi to'g'risida. 2014-yil 1-avgust www.lex.uz

3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 11-12-son, 295-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami, 2007-y., 15-son, 150-modda)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi "O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Nogironni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009, 13-son, 140-modda. www.lex.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Reabilitatsion texnik vositalar yoki xizmatni tashkil qilish bilan bog‘liq kompensatsiya to‘lash tartibini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qonun // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009, 25-son, 286-modda. www.lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirligining nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi jihozlanishini yaxshilash bo‘yicha Yaponiya hukumati grantidan samarali foydalanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborotnomasi, 2009, 2-son, 38-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 18-martdagi 75-sonli «Nogironlarni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qonuni // www.lex.uz.

8. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. 2012-yil 14-sentyabr. – www.uza.uz

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2000-2005-yillarda yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004, 3-son, 31-modda.

10. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining «O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish haqidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Buyrug‘i // O‘zbekiston qonun hujjatlari to‘plami, 2011, 28-son, 294-modda; 2015, 11-son, 129-modda.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutqi. // Xalq so‘zi. – 2016-yil 9-sentyabr.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 2-dekabrda «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. www.lex.uz.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoyishi // Xalq so‘zi, – Toshkent, 2017, 2 avgust, – 151(6845).

14. Mirziyoyev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va siyosiy ijrochisi bo‘lishi kerak // <http://www.press-service.uz>.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 7-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Farmoni. www.lex.uz

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi «Har bir oila – tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risida»gi Qarori. www.lex.uz.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 25-yanvardagi “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati tizimida geologiya-qidiruv va qazib olish ishlari samaradorligi, yoqilg‘i materiallari bilan ichki ehtiyojni ta‘minlashning ahvoli, tizimdagi istiqbolli vazifalar ijrosiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi ma‘ruzasi. www.uza.uz.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.12.2018 y. PQ-4087-son «Paxta xomashyosini etishtirishda tomchilatib sug‘orish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori. www.lex.uz.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni. www.lex.uz.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-maydagi “Tabdirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi “Pillachilik tarmog‘ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.

22. O‘zbekiston Prezidenti 2019-yil 24-yanvardagi Parlamentga murojaatnomasi. www.uza.uz.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 6-sentyabdagi 2020-2030-yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi ma‘ruzasi. www.uza.uz.

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yildagi 8-yanvardagi “Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasiga baho berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-sentyabrda “Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.

26. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi. 03.08.2017 www.uza.uz

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son Qarori. www.lex.uz

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi «O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-3212-sonli qarori (Elektron resurs) // www.uza.uz.

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. www.lex.uz.

30. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonun//O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000, 5-6-son. 147-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005, 37-38-son, 277 modda. Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi 2015, 4-sentyabrdagi O‘RQ-394-sonli Qonuniga muvofiq yangi tahrirda qabul qilingan.

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 5 mart “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 20-sentyabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi. www.uza.uz.

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 15-iyun kuni Toshkent shahridagi O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi qurilish maydoniga tashrifidagi nutqi. www.uza.uz.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. www.uza.uz

35. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi (O‘zR Prezidentining 08.10.2019 y. PF-5847-son Farmoniga 1-ilova). www.lex.uz

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 y. n pf-5712 “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.

37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. www.uza.uz.

38. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 24-maydagi O‘zbekiston Milliy universitetida oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuvdagi nutqi. www.uza.uz

39. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qaroriga ilova O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. www.uza.uz.

40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.01.2020. www.uza.uz.

41. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. www.uza.uz.

42. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning BMT bosh assambleyasining 48-sessiyasidagi ma’ruza. www.uza.uz.

43. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh assambleyasining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisdagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2010 9-b.

44. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 23-24 iyun kunlari Ko‘ksaroyda Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida so‘zlagan ma‘ruzasi. www.uza.uz.

45. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. www.uza.uz.

46. BMT Bosh Assambleyasining «Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta‘minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash» rezolyutsiyasi qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2018-yil 22-iyundagi bayonoti. www.uza.uz.

47. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 13-14 iyun kunlari Qirg‘izistonning Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining o‘n to‘qqizinchi majlisida so‘zlagan nutqi. www.uza.uz.

48. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 5-yanvar kuni sog‘liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi. 2017-yil 12-yanvar.

49. 2016-yil 23-24 iyun kunlari Ko‘ksaroyda Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining majlisi. www.uza.uz

50. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 09-12-2017. www.uza.uz.

51. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14-iyul 2017-yildagi “Ezgu maqsad” xalqaro xayriya jamoat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.

52. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-10 iyun kunlari Xitoyning Sindao shahrida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashidagi nutqi. www.uza.uz.

53. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 13-14 iyun kunlari Qirg‘izistonning Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining o‘n to‘qqizinchi majlisida so‘zlagan nutqi. 17-06-2019. www.uza.uz.

54. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 10-11 oktyabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida bo‘lib o‘tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashi majlisida ishtiroki. 11-10-2017. www.uza.uz.

55. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni. www.lex.uz.

56. Sochi shahrida o‘tayotgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi. www.uza.uz.

57. 2019-yil 7-noyabr kuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi xavfsizlik organlari va maxsus xizmatlari rahbarlari kengashining Toshkentdagi yig‘ilishida ishtirok etadigan delegatsiyalar boshliqlarini qabul qilish marosimidagi nutqi. 2019/11/07/ www.uza.uz.

58. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 20-yanvardagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlisidagi hamda 21-yanvardagi Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi ma’ruzalari, 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlis palatalariga murojaatnomasi. www.uza.uz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017, 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

4. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li // O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. Toshkent: O‘zbekiston, 1996, 65 B.

5. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. Toshkent: O‘zbekiston, 1998, 26 B.

6. Islom Karimovning referendum kuni saylov uchastkasida bergan intervyusidan. 2002-yil 27-yanvar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati joriy arxivi, 2002-yil uchun hujjatlar to‘plami, 21-22-betlar.

7. I.A. Karimov. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent:«O‘zbekiston», 2011

8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: 2015.

9. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.

10. Jo‘rayev Narzullo. O‘zbekiston tarix: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob /Mas‘ul muharrir N. Abduazimova. – T.: “Sharq”, 2011, 30-31-b.

11. Shamsutdinov R., Mo‘minov H. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: 2013.

12. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo‘lishi. Q.A.Ahmedovning umumiy tahriri ostida/. – T.: «O‘zbekiston», 1992, 50-bet.

13. Sh. Yo'ldoshev. Mustaqil O'zbekistonning Birinchi Prezidenti. Xalq so'zi. 1992-yil 5-yanvar, yakshanba, 4-son.

14. Xoliqov D. Mustaqillikning dastlabki odimlari. Xalq so'zi. 24-aprel. 1992-yil. №220.

15. A.Rahmonov. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari. Mustaqillik deklaratsiyasi-istiqlolimiz asosi. <http://uza.uz/oz/society/mustaqillik-deklaratsiyasi-isti-lolimiz-asosi-19-06-2018>.

16. Abdullayev Rustamjon, iqtisod fanlari doktori, akademik. Islom Karimov – o'zbek davlatining asoschisi https://uz.fundamental-economic.uz/?page_id=466

17. O'zbekiston ekologik partiyasini tashkil etish tashabbusi bilan chiqmoqdalar. https://www.norma.uz/bizning_sharhlar/O'zbekiston_ekologik_partiyasini_tashkil_etish_tashabbusi_bilan_chiqmoqdalar.

18. O'zbekistonda ekologik partiya tashkil etildi. <https://ekolog.uz/?p=398>

19. Mamasiddiqov M.M.,yu.f.d., professor Sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy asoslari http://constitution.uz/uz/pages/Sud_hokimiyati_mustaqilligi.

20. Qoriyev A. Adolat mezoni. "Xalq so'zi", 2007-yil 1-iyun.

21. Sh. R. Qobilov, dotsent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Taraqqiyotning «o'zbek modeli» va ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlik. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2016-yil 1 www.iqtisodiyot.uz.

22. Nurislom Tuxliyev, iqtisod fanlari doktori, professor. O'zbek modeli – taraqqiyot kafolati. Xalq so'zi. 2013-yil, 12-aprel.

23. Djumamuratova K, Jabborov S, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari. Xususiy lashtirish amaliyotida qonun ijodkorligi "Birja" gazetasi, 9-yanvar 2014-yil.

24. Ergashev Q.E., Zamonov A.T. O'zbekiston eng yangi tarixi: Fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlar uchun o'quv qo'llanma. –T.: 2013.

25. G'afurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Diss.falsafa doktori. –Toshkent: 2017.

26. Ochilov J. Kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari. Iqtisod va moliya 2017. №10.

27. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-75974-1.html?page=10>

28. A.Nabixo'jayev O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bo'lim boshlig'i, i.f.n., dotsent Y. Sherov P. Sulonov. Makroiqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari va ularning O'zbekistondagi dinamikasi. Iqtisod va moliya. №2, 2011.

29. Qodirov A.Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha olib borilayotgan ishlar .<https://clck.yandex.ru/redirect/>.

30. Yusupov D. O'zbekistonda ijtimoiy ishning rivojlanish jarayonlari / Qadriyat. – Toshkent, 2012-yil 4-aprel, №34.

31. Агзамходжаев З. Социальная сфера: адресно на правовой основе / Кадрият. – Тошкент, 1998-йил, 27-апрел, №48. – Б.

32. Гендерное равенство в Узбекистане: факты и цифры 2002-2004. Госкомстат Республики Узбекистан. Статистический сборник (программа развития ООН Узбекистан), –Ташкент, 2005.– Б. 84.

33. Государственный комитет Республики Узбекистан по статисти-ке. Социальное развитие и уровень жизни в Узбекистане. –Ташкент, 2012. – С. 45.

34. O'zbekiston Respublikasida birlamchi nogironlik holati va uning 2013-2015-yillardagi solishtirma ko'rsatkichlari tahlili (tahliliy-statistik qo'llanma). – Toshkent: Istiqbol, 2015, 46 B.

35. Государственная программа по повышению социальной защиты инвалидов и их интеграции в общество на 2011-2015 гг.

36. Qosimov Sh.(Nogironlarni rehabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi bo'lim mudiri) 2012-yil Rehabilitatsiya: Nazariya va

tajribalar amaliyotga / Qadriyat. – Toshkent, 2012-yil 29-sentyabr. 4 B.

37. O‘zbekiston Respublikasida alohida ehtiyojli kishilar uchun faoliyat yuritayotgan muassasa va tashkilotlar haqida ma’lumotnoma, – Toshkent, 2008, 25-26 B.

38. O‘zbekiston nogironlar jamiyati joriy arxiv materiallari. Press reliz, 3-dekabr «Xalqaro nogironlar kuni»ga bag‘ishlangan tadbir va matbuot-anjumaniga tayyorlangan ma’ruza, – Toshkent, 2012-yil 3-dekabr.

39. Saidov A.X., To‘rayev A.T. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»ni faol amalga oshirishda jamoat fondi va parlament komissiyasi faoliyati. (grafik va statistik raqamlar). – Toshkent: ARTFLEX, 2015, 44 B.

40. O‘zbekiston Respublikasida alohida ehtiyojli kishilar uchun faoliyat yuritayotgan muassasa va tashkilotlar haqida ma’lumotnoma. – Toshkent: 2008, 25 B.

41. Saidov O. Sog‘lom tanda – sog‘ aql / Qadriyat. – Toshkent, 2013-yil 19-yanvar. – №3 2 B.

42. Zufarov Y. Ijtimoiy himoyaning muhim kafolati / Qadriyat. – Toshkent, 2012. – №12-14. 3 B.

43. Qo‘shoqov T. / Qadriyat. – Toshkent, 2013-yil 22-aprel. – №14-16 3 B.

44. T. Fayzullayev, A. Sarimsoqov. Mustaqil O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Namangan, 2013 185 b.

45. Akbarov R. Kelajakka umid bilan (O‘zbekiston nogironlar jamiyatining 2-qurultoyi) / Qadriyat. – Toshkent, 2001, 1-dekabr, №35-40(150-155). 2 B.

46. Хидирова Б. Не только лечение но и реабилитация / Вечерный Ташкент. – Toshkent, 2003-yil 2-dekabr, №233(10.036).

В. 3.

47. Jumaniyozov D. Yuksak malaka va shunga yarasha muolaja / Qadriyat. – Toshkent, 2011, 8-yanvar. – №1.

48. Inoyatov A.A. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta’minot huquqi: Darslik. –Toshkent, TDYUI, 2005, 11 B.

49. Госкомстат Узбекистана. Узбекистан в цифрах. Статистический сборник. – Ташкент, 2010 47 С.

50. Всемирная Организация Здравоохранения (ВОЗ). Мировая статистика здравоохранения. – Россия, 2013 32 В.

51. Inamova.S. Sog‘lom avlod-sog‘lom kelajak// Sog‘lom avlod uchun. –Toshkent: 2014. №11. 6 B.

52. Soliyev A. Nogironlarni rehabilitatsiyasi yo‘lida./ Qadriyat. – Toshkent, 2012-yil 12-aprel. 2 B.

53. O‘zbekiston ayollari va erkaklari. Statistik to‘plam – Toshkent, 2012 75 B.

54. Шербакова Е. Демосков Виклий. Евроазиатский демографический барометр. Институт демографии государственного Университета-высшей школы экономики.

21-iyun-31 iyul, 2010. – №427-428.

55. Gafarali M.S., Kasayev A.G. Rivojlanishning o‘zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. – T.: “O‘zbekiston”, 2000.

56. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Axborot xizmati. **Ulkan maqsadlar ostonasida** .https://www.medicalexpress.uz/r/public_health2/id/819/

57. M. Po‘latova “Oila davrasida” gazetasi <https://uza.uz18-10-2019>.

58. Qoraboyev U. O‘zbekiston madaniyati. –Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2011, 149 B.

59. Tojiaxmedova M. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy va ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi. XXI mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya internet-konferensiya. 30–31 marta, 2014.

60. T.Fayzullayev, A.Sarimsoqov. Mustaqil O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Naman-gan, 2013, 185 b.

61. Usmonov M. Ma'naviy va madaniy merosni asrashning huquqiy asoslari. O'zDSMI xabarlarlari – 2018/1(5) 4.

62. Xalq ta'limi tizimida alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining tashkil etilishi. Ma'lumotnoma, 18 B.

63. Saidova.G. O'zbekistonda ta'lim: talab va taklif mutanosibli. – Toshkent, 2007-2008, 28 B.

64. Xo'jamberdiev.M. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari // Demokratlash-tirish va inson huquqlari. -3/2013, 42 B.

65. Umarova.N. Alohida ehtiyojli bolalar uchun maxsus muktabdagi ta'lim. Dekabr 2014 <http://turkiston.uz/index.php/dolzarbmavzu/97-2012-01-18-12-15-38.html>

66. Равные права- равные возможности. –Tashkent: SIM-ASIA, 2011, 41 S.

67. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi Axborot xizmati. <http://muruvvat.uz/index.php/uz/yangiliklar/item/33>.

68. Shomahmudova.R.Sh. Inklyuziv ta'lim (xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar). – Toshkent, 2011, -B.5, Teng huquqlar-teng imkoniyatlar. –Tashkent: SMI-ASIA? 2011, 128 B.

69. To'xtashev.S. Maxsus maktab-internat bolalarida tarbiyaviy ishlarni olib borishning korreksion xususiyatlari// Maktab va hayot. 2010. -№6. –B.9.Mingyillik rivojlanish maqsadlarining ma'ruzasi. O'zbekiston, 2006, 120 B.

70. Innovatsiya vazirligi huzurida yoshlar akademiyasi tashkil etiladi/ <https://mininnovation.uz/uz/news/innovatsiya-vazirligi-huzurida-yoshlar-akademiyasi-tashkil-etiladi>

71. «Maktablar uchun mablag'ni ayamaymiz» – Prezident ta'lim ma'alulariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. 23.08.2019 <https://kun.uz/news/2019/08/23/maktablar-uchun-mablag-ni-ayamaymiz-prezident-talim-masalalariga-bagishlangan-videosektor-otkazdi>

72. Shakirjanova K.T. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi. Zamonaviy ta’lim / 2016, 9.

73. Ilm-fan – mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri. <http://med.uz/ses/khorazm/uz/news/detail.php?ID=35778>

74. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyati bo‘yicha hisobot (2018-yilning 29-noyabr sanasiga qadar).

75. Yunusova M., Mo‘minov X. O‘zbekistonda geosiyosat va geosiyosiy vaziyat asoslari. –Andijon, 2009.

76. Hamidova A.M. O‘zbekiston Respublikasining BMT bilan hamkorligining xalqaro-huquqiy jihatlarini. –Toshkent: 2008.

77. Saidov A. Insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlar. O‘zbekiston Respublikasini YeXHTga a‘zolicligining 20 yilligiga bag‘ishlanadi. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2012, 368 b.

78. Бабаходжаев М. Суверенный Узбекистан: вопросы внутренней и внешней экономической политики. – Т.: «Ташгосив», 2005.

80. O‘zbekiston Respublikasining MDHdagi ishtiroki. <https://mift.uz/uz/menu/uchastie-respubliki-uzbekistan-v-sng>

81. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ma’lumotlari asosida tayyorlangan. <http://www.biznes-daily.uz/ru/mening-mulkim/53144-xs>

82. 2017-yil – shiddatli islohotlar yili. – T.: “Adolat”, 2017, 96 b.

83. Alimjanova D, “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi direktorining o‘rinbosari. Har bir oila muqaddas qo‘rg‘onga aylanadi.

84. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma. –Toshkent: «Ma’naviyat», 2019.

85. Qariyalar va nogironlarni Saxovat-muruvvat uylarida saklash. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-71522-1.html?page=5>

86. Parlament tarixi. <http://parliament.gov.uz/uz/about/history/index.php>

87. <http://www.uzavtoyul.uz/cy/post/shhtning-ostona-sammiti.html>

88. <https://kun.uz/news/2019/11/03/shht-hukumat-rahbarlari-kengashining-toshkent-majlisida-qanday-masalalar-ko'rildi>

89. <http://uza.uz/oz/society/ar-bir-oila-mu-addas-r-onga-aylanadi-24-01-2020>

90. <http://vetgov.uz/uz/vangiliklar/riz-r-zimiz-bunvedkori-bilgan-ishlo-kh-zhaligi-kho?print=y>

Dissertatsiyalar

1. Умурзаков Б.Х. Совершенствование системы социальной защиты нетрудоспособных слоев населения Республики Узбекистан в условиях формирования рыночной экономики. Дисс... канд.экон.наук. –Tashkent, 1995.

2. Xalikova L.N. Ijtimoiy himoya sotsial-iqtisodiy munosabat sifatida. Diss...iqtisod fan. nomzodi. –Samarqand, 2000.

3. Tojiboyev M.T. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida milliy ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi. Diss... tarix fanlari nomzodi. –Andijon, 2001.

4. Muxammedjonov O.Z. O'zbekiston Respublikasida ikki palatali parlament faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish. Diss. yuridik fanlari doktori. –Toshkent, 2004.

5. Muxammedjonov O.Z. O'zbekiston Respublikasida ikki palatali parlament faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish. Diss. yuridik fanlari doktori. –Toshkent: 2004.

6. Qudratxo'jayev Sh.T. O'zbekiston professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi ushbu qadriyatlari. Diss... siyosiy fanlari nomzodi.-Toshkent, 2005.

7. Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurilishida sud hokimiyatining o'rni. Diss...yuridik fanlari nomzodi. –Toshkent: 2005.

8. Musayeva M.N. Jamiyatni demokratlashtirishda ikki palatali parlamentning ahamiyati.diss...siyosiy fanlar nomzodi. –Toshkent: 2007.

9. Sharipov M.Sh. Markaziy Osiyo xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashda Shanxay hamkorlik va xavfsizlik tashkilotining ahamiyati.diss...siyosiy fanlari nomzodi. –Toshkent, 2007.

10. Rahimov.B.S. O'zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.diss...tarix fanlari nomzodi. –Toshkent, 2008.

11. Po'latova M.S. Sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. –Toshkent, 2008.

12. Xashimxanov A.M. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquq ijodkorlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari. Diss...yuridik fanlari nomzodi. –Toshkent, 2008.

13. Yusupov M.S. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. –Toshkent, 2008.

14. Abdullayeva Z.A. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish tarixi.(1991-2006yy). Diss... tarix fanlari nomzodi. –Toshkent: 2009, 12-bet.

15. Tillayev E.R. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar(Janubiy viloyatlar misolida. Diss... tarix fanlari doktori. –Toshkent, 2010.

16. Topildiyev S.R. O'zbekistonda agrar munosabatlar rivojlanishining tarixiy jihatlari. Diss.iqt.fanlari nomzodi. –Toshkent, 2011.

17. Xasanov A.A. O‘zbekistonda parlament nazorati institutini demokratlashtirish jarayoni. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2017.

18. Musayev O.R. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. diss...falsafa fanlari falsafa doktori. – Toshkent, 2017.

19. Nayimov O.M. parlamentlararo hamkorlik xalqaro maydonda O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ilgari surish va amalga oshirish vositasi sifatida. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. –Toshkent: 2018.

20. Yuldashev D.T. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss...–Toshkent: 2019.

Arxiv hujjatlari

1. O‘ZMDA, M.44-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 25-yig‘ma jild. 13-varaq.
2. Sirdaryo viloyat Davlat arxivi, 322-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 61-yig‘ma jild. 18-varaq.
3. O‘zMDA, M.110-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 335-yig‘ma jild. 7-varaqning orqasi.
4. O‘ZMDA, M.110-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 335-yig‘ma jild. 9-varaqning orqasi.
5. O‘ZMDA, M.110-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 2137-yig‘ma jild. 1-varaq.
6. O‘zMDA, M.37-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 4453-yig‘ma jild. 8-varaq.
7. O‘zMDA, M.37-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 4453-yig‘ma jild. 3-varaq.
8. O‘zMDA, M.37-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 4453-yig‘ma jild. 4-varaq.

9. O'zMDA, M.37-jamg'arma, 1-ro'yxat, 4460-yig'ma jild. 248-varaq.

10. O'zMDA, M.37-jamg'arma, 1-ro'yxat, 4460-yig'ma jild. 249-varaq.

11. O'RITTXMDA. M.372-jamg'arma, 1-ro'yxat, 50-yig'ma jild. 28-varaq.

12. УзМДА Ф.М-26, оп.1, д.219. сводный статитический отчёт МНО РУз и статитические отчеты облУно о школах для детей с недостатками умственного и физического развития на начало 1992-1993 уч. года. –В.12.

13. УзМДА Ф.М-26, оп.1, д.220. сводный статитический отчёт МНО РУз и статитические отчеты облУно о школах для детей с недостатками умственного и физического развития на начало 1992-1993 уч. года. –В.18.

MUNDARIJA

KIRISH	3
--------------	---

1-BO‘LIM: O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO‘LGA KIRITILISHI. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT QURISH VA FUQAROLIK JAMIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH

1-BOB: O‘zbekistonning davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati	7
1.1. XX asrning so‘nggi yillarida dunyoda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi sari dastlabki qadamlar	7
1.2. I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi. Siyosiy islohotlar	14
2-BOB: O‘zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlashning siyosiy – huquqiy asoslari.....	20
2.1. Ko‘ppartiyaviylik tizimiga asos solinishi. O‘zbekiston parlamenti. Ikki palatali parlament	20
2.2. Vazirlar Mahkamasi, uning ijro etuvchi hokimiyatning muhim bo‘g‘ini sifatidagi o‘rni. Xalq xo‘jaligi tizimi boshqaruvidagi islohotlar	35
2.3. Sud hokimiyati islohotlari. Mahalliy davlat hokimiyati organlari.....	39

2-BO‘LIM: MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIIY-IQTISODIY, MA‘NAVIY-MADANIY TARAQQIYOT. O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

3-BOB. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ..	52
3.1. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”. Iqtisodiy islohotlar	52
3.2. Xususiylashtirish. Ko‘p ukladli iqtisodiyot. Tadbirkorlikning rivojlanishi	58
3.3. Iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o‘zgarishlar, bozor intratuzilmasining shakllanishi	66
3.3. Agrar islohotlar	73

4-BOB. Iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi. Kuchli ijtimoiy siyosat.....	80
4.1. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholining ijtimoiy ahvoli hamda kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi	80
4.2. O'zbekistonda aholi salomatligini mustahkamlash va tibbiyot sohasidagi islohotlar.....	95

3-BO'LIM. MA'NAViy-MADANIY TARAQQIYOT

5-BOB. Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi.....	113
5.1. Tarixiy xotiraning tiklanishi va milliy o'zlikni anglash.....	113
5.2. O'zbekistonda diniy qadriyatlarning tiklanishi va bu boradagi mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar.....	122
6-BOB. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Jismoniy tarbiya va sport.....	128
6.1. Mustaqillikning dastlabki yillardagi ta'lim sohasidagi islohotlar Ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi.....	128
6.2. Ta'lim sohasidagi islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilishi. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil topishi kollej va litseylarning isloh qilinishi.....	137
6.3. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi	146
7-BOB. Mustaqillik yillarida fan va madaniyatning rivojlanishi.....	155
7.1. O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanishi va innovatsion ilmiy ishlanmalarning yangi bosqichga ko'tarilishi.....	155
7.2. O'zbekistonda musiqa va teatr san'atining rivojlanishi.....	162
7.3. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishda besh tashabbusning tutgan o'mi	164

4-BO'LIM. O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

8-BOB. Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi	168
8.1. O'zbekiston Respublikasining tinchliksevar tashqi siyosati asoslarining yaratilishi, uning tamoyillari.....	168
8.2. BMT, EXHT bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi	171
8.3. Shanxay hamkorlik tashkiloti va O'zbekiston	177
8.4. O'zbekiston va MDH.....	188

**5-BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
SH.M.MIRZIYOYEVNING
IJTIMOIY-IQTISODIY, MADANIY-MA'RIFIY
JARAYONLARDA AMALGA OSHIRAYOTGAN
ISLOHOTLARI**

9.10011 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirilishi.....	197
9.1. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning strategik maqsadlari va taraqqiyotining yangi bosqichi.....	197
9.2. Agrar sektorni modernizatsiyalash va intensiv rivojlantirish va qishloq xo'jaligida eksportbop mahsulotlar yetishtirish tizimining yo'lga qo'yilishi.....	206
9.3. Arzon uy-joylar barpo etishning maqsadli dasturlarini amalga oshirishning muhim jihatlari va yoshlarga oid siyosatni ro'yobga chiqarishning davlat dasturi.....	210
GLOSSARIY.....	221
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	230
Normativ me'yoriy hujjatlar.....	230
Foydalanilgan adabiyotlar.....	238
Dissertatsiyalar.....	245
Asxiv hujjatlari.....	247

XOLIKULOVA XULKAR YULDASHEVNA

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING
IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYOSIY,
MA’NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTI
(O‘quv qo‘llanma)**

Toshkent –
«Innovatsion rivojlanish
nashriyot-matbaa uyi» – 2021

Muharrir: N.Abdullayeva
Tex. muharrir: A.Moydinov
Musavvir: A.Shushunov
Musahhih: L.Ibragimov
Sahifalovchi: Sh.Sirojiddinov

Nashriyot litsenziyasi AI № № 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907
10.08.2020.

17.12.2021-yilda bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. «Times New Roman» garniturasida.

Shartli bosma tabog‘i 16,75. Nashr bosma tabog‘i 15,75

Adadi 300 nusxa. Buyurtma raqami № 308. Bahosi shartnoma asosida.

«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.

100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 7-uy.

Tel.: +998999209035 e-mail: nashr2019@inbox.ru



ISBN 978-9943-7685-9-8



9 789943 768598